



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ХУЗУРИДАГИ
ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ
АКАДЕМИЯСИ



ЎЗННТМА

18 MAY - TOSHKENT

2021

SOTSILOGIYANI O'QITISH VA SOTSIAL TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI

MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

II QISM



<https://nuu.uz>

Toshkent - 2021

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
«SOTSILOGIYA» KAFEDRASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**«IJTIMOIY FIKR»
RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O‘RGANISH MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI
MILLIY ASSOTSIATSIYASI**

**SOTSILOGIYANI O‘QITISH VA SOTSIAL TADQIQOTLARNI
TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI**

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

2021-yil 18-may

II QISM

Toshkent - 2021

Sotsiologiyani o‘qitish va sotsial tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. II qism. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 180 b.

Mas’ul muharrir: **K.Kalanov** – sotsiologiya fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar: **A.Umarov** – sotsiologiya fanlari doktori, professor
N.Aliqoriyev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati: **A.Xolbekov** – sotsiologiya fanlari doktori, professor
G.Jiyanmuratova – sots.f.f.d. (PhD), dotsent
A.Alikariyeva – sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Konferensiya O‘zbekiston milliy sotsiologiya maktabi rivojiga
ulkan hissa qo‘shgan ustozlarimiz:

akademik	Ubaydullayeva Ra’no Axatovna
professor	Atamirzaev Ozod Bobomurodovich
professor	Ganiyeva Ma’rifat Xabibovna
dotsent	Qayumov O‘tkir Kattajonovich
dotsent	Agzamxo‘jayev Ijod Xamidullayevichlarning

yorqin xotirasiga bag‘ishlanadi

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir.

KIRISH SO‘ZI

Inomjon MAJIDOV

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar, ilmiy konferensiya ishtirokchilari!

O‘zbekiston Milliy universitetida “Sotsiologiyani o‘qitish va sotsial tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilayotgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi mamlakatimizda muhim o‘rin tutgan fan va ta‘lim sohasining dolzarb mavzularidan biriga bag‘ishlangan.

E‘tiborli jihati ushbu anjuman mamlakatimiz mustaqilligining 30 yillik yubileyi nishonlanayotgan bir davrda o‘tayotganligi, ijtimoiy sohaga doimo alohida e‘tibor qaratiladigan yurtimizda ilmiy o‘ziga xosligi bilan anjuman salohiyatini yana bir karra oshiradi, degan umiddaman.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

“Sotsiologiya” atamasiga har birimiz hech bo‘lmasa bir marta duch kelganmiz. Zamonaviy hayotimizda bu atama o‘z nomi bilan aytganda, hammaga tanish. Televidenie, radio hamda gazetalar aholi orasida turli ijtimoiy muammolar bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalarning natijalarini doimiy e‘lon qilib boradigan bo‘ldi.

Dunyoda parlament, prezident boshqaruv institutlari va boshqa turli xil idora, tashkilot, muassasa va ilmiy izlanish markazlarining ijtimoiy xizmat bo‘linmalari bugungi kunda eng muhim ijtimoiy-siyosiy muammolar to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganib boradilar.

Oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim sifati va kasbiy faoliyatni baholash uchun “Talabaning ijtimoiy qiyofasi”, “O‘qituvchi talaba nigohida” deb nomlangan so‘rovnomalari o‘tkazilib, uning natijalari asosida istiqbol rejalar amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Mamlakatimizda sotsiologiya sohasining amaliy rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi, Ijtimoiy tadqiqotlar instituti kabi ilmiy tashkilotlarning olib borayotgan ishlari tahsinga sazovordir.

Aynan, ularning tadqiqot natijalari bugungi kunda ilmiy tadqiqotchi va izlanuvchilar uchun ko‘p hollarda statistik ma‘lumotlar bazasini o‘tab bermoqda. Bu esa tabiiyki, zamonaviy milliy sotsiologiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, demografik masalalarning yechimini topishda obyektiv yondashuv olib borayotganligidan dalolat beradi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, ma‘ruzamni yakunlar ekanman, uning so‘nggida barcha so‘zga chiquvchilar, ilmiy munozarada ishtirok etuvchilar va sho‘balarda qatnashuvchi mutaxassislariga tez o‘zgaruvchan va raqamli dunyoga aylanib borayotgan bugungi jamiyatda sotsiologiyani o‘qitish va amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari yechimini topishlarida omadlar tilab qolaman.

E‘tiboringiz uchun rahmat!

I SHO‘BA. SOTSILOGIYA ZAMON VA MAKONDA: SOTSIAL XOTIRA, INTELLEKTUAL MADANIYAT VA INSON OMILI

RAQAMLI SOTSILOGIYANING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

*Ernazarov B.O. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Isomiddinova I.U. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Mustaqil O‘zbekistonda kundan kunga texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Juda tez suratlarda bir-biridan mukammal va takomillashgan texnologiyalar kirib kelmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotini texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda 2019-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida¹ mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etish zarurligini ta’kidladilar. Hozirgi kunda hayotning har jabhasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. Sotsiologiya sohasida ham Internetning ahamiyati katta. U ishimizni birmuncha yengillashtiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Axborot texnologiyalari rivojlanganligi tufayli kiber so‘zi raqamli so‘ziga almashtirilmoqda. “Kiber” so‘zi 1990-yillar va 2000-yil boshlaridan buyon qo‘llaniladi². “Raqamli” so‘zi esa yaqindagina kirib keldi.

Raqamli sotsiologiya – bu kundalik hayotning bir qismi sifatida raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni va ushbu turli xil texnologiyalar odamlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy munosabatlari va o‘zini o‘zi boshqarish konsepsiyasiga qanday hissa qo‘shishini tushunishga qaratilgan subintizom. Raqamli sotsiologiya to‘g‘risida hozircha yagona metodologiya va nazariya mavjud emas. Raqamli sotsiologiya zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalaridan tadqiqot usullari sifatida foydalanadi. Raqamli sotsiologiyaga oid bo‘lgan birinchi ilmiy maqola 2009-yilda yozilgan.³ Raqamli sotsiologiya kibersotsiologiya bilan deyarli bir xil vazifa bajaradi. Sotsiolog Lupton tomonidan raqamli sotsiologiyaning to‘rt jihati aniqlangan.⁴

Professional raqamli amaliyot: professional maqsadlar uchun raqamli media vositalaridan foydalanish, tarmoqlarni yaratish, elektron profil yaratish, tadqiqotlarni ommalashtirish va almashish. Sotsiologik bloglar soni tobora ko‘payib bormoqda. Masalan, Twitterga ko‘proq sotsiologlar tashrif buyirishmoqda .

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://www.norma.uz/muhim_voqealar/Uzbekistan_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoyevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi

² Lupton,d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002. <http://hdl.handle.net/2123/8621>

³ Wynn,J.(2009) Raqamli sotsiologiya: sohada va sinfdagi paydo bo‘lgan texnologiyalar. Sotsiologik forum, 24(2), 448-456

⁴ Lupton,d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002. <http://hdl.handle.net/2123/8621>

Raqamli foydalanishning sotsiologik tahlillari: odamlarning raqamli axborot vositalaridan foydalanishda o'zini anglash tuyg'usi, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ijtimoiy faollik raqamli sotsiologiyaga e'tiborni qaratdi. Masalan, ko'plab sotsiologik maqolalar Twitter kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanishda paydo bo'ldi, YouTube va Facebook faol sabablar va siyosiy harakatlarni tashkil etish to'g'risida xabarlarni etkazish vositasi sifatida xizmat qilib keldi.

Raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish: ijtimoiy tadqiqotlarning sifatini oshirish uchun raqamli ma'lumotlardan keng foydalanish. Raqamli sotsiologlar odamlarning raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni tekshirishda turli xil yondashuvlardan foydalanadilar, ham sifatli, ham miqdoriy. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi sotsiologlarga ijtimoiy hodisani o'rganishning yangi usulini taqdim etdi. Ijtimoiy media tarmoqlari Facebook va Twitter, tadqiqot uchun tobora ko'proq yuklab olinmoqda. Masalan, Twitter ma'lumotlari tadqiqotchilarga Twitter API orqali osonlikcha taqdim etadi. Twitter tadqiqotchilarga demografik ma'lumotlar, vaqt va joylashuv ma'lumotlari va foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlardan tadqiqotchilar foydalanuvchi kayfiyati va ular bir-biri bilan qanday aloqa qilishlari to'g'risida tushuncha olishadi.

Tanqidiy raqamli sotsiologiya: ijtimoiy va madaniy nazariyadan xabardor bo'lgan raqamli axborot vositalarining refleksi va tanqidiy tahlilini o'tkazish. Raqamli sotsiologiyaning o'rni va ahamiyati hozirgi umumiy ijtimoiy tadqiqotlar doirasida biroz past.

Tadqiqotlarda raqamli sotsiologiyani qo'llashning afzalliklaridan biri u qo'shimcha mablag' talab qilmaydi. Bir vaqtning o'zida bir nechta usullarni qo'llash mumkin. Lapton raqamli sotsiologiyani professional raqamli amaliyotlar nuqtai nazaridan belgilaydi.

Bugungi kunda raqamli sotsiologiyani rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Raqamli sotsiologiyaning yuksak pog'onalariga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratilishi zarur. Raqamli sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlarni hozirgi tadqiqot tendensiyalarining asosiy masalasi sifatida rivojlantirishni yo'lga qo'yish darkor. Jamiyatdagi muammoli vaziyatlarning yengillashishida sotsiologik tadqiqotlarning hissasi juda kata. Har bir tadqiqotni raqamli sotsiologiya bilan boyitsak, tadqiqotlarimizning sifati anchagina oshadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, hozirda tadqiqotlarning katta qismi virtual olamda olib borilmoqda. Shu boisdan, tadqiqotlarimiz rivoji uchun raqamli sotsiologiyani takomillashtirish foydadan holi bo'lmaydi.

MARKAZIY OSIYO – O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI

Eshonqulova N.S. – O'zMU 2-bosqich talabasi

Markaziy Osiyo – Osiyo materigining ichki qismida joylashgan tabiiy mintaq. Maydoni 6 mln. km/kv. Markaziy Osiyo deganda, sobiq ittifoq

parchalangandan keyin mustaqillikka erishgan beshta respubliklar: Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston nazarda tutiladi.

Markaziy Osiyo atamasi 1992-yilda besh davlat rahbarlari rasmiy uchrashuvida qabul qilingan. Hozirda bu atama dunyo hamjamiyati tomonidan ham qabul qilingan. Hatto, aksariyat tashkilot va tadqiqot institutlarida, Markaziy Osiyo bo'limlari ochilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimiz xalqaro jarayonlarda yanada faol ishtirok etib, mintaqaviy va global muammolarni hal qilishda dadillik bilan faol harakat qilmoqda. Xususan, yaqin qo'shnilarimiz Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan 2017 – 2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 5-bo'limida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverentitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimiz xalqaro nufuzini mustahkamlash”,¹ vazifasi brlgilangan. Ushbu strategiyaning qabul qilinishi O'zbekiston siyosatining yangi bosqichga ko'tarilganligiga asos bo'lib xizmat qildi.

2017-yil 11-avgust kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan “Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi” nomli xalqaro anjumanning tashkil etilishi mamlakatimiz tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining ahamiyatli ekanligini yana bir bor ta'kidladi. Anjuman O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi, BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) loyihalari koordinatori ofisi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Anjumanda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Markaziy Osiyoning mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangani davlatimizning yaqin qo'shnilar bilan do'stlik, o'zaro manfaat va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan munosabatlar o'rnatishga samimiy intilishi ekanini alohida ta'kidladi”.²

Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega. O'zbekiston, shubhasiz, mintaqani barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirishdan manfaatdor. Mamlakatimiz taraqqiyotining chegaralarimiz xavfsizligidan tortib suv resurslarini oqilona taqsimlashgacha bo'lgan barcha muhim hayotiy masalalarini hal etish mintaqamiz bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, xavfsizligi ta'minlangan Markaziy Osiyo O'zbekiston uchun eng asosiy maqsaddir. Transport-kommunikatsiya va energetika sohalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarni qo'shni mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilmasdan, ularning yuksak darajada

¹. 2017 – 2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi. 2017-yil 7-fevral

². 2017-yil 11-avgust kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan “Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi” nomli amjumandagi nutqidan.

integratsiyalashuvini ta'minlamasdan amalga oshirib bo'lmashligi hammamizga ma'lum.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki qadriyatlari mushtarak yagona madaniy makondir. Mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarni umumiy ma'naviy qadriyatlar va o'tmish, o'xshash milliy an'ana va urf-odatlar, asrlar davomida shakllangan mentalitet birlashtirib turadi. Ushbu mushtaraklik mintaqaviy hamkorlik uchun mustahkam va ishonchli poydevordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 72 sessiyasida minbardan turib, O'rta Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish, Orol muammosini hal qilishda umumjahon ishtiroki, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va butun dunyo yoshlarini terrorchilik xavfidan asrab qolish kerakligi haqida gapirdi.

Xususan, Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda O'zbekistonda muhim iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilayotgani, O'zbekiston O'rta Osiyo mamlakatlari bilan do'stona qo'shnichilik munosabatlari rivojlantirishga harakat qilinayotgani haqida so'zlab berdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hudud xavfsizligiga tahdid solayotgan muammolar Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti ma'muriyatining Afg'oniston bilan qo'shni mamlakatlar bilan kelishgan holda tinchlik o'rnatish tashabbusini qo'llab quvvatladi.

Shu bilan bir qatorda, Shavkat Mirziyoyev O'rta Osiyoning ekologik muammosi bo'lgan – qurib qolayotgan Orol dengizi borasida ham to'xtalib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti o'zi bilan olib kelgan xaritani namoyish qildi.

Nutqining yakunida mamlakatimiz Prezidenti butun dunyoda ta'lim va o'rganish orqali diniy toqatlilikni oshirishga da'vat qildi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu borada O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi markazi tashkil qilinayotganini alohida ta'kidlab o'tdi¹.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki, Samarqand shahrida 2017-yil 10-11-noyabr kunlari BMT shofeligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzuidagi xalqaro konfrensiyaning tashkil etilganligi; mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi minbaridan bildirilgan hamda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy hamkorliklarni mustahkamlashga yo'naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha muhim amaliy qadamlardan biri bo'ldi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoni osoyishtalik, barqaror taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirish davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Shu bilan bir qatorda. 2017-yil Samarqand shahrida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo rahbarlari maslahat kengashini tashkil etilganligi ham mamlakatimiz va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasida

¹. Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi nutqidan. 2017-yil sentabr

yaxshi qo'shnicilik va hamkorlik munosabtlarining mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O'ZBEKISTONDA SOTSILOGIYANI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI VA MEKANIZMLARI

Jo'rayeva D.B. – O'zMU 1-bosqich talabasi

Sotsiologiyani nega rivojlantirish kerak? Sotsiologiyani rivojlantirish yo'llarida qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

Bunday mavzu haqida gap boshlar ekanmiz, avvalo sotsiologiya terminiga ta'rif berishdan boshlasak. "Sotsiologiya" so'zi lotincha "societas" (jamiyat) va yunoncha "logos" (ta'limot, tushuncha) so'zlaridan olingan bo'lib, jamiyatning paydo bo'lishi, amal qilishi, taraqqiyot hamda sotsial munosabatlar va sotsial birliklar haqidagi fan sifatida ta'riflanadi. Sotsiologiya atamasini ilk bor muomalaga kiritgan sotsiologiya fani asoschisi fransuz olimi Ogyust Kont hisoblanadi. Dastlab bu termin jamiyatshunoslik ma'nosida qo'llanilgan.

"Sotsial" termini ikki xil ma'noda ishlatiladi: keng va tor. Keng ma'noda sotsial jamiyatni ifodalaydi, hamda ijtimoiy degan tushunchaga deyarli mos keladi. Tor ma'noda esa, bu tushuncha insonlar o'rtasida yuzaga keladigan turli xil aloqalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sotsiologiya fanini antik davrlarda ham mavjud bo'lgan, desak hech shubhasiz adashmagan bo'lamiz. O'sha davrda faqatgina sotsial qarashlar ustuvor bo'lgan holos, fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, o'sha davrlarda ham "jamiyat" ko'plab mutafakkirlar e'tiborida bo'lgan. Shu jumladan, "antik davrda jamiyatning kelib chiqishi va sotsiallikning mohiyatini talqin qilishga doir ikkita an'anaviy qarashlar shakllangan edi. Ularning birinchisiga muvofiq jamiyat – bu tabiiy ravishda paydo bolgan insoniy birlik; ikkinchisiga muvofiq esa, inson – o'z tabiatiga ko'ra va boshdan boshlab sotsial mavjudotdir va alturizimga (o'zgalari uchun g'amxo'rlik qiladigan, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan kechishga tayyor bo'lgan odamning fazilati) berilgan zotdir; u asalari va chumoli kabi jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi".

Sotsiologiya fanining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak ko'plab mutafakkir olimlarning ham jon berib bu fan haqida qayg'urishi, yuksaltirish uchun harakat qilib kelishganini ko'ramiz. Chunonchi bu fan dunyoda tanilgan bo'lsada, xali O'zbekistonda u darajada tanilib ulgurilmagan. Bunga aynan bir misol keltirish mumkin. Men ilk bor satsiologiya sohasini eshitganimda u haqida ozroq tushunchaga ega bo'lganligim uchun (fanning maqsad va vazifalarini nazarda tutyabman, men bu sohaning ish usuli deb tushunganman) bu sohaga juda qiziqib qolgandim va bir yil davomida shu sohaga kirish uchun tayyorlandim. Qancha insonlarning qarshiligiga qaramay (ularning soha qandayligi, u yerda kim bo'lib yetishib chiqishim, qaerda ishlashim mumkinligi to'g'risidagi savollarini mavhum qoldirganligim sababli menga ruhsat berishmagan) shu sohaga topshirdim va Ollohga shukurlarkim shu sohaga "grant" asosida o'qishga qabul qilindim.

XXI asr – axborot va texnologiyalar asri. Insoniyat taraqqiyotida bu asr o‘zining moddiy va madaniy, ilmiy hamda texnikaviy yutuqlari bilan alohida e’tirof etiladi. Jamiyat taraqqiyoti yutuqlari xususida so‘z borganda ijtimoiy taraqqiyotning 4 asosi – iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy soha rivoji, ijtimoiy innovatsiyalar ahamiyatini e’tirof etish lozim. Shu o‘rinda Fin davlati prezidenti Souli Niinistyö takidlaganidek, «Innovatsiya» tushunchasini kengaytirish – yaxshi va to‘g‘ri fikrdir. Bizning farovonligimiz faqatgina yangi texnika yechimlarning joriy etilishi va faoliyatga kiritilishiga emas, balki jamiyat rivojlanishi va taraqqiyotga ham asoslangandir". Bu kabi fikrlarni hech bir siyosat arbobi yoki olim inkor eta olmaydi.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’biri bilan aytganda, "Qushning ikki qanoti bo‘lgani kabi moddiy va ma’naviy hayot insonning ikki qanotidir. Nainki qush bir qanoti bilan parvoz eta olmaydi. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik". Har bir vatandoshimiz orzu-maqsadini mujassam etgan bugungi kun shiori ekan uning ro‘yobi yuqorida ta’kidlaganimiz kabi qushning yuksak parvozi kabidir. Yurtimizni moddiy, madaniy, iqtisodiy-texnik salohiyati rivojlangan davlatlardan aslo qolishmaydi. So‘nggi yillarda yaratilayotgan keng imkoniyatlar davlatimizning yoshlarga va ayollarga oid siyosati natijasidir. Biroq bundan ijtimoiy sohada qilinayotgan ishlar kamchiliklardan xoli emasligiga to‘xtalish o‘rinlidir. Xususan, qilinayotgan ishlar ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun emas, aksariyat qismi ijtimoiy ehtiyojlarni qoplash bilangina cheklanmoqda. Buni muammolarning induktiv tarzda o‘rganilayotganligi va yakka tartibda hal etilayotganligida ayni damda tizimli yondashilmayotganligida deyishimiz mumkin. Yoki shu kungacha ilmiy asoslangan yechimini kutayotgan ishsizlik, bandlik, sotsial tengsizlik, ijtimoiy adolat, gender tengligi kabi muammolar mavjud. Bizga ma’lumki, sotsiologiya bu kabi sotsial muammolar bilan shugullanadigan, jamiyatda mavjud sotsial tizim hamda sotsial dalillardan yig‘ilgan, asoslangan, asosida ilmiy tizimlarini prognoz qila oladigan jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan eng qulay variantni va sotsial modelini bashorat qila oladigan fandır.

Yuqoridagi kabi muammolar nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda sotsiologiya oldida turgan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mana shunday ulkan vazifa turganligini bilgan holda O‘zbekistonda sotsiologiyaning fan sifatidagi ravnaqi yolida ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Sotsiologa rivoji haqida, uning rivojlanish mexanizmi haqida mulohaza yuritganda faning kelib chiqishiga asos bo‘lgan tarixiy hodisalar, ma’naviy va g‘oyaviy fikrlarga e’tibor berish muhimdir. Fan asoschisi Kont fikriga ko‘ra bu fan pozitiv fan (haqiqiy fan) bo‘lishi kerakligi, voqea-hodisalar bevosita kuzatishga asoslangan va har bir voqelik isbot-dalil bilan keltirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda ham bu fikrlar mohiyatini yo‘qotmagan holda pozitiv fan sifatida sotsiologiyani bevosita imkon qadar amaliyotda kuzatish, sotsial dalillar yig‘ish hamda ilmiy qonun va tushunchalar bilan ifoda etish orqali ayni vaqtda yurtimizda bo‘layotgan voqeeliklarga sotsial sharh berib borish, ulardan amaliyotda ijtimoiy hayot rivoji yo‘lida ko‘zga tashlanayotgan mavjud muammolar yechimi o‘rnida qo‘llash tartibini joriy etish kerak. Nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni mamlakatlar, boshqa

xorijiy mamlakatlarda ro‘y berayotgan sotsial voqelikdan, sotsial munosabatlar, sotsial stratifikatsiya va infrastrukturalar borasida ma’lumotlarga ega bo‘lish, ularni taqsimlash orqaligina fanning rivojini yurtimizda (va xorijda ta’minlash mumkin) ham ta’minlash, insoniyat taraqqiyoti yo‘lida o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

O‘ZBEKISTONNING KECHAGI VA BUGUNGI IQTISODIYOTINING IJTIMOIY TAHLILI

*Isropilov M.B. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Anorboyeva M.A. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Intellektual salohiyatli yoshlarning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni haqida gapirar ekanmiz eng avvalo, bu so‘z qanday ma’no bildirishi haqida to‘xtalib o‘tsak. Intellektual salohiyat – yangi bilimlar to‘plami, ishlash va idrok etish qobiliyatidir. U intellektual faoiyat natijasida yuzaga keladi. Intellektual salohiyat bu intellektual resurs, intellektual mahsulot, texnologiya va xizmatlardir.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’daniy sohalarida qo‘lga kiritayotgan yuksak natijalari eng avval yangi-yangi zamonaviy tarmoq va yo‘nalishlar ishlab chiqarishning o‘sishi, intellektual salohiyat tajribalariga tayangan holda, iqtisodiy salohiyatni sezilarli darajada ortib borayotgani, yoshlarimiz ongida iqtisodiy munosabatlar shakllanib, o‘zini namoyon qilishda avj nuqtaga ko‘tarilganidan dalolatdir.

Bundan ko‘rinadiki, yangi O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat siyosatining innovatsion xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan “XXI asr – intellektual avlod asri” ilmiy anjumani bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg‘armasi, Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligi, Yoshlar Ittifoqi hamkorligi doirasida tashkil etildi. Tadbir ochilish marosimida ishtirokchilar ilmiy salohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan ko‘rgazmalar bilan tanishdilar. Unda so‘z olganlar intellektual salohiyat XXI asr talabi ekanligini ta’kidlab va bu o‘rinda yoshlarga davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar haqida to‘xtalib, navqiron yosh avlod bu imkoniyatlardan oqilona foydalanayotganligini qayd etdilar. Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun qulay biznes muhitini yaratish, bunda yoshlarga, yosh tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyat va o‘zgarishlar turkiyalik ishbilarmonlarning yurtimizga qiziqishini oshirdi. Jumladan oxirgi yillarda o‘zaro savdo hajmi ikki baravar oshganligi so‘zimizning isbotidir.

“O‘zbekiston hozirgi kunda jadal sur’atda rivojlanmoqda. Bugun mamlakatimizga kirgan kompaniya albatta manfaat topadi. Men bunga kafolat beraman. Buning uchun zaruriy, huquqiy inavtsional sharoitlar yaratib beriladi,”¹ – dedi Shavkat Mirziyoyev. Bundan ko‘rinadiki, yurtimizda qilinayotgan har bir islohotlar, o‘zgarishlar yurtimiz aholisini turmush tarzini yaxshilash, moliyaviy

¹ Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyaot yo‘limizniqa’tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, 2017. – B. 347.

farovonlikni oshirish, yoshlar bandligini ta'minlab, yoshlar siyosatini keng ko'lamda kengaytirishga qaratilgandir. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishda juda ko'p yutuqlarga erishayotganligi sir emas, lekin yutuqlar bilan birgalikda kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Hududiy jihatdan olib qaralganda Toshkent markazida yashovchi aholi bilan chekka hududlarda yashovchi aholi turmush tarzi va yoshlarga qaratilayotgan e'tibor masalalarida yetarlicha kamchiliklar kuzatilmoqda.

So'zimizning isboti tariqasida Toshkent viloyatining Parkent tumani va Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanlarida o'tkazilgan "Aholi tumush sitatini oshirishda sotsial kapitalning imkoniyatlari va sotsial kapitalning hududiy xususiyatlarini baholash" mavzusidagi sotsiologik taqdiqotlar quyidagi ma'lumotlarni beradi. Parkent va Mirzo Ulug'bek tumanlarida quyidagi yutuq va kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanmoqda: Turar-joy sharoitlari bo'yicha aholi 64.5 % past, 26.5% o'rta ko'rsatkichda belgilagan. Bu esa tuman hududida kommunal xizmatlar bo'yicha muammolar borligini aholimiz suhbat chog'ida ham aytib o'tdilar. Shahar markazida joylashgan Mirzo Ulug'bek tumanida esa kommunal xizmat bo'yicha muammolar u darajada ko'zga tashlanmadi, 70 % aholi o'rta 30 % aholi yaxshi ko'rsatkich belgilagan

Daromad indikatori bo'yicha 72.3 % aholi yaxshi va o'rta 28.7 % aholi past baho bergan. Mirzo Ulug'bek tumanida 70 % aholi yaxshi, 30 % aholi o'rta bahoda ko'rsatkich olingan,

Mehnat faoliyati va ish bilan ta'minlash indikatori bo'yicha o'rta holatdan yuqorisi belgilanmagan, bu esa Parkent tumanida mehnat faoliyati asosan yoshlar o'rtasida doimiy ish o'rinlariga ega bo'lmaslik muammosi borligini ko'rsatadi. Mirzo Ulug'bek tumanida esa bu ko'rsatkich aksincha shahar markazidagi yoshlar o'zini o'zi ish bilan ta'minlash doirasi anchayin rivojlangan. Buning asosiy sababi sotsiolog olimlardan biri ta'kidlaganidek, "Katta shaharlarda o'z o'ringni topmoqchi bo'lsang va unda yashab qolishga umid qilsang, eng avvalo o'zingdagi tekinox'rlikni yo'qot va harakat qil" shiori hisoblansa ajabmas.

Ekologiya indikatori bo'yicha asosiy muammolar Mirzo Ulug'bek tumanida kuzatilgan. 78.9 % aholi past, 10 % aholi o'rta, qolganlari yaxshi baho berishgan. Hudud sanoat korxonalariga juda yaqinligi bunga asosiy sabab. Aholidagi asosiy muammolardan biri – chiqindi korxonalarini yo'qligi va borlari ham yaxshi faoliyat ko'rsatmayotganligidir. Parkent tumanida ahvol ancha yaxshi: 70 % aholi yaxshi ko'rsatkich bilan baholagan, lekin chekka hududlarda chiqindilar jar yoqalariga to'planmoqda, bu muammo ham Parkent tumanini chetlab o'tmagan.

Salomatlik indikatori bo'yicha aholi 80 %i yaxshi va o'rta, 20 %i past ko'rsatkich belgilaydi. Bu ham Parkent tumanida aholi o'z salomatligiga ahamiyat berayotganligidan dalolatdir. Mirzo Ulug'bek tumanida ham ko'rsatkichlar 54.4 % yaxshi, 46.6 % o'rtacha baho berilgan.

Madaniy hordiq: 51.7 % odam yaxshi, qolgan foizi esa o'rta baho bergan. Mirzo Ulug'bek tumanida ko'rsatkichlar biroz past 48.2 % aholi o'rtacha baho bergan.

Xavfsizlik: Parkent va Mirzo Ulug'bek tumanlari bo'yicha 80 % bir xil yaxshi natija. Bu esa yurtimizda, xususan, Toshkent viloyatida xavfsizlik

masalalarida muammolar yoʻqligining isbotidir. Lekin aholi bilan suhbat jarayonida axborot xavfsizligi yuzasidan salbiy fikr bildirilgan.

Quyidagi tadqiqot yoshlar orasida oʻtkazilganda, ularda aniqlangan eng koʻp muammolar yana taʼlim sifati indikatorga borib taqaladi. Bu indikator boʻyicha deyarli 69.3 % aholi juda past baho bergan. Chekka tuman va qishloqlarda XXI asr talablariga mos taʼlim tizimi xali-hanuz kirib kelmaganligini ekspertimiz oʻz javoblarida: “Taʼlim toʻgʻrisida oldindan qaygʻurib kelamiz, lekin otabobolarimizdan qolgan eng birinchi masala – tarbiya haqida juda koʻp bosh qotiramiz. Oʻqituvchilarning koʻp vaqtlari tarbiya masalalari va ikkinchi darajali ishlar bilan olib qoʻyilyapti. Bu esa, yoshlar ongining hamda taʼlim sifatining yaxshilanishi uchun yoʻl bermaydi. Bu esa, jamiyatdagi eng katta muammolardandir,” – deb oʻtdilar.

Yoshlar huquqlari va imkoniyatlari koʻrsatkichi boʻyicha ham 52.7% past, qolganlar oʻrtacha hollarda baho berishgan. Bu yoshlarimizda xali huquqiy ongi toʻla rivojlanmaganligini, shu bilan birga oʻz huquqlarini bilmaganlari yetmagandek, majburiyatlarini ham toʻla ado etmayaptilar. Maʼnaviyati orqali oʻylab koʻrmasdan qilgan ishlari yoshlar orasida nizolarga asosiy sabab boʻlyapti. Yuqorida koʻrilgan muammolar Parkent tumani qishloqlari boʻyicha yuzaga kelgan edi. Mirzo Ulugʻbek tumanida muammolar asosan ekologiya bilan bogʻliq. Yoshlar oʻrtasida esa axborot xavfsizligi, huquqiy ong pastligi (garchi oʻsishga sharoit boʻlsada) asosiy muamolarni yuzaga keltirmoqda. Ixtisoslashgan va chuqurlashgan maktablar, xususiy universitetlar borligi taʼlim sohasiga eʼtiborning yaxshiligidan dalolatdir. Taʼlimdagi sogʻlom raqobat esa kelajagimiz garovidir.

Yuqoridagi kamchiliklar va muammolarni oʻz vaqtida bartaraf etish yuzasidan koʻrilgan chora-tadbirlar hamda hozirgi kundagi taʼlim va huquq sohalaridagi oʻzgarishlarni yillar kesimida solishtiradigan boʻlsak, bu sohalarda juda kata oʻzgarishlar amalga oshirilayotganini guvohi boʻlamiz. Masalan, 2017-2021-yillar kesimidagi davlat dasturida pandemiya sharoitida aholi turmush sifatini yaxshilash uchun tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash choralari davom ettirish maqsadida 2021-yil 31-dekabrigacha toʻlanishi kerak boʻlgan soliq muddatlari uzaytirildi¹:

1. Turizim, transport va ovqatlanish shahobchalarida faoliyat yuritayotgan subyektlar yer va mol-mulk soligʻi boʻyicha 1-yanvarga qadar qarzdorlik toʻlanmagan holatlarda pensiya hisoblashni toʻxtatish va soliq qarzini majburiy undirish bekor qilindi. Endilikda subyekt soliq qarzlarini belgilangan muddat oraligʻida boʻlib toʻlash imkoniyatiga ega boʻldi.

2. “Xufyona iqtisodiyot” ulushini qisqartirish uchun soliq auditi oʻtkazishda “taxlika-tahlil” tizimi bosqichma-bosqich joriy etilgan soliqlarni va boshqa majburiy toʻlovlarni oʻz vaqtida toʻlab kelayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida soliq auditi oʻtkazishga moratoriy qilish kabi imkoniyatlari yaratildi.

Talim sohasida ham bir qancha islohotlar oʻtkazildi. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj talabalarni himoya qilish tizimi takomillashtirildi, ijtimoiy adolat tamoyillarini taʼminlash maqsadida 2021-2022 oʻquv yillaridan boshlab:

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-sonli Farmoni

a) Oliy ta'lim muassalariga eng yuqori ball bilan kirgan 200 nafar yoshlar uchun Davlat grantlari joriy etildi;

b) Oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari 25 %ga hamda ehtiyojmand oila farzandlari bo'lgan hotin-qizlar uchun kivotalar soni 2 baravar oshirildi.

d) 2021 yil yakuniga qadar amaldagi qonunchilik hujatlarini qayta ko'rib chiqishva o'z ahamiyatini yo'qotgan hujatlarni bekor qilish, huquq tizimini tartibga solish orqali tadbirkorlik faoliyatini chegaralovchi normalarni qisqartirishni taminlash 2021 yil davlat dasturining asosiy vazifalaridan biridir.¹

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lini belgilar ekanmiz, yuqoridagi kamchiliklardan tegishli xulosalar chiqarib, qo'lga kiritgan yutuqlarimizni xolisona baholab, yosh intellektual salohiyatlarni va o'z kasbining ustalariga keng imkoniyatlar hamda sog'lom raqobat sharoitlarini yaratmog'imiz darkor.

O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLARNING O'QITILISHI MASALALARI

*Jiyanmuratova G.Sh. – O'zMU dotsenti,
Turdiyeva N. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Yurtimizda mustaqillik sharofati bilan xorijiy tillarning o'qitilishiga alohida e'tibor berildi va xorijga chiqish imkoniyatlari tufayli chet tillarni o'rganishga bo'lgan talab yanada kuchaydi. Xorijiy tillarning o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi.

Amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonida chet tillari, xususan, ingliz tilini yoshlarimizga puxta o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlar, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib borilmoqda. Albatta, buning uchun o'quv muassasalarida qator zamonaviy imkoniyatlar yaratildi. Ingliz tili xonalari zarur jihozlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlandi.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumYevropa ramkalari tavsiyanomalariga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va oily ta'lim o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Minglab chet tili o'qituvchilari tayyorlanganligi, kadrlarning ona vatanimizda va xorijda malaka oshirishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligi, ingliz, nemis, fransuz tillari bo'yicha multimediya darsliklari, ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlanganligi, ta'lim muassasalarida zamonaviy lingafon xonalarining tashkil etilganligi buning yaqqol isbotidir. Masalan: "Booknomy", "Tedbook",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli Farmoni

“Intensive English” va yana boshqa innovatsion kitoblar. Endi “5 yulduzli darajaga ega dunyoning yetakchi 3D innovatsion metodikasi” deb bong urilayotgan TEDBOOK loyihasi haqida soʻz yuritsak. Loyiha saytida mazkur metod dunyoda birinchi raqamli ekani (!) aytilmoqda.¹ Lekin bu innovatsion kitoblarga bogʻlanib qolmasdan, barcha oʻzi izlanib, til oʻrganishda turli xil metodikalarni sinab koʻrishi, izlab topib, chuqur oʻrganishlari lozim boʻladi, chunki barchaning imkoniyatlari turlicha.

Til oʻrganish va oʻqitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili oʻrganishning har bir aspect (oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qoʻl keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalgam oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til oʻrganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda oʻquvchi bir paytning oʻzida soʻzlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, soʻz boyligi va uning maʼnolariga eʼtibor berishi talab qilinadi.

Taʼlim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda oʻquvchilar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib oʻrgatish va oʻrganish eng samarador usullaridan biridir. Kompyuterlardan foydalanganda oʻquvchi chet tilidagi video roliklarni, nomayishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham koʻrishi ham eshitishi mumkin.

Globalashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Internet orqali chet tilida soʻzlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo boʻladi. Chet tilini oʻqitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Taʼlim jarayonida jadvallardan foydalanib, oʻquvchilar maʼlum bir grammatik qoidani, masaln, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi soʻzlarni joylashtirib chiqishi mumkin.

Oʻzbekistonda chet tillarni ommalashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida joriy yilning 6 may kuni davlatimiz rahbari raisligida chet tillarni oʻqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida tizimdagi muammolar atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi.

Jumladan, joylardagi ahvol maqsad qilingan katta rejalarga mos emasligi, xususan, taʼlim tizimida 2 mingdan ortiq chet tili oʻqituvchisi lavozimi vakant boʻlib qolayotgani, 1 ming 400 ta maktabda chet tilni oʻqitish sifati mutlaqo qoniqarsizligi, bu tizimdagi oʻqituvchilarning atigi 4 foizi milliy va xalqaro til sertifikatiga ega ekani, 49 foizi testdan oʻta olmagan taʼkidlab oʻtildi.

Bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy oʻquv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qatʼiy talab har bir taʼlim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, – dedi davlatimiz rahbari.

Videoselektor yigʻilishida shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishi maʼlum qilindi

¹ <https://kun.uz/uz/news/2021/03/16/mashhurlashib-borayotgan-innovatsion-kitoblar-til-organish-vositasimi-yoki-lotareya>

va agentlikning asosiy vazifalari belgilandi. Ya'ni, agentlik eng avvalo, dunyoda samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarini bog'cha, maktab, litsey, oliygo'ha va o'quv markazlarida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishga ko'maklashadi, shuningdek, "bog'cha – maktab – oliy ta'lim – korxonalar" zanjiri orqali, aholining barcha qatlamiga mos bo'lgan metodika, tavsiya va darsliklarni ishlab chiqadi hamda joriy etadi.

Bunda, ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlar ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10ta chet tilini (ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors) o'rgatishni tashkillashtiradi. Ixtisoslashgan maktablarga xorijdan mutaxassislar jalb etiladi. «Bir oy muddatda har bir ixtisoslashgan maktabga xorijiy, ayniqsa Osiyo davlatlaridan kamida 2-3 nafardan, oliygo'hlarga esa kamida 5 nafardan til egasi bo'lgan malakali o'qituvchilarni jalb qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish lozim.

Maktablarning chet el mutaxassislarini jalb qilish harajatlari mahalliy budjetdan, oliygo'hlarda esa o'zining jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

Shuningdek, viloyat hokimlari keyingi o'quv yilidan boshlab har bir tumanda tanlov o'tkazib, kamida 2 nafardan ingliz tili va 1 nafardan boshqa chet tili o'qituvchilari xorijda malaka oshirishini yo'lga qo'ysin. Qo'shma korxonalarimiz bor, hamkorlarimiz, ularga taklif kiritilsa rozi bo'lishadi»¹, deya davlat rahbarining so'zlarini keltirmoqda Kun.uz muxbiri. Bundan tashqari, joriy yildan boshlab chet tillari bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan maktablarni rag'batlantirish uchun Prezident sovrini ta'sis etiladi.

Endi har bir viloyatda bittadan universitet chet tillari bo'yicha tayanch muassasa sifatida faoliyat ko'rsatadi va malakali o'qituvchilar rag'batlantirilib boriladi. Jumladan, xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilarning oylik maoshiga 50 foizgacha ustama beriladi.

Chet tili bo'yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash uchun Prezident sovrini ta'sis etiladi va tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida tanlov o'tkaziladi. Tanlov g'oliblari 100 million so'mdan 500 million so'm miqdorida mukofotlanadi.

Yig'ilishda oliy ta'limda mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi va xorij tillari bo'yicha qabul kvotalari 2 baravar ko'paytirilib, davlat granti esa 3 baravarga oshirilishi belgilandi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy doktoranturada ta'lim olish uchun yiliga 20 ta o'rin ajratiladi. Haftaning bir kuni xorijiy tillarni o'rganish kuni etib belgilanadi.

Yosh avlodni chet tillarda o'qitish hamda shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon tamadduni yutuqlari hamda butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Mashhur nemis olimi Y.V. fon Gyote aytganidek: "Kim chet tillarini bilmasa, u o'z tilini ham bilmaydi". Shu sababdan nafaqat chet tili mutaxassislari, balki ilmga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha bo'lajak kadrlar chet tillarini o'rganib, ularda erkin fikr

¹ <https://kun.uz/uz/news/2021/05/06/vazirlar-mahkamasi-huzurida-xorijiy-tillarni-organishni-ommalashtirish-agentligi-tashkil-etiladi>

almasha olishi g'oyat muhim vazifalardan sanaladi. Xalqimizda ham bir maqol bor: "Til bilgan el biladi". Haqiqatdan ham, xorijiy tilni bilgan kishi ko'p tomonlama imkoniyat va ustunliklarga ega bo'ladi. Bugungi kunda kadrlar oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri chet tillarini mukammal bilishdir.

Chet tilini o'qitish maqsadlari jamiyat talabi, ijtimoiy buyurtmasi, sharoiti, siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Chet tili o'qitish maqsadlari jamiyat taraqqiyotiga va rivojlanishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish o'z maqsadlariga ega, chet tilidan ta'lim berayotgan barcha murabbiylar, albatta, uni oldindan aniqlab olmog'i darkor. Zero, olimlar O'.Hoshimov va I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi kitobida aytganidek, "Chet tili o'qitish maqsadlari o'qitish mazmunini, vositasini, metodlarini, tamoyillarini aniqlaydi".¹

Xulosa qilib aytganda, jahonning yarmidan ko'p aholisi kundalik hayotlarida ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashishini hisobga olsak, chet tilini o'rganish bir mo'jiza emasligiga ishonch hosil qilamiz. Buning ustiga, chet tilini talabaga faqat sanoqli odamlar erishadigan yutuqqa bo'lgan imkoniyat sifatida emas, balki ularning zamon bilan hamnafas bo'lib yurishi uchun o'rgatish mumkin.

SOTSILOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Maxamedov A. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylash-tirish; ularning asosi sifatida esa milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Shu bilan birga, bugungi kunda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni "ta'limning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda" amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan barcha kasb egalarining oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalaridan biri-malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlarini, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xususiyatlarini bilgan holda atrofdagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb egasi sifatida faoliyat ko'rsatishdir.

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo'nalishki, u butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo'lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulk-atvori qonuniyatlarini o'rganadi. Fanning nazariy asoslari dolzarb ijtimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo'lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsial-madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning obyekt va subyekt sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi. Bunda asosiy e'tibor amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va

¹ O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.-Toshkent-2003

usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O‘zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Respublikamizda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayoni kadrlarni tayyorlash ishiga yangidan-yangi talablarni qo‘ymoqda. Mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar bilan birga, real ta‘lim sharoitida ko‘zga tashlanayotgan ayrim muammolar hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta‘lim muassasalarida “Sotsiologiya” fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishni alohida talab etmoqda. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) talabalarning zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashi hamda ulardan amaliy foydalana olishi;

2) e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma‘lumotlar bazasini rivojlantirish;

3) mustaqil ta‘lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda kasbiy faoliyat sohasidagi yangi shakl, metod va vositalarni o‘zlashtirish hamda o‘zini o‘zi rivojlantirish;

4) mashg‘ulotlarni online tizimida video-anjumanlar va seminar-treninglar asosida tashkil etish;

Sotsiologiya fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishga doir yuqorida sanab o‘tilgan muammolar aynan hamkorlik pedagogikasi tamoyillari, shakl, metod va vositalarini amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Chunki hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi o‘quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qishni o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir talabani kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma‘suliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir talabaning tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga, kursdoshlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Interfaol metodlar ta‘lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va talabalar, talaba va talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir talabaning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta‘limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma‘lum darajada samaradorlikka erishishni ta‘minlasa-da, biroq, ularning har biri ta‘lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta‘minlash bo‘yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e‘tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi

yanada oshadi, qachonki, ularni qo‘llashda talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu o‘qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi.

An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik oliy ta’lim tizimidagi faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra, “yetkazib beruvchi” rolida endi o‘qituvchi emas, balki talaba namoyon bo‘ladi. Talaba, asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shaxs: manbani o‘zi o‘qiganida 10 %; ma’lumotni eshitganida 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %; ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Shunga ko‘ra interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARI FAROVONLIK YO‘LIDAGI HARAKATLARNING SAMARADORLIGI SIFATIDA

Sabirova G. – O‘zMU 3-bosqich talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi to‘rtinchi Murojaatnomasini taqdim etdi. Ushbu Murojaatnoma nafaqat parlament, balki bevosita butun xalqqa va xalqaro hamjamiyatga ham yo‘naltirilgani alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston taraqqiyotida “tarixiy burilish nuqtasi” bo‘lgan, mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan ezgu g‘oya asosida nishonlanayotgan 2021-yil – “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilindi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. SHu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo‘lib o‘tgan tadbirda Oliy Majlis Senati a‘zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat tashkilotlari rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Murojaatnoma 15 ta telekanal orqali jonli efirda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida onlayn yoritib borildi¹.

Ma‘lumki, 2020-yil dunyoning barcha mamlakatlari uchun sinovli keldi. Koronavirus davlatlar iqtisodiyotiga katta zarar etkazib, ijtimoiy hayot, turmush tarzimizga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hech kimga oson bo‘lmayotgani rost. Shunday tahlikali davrda davlatimiz rahbari boshchiligida to‘g‘ri tanlangan yo‘l, aniq o‘ylangan chora-tadbirlar, sa‘y-harakatlar tufayli pandemiya oqibatlarini yumshatish, kam talafot bilan engib o‘tishga muvaffaq bo‘lmoqdamiz. Bu jarayonda, hech shubhasiz, xalqimizning bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlikda harakat qilgani, bir-birini faol qo‘llab-quvvatlagani yutuqlarimiz asosi bo‘ldi. Murojaatnomada shu haqda so‘z borar ekan, pandemiya davrida jonbozlik ko‘rsatgan shifokorlarga, xalqimizga, tadbirkorlarga, ko‘makdosh davlatlar rahbarlari, xorijiy hamkorlarga alohida minnatdorlik bildirildi. Poyoniga etayotgan yil sarhisobi haqida so‘z bordi. “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturiga muvofiq xalqchil islohotlarimiz muvaffaqiyatli davom etdi². Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ijobiy o‘zgarishlarimiz sur‘ati saqlab qolindi. Bunyodkorlik ishlari bir zum ham to‘xtamadi. Toshkentda 2 ta yangi metro stansiyasi, erusti metro liniyasi ishga tushdi, uy-joylar, yo‘llar, ko‘priklar qurildi, yangi ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi. Iqtisodiyot tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi sohasida ham yangi loyihalar amalga oshirildi, tadbirkorlik faoliyati rag‘batlantirildi. Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi yangi bosqichga olib chiqildi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy jabhada ham tub burilishlarga asos solindi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi global tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi. 2020-yil, aholini ijtimoiy himoya qilish yili ham bo‘ldi. Bunga har birimiz guvohmiz. Buxoro va Sardobada yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar, dunyoni hamon xavotirga solib kelayotgan koronavirus pandemiyasi, avvalo, xalqimiz jipsligini ko‘rsatdi, barchamizni qalban yaqinlashtirdi, shu bilan birga, odamlarimiz mehru saxovatini ham namoyish etdi. Bu kunlarda ehtiyojmand oilalar holidan xabar olish, ularga moddiy ko‘maklashish ishlari bir zum ham to‘xtamadi. Ayollar va yoshlar siyosati, kambag‘allikni tugatish bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 29.12.2020.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» gi Farmoni. PF-5953-son 02.03.2020.

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” asosida boshlangan bu jarayonda minglab ayollar, yoshlar ishli bo‘ldi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun yo‘l ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston hukumati 2020-yilda insonparvarlikning oliy namunasini ko‘rsatgani ham xalqaro e‘tiroflarga sazovor bo‘ldi. Pandemiya bilan bog‘liq karantin sharoitida chet ellarda qolishga majbur bo‘lgan 600 mingdan ortiq vatandoshimiz yurtimizga qaytarildi. “Mehr-3” insonparvarlik operatsiyasi doirasida Suriyadan 98 nafar yurtdoshimiz, asosan ayollar va bolalar tinchlik zamini – O‘zbekistonga olib kelindi¹.

Yil sarhisobini, erishgan yutuqlarimizni uzoq sanash mumkin. Oldimizda esa yangi marralar, maqsad va vazifalar kutib turibdi. 2021-yilda mustaqil davlat bo‘lganimizga 30 yil to‘ladi. Donishmand xalqimiz ushbu yilda “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan ezgu g‘oya bilan o‘tkazishga tayyorgarlikni boshlab yuborgan. An’anaga ko‘ra, davlatimiz rahbari Murojaatnomada 2021-yilga mamlakatimizda Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili, deb nom berishni taklif qildi. Bu taklifni barcha yurtdoshlarimiz zo‘r mamnuniyat bilan qo‘llab-quvvatladi. Yangi yilimiz nomida katta ma‘no bor. Prezidentimiz Murojaatnomada ta‘kidlaganidek, pandemiya barchamizga tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini, tez yordam xizmati, sanitariya-epidemiologiya tizimini tubdan isloh qilish muhim hayotiy zarurat ekanini yana bir bor ko‘rsatdi. Bunda asosiy e‘tiborni ogohlikka, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarni yangi bosqichda davom ettirishga qaratishni hayotning o‘zi taqozo qilmoqda.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga kirishganmiz. Bu ulug‘ maqsadga, albatta, har tomonlama sog‘lom, barkamol yoshlarimiz salohiyati, ko‘magi bilan erishamiz. Shu ma‘noda, Murojaatnomada bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratilishi qayd etildi. Bu tizim poydevori Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida ish boshlagan ilk kunlardanoq qo‘yilgan edi. Keyingi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan o‘zgardi, yoshlar tashkiloti faoliyati isloh qilindi, yigit-qizlarga har tomonlama ko‘mak berish, ularni eshitish tizimi ish boshladi. Prezidentimizning yaqinda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi va yigit-qizlar bilan samimiy muloqoti esa bu boradagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichda davom ettirish uchun dasturiy asos bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda, 2021-yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi salomatligini mustahkamlash borasida katta islohotlar amalga oshiriladi. Ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish yo‘lidagi ishlar jadal davom etadi. Madaniy-ma‘rifiy merosimizni targ‘ib qilish, iqtisodiyot, bank-moliya, fan-ta‘lim, turizm, qishloq xo‘jaligi sohasida ham yangi loyihalar hayotga tatbiq etiladi. Davlat boshqaruvi tizimida muhim islohotlar kutilmoqda. Bunda asosan hokimlik va vazirliklar strukturasi o‘zgarishlar bo‘lishi nazarda tutilgan. Mahalla instituti faoliyatida

¹ <https://yuz.uz> ma'lumotlari.

ham tub o'zgarishlar amalga oshiriladi. Mahalla raislariga yangi vakolatlar berilishi, mas'uliyatini oshirish maqsad qilingan. Nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlari yanada jonlanadi. Sud-huquq, qonunchilik, mudofaa tizimi, tashqi siyosat borasidagi islohotlar ham e'tiborga molik bo'lishi tabiiy. Bu boradagi islohotlar mazmun-mohiyati Murojaatnomada batafsil aytilgan. «Halol, pok bo'lib, odamlar bilan bamaslahat ishlashga majburmiz. Aks holda natija bo'lmaydi», deya ta'kidlagan edi Shavkat Mirziyoyev¹.

Murojaatnomada yana bir yangi tashabbus – bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun jamoat fondi tashkil etish lozimligi bildirildi. Ushbu fondga 100 mlrd so'm boshlang'ich mablag' ajratiladi va bu mablag' yil davomida oshib boradi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, O'zbekistonda birinchi marta chin etimlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 50 mlrd so'm mablag' ajratiladi. Shuningdek, O'zbekistonlik talabalarga yana bir yangi imkoniyat taqdim etilmoqda. Xorijda o'qish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali jo'natiladigan yoshlar soni endi besh baravar ko'payadi. Agar ular shu davrgacha magistratura va doktoranturada o'qib kelgan bo'lsa, kelgusi yildan boshlab tajriba sifatida yuz nafar yigit-qiz chet eldagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlariga bakalavr bosqichida o'qish uchun jo'natiladigan bo'ldi. Keyingi yillarda ularning soni 2-3 baravarga ko'paytiriladi.

Murojaatnomada yoshlarimizni rag'batlantirish maqsadida ularni tadbirkorlikka, kasb-hunarga o'rgatish, ta'lim sifatiga e'tibor qaratish va, ayniqsa, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgani navqiron avlod vakillariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yaqqol namunasidir.

Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasida qo'yilgan vazifalar, maqsad va tashabbuslar endi "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida aks etmoqda. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, ularni bajarish har birimizning oldimizdagi oliy maqsad bo'lishi kerak.

SOTSILOGIYADA SIFATIIY TADQIQOTLAR USULINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saydimuratova D. – O'zMU 3-bosqich talabasi

Sotsiologik tadqiqotlarning miqdoriy va sifatiy usullari o'rtasidagi munosabatlar haqida gapirganimizda, miqdoriy usullar ijtimoiy jarayonlarning miqdoriy alomatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, sifatiy usullari bu jarayonlarni sifat jihatdan tahlil qilishga qaratilgan ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Sotsiologiyada tadqiqot amaliyotida sifatiy tadqiqot tushunchasi keng va har doim aniq talqin etilmaydi. Sifatiy tadqiqotda ma'lumotlarni kuzatish, intervyu va shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish orqali olingan bir ish sifatida seziladi.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 29.12.2020.

Klassik sotsiologiyada individlar hayoti – bu individuallardan yuqori va ularning ixtiyorida bo‘lmagan umumijtimoiy qonunlar namoyon bo‘lishidan iboratdir. Individ ijtimoiy tip vakili sifatida ko‘riladi. Agar biz kishining ijtimoiy dunyosini uning tashqi voqeilikni qanday ko‘rib qabul qilishini, uning dunyo qarashini tushunishini istasak, bu erda kategoriyalar va abstraksiyalarning ratsional tiligina kamlik qiladi. Insonning turli xil mulohazalar va harakatlarga beradigan ma’nomalarni adekvat tushunish darajasiga yaqinlashish kerak. Holbuki, kishining qilmishlari uning o‘zi tomonidan doimo adekvat tushunilmaydi. Ularning chuqur ma’nosini tushunish uchun sotsiologik tushunchalarda ifodalash uchun anchagina harakat va kuch sarflashga to‘g‘ri keladi¹.

Simvolik interaksionizm J.Mid, Y.U.Xabermas, X.Blumer sifatli sotsiologiyaga til haqidagi tushunchani kiritgan². Ijtimoiy kommunikatsiyalar ma’nosini izohlashda bu asosiy kalit bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvga asosan jamiyatdagi interaksiyalar til vositasi orqali bajariladi.

Kishi harakatini uning tashqi harakatlarini qayd qilish bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Buning uchun til bilan ifodalangan, hamma qatnashchilarga tushunarli bo‘lgan ichki simvolik ma’nomalarni bilish kerak. Fenomenologik an’analarda bu g‘oyalar insonning tartib sabablarini, uning biografiya holatidan tushunib olish darajasigacha rivojlantiraman, A.Ginets so‘zlari bo‘yicha uning “hayot dunyosiga” asoslanib, kishilar har bir ijtimoiy holatga o‘zlarining sabablarini, tartib modellarini kirgizib ijtimoiy borliqni subyektiv tuzadilar va bu holatlar takrorlanganda avvalgi qo‘llangan tartib sabablardan foydalanadilar. Shunday qilib, subyektning ichki dunyoni tiplashtiriladi, bu boshqalarga ham mansub bo‘ladi³.

Shunday qilib, metodologiya nuqtai nazaridan sifatli va gumanistik sotsiologiya o‘zining mohiyati bilan mikrosotsiologiyadir, tadqiqotchi o‘zining diqqatini ijtimoiy harakat agenti bo‘lgan subyektga qaratadi, avvalambor shaxsiy, har kungi tajribasiga, boshqalar bilan bo‘lgan munosabatiga, so‘zlar bilan aytilgan fikrlariga o‘z hayoti haqida hikoyalariga murojaat qiladi. Interaktiv ma’lumotlarni analiz qilib, (so‘zlar, imo-ishoralar, kommunikativ belgilarni) sotsiolog kishilarning ijtimoiy turmushining alohidagi formasini tushunib oladi va izohlab beradi: u o‘zining kuzatishlarini umumlashtirib qolmay terminlar tiliga aylantiradi, kuzatilayotgan ijtimoiy borliqni berilgan aspektini nazariy izohlab berish uchun. Sifatli sotsiologiya 40 dan ortiq strategiya va usullarga tayanadi⁴.

Sotsiologik tadqiqotlarda axborot yig‘ishning barcha usullarini ikki katta guruhga ajratish mumkin: miqdoriy va sifatli.

Miqdoriy tadqiqotlar odamlar fe‘l-atvorining obyektiv, miqdoriy o‘lchanadigan tavsiflarini o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Miqdoriy tadqiqotlar asosan tasviriy hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarda axborotni qayta ishlash tartibga solingan, o‘z tabitiga ko‘ra miqdoriy amaliyotlar yordamida amalga oshiriladi.

¹ Karimov B.Sh. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi fanidan tayanch tushunchalar bilan ishlash / Uslubiy qo‘llanma. – Vuxoro, 2005.

² Толстова Ю.Н., Масленников Е.В. Качественная и количественная стратегии: эмпирическое исследование как измерение в широком смысле // Социол. исслед. – 2000. – № 10.

³ Бернгард Г. Качественные и количественные методы исследования в социальной работе // Социол. исслед. – 2001. – № 1.

⁴ Ньюман Л.В. Социальные научные методы: качественный и количественный подходы. – Бостон, 1991.

Miqdoriy tadqiqotlarda tanlovga ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga asoslangan qat'iy talablar qo'yiladi. Shuning uchun, tanlanma to'plamni o'rganishdan olingan natijalar butun bosh to'plamga o'tkazilishi mumkin.

Sifatli tadqiqotlar maxsus texnika yordamida chuqur axborotni olishga mo'ljallangan. Sifatli tadqiqotlarni sharhli, deb atash mumkin. Sifatli tadqiqotlar odamlar fe'l-atvori motivlari, o'rnatmalari to'g'risida axborot olish, ya'ni "nimaga" degan savolga javob olish imkonini beradi. Bunday tadqiqotlarda olingan axborotni to'g'riligini matematik tasdiqlash va tanlovga qat'iy talablarni qo'llab bo'lmaydi¹.

Sifatli tadqiqotlar – bu ochilish jarayoni bo'lsa, u holda miqdoriy tadqiqotlar – isbotlash va tasdiqlash jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, sifatli usullardan foydalanish, ba'zida tadqiqotchining diqqat markazida ayrim sotsial obyektning o'ziga xosliklarini o'rganish, voqeaning umumiy sur'ati yoki hodisaning umumiy tarkibiy birligida, obyektiv va subyektiv omillarning hamkorligida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sifatli tadqiqotlar orqali yangi hodisalarni va ommaviy keng tarqalgan, ayniqsa, keskin sotsial o'zgarishlar sharoitidagi jarayonlarni o'rganish zarur.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Maqsadning bunday lo'nda va qat'iy qo'yilishi sotsiologik tadqiqot usullarini ijtimoiy hayotimizning turli sohalarida keng qo'llash hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlari qonuniyatlarini sotsiologik jihatdan tadqiq etish lozimligini ta'kidlaydi.

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshtemirov B.B. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Mamlakatimizda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi hamda «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi yangilangan qonunlari qabul qilindi. Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining etarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy

¹ Страусс А., Корбин Д. Основы качественного исследования: обоснованная теория, процедуры и техники / Пер. Т.С.Васильевой. – М.: Эдиториал УРСС, 2001.

yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim. Bank tizimiga zamonaviy servis echimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta‘minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish talab etilmoqda¹.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti dinamik ravishda rivojlanib borayotgan hamda tijorat banklari oldiga o‘z faoliyatlarini xalqaro darajaga yetkazish talabi qo‘yilgan hozirgi vaqtda, tijorat banklari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni boshqaruv usullarini takomillashtirish va ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hisobiga amalga oshirishlari mumkin. Boshqaruv usullarini takomillashtirish va boshqaruv bo‘yicha tegishli qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy tahlilning o‘rni beqiyosdir. Shuni ta‘kidlash lozimki, iqtisodiy tahlilning nazariy masalalari nafaqat banklarda, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham hozirgi paytda yetarli darajada ishlab chiqilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu pul oqimi kontseptsiyasi, pul mablag‘larining vaqtincha qiymati, daromadlilik va xavf o‘rtasidagi tafovut, jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha harajatlar, kredit va investitsiya portfelini boshqarish va boshqalarga tegishlidir.

Tijorat banklari bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi barcha subyektlar kabi, faoliyatidan olgan daromadlaridan qilgan sarf-harajatlarini qoplab, ma‘lum miqdorda foyda olishlari lozim. Foyda – tijorat banklari faoliyatlarining yakuniy natijalarini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichdir. Tijorat banklari foydasi yoki faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo‘lsa – zarari, ushbu hisobot davrida (oy, chorak, yil) barcha daromadalaridan harajat hamda soliq va to‘lovlarni chiqarib tashlangandan qolgan summa ekan.

Tijorat banklari daromadlari ikki guruhga: foizli va foizsiz daromadlarga ajratiladi. Bank daromadlari tijorat banklari mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar uchun olingan foizlar, mabodo kreditlarni vaqtida qaytarmagan tarzda mijozlardan yuqori stavkalar bo‘yicha olinadigan foiz daromadlar, qimmatbaxo qog‘ozlar operatsiyalaridan olingan daromadlar, turli xil investitsiyalar bo‘yicha olingan daromadlar –kabilar foizli daromadlarga kiradi. Tijorat banklari harajatlari ham foizli harajatlar va operatsion harajatlarga guruhlanadi. Tijorat banklari depozitlariga qo‘yilgan mablag‘larga, olingan kreditlarga to‘langan foizlarga, qimmatbaxo qog‘ozlarga to‘lanadigan foiz va shu kabilarga – foizli harajatlar deyiladi. Tijorat banklariga ko‘rsatilgan xizmatlarga (transport, suv, gaz, elektroenergiya va shu kabilarga), xodimlarga ish haqi, ma‘muriy-boshqaruv harajatlarga – operatsion harajatlar deyiladi. Banklar moliyaviy natijalar tahlilida bu harajatlarning zarurligi, o‘tgan davrlar bilan o‘zgarganligi, tejamkorlikka rioya qilinganligi o‘rganiladi. Xullas, tijorat banklari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. – Toshkent, 2020. PF-5992-son 12.05.2020.

moliyaviy natijalari tahlili, ularning daromad va harajatlari tahlili bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi lozim ekan.

Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni asosan, banklar buxgalteriya balansi, «Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlardan, hamda audit tekshiruvi, yig'ilishlar bayonnomalaridan, zaruriyat tug'ilganda buxgalteriya hisobining analitik yozuvlaridan olish mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili asosiy vazifalari bo'lib:

- faoliyat moliyaviy natijalarini (foyda yoki zarar) aniqlash;
- foydaning belgilangan reja, o'tgan davrlardan farqini o'rganish;
- foydaning tarkibi: daromadlar, harajatlar qanday o'zgarganligini o'rganish hamda bu o'zgarish sabablarini aniqlash;
- faoliyat davomida tejamkorlikka rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning qanday o'zgarayotganliklarini o'rganish;
- harajatlarini kamaytirib, daromadlarini ko'paytirib, foydasini ko'paytirish ichki imkoniyatlarini aniqlash va shu kabilar.

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda xo'jalik subyektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda esa moliyaviy mablag'larning muhim manbasi sifatida bank aktivlari muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy qismini aktiv amaliyotlari tashkil qiladi. Aktiv amaliyotlar – bankning foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali joylashtirishi bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, banklar aktivlari hajmining o'sishi bilan bir qatorda bank aktivlari tarkibida muammoli, ya'ni qaytishi dargumon bo'lgan aktivlar hajmining o'sishi, bank aktivlarining muayayn sohaga yig'ilib qolishi natijasida aktivlar tavakkalchiligi darajasining ortishi, bankda daromad keltirmaydigan aktivlar hajmining me'yor darajasidan oshib ketishi kabi salbiy holatlarning yuzaga kelish ehtimoli ham ortadi. Fikrimizcha, bunday sharoitda banklarda samarali menejment tizimi, ya'ni maqbul boshqaruv mexanizmini rivojlantirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Bank menejmenti moliyaviy menejmentning asosiy bo'g'ini sifatida o'zida bank faoliyatini samarali tashkil etish, boshqarish va istiqbolli rivojlantirishning aniq mexanizmini qamrab oladi. Zamonaviy bank menejmenti tizimi bankni rivojlantirish, moliya instrumentlarini hamda hududlarda bank tarmoqlarini kengaytirish, raqobat siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, muloqot strategiyasini rivojlantirishni samarali boshqarishga oid munosabatlarni mujassamlashtiradi¹.

Banklarda aktivlarni boshqarish masalalari bank menejmentining asosiy yo'nalishi sanaladi. Bunda bank menejmentining muhim unsurlaridan hisoblangan – rejalashtirish, tahlil (monitoring), muvofiqlashtirish, nazorat (baholash) tamoyillari bank aktivlarini boshqarishning tashkiliy asoslarini ifodalaydi. Bank

¹ Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar: darslik. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 348 b.

aktivlarini boshqarishda strategik, tavakkalchilik, sifat, marketing, innovatsiya kabi menejmentning turi usullaridan foydalanish zarurati asoslab berilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko'rsatishicha, bank aktivlarini boshqarish, aktivlarning samaradorlik darajasini saqlab turish, aktiv operatsiyalar hajmini oshirib borish banklarni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bunday vaziyatda bank aktivlarini to'g'ri boshqarish orqali bankning resurslar bazasini mustahkamlash, aktiv amaliyotlarni ko'paytirish asosida bank daromadini oshirish talab qilinadi. Bundan tashqari, moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini to'liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko'p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, harajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanishni talab etadi.

Aktivlarni boshqarishda asosiy e'tibor tavakkalchilikning eng past darajasi sharoitida daromadlar va harajatlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishga qaratilishi zarur.

Taraqqiyot ilgarilab borayotgan hozirgi sharoitda banklar faoliyatini, xizmatlar turini ko'paytirish, reklama va boshqa zamonaviy usullar yordamida mijozlarnikengroq jalb etish zamon talabiga aylanib bormoqda. Haqiqatan ham, bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning rolini yanada oshirishga xizmat turlarini ko'paytirishga, qolaversa, jahon bank amaliyotini chuqur tahlil qilgan holda respublikamizda universal bank tizimi faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK MUAMMOLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

G'ofurov O.U. – O'zMU 1-bosqich talabasi

Yurtimizda hozirgi kunda ko'plab ekologik muammolarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, Respublikamizning sanoat rivojlangan viloyatlarida biz ekologiyani buzilishini ko'proq uchratishimiz mumkin. Ekologik muammolarni sotsiologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ekologik muammolar jamiyat hayotiga virus kabi kirib insonlar salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Fikrimizni dalili sifatida biz sotsiologik tadqiqotlarimizni maxsus industrial zonalar qad rostlagan viloyatlarda o'tkazsak, buning yaqqol guvohi bo'lishimizga shak-shubha yo'q.

Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli

ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, soha qonunchiligini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining bu boradagi madaniyatini yuksaltirish bo'yicha harakatlar dasturi tasdiqlandi. Shu asosda ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi hujjatlarni takomillashtirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda ular faolligini kuchaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jamoatchilik ekologik nazorati tizimini rivojlantirish, chiqindilar bilan bo'g'liq muammolarni hal etish bo'yicha bir qator samarali ishlar olib borildi. Masalan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar hamkorligida yurtimizdagi 8982 ta mahalla fuqarolar yig'inida zarur chora-tadbirlar bajarilib, har bir mahalla bo'yicha ekologik nazoratning jamoatchi inspektorligiga nomzodlar zaxirasi shakllantirildi.

Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, hudud aholisi salomatligini muhofaza qilish, ularning turmush darajasini yanada yaxshilash, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham harakat va uning deputatlar guruhi faollik ko'rsatmoqda.

Havo tarkibida karbonat angdridning oshishi, chiqindi gazlarining me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo-global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi.

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida Yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslandi. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazayпти.

Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, Yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angdrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda sanoat korxonalariga faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish emas, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaslik ham asosiy talablardan biri sifatida qo'yilmoqda.

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay shart-sharoit yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvozanatini saqlash, tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish ko'zda tutilgan. Orolbo'yi hududlarda ekologik xavfsizlik darajasi ortib bormoqda. Ekologik holatning salbiy o'zgarishiga hududlarning

metrologik sharoitlari ham ta'sir qiladi. Markaziy Osiyo hududida quyosh haroratining yuqori bo'lishi inson organizmida qon aylanishini kuchaytiradi, ko'p miqdorda terlatib, ayrim kimyoviy moddalarning teri orqali so'rilishiga, xatto me'yornomada ko'rsatilgan eng kichik raqam ham halokatli zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda ruhiy (85 foizga) va asab xastaliklari (109 foizga), nafas olish a'zolari xastaliklari (108 foizga) ko'payadi. Tarkibida nitrobirikmalar mavjud bo'lgan suv va oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat iste'mol qilish moddalari almashinuvi, tayanch-harakat va asab tizimlari xastaliklarini, irsiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Respublikada Chirchiq, Olmaliq, Ohangaron, Angren, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va boshqa bir qator joylarda kimyoviy, neft-kimyoviy hamda mikrobiologik tarmoqlar korxonalarining, ko'p quvvat va suv talab qiladigan ishlab chiqarish vositalarining ko'pligi tufayli ekologiyaning salbiy o'zgarishi keskinlashdi.

Shuningdek, Prezidentimizning "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030" xalqaro sammitida ishtirok etgani ham ekologik muammolar yurtimizda, nafaqat yurtimizda balki butun dunyo miqyosida katta ahamiyatga molik ekanligini anglab yetish unchalik ham qiyin emas.

Prezidentimiz 30-may kuni Janubiy Koreya Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan Seul shahrida videoanjuman shaklida o'tayotgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik -2030" ikkinchi xalqaro sammiti ishida ishtirok etdi.

Ikki kunlik forum kun tartibidan iqlim o'zgarishi oqibatlarini yengib o'tish, "yashil" tiklanish va uglerod neytralligini ta'minlash, shuningdek, BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va iqlim bo'yicha Parij bitimi qoidalarini bajarish masalalari o'rin olgan.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida Orol dengizi halokatining global oqibatlarini yengib o'tish bu boradagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanganini ma'lum qildi. Shu munosabat bilan u yaqinda O'zbekiston tashabbusi bilan Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish bo'yicha qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi to'liq qo'llab-quvvatlangani uchun barcha xalqaro hamkorlarga minnatdorlik bildirdi. Davlat rahbari "yashil barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini alohida ta'kidladi.¹

Xulosa qilib aytilganda: Orol muammosi hal qilinishining tub mohiyati suv resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirishga bog'liq. Orolni saqlab qolish uchun Markaziy Osiyo respublikalari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yiliga 20-21 kub km suv Orolga quyiladigan miqdorda yagona suv xo'jalik siyosatini ishlab chiqish bunda Orolbo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish e'tiborga olinishi lozim. Masalaning yana bir jihati shundaki aholining sotsiologik so'rovnomalari natijalaridan shu kelib chiqmoqdaki yurtimiz hududidagi ko'plab korxonalaridan chiqayotgan zaharli tutunlardan aholini asrash uchun korxonaning o'chog'idan chiqayotgan zaharli tutunlarning bosh qismiga tutunni tutuvchi filtr

¹ <https://daryo.uz/>

qo‘yish maqsadga muvofiq deya xulosa qilindi. Ekologik muammolar jamiyat rivojlanishi uchun ham to‘siq bo‘la oladi.

Jamiyati rivojlanmagan yurt bir kun kelib tanazzulga yuz tutishi muqarrardir!

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

*Рахимова М.И. – старший преподаватель ТГТУ,
Исмаилов Р. – студент ТГТУ*

В области исследования проблемы образования и его функций можно назвать многих специалистов. В западной социологической науке наиболее распространенной точкой зрения является функциональный подход к системе образования, который развивают Э. Дюркгейм, Д.Дьюи, Т.Парсонс, Р.Мертон и др.¹

Сторонники функционального подхода к системе образования полагают, что взаимодействие системы образования с другими социальными институтами оказывает очень позитивное воздействие на общество. Так, согласно Э.Дюркгейму, основная функция образования – передавать ценности господствующей культуры. Он рассматривал образование как свойство, скорее отражающее сущность общества, чем трансформирующее его социальную систему. Он полагал, что ведущая функция образования как социального института состоит в поддержании связи между личностью и обществом, в укреплении целостности последнего.² Д.Дьюи обратил особое внимание на социальные проблемы школ, считая, что образование есть фундаментальный метод социального прогресса и реформ. Он считал, что на образование возложена задача совершенствования общества и решения даже классовых и политических проблем.³

Теорию воспроизводственной функции образования и роли наследственной передачи культурного капитала развивает П.Бурдьё. Он пишет об относительной независимости школы, которая позволяет традиционной образовательной системе внести свой вклад в воспроизведение структуры классовых отношений. Он отмечает, что в обществе, где получение привилегий все более и более зависит от обладания академическими рекомендациями, школа обеспечивает буржуазному сословию плавную преемственность, которая больше не может осуществляться прямо и открыто.

Имеет место социокультурный подход, рассматриваемый Н.Смелзером, который подчеркивает значимость функции трансляции, передачи знания «социального опыта».

¹ Дюркгейм Э. Социология образования. – М., 1996.; Парсонс Т. Система современных обществ. – М., 1998.; Дьюи Д. Школа и общество. – М.: Народное просвещение, 1925. и др.

² Дюркгейм Э. Социология образования. – М., 1996. – С. 27.

³ Дьюи Д. Школа и общество. – М.: Народное просвещение, 1925. – С. 24.

В отечественных социологических источниках образование в основном рассматривается как социальный институт, выполняющий экономическую, социальную и культурную функции в обществе. Так, Ф.Р.Филиппов считал, что социальные функции образования, как он считал, имеют выход на различные сферы общественной жизни: образование и труд, образование и социальная структура, система образования и духовная жизнь общества; подчеркивается также роль образования во всестороннем развитии личности.

По мнению А.М.Осипова, образование является, во-первых, относительно самостоятельной подсистемой общественной жизни, обладающей сложной совокупностью взаимосвязанных внутренних структур, насыщенных социальными отношениями, во-вторых, социальным институтом, выполняющим ряд функций (то есть объективных и устойчивых по характеру воздействия) в отношении общества и его отдельных подсистем.

По мнению многих авторов, “образование – относительно самостоятельная система, функцией которой является системное обучение и воспитание членов общества, ориентированное на овладение определенными знаниями (прежде всего научными), идейно-нравственными ценностями, умениями, навыками, нормами поведения, содержание которых, в конечном счете, определяется социально-экономическим и политическим строем данного общества и уровнем его материально-технического развития”.¹

Польский специалист в области образования Квечинский называет такие функции образования:

1) переконструктивная функция, которая состоит в организованном воспроизводстве универсальной и национальной культуры, а также в передаче и воспроизводстве существующей социальной структуры;

2) адаптивная функция, предполагающая развитие способности учащихся адаптироваться к профессиональным и социальным ролям и укрепить веру в необходимость и неизменность существующих систем;

3) функция эмансипации, включающая необходимость постоянного самосовершенствования, которое постепенно ведет к преодолению индивидуальных барьеров и ограничений.²

Он выдвигает также гипотезу об изменении в социальных функциях образования. Во-первых, образование и обучение в настоящее время перестают быть основным каналом социальной подвижности и поддержки; это связано с тем, что интеллектуальная, профессиональная и иная компетентность перестала быть основанием для вознаграждения. Во-вторых, перспективная роль образования заключается в том, что оно должно препятствовать обслуживанию узкоспециальных целей и интересов.

Делается вывод, что образование должно принять на себя роль медиатора между существующими и находящимися на стадии становления культурами, между настоящим и прошлым, между различными сторонами

¹ Колесников Л.Ф., Турченко В.Н., Борисова Л.Г. Эффективность образования. – М., 1991. – С. 5.

² Kwiecinski Zbigniew. The sociopathology of education. Torun: "EDYTOR" (Poland), 1995. – С. 17-28.

социальных конфликтов. Эта роль должна заключаться в сохранении стабильности, несмотря на непостоянство социальной среды и системы ценностей; эта роль должна способствовать формированию личностей, сознающих свой эмансипированный потенциал.

Ранее уже говорилось о том, что образование связано со всеми сферами общественной жизни. Реализуется эта связь непосредственно через личность, включенную в экономические, политические, духовные, иные социальные связи. Образование является единственной специализированной подсистемой общества, целевая функция которой совпадает с целью общества. Система образования «производит» самого человека, воздействуя на его интеллектуальное, нравственное, эстетическое и физическое развитие. Это определяет ведущую социальную функцию образования – гуманистическую.

II SHO‘BA. OILA, YOSHLAR, TURMUSH TARZI VA KUNDALIK HAYOT SOTSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

TIK TOKNING YOSHLAR IJTIMOY HAYOTIGA TA‘SIRI

*Ernazarov B.O. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Hamrayeva V. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Bugungi kunda hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar turmush darajasiga ta‘siri, o‘z domiga tortuvchi turli o‘yinlarga bevosita va bilvosita mukkasidan ketish holatlari dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda turli ijtimoiy tarmoqlar Internet olamining ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurdi. E‘tibor bilan qarasa ijtimoiy tarmoqlarning aksariyatlarida faqat yoshlarni uchratishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarni sanasak soni ko‘p. Hammasining ham unumli, foydali jihatlari bor, albatta.

Tarmoqlarda “Tik Tok” degan so‘z tez-tez Internet foydalanuvchilarining e‘tibor markaziga aylanib ulgurdi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: “Tik Tok o‘zi nima?” Tik Tok – bu yosh, lekin bugungi kunda juda mashhur ijtimoiy tarmoqlardan biri. Bu yerda foydalanuvchilar o‘z videolarini yaratadi, ularni boshqalar bilan baham ko‘radi, boshqa foydalanuvchilar ishini baholaydi va muloqot qiladi. Mazkur dasturiy mahsulot 2016-yilda Xitoyning mashhur “Byte Dance” korporatsiyasi a‘zosi Chjan Yiming tomonidan tashkil qilingan. Dastlab u “Play Store” yoki “App Store”dan yuklab olingan. Asosiy foydalanuvchilari kulgili va hazil videolarni suratga olib joylashtiruvchi yoshlar va maktab o‘quvchilari bo‘lgan.

Tik Tok oxirgi bir necha yil ichida dunyo bo‘ylab eng ko‘p marotaba yuklangan ilovalardan biri hisoblanadi. Statistik malumotlarga qaraganda yaratilganiga endigina 3 yil bo‘lgan Tik Tok 2019-yilda 1.5 mlrd.dan ko‘p marotaba yuklab olingan. Datareportal ma‘lumotlariga ko‘ra, Tik Tokning dunyo bo‘ylab faol foydalanuvchilari soni 850 mln kishini tashkil qiladi. Shundan 150 mln.i xitoyliklardan iborat. Tik Tok eng ommalashgan ilova hisoblanadi.

Tik Tokning qanchalar ommalashganini bilish uchun uni boshqa ilovalar bilan taqqoslab ko‘ramiz. 800 mln fotalanuvchi yig‘ish uchun Instagramga 6 yil, Facebookka 4 yil kerak bo‘lgan. Tik Tok esa 3 yilda bu natijaga erishdi. Platforma foydalanuvchilarini bir oy davomida kuzatish natijasida aniqlandiki, foydalanuvchilarning 68 %i boshqalarning videosini tomosha qiladi, 55 %i esa o‘zlarining videosini yaratadi. Demak, foydalanuvchilarning ko‘pi yangi kontent yaratishdan ko‘ra mavjudlarini tomosha qilishni afzal ko‘rar ekan. Tik Tok o‘zi nima, deya savol berilsa, ikkilanmasdan "Qimmatli vaqtimizning o‘g‘risi", deb javob berish mumkin.

Hozirgi davrga kelib Tik Tok nima ekanligini tushunmaydigan yoshlar bo‘lmasa kerak. Kundalik hayotimizda ijtimoiy saytlardagi bu videoroliklar ta‘siri

shu darajada yuqoriki, inson huddi virtual olamda yashayotganday his qiladi. Hozirgi yoshlarimiz Tik Tok hayoti bilan ulg'ayyapti, desak xato bo'lmas kerak. Hattoki endigina bog'chadan chiqib maktabga borayotgan yosh bolalar ham bu Tik Tokdagi videolarni zavq bilan tomosha qilishadi. Bunaqa o'zbek madaniyatiga to'g'ri kelmaydigan videolarni chiqarishdan nima foyda axir. To'g'ri, bu faqat o'sha videoni chiqargan tiktokerga foyda olib kelishi mumkin. Albatta tiktokerlar bu videolari va undagi layklarning ketidan mo'maygina daromad topishadi. Ammo yaxshilab o'ylab qaraydigan bo'lsak, buning oxiri tubsiz jarlikka olib kelishi mumkin.

Hozir istalgan maktab o'quvchilarining telefonlarini olib ko'radigan bo'lsak 85-90% da ushbu Tik Tok ilovasini topishingiz mumkin. Yoki istalgan maktab o'quvchisidan borib "Kelajakda kim bo'lmoqchisan?" deya savol bersangiz faxr bilan "tiktoker" bo'laman, deydi. Bu ham yetmagandek, bir guruh yoshlar to'planib qandaydir hauselar yaratib olganlari achinarli holat. Bu hauselarda bir nechta yigit-qizlar to'planib olib, o'z madaiyatiga xos bo'lmagan xatti-harakatlari bilan nomoyishkorona videolar chiqaradilar. Bu narsani hatto Islom dini ham qoralaydi. Nahotki ularning ota-onasi beparvo qarab turishsa, qizlarining bunaqa behayo qiliqlari, yarim-yalang'och raqs tushishlariga qo'yib berishsa. Erta-indin turmushga chiqishsa kelajakda bu videolarini farzandlari ko'rib uyalib qolmasmikan. Endi o'ylab ko'raylik, bu videolarni tomosha qilayotgan insonlarga u qanday ta'sir qiladi? Lekin oq bilan qorani yaxshi ajarata olmaydigan yoshlarchi? Ularga taqlid qilishmaydimi?

Bizningcha. bugungi kunda eng dolzarb muommalardan biri bu Tik Tok muammosi, desak xato bo'lmas kerak. O'ylab ko'raylik, bizni kelajakda nima kutyapti. Hayotimizni Tik Tok hayoti bilan ulg'ayib kelayotgan yoshlarga topshiramizmi. Kim kafil bo'la oladi bu ishlarni qilmasligiga? Hozirdan bu ishlarni oldi olinmasa, kelajakda bundanda noxushliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tik Tokning inson salomatligiga ham anchagina ta'siri mavjud. Eng avvalo, u inson ko'z gavhariga zarar yetkazadi. Axir o'ylab ko'ring soatlab telefonga tikilib turgandan keyin albatta ko'z shikastlanadi. Bundan tashqari, u inson miyasiga, umurtqa pog'onasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina jismonan emas ruhiy tomonlama ham zarari bor. Tik Tokni haddan tashqari ko'p ishlatishning psixologik oqibatlaridan biri shundaki, o'spirin o'z qadr-qimmati va o'ziga xosligini ilovada qilgan ishlariga asoslay boshlaydi. Ko'pgina o'spirinlar Tik Tok bilan o'ziga xoslik ko'rsatishni boshladilar. Ular jamoatchilik e'tiborini jalb qilish va yoqtirishlar va virusga duchor bo'lish bilan ovora. Biroq, Tik Tokning tabiati shundayki, agar ular o'zlarining maqsadlariga erishsalar ham, ularning g'alabalari o'tkinchi. Tarkibning tez sur'ati shundan iboratki, bir necha soniyadan so'ng yangi video paydo bo'ladi va hamma eskisini unutadi. Lekin mana shu qisqa vaqt davomida ko'rilgan video endigina o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlod ongiga o'z tasirini o'tkazmasdan qolmaydi. Balki bu ilovani ham foydali jihatlari bordir, biroq, zararli tomoni ancha ko'p, deb o'ylaymiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Tik Tok – yoshlarni o'ziga bog'lab olgan yechilmas arqon. Agar kimdir mana shu arqonni yechib tashlasa yoshlarni tubsiz jardan qutqargan bo'lar edi. Yoshlarimiz Tik Tokka be'mani videolarni olgandan

ko'ra qo'llariga kitob olib, ilm o'rganishsa kelajagimiz yanada porloq bo'ladi. Axir bizning ertamiz, kelajagimiz mana shu yosh avlod qo'lida ekanligini anglab yetgan holda, avvalambor oilada to'g'ri tarbiyani yo'lga qo'yish kerak.

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

*Jiyanmuratova G.Sh. – O'zMU dotsenti,
Beknazarova S. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri – korrupsiya. Aynan shu muammoni mamlakatlar, davlatlar, tashkilotlar o'zining rivojlanishiga katta to'siq sifatida ko'rishi bejiz emas, va bu davr muammosidir.

Xo'sh, Korrupsiya o'zi nima?

Korrupsiya (lotincha: *corrupto* – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o'tkazish harajatlarini ko'tarish korrupsiya ko'rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib "o'z qarzini" qaytaradi). Aksariyat korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha "Lokxid ishi" eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq "xizmat haqi" to'lash amaliyotidan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan, korrupsiya iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta omildir.

Mutaxassislar fikricha, korrupsiya so'zi "sotish" va "sotilish" degan ma'nolarni ham anglatar ekan. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilmu hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan o'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara

surasi, 188).

Poraxoʻrlik va korrupsiya oʻzbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri taʼkidlanib, “qoʻlga tushgan” amaldorlar televideniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yoʻqolib ketmayapti.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy taʼsir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, oʻz haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini koʻpaytiradi; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, oʻarb andozasiga oʻxshasa-da, mazmun-mohiyatiga koʻra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda oʻz ifodasini topgan boʻlib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik toʻgʻrisida” gi Konvensiyasi;
- 1999-yil 4-noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik toʻgʻrisida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

Oʻzbekiston yuqorida taʼkidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-son Qonunini imzoladi. Qonundan koʻzlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining oʻzaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi boʻyicha choralar ustuvorligi keltirib oʻtilgan.

Ushbu qonun meʼyorlarining samarali ijrosini taʼminlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2017 yil 2

fevraldagi qarori bilan “2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi” qabul qilindi. Dastur doirasida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi, mavjudlari inventarizatsiyadan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”¹.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

– 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

– korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minotni joriy etish².

¹ <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ-6013-сонли “Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга қарши курашиш тизimini такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020-й., 06/20/6013/1002-сон.

Xulosa o'rnida, korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni qo'llab-quvvatlash asosida uning changalidan qutqarish chorasi ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar! Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi – yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi. Muxtasar aytganda, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK VA AYOLLARGA BO'LGAN MUNOSABAT

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Mamatova N.N. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Ayollarning huquq va erkinliklarini, imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror jamiyatdagi ro'lini, barcha jabhalarda o'z o'rniga ega bo'lishi borasidagi chora-tadbirlar O'zbekistonda keng ko'lamli masalalar qatori o'rganilmoqda. Gender tenglik va salomatligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga Jahon Hamjamiyati, BMT, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va yana bir qancha nufuzli dunyo miqyosidagi xalqaro tashkilotlar yuqori e'tibor berilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ayollarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish maqsadida “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash, sohadagi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni¹ qabul qilindi. Farmonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar belgilangan.

Gender tenglik – erkak va ayollar ijtimoiy sohada teng tarzda ahamiyatga, hamda teng sharoitlarga (manba va imkoniyatlarga teng tarzda erishish) ega bo'lsalar va ulardan qonunda belgilangan tarzda rasmiy tenglik (hujjat asosidagi tenglik) asosida foydalana olsalargina, tenglik o'z aksini topadi. Agar insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ayollar erkaklarga nisbatan kamsitilgan, jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlatilgan davrlarni ifodolovchi ilmiy manbalarga duch kelamiz. Ming yillar davomida ayollar farzand ko'rib, ularni parvarishlab-tarbiyalash, oila xo'jaligini yuritish bilan cheklangani ma'lum. Misol tariqasida, Kommunistlar tomonidan uyishtirilgan “Hujum harakati” bir qator ayanchli voqealarga sabab bo'lgan. O'rta Osiyoda kommunistlar oldida odamlarning ongi

¹ Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 463.

va turmush tarzini o'zgartirish turar ekan, ular birinchi navbatda dinga zarar berish va ayollarni ko'chaga chiqarishni maqsad qiladi. "Hujum harakati"ning ilk tashviqot harakatlari 1924-yilda tashkil etilgan. Bu harakat ayollarga nisbatan bir qator muammoli vaziyatlarga duch keltirgan. Xalq orasida ayollar o'limi soni keskin ko'paygan. Bir tomondan, paranji tashlash yaxshi omillarga ega, deb hisoblansada, or-nomus darajasidagi ishlarni qo'zg'atish erkaklar tomonidan o'z ayollari va qizlarini o'ldirish darajasiga, ayrim ayollar esa o'z joniga qasd qilish holatlariga olib keladi. Albatta, bunday ayanchli voqealar tarix yuzini ko'rgan va bir qancha qurbonlariga ham ega. XX asrda ayollarni mana shunday qarashlardan ozod qiluvchi, oiladagi onalik, rafiqalik mas'uliyatidan voz kechmagan holda jamiyatda erkaklar bilan teng mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Ayollarning bunday huquqlarga ega bo'lishini BMTda ishlab chiqilgan Xalqaro huquq – "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" (1948) hamda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konsepsiya (1979) kafolatlabdi. Bu hujjatlar xotin-qizlarga nisbatan har qanday cheklashlarni tugatib, ularning oilaviy holatidan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: siyosat, iqtisod, madaniyat va fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga chaqiradi. U davlatlarni xotin-qizlarning kamsitilishlariga qarshi milliy qonunchilik choralarini hamda oila va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikni tezlik bilan o'rnatishga, ularning huquqlari kamsitilishini saqlab qolishga imkon beruvchi ijtimoiy va madaniy modellarini o'rnatish choralarini ko'rishni tavsiya etadi¹.

Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qiliadilar. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish" degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rinib turibdiki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish eng og'ir masalardan biridir. Afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda kata qiyinchiliklar, hatto yo'qotishlar (ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi.

Bu kabi muammolar qadim o'tmishda ham birqancha olimlar tomonidan muhokama etilganiga guvohi bo'lamiz. Jumladan, Suqrot, Arastu, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polis (davlat)ni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarida qo'llagan holda: "Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratatadi, lekin, odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi"², deb ta'kidlagan.

Shu jumladan, Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan Fuqarolik va

¹ Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konsepsiya. – T.: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 1998. – B. 1-3.

² Антология мировой философии. Т.1. – М., 1969. – С. 322.

ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikirlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tenglik muammolari borasidagi yechimlar, ayollar erkinligi va har sohada o'z o'rniga ega bo'lishi, huquq va qonunlar ishlab chiqilishi quvonarli albatta.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida shakllangan siyosat va iqtisodiyotga oid sohalarini tartibga soluvchi qonunchiligi, yaratilgan huquqiy mexanizmlar jamiyatning barcha sohalarida teng gender imkoniyatlarini ta'minlash siyosatini tanlanganligidan dalolat beradi¹.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston xotin-qizlari, millatidan qat'iy nazar, jahondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning yaratuvchi ishtirokchi sifatida o'z mavqelarini mustahkamlab bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasida ham quyidagilarga to'xtalib o'tgan edi: "Ayollar o'rtasida olib boriladigan ishlarning shakllarini kengaytirish, ularning ilmiy va madaniy saviyasini ko'tarish kerak. Shuni unutmaylikki, jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati uning madaniy-ma'naviy saviyasini belgilaydi".

O'zbekistonda xotin-qizlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvatlash, siyosiy faoliyatini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish, sog'lom oilani shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu esa davlatning kelajagi uchun ahamiyati kattadir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kilaganidek: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoi-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning roli tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz". Bu kabi islohotlar va bir qator chora-tadbirlar yuqoridagi muammolarning yechimini topishiga hamda davlatimizda ayollarga bo'lgan e'tiborni yanada oshishiga sabab bo'ladi, desak adashmaymiz .

SOTSILOGIYADA YOSHLAR MUAMMOSI

Mamutova N. – QDU 2-bosqich talabasi

Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish haqidagi muammo bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lib, 2016-yil 14-sentyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligi buning tasdigidir.

Bu qonunda yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvatlash maqsadida bu haqida shunday deyilgan: yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi, deb belgilaydi. Mana shu asosida bugungi kunga qadar yoshlarni qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilmoqda.

¹ Qarang: Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. – Toshkent, 2000. – B. 84-88.

Har bir davlatning kelajagi yoshlar bo'lganidek, O'zbekiston Respublikasida ham yoshlar O'zbekiston kelajagi sanalib, ularning millati, dini, kelib chiqishi, tili, jinsi, siyosiy ishonchidan qat'iy nazar yoshlarga g'amxo'rlik qilinadi.

Globalashuv davrida yoshlar muammosi katta muammo bo'lgani sababli uni teran va har taraflama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish kerak bo'ladi.

Globalashuv – turli davlatlar iqtisodiyoti, madaniyati, ma'naviyati, insonlari o'rtasidagi o'zaro tasir va bog'liqlikning kuchayishi hisoblanadi.

Davlatning yoshlarga oid davlat siyosatida ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta'lim muassasalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari qonunning 10-moddasida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga ko'ra ham yoshlarning bilim olish masalasi davlat tomonidan kafolatlanadi va qo'llab-quvvatlanadi. Yoshlarning bunday muammolarini o'rganish va tahlil qilish uchun mavjud sharoitlarni hisobga olib, muammoga innovatsion qatnashni talab qiladi. Yangi sotsial hayotda yoshlarning bilim olishi orqali ularning ijtimoiylashuvi masalasida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Yoshlar muammosi qadimiy davrlardan boshlab o'z o'rnini topishga qaratilib kelingan. Masalan Karl Mangeymning "Avlod muammosi" asarida alohida ahamiyat beriladi, o'ziga xosligi bilan xarakterlanadigan yaxlitlik ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar mavzusidagi ko'plab tadqiqodchilar uchun zaruriy nazariy yo'nalishga aylangan. "Bizning davrimiz diagnostikasi" kitobining bir bobi zamonaviy jamiyatdagi yoshlar muammosiga to'liq bag'ishlangan. Muallif yoshlarga taqqoslaganda ijtimoiy yondashuvni asoslab beradi, uning fikriga ko'ra sotsiologiya endi ta'lim va tarbiyani sof fursatdan tashqari va eskirgan deb hisoblamaydi, aksincha jamiyatning o'ziga xos xususiyatlariga katta e'tibor beradi. Yoshlar va jamiyat o'zaro munosabatlarda ko'rib chiqiladi. Yoshlarga nimani va qanday qilib o'qitish kerak? degan savolga javob, ko'pincha jamiyatning yoshlardan kutayotgan xissasining o'ziga xosligiga bog'liq. Jamiyat doirasida biz yoshlarning ehtiyojlarini abstrakt ma'noda shakllantira olmaymiz, biz buni bu jamiyatning ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda yeshishimiz kerak.

Yoshlar muammosi bo'yicha bir qator maqolalar bosilib chiqa boshladi, ularda yoshlarning har xil muammolari ko'tarilib uni o'rganishni boshlaydi. Yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 30-iyun "Yoshlar kuni" deb belgiladi va shu kuni O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi shakllantirildi. Shuningdek, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni hamda 2017-yil 18-iyuldagi PQ-3138 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorini imzoladi.

Qonun orqali yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkillashtirilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining status va ular faoliyatining davlat kafolati belgilab berildi. Yoshlarni huquqiy va sotsial jihatdan qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari yanada kuchaytirildi.

Qonun hujjatlarida yoshlar uchun: o'rtta bilim berish va kasb-hunar ta'limini olish, ta'lim muassasalarini tamomlagandan so'ng yoshlarning ba'ndligini ta'minlash, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lganlarni uy-joy bilan ta'minlash, yoshlarning dam olish va sog'lomlashtirish tizimini rivojlantirish va boshqa dolzarb muammolar alohida moddalar bilan belgilab qo'yilgan.

Yoshlar bilan bo'g'liq muammolarni yechish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Ma'lum bir yo'nalishda faylasuflar, siyosatshunoslar va birinchi navbatda sotsiologlarning g'oyalari va amalga oshiradigan tadqiqodlari zaruriy o'rin tutadi. O'zbekistonning o'z mustaqilligini yoshlarda ko'rish sotsiolog-olimlarning oldiga ham katta vazifalarni qo'yadi, bu sharafligini jamiyatimizdagi muhim qatlarning ijtimoiy qiyofasi, xarakteristikasini o'rganish, orzu-niyatlari haqida har doim xabardorlikni ta'minlashdan tashqari ularning ishlarini optimallashtirish, yaxshi faoliyatga yo'naltirib turish, oxir-oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga ham hissa qo'shishdan iborat hisoblanadi. Shu sababdan yurtboshchimizning "Biz uquvli, fidoiy bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini egallab olishi uchun qanot berishimiz kerak", degan fikrlari juda ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Aytib o'tishimiz kerakki, yoshlarning intellektual-ruhiy kamoloti ularning o'zini o'zi tushunib yetish jarayonlari bilan bo'g'liq. Davlatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatimiz istiqboli uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olishga layoqatli, serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bo'yicha alohida tizim yaratildi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishini ta'minlash shu bilan birga, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziquvchanligini har jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Besh tashabbus"ni joriy etish bo'yicha natijali ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deb e'lon qilindi. Bundan yurtboshchimizning biz yoshlarga qaratayotgan e'tibori katta ekanligini bilsak bo'ladi. Bizga berilgan imkoniyatlardan to'g'ri va o'qilona foydalanishimiz kerak, chunki yurtimizning rivojlanishida yoshlarning o'rni katta ahamiyatga ega.

INTERNETGA QARAMLIK

Musayev F. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Internetga qaramlik –bu Internetdan majburiy foydalanish deb nomlanuvchi, bir yoki bir nechta onlayn tadbirlarni, shu jumladan o'yin, ijtimoiy media yoki brauzerni amalga oshirishni istash bilan belgilanadigan xulq-atvorga bog'liqlik. Ushbu xulq-atvor buzilishidan aziyat chekadiganlar onlayn xarid qilish, qimor o'ynash, ijtimoiy tarmoq yoki o'yin o'ynashga yoki bir nechta onlayn tadbirlarning kombinatsiyasiga qaram bo'lishi mumkin.

Internetga qaramlik 2000 yildan 2021 yilgacha butun dunyo bo‘ylab Internetdan foydalanish 1000 foizga ko‘payganligini hisobga olgan holda, nisbatan yangi ruhiy muammo hisoblanadi. Dalillarga ko‘ra, Internetga qaramlik asosan erkaklar, yuqori daromadli odamlar va nevrotikizm kabi psixologik xususiyatlarni namoyon etadiganlar orasida keng tarqalgan.

Internetda haddan tashqari ko‘p vaqt sarflash sizning Internetga qaramlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelishingizni anglatmaydi, chunki ko‘p odamlar ishda, maktabda va boshqa turli sabablarga ko‘ra soatlab Internet tarmog‘ida bo‘ladilar va odatdagidek ishlashlari mumkin. Bugun oddiy kundalik ishlarni bajarish va ish, maktab, oila va moliya kabi muhim vazifalarni bajarish qobiliyatini pasaytira boshlaganda Internetdan foydalanish jiddiy muammo bo‘lib qoladi.

Internetga qaramlikning alomatlari bilan tanishish sizga yoki yaqiningizga professional davolanish shaklida yordamga muhtojligini aniqlashga yordam beradi. Internetga qaramlikning alomatlari ko‘plab boshqa xulq-atvor belgilariga o‘xshashdir. Internetga qaramlikdan aziyat chekadiganlar, Internetdan foydalanishni boshqa barcha muhim hayotiy majburiyatlardan ustun qo‘yadi va ijtimoiy faoliyatni chetlab o‘tishlari mumkin, shuning uchun ular ko‘proq vaqtni Internetda o‘tkazishlari mumkin.

Internetga qaramlik tashhisi qo‘yish uchun kimdir quyidagi xususiyatlardan kamida beshtasini namoyon qilishi kerak:

1. Internet bilan ovora bo‘lish, masalan, keyingi safar Internetda bo‘lishingiz bilan shug‘ullanadigan narsalar haqida o‘ylash;
2. Xuddi shu miqdordagi mamnunlikka erishish uchun ko‘proq vaqtni Internetda o‘tkazish kerakligini his qilish;
3. Internetdan foydalanishni kamaytirish bo‘yicha takroriy, muvaffaqiyatsiz urinishlar;
4. Internetdan foydalanish cheklangan bo‘lsa, asabiylashish, tushkunlik kayfiyati hissi;
5. Internetdan mo‘ljallangan vaqtdan uzoqroq vaqt davomida foydalanish;
6. Internetda o‘tkazadigan vaqtingiz haqida yolg‘on gapirish;
7. O‘zingizning kayfiyatingizni tartibga solish yoki yaxshilash uchun Internetga tayanish.

Internetga qaramlikdan aziyat chekishingiz mumkin bo‘lgan boshqa belgilar va alomatlar:

1. Internetdan bemaqsad foydalanishda ko‘p vaqtni yo‘qotish;
2. Internetda ko‘p vaqt sarflash sababli boshqa muhim vazifalarni bajara olmaslik;
3. Internetdan foydalanganlik sababli do‘stlar bilan uchrashuv, ish yoki o‘qishni o‘tkazib yuborish;
4. Uzoq vaqt davomida o‘tirish tufayli vazn ortishi;
5. Vaqtida ovqatlanishni bekor qilish tufayli vazn yo‘qotish;
6. Shaxsiy gigiyenaning pasayishi uyqusizlik va uyquning buzilishi;
7. Bosh og‘rig‘i bo‘yin va bel og‘rig‘i karpal tunnel sindromi;
8. Oila va yaqin insonlarga kam vaqt ajratish.

Ko'p jihatdan, Internetga qaramlikni giyohvandlik yoki alkoholga qaramlik bilan taqqoslash mumkin, chunki Internetga qaramlik qoniqarli ta'sir ko'rsatish uchun Internetdan tobora ko'proq foydalanishni istaydi. Bu alkoholning moddaning foydasini his qilish uchun ko'proq alkohol ichishi kerakligi yoki giyohvandning bir xil "yuqori"ni ishlab chiqarish uchun ko'proq giyohvand moddalarni iste'mol qilishiga o'xshashdir. Masalan, bir xil miqdordagi qoniqishga erishish uchun Internetga ko'proq vaqt sarflaydi. Har safar esa buni yanada dozadini oshirish kelib chiqadi.

Internetga qaramlik boshqa odatlarga xos bo'lgan shaxsiy, oilaviy, ilmiy, moliyaviy va kasb muammolarini keltirib chiqaradi. Internetdan haddan tashqari foydalanish natijasida hayotiy munosabatlarning buzilishi kelib chiqadi. Internetga qaramlikdan aziyat chekadigan shaxslar yolg'iz qolish uchun ko'proq vaqt sarflashadi, hayotlarida haqiqiy odamlar bilan kamroq vaqt o'tkazadilar va ko'pincha ularni ijtimoiy jihatdan noqulay deb hisoblashadi. Onlayn rejimda o'tkazgan vaqt tufayli tortishuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Internetga qaramlikdan aziyat chekayotganlar onlayn rejimida o'tkazgan vaqtlarini yashirishga urinishlari mumkin, bu esa ishonchsizlik va barqaror aloqalarda sifat buzilishiga olib keladi.

Odamlar turli xil sabablarga ko'ra Internetga qaram bo'lib qolishadi. Ko'pincha, majburiy ravishda Internetdan foydalanish istagi depressiya, tashvish, stress yoki yolg'izlik kabi yoqimsiz hissiyotlarni boshqarish istagi natijasidir. Ba'zilar o'zlarini real hayotda ijtimoiy jihatdan befarq his qilishadi va odamlarga yaqinlikni his qilish vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqlarning o'zaro ta'siriga murojaat qilishadi, boshqalari vaqtincha o'zlarini yaxshi his qilish uchun o'zlarini Internetda yo'qotishlari mumkin. Afsuski, Internet majburiy ravishda ishlatilganda ko'plab oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Internetga qaramlikni o'z-o'zidan yengib o'tolmaydigan yoki uni yengib chiqa olmaydiganlarga yordam berish uchun davolanishning turli xil variantlari mavjud.

1. Nima uchun qaram ekanligingizni o'ylab ko'ring. Sizni "Internet ajoyib"dan tashqari, unga qaram qilib qo'yadigan boshqa sabablar bormi? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Internetga qaramlikdan aziyat chekadigan shaxslar ko'pincha boshqa asosiy muammolarga duch kelishadi. Sizni boshqa ishlardan xalos qiladigan yuqori darajadagi xavotir bormi? Agar siz yolg'iz bo'lsangiz, Internet orqali ijtimoiylashishga intilasizmi? Agar siz giyohvandlikning asosiy sabablari haqida chuqur o'ylab, uning o'rniga shu narsalarga e'tibor qaratsangiz, nafaqat o'zingiz haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lasiz, balki dilemmani engishga bir qadam ham yaqinlashasiz.

2. Psixologga murojaat qiling. Vaziyatingizdan uyalmang. Internet ulkan hayvondir, va boshqalar har kuni dunyo bo'ylab unga qaram bo'lib qolmoqdalar. Yaxshiyamki, bu haqda psixolog bilan suhbatlashish orqali siz o'ziga qaramlikni yengish uchun zarur bo'lgan ishonch va manbalarga ega bo'lasiz. Agar siz xavotirda bo'lsangiz, psixolog ko'pchiligida Internetga qaramlikdan ko'ra ko'proq halokatli sharoitlar mavjudligini unutmang. Psixolog bilan suhbatda ochiq va tortinmasligingiz o'zingizni kashf etishning kalitidir.

3. Saytlarni tekshirishni to'xtating. Internetga qaram bo'lganlarning aksariyati har safar yangilanganlarida bir xil veb-saytlarni qayta-qayta ko'rib chiqishadi. Nega ba'zi veb-saytlarni tez-tez uchratishingizni va ulardan nima olib chiqayotganingizni o'ylab ko'ring. Siz qabul qilayotgan o'yin-kulgilar bunga loyiqmi? Agar siz o'ylamasdan bir xil sahifalarga muntazam kirib borish odatini rivojlantirgan deb hisoblasangiz, ehtimol siz Internetga qaramlikdan aziyat chekasiz. Xavotir olmang; sizda muammo borligini anglab yetish, tiklanish uchun birinchi qadamdir!

4. Vaqtingizni sarflashingiz mumkin bo'lgan boshqa narsalar haqida o'ylang. Internetga qattiq qaram bo'lganlar uchun hayot tashqarida qanchalik qoniqarli ekanligini eslash qiyin bo'lishi mumkin. Siz faqat bir marta yashaysiz ... aksariyat vaqtingizni o'tirgan holda ekranga qarab o'tkazishni xohlaysizmi? Agar siz Internetda o'tkazgan barcha vaqtlaringizni hisoblab chiqsangiz va ularni yanada samaraliroq ishlarga, masalan, badiiy ijod qilish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish yoki o'zaro munosabatlarni o'rnatish kabi ishlarga qo'ysangiz, ehtimol siz ushbu toifada bir necha kilometr oldinda bo'lasiz. Garchi ba'zida buni his qilmasa ham, Internet nafaqat sizning lazzatlanishingiz uchun, balki tanangiz va ongingiz uchun ham juda cheklangan.

5. Internetda vaqtni cheklash uchun reja tuzing. Internetga qaramlikni yengib chiqishni o'z zimmangizga olganingizdan so'ng, birinchi muhim qadam – Internetda o'tkazadigan vaqtingizni cheklash. Sog'lom vaqtni tanlashdan boshlang (o'rtacha sarflanishingizga qarab) va uni sekin tushirishga harakat qiling. Ushbu davomiylikni o'rnatganingizdan so'ng, orqaga qaytish mumkin emas. O'zingiz belgilagan vaqt chegarasiga etganingizdan so'ng kompyuteringizni o'chiring. Ushbu mashq sizga Internetda yo'qotadigan vaqtingizni minimallashtirishdan tashqari sizga katta intizomni o'rgatadi. Shuningdek, bu sizning sevimli veb-saytlaringizni faqat bir marta tekshirishga undaydi, aksincha, to'shakda uxlab qolguningizcha, ularga bir necha bor tashrif buyurishingiz mumkin.

6. Telefoningizni elektron pochtdan boshqa narsa uchun ishlatmang. Sizning yangi smartfoningiz, ehtimol Internetga qaramlikni kuchaytiradigan eng katta omil. Telefonlar faqat qo'ng'iroq qilish va SMS yuborish uchun ishlatilgan vaqt o'tdi. Endi sizning smartfoningiz aslida cho'ntagingizga sig'adigan kompyuter. Agar siz Internetga qaramlikdan azob chekayotgan bo'lsangiz, sizga hech qachon telefoningizda Internetga kirmasligingiz tavsiya etiladi, faqat sizning ishingiz uchun elektron pochtagiz bundan mustasno. Telefoningizda doimiy Internetdan foydalanish nafaqat qaramligingizni kuchaytiradi; u qisqa vaqt ichida sizning hamyoningizni bo'sh vaqtga sarflaydi va qimmatbaho ma'lumotlarning daqiqalarini yoqib yuboradi!

7. Internet bilan bog'liq bo'lmagan yangi sevimli mashg'ulotlarini toping. Agar siz boshqa har qanday faoliyatdan ko'ra Internetda ko'proq vaqt sarflasangiz, o'zingizni o'ziga qaram odam deb biling. Agar bu sizga o'xshasa, yangi sevimli mashg'ulotni tanlash juda tavsiya etiladi. Har qanday shaklda mashq qilish – bu sizning ongingiz va tanangizni yangilashning ajoyib usuli. O'zingizni yanada tirikroq his qilish uchun o'zingizga chorlang. Agar sizga mos keladigan sevimli mashg'ulot haqida o'ylashda qiynalayotgan bo'lsangiz, Internet bilan ovora

bo'lishdan oldin o'zingiz yoqtirgan mashg'ulotlar haqida o'ylab ko'ring va ularga qaytishga harakat qiling.

8. Tabiatga qaytish. Ba'zan, Internetga qaramlikni yengish uchun keskin choralar talab etiladi. Kengaytirilgan lager safari yoki yangi joyga uzoq muddatli ta'tilga chiqishni o'ylab ko'ring. O'zingiz bilan telefoningizni yoki kompyuteringizni olib kelmang. O'zingizni tabiat muhitiga qo'yib, ongingiz tiklanadi va Internet sizdan olib qo'ygan barcha his-tuyg'ularni, jismoniy hissiyotlarni va umuman ajoyib tajribalarni qayta kashf etasiz. Ushbu turdagi tajribalar insoniyatning o'zi Internetdan ancha oldin bo'lganligini va biz shunchaki ko'p vaqtni Internetda o'tkazish uchun simlar bilan bog'lanmaganligimizni eslatadi.

9. Internetdan voz keching. Bu ish uchun Internetga ishonadiganlar uchun imkoniyat bo'lmasligi mumkin. Agar siz hech narsaga majbur bo'lmasangiz, Internetdan butunlay voz kechish ko'zni ochadigan va juda foydali qaror bo'lishi mumkin. Qisqa vaqt ichida Internet jamiyatning kollektiv ongiga qanchalik ta'sir qilganligi haqida o'ylab ko'ring. Internet bu vosita bo'lishi kerak edi, lekin u asta-sekin umuman boshqa hayvonga aylanib bormoqda. Agar siz hozir ishdan chiqsangiz, avvaliga o'zingizni chetda qolgan deb his qilishingiz mumkin, ammo siz shubhasiz undan tashqarida hayotni qadrlashni o'rganasiz. Internetga qaramlik beparvo bo'lmasligi kerak va har qanday giyohvandlik kabi jiddiy bo'lishi mumkin. Siz allaqachon qattiq qaram bo'lib qoldingizmi yoki shunchaki u yerga yo'lda ekanligingizni his qilsangiz ham, o'zingizni Internetga berib yubormaslik uchun ushbu qadamlarni diqqat bilan ko'rib chiqing. Haqiqat bir necha qadam narida!

ZAMONAVIYLASHAYOTGAN HAYOTIMIZGA MOBIL TELEFONNING TA'SIRI

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Nabiyeva Sh.N. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Hozirgi zamonaviylashgan davrda har birimiz telekommunikatsiya vositalarisiz hayotimizi tasavvur qila olmaymiz. Telekommunikatsiyaning zamonaviy ko'rinishlaridan biri bu – mobil telefon. Mobil telefonlar va ovozli axborotni uzatish tarmog'ining paydo bo'lishi insoniyat hayot faoliyatiga katta imkoniyatlarni taqdim etdi. Uni ko'pchilik doim o'zi bilan olib yurgani uchun ham qo'l telefoni deb ataydi. Ma'lumki, mobil telefonlari oddiy qurilma bo'lmay, masalan, ancha ishlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish: yaqinlar bilan doimiy muloqot qilish, elektron pochtaga yangi xabar kelganidan voqif bo'lish kabi juda ko'p vazifalarni amalga oshirishda hamkor yordamchi, ammo har doim ham shunday bo'lmagan. Mobil telefonsiz, uning bergan qulayliklarisiz ham, uning yaratilishidan oldingi davrlarda insonlar ancha yahshiroq yashaganlar, deyish mumkin. Ammo tan olish kerakki, mobil telefonning qulayliklari ham anchagina, zarari ham talaygina. Hozirgi kunda statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda

3.5 mlrd.dan ko'p mobil telefon mavjud. Har yili tahminan 150 ming mobil telefon yaroqsiz, deb tashlab yuborilar ekan.¹

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mobil telefonning bolalarga ta'siri kattalarnikidan anchagina yuqori (ta'sir deyilganda zararni tushunishimiz kerak).

Ushbu qurilma organizmimiz a'zolarining quyidagi tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi:²

Yurak-qon-tomir faoliyatiga. Elektromagnitdan doimiy ravishda nurlanish aritmiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari u gipertonik kasalliklarga ham sababchi bo'lishi mumkin ekan.

Endokrin faoliyatga. Mobil telefonlardan chiqayotgan to'liq yog'lar faoliyatini o'zgartirib yuborarkan. Bu esa gipofiz va buyrak usti bezlariga zarar keltirib, qondagi adrenalini miqdorini ortiqcha qo'zg'atib yuborarkan ekan.

Asab tizimiga. Ushbu qurilma miyadagi to'qimalarga zarar yetkazadi. Mobil telefon qo'lidan tushmaydigan odamlarda aqliy qobiliyatning tushib ketganligi va uyqudagi bexalovatlik alomatlari kuzatilgan.

Immun tizimiga. Elektromagnit maydoni T-limfotsitlarining ishlashiga halaqit beradi.

Har bir odam mobil telefonining o'z organizmiga ta'sir kuchini kamaytirishi mumkin. Telefon so'zlashuvlari uzog'i bilan 10-12 daqiqa davom etishi lozim. Ishlatililmagan paytlarda, iloji boricha u tanadan uzoqroqda turishi zarur. Tunda uni, albatta, o'chirib qo'yish kerak.

Zamonaviy psixolog, pedagog olimlar axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining shaxs kamolotida tutayotgan o'rni, talaba-yoshlar turmush tarzidagi ta'siriga alohida e'tibor qaratgan holda kelajak avlodning turli salbiy holatlar, ya'ni Internetga qaramlik, kompyuter o'yinlariga berilib ketib, real hayotiy vazifalarini unutish, ijtimoiy tarmoqlar salbiy oqibatlarining oldini olishga yo'naltirilgan dolzarb masalalar ustida ish yuritishlari hamda talaba-yoshlarga ko'proq ta'limiy, rivojlantiruvchi, til va boshqa sohalarida o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish metodlarini joriy etishlari zarur. Masalan, Internet olamida o'zlariga zarur bo'lgan foydali axborotdan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirish lozim.

Zamonaviy Internet taqdim etadigan ijobiy axborot-resurslari bilan bir qatorda, ayrim virtual olamdagi axloqsizlik, buzg'unchilikni targ'ib etuvchi axborotlar, salbiy ta'sirli kompyuter o'yinlarining xavfli ta'siridan bolalar va o'smirlarni himoya etish dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Internet-resurslarini turli soha mutaxassislari, jumladan, pedagogik va psixologik nuqtai nazaridan nazorat qilish lozim. Bu borada, ayniqsa, ota-ona nazoratini amalga oshiruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish zarur. Shu boisdan ham, umumta'lim maktablari va boshqa ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan avlod ongini chalg'ituvchi axborotlardan o'zlarini himoya etish immunitetini shakllantirish kattalarning muhim vazifasidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

¹ Qiziqarli faktlar, Terrabayt.uz sayti

² "Shifo-info" gazetasi

vositalari o‘smir-yoshlarni jalb etarkan, ta’lim tizimida foydalanilishi zarur bo‘lgan innovatsion psixologik-pedagogik dasturlar yaratish davr talabidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning qayta ishlanishi asosida shunday xulosaga kelindiki, o‘quvchi yoshlar uchun Internet asosiy ma’lumot bazasi hisoblanadi. Ularning deyarli yarmi (49 %) har kuni Internetdan foydalanadi. Talaba yoshlarning 30 %i Internetda bir martada 20-30 minut vaqt sarflasa, 27.5 %i 1 soat vaqt mobaynida uzluksiz Internet xizmatlaridan foydalanadilar. So‘ralganlarning deyarli yarmi sotsial tarmoqlardan foydalanish turmush tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, deb biladilar.

Internetda o‘quvchi yoshlarning 89 %i o‘yinlar, 90 %i musiqiy va videoli saytlardan foydalansa, 59 %i virtual ensiklopediyalar va rasmiy manbalardan keng foydalanadilar. 78 % so‘ralgan o‘quvchi-yoshlar Internetdagi turli-tuman ma’lumotlar inson ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatad, deb biladilar. Aksincha, 25 % o‘quvchi-yoshlar esa turli mazmundagi axborotlarni qidirish osonligi bois Internetni ijobiy sotsial hodisa, deb ta’rifladilar.¹

Internet World Stats ma’lumotlariga ko‘ra (2018-yil holatiga ko‘ra), dunyo aholisining deyarli yarmi (49 %i) Internet foydalanuvchilari. Osiyo mintaqasida dunyo aholisining 54.9 %i istiqomat qiladi, deb hisoblasak, ularning 53.6 %i Internet tarmoqlari va mobil telefondan to‘liq foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan eng ko‘p foydalanadiganlar esa bir kimganda 4-7 soatlab vaqtini Internet tarmoqlariga sarflashlari aniqlangan.²

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda Internet tarmoqlaridan foydalanayotganlarning deyarli ko‘pchiligi yoshlarni tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, 2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra aholi soni 34 038 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, shuning 60 %i yoshlardir. Ularning 57 %i mobil telefon va Internet axborotlaridan foydalanadi. Ularning 17-20 %igina Internet tarmoqlaridan unimli foydalana oladi, xolos. Qolgan qismi esa, afsuski vaqtini behuda ko‘ngilochar saytlar, har xil saviyasiz o‘yinlar-u tanishuv chatlariga sarf qilishadi.

Internet ma’lumotlaridan har birimiz bevosita foydalanar ekanmiz, bu ma’lumotlarga tanqidiy munosabatda bo‘lishimiz, har qanday axborotni ham o‘zimiz uchun to‘g‘ri, deb qabul qilmasligimiz kerak. “Buning uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, - deydi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti Husanova Xayriniso Tayirovna:

Birinchidan, sotsiopsixiologik metodlar asosida o‘quvchi yoshlarning yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishlarida turtki bo‘luvchi sotsial muommolar, ularning axborot xavfsizligiga oid bilim saviyasi, axborotni filtrlash ko‘nikmalari, uning zamonaviy manbalariga tobeklik darajasini tashxislash;

Ikkinchidan, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasi asosida voyaga yetmaganlarning sotsiopsixiologik obrazini yaratish, ularning sotsial mobilligiga turtki bo‘luvchi motivlarning ierarxik modelini hosil qilish;

¹ Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, Doi Journal 10.26739/2181-9556, 2019-y, 62-b.

² Internet world stats.com

Uchinchidan, axborot tahdidlariga qarshi sotsiopsixologik immunitetni mustahkamlashning ilg'or mexanizmlari va texnologiyalari bo'yicha o'quv-uslubiy modularni ishlab chiqish"¹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Internet axborotlaridan o'z vaqtida, o'z me'yorida foydalanishimiz, axborot xavfsizligiga rioya qilishimiz zarur. Har bir ota-ona farzandiga mobil telefon olib berar ekan, uni nazorat qilishni ham yodidan chiqarmasligi kerak. Shundagina mobil telefon va Internet hayotimizga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi.

SOTSILOGIYADA DEVIANT XULQ-ATVOR NAZARIYASI VA UNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

*Jiyanmuratova G.Sh. – O'zMU dotsenti,
Ne'matova G. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Jamiyatda insonlarning faoliyati, xatti-harakati va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgani sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangilari o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartirishdan iboratdir.

Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va h.k. kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etadilar va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajaradilar. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bolib, deviant xulq-atvornining oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'zni katta bo'ladi.

Deviant xulq-atvor – jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari

¹ Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, Doi Journal 10.26739/2181-9556, 2019-y, 65-b.

hisoblanadi. Oramizda shunday insonlar ham uchraydiki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlarini yuzaga keltiradilar.

Sotsiologiya fani tarixida deviant xulq-atvorni ilk empirik tadqiq etgan olimlar qatorida Dyurkgeym, Vagner, Tennislarni eslab o'tishimiz joiz. Deviant xulq-atvor muammosini dastlab sotsiologiya fani doirasida Emil Dyurkgeym (1858-1917) maxsus o'rgangan. Biz uning nazrayalariga murojaat qiladigan bo'lsak: individ tug'ilganida unga bog'liq bo'lmagan holda shakllanib, amaliyotda bo'lgan qonun va an'analar, o'zini tutish qoidalari, diniy e'tiqod va marosimlar, pul tizimiga duch keladi. Mazkur obyektiv sotsiol faktlar individlarga o'z bosimini ko'rsatadi. Demak, har qanday inson o'zida sotsiol faktlar bosimini his qilib, o'z harakatlarini shunga muvofiqlashtiradi.

Sotsiol faktlar – individdan tashqari, ya'ni obyektiv tarzda mavjud bo'lgan xatti-harakt namunalari, tafakkur tarzi va hissiyotlari bo'lib, unga nisbatan majburlash munosabatida bo'ladi. Ular guruhiy ong faktlari va morfologik faktlarga ajratiladi.

Guruhiy ong faktlari umumiy g'oyalar va tuyg'ular, axloqiy qoidalar va e'tiqod, umumiy xatti-harakat qoidalari, insonlarning iqtisodiy motivlari va qiziqishlari kabilarda namoyon bo'ladi.

Morfologik faktlar esa individlar o'rtasidagi tartib va bog'liqlikni o'rganatadi va aholi soni va zichligi, turmush shakli, geografik joylashuv kabilarda o'z ifodasini topadi.

E.Dyurkgeymning "O'zini o'zi o'ldirish" asari ham aynan ana shu deviant xulq-atvorni ko'rishini yoritib bergan. Bu asarda Dyurkgeym "anomiya" tushunchasini qo'llagan va uni o'zini o'zi o'ldirishagi asosiy ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rsatgan. Anomiya – jamiyat normalari va qadryatlarining buzilishi natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy holat.

Har qanday axloqsizlik, me'yordan og'ish bilamizki, ozidan o'zi paydo bo'lib qolmaydi, albatta. Bunda eng muhim ro'l o'ynaydigan jihatlardan biri ijtimoiy muhitdir. Bu faktni biz yuqorida qayd etgan Dyurkgeym nazariyasidan ham bilishimiz mumkin. Ijtimoiy muhit qanchalar nosog'lom bo'lsa, undagi yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'maydi, albatta. Muhit – insoning ongiga, dunyoqarashiga, tarbiyasiga, o'zini anglash qobilyatiga ta'sir etuvchi borliqdir. Dyurkgeymning o'z joniga qasd qilish muammosi doirasidagi tadqiqotida hatto ta'lim va tarbiya masalalari borasidagi statistikasi to'plagan va tahlil qilgan. Bu unga Fransiyadagi ta'lim jarayoni dinamikasini ko'rsatish va uning sifat o'zgarishining istiqbollari aniqlash imkonini berdi.

Adolf Vagnerning (1835-1917) o'z joniga qasd qilish statistikasini bir qator omillar: yoshi, kasbi, oilaviy holati, diniy mansubligi bilan bog'liq holda tahlil qilishga asoslangan tadqiqotlari nafaqat Germaniyada, balki undan tashqarida ham tanilgan. Vagnerning ko'pgina g'oya va xulosalari E. Dyurkgeymning tadqiqotlarini ortda qoldirgan, ammo nemis sotsiologi o'z joniga qasd qilishning ijtimoiy hodisa sifatidagi nazariyasini yaratmagan. Shuningdek, empirik ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullangan va ushbu ma'lumotlarning

kengligi va tarqoqligi tendensiyalar va qonuniyatlarini izlab topish metodikasini taklif qilgan edi.

Ferdinand Tyonnis (1855-1936) jinoyatni jinoiy harakatlarni sodir etgan 3500 kishi tanlanmasi bo'yicha tahlil qilgan. Ularning har biri haqidagi tashkilotlarda va politsiya arxivlarida saqlangan ma'lumotlarni to'playdi. Uni jinoyatchining kelib chiqishi, jinoiy ishni sodir etgunga qadar yashagan turar joyi turi, oilaviy sharoiti, ma'lumoti, kasbi, mashg'ulot turi, ota-onasining kasbi (birinchi navbatda, ota), doimiy joy turar joyi va boshqalar qiziqtirar edi.

Aslida, Tyonnis barcha kerakli ma'lumotlarni to'plab, jinoyatchining sotsial "portreti"ni yaratmoqchi va jinoyatchilikning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflamoqchi edi. Agar ungacha jinoyatchilik asosan statistik xarakterga ega holda tavsiflangan bo'lsa, uning tahlillari ko'proq XX asrda keng tarqalgan empirik sotsiologiyaga xos tarzda sotsiologik jihatdan yoritilgan edi.

Tyonnis jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish, demografik o'zgarishlar, sanoat o'sishi, siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyati muammolarini o'rgangan. Gamburg aholisi bir guruh vakillarining (dengizchilar, yuk tashuvchi, fohishalar) ijtimoiy-iqtisodiy turmushi sharoitlarini o'rgangan, davlat va uning tuzilmalarini ularning manfaatlarini unutib qo'yganligi uchun tanqid qilgan.

Keling, shu o'rinda bugungi yoshlarning qaysi muhitda tarbiyalanayotganligiga nazar tashlasak. Bugungi yoshlar bizning an'ana va qadryatlarimizga yot bo'lgan virtual olamda yashamoqda va ana shu ruhda tarbiyalanmoqda. Ayniqsa, Tik-Tokni oladigan bo'lsak, umuman o'zbek mentalitetiga yot bo'lgan tomoshalarni ko'rishmoqda. Eng, achinarli jihatlaridan biri – bizning qadryatlarimizni poymol qilib, har xil mantiqsiz tomoshalarni o'zimizning o'zbek millatiga mansub shahslar tomonidan olinayotgani eng achinarli holat, o'zligimizni yo'qotib qo'yayotganimizdan dalolatdir. Ana shu muhitda shakllanayotgan yoshlar ruhida esa Vatanning muqaddasligi, oilaning muqaddasligi, ota-onaning azizligi va mana shunday bizning eng oily qadryatlarimizning o'z ahamyatini, qadrini yo'qotib boryayotganligi undan-da achinarlidir. Ana o'sha bema'ni videoga tobelik deviantlikning zamonaviy turi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iyatsizligi qoidalarga bo'sunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron bir qarorga kela olish imkonyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, iroda kuchi va boshqa shu kabi psixofizologik holatlari, mijozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Biz bu deviant xulq-atvorning oldini olish uchun eng avvalo har qaysi muhitning birinchi navbatda o'z tartib-qoidalari sog'lom bo'lishini ta'minlashimiz joiz. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu – oila. Bilamizki, farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitning o'rni kattadir. Shuning uchun har doim ota-ona o'z farzandlarini doimo nazoratlarida ushlashlari va vaqtining bekor bo'lib qolishini oldini olishlari kerak, chunki axloqsizliklarning hammasi bekorchilikdan, vaqtni befoyda o'tkazishdan kelib chiqadi. Be'jizga dono xalqimiz orasida "Bekorchidan Xudo bezor", deyilmaydi.

O‘ZBEKISTONDA BOLALAR VA O‘SMIRLAR AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Norboyev J. – O‘zMU 3-bosqich talabasi

Bugungi shiddatlilik bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yosh avlodni tarbiyalash va ularning ijtimoiy ongini to‘g‘ri shakllantirish kun sayin muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kun bolalari kompyuter o‘yinlari olami va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanib borayotgan davrda o‘ziga ulg‘aymoqda. Ayni kunlarda Internet tarmog‘iga ulangan kompyuterlar va mobil telefonlar deyarli barcha xonadonlarda mavjud.

Shunday ekan, axborot texnologiyalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli kompyuter savodxonligi va Internet tarmog‘idan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Masalan, AKT vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020-yil dekabr holatiga ko‘ra Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni – 22,1 mln.dan oshdi. Shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni – 19 mln.ni tashkil etmoqda. Mamlakat bo‘yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97 %ni, mobil internet qamrovi esa 87 %ni tashkil etdi. Dekabr oyi boshida maktablarning 70 % va sog‘liqni saqlash muassasalarining 78 %i internetga ulangan. Internetdan foydalanuvchilarning ko‘p qismini esa yoshlar va o‘smirlar tashkil etayotgani hech kimga sir emas.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o‘yinlariga berilib, ularga bog‘lanib qolishlari xavfidan cho‘chib, oldini olishga harakat qilgan bo‘lsalar, hozirgi vaqtda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil shakldagi ekstremistik oqimlar va terroristik guruhlar va ularning faoliyatiga aralashib qolish, turli xil buzuq va behayo video hamda ta‘svirli vositalarining bolalar onggi va psixologiyasiga hamda tarbiyasiga ta‘sir o‘tkazishi mumkinligi xavfi ham qo‘shildi.

Masalan, dunyo bo‘yicha ”Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o‘tkazgan so‘nggi ilmiy tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, butun dunyo tarmog‘iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina Yevropada o‘ziga kelayotgan yosh avlod vakillarining uchdan bir qismi onlayn tizimda bo‘lishi kuzatilgan. Mutaxassislar fikricha, bu – tabiiy holat. Bunday onlayn hayotda yashaydigan yoshlarning katta qismi ya‘ni 4,5 mln.i Buyuk Britaniyaga to‘g‘ri kelar ekan. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradilar, turli xil saytlardan ma‘lumot izlaydilar va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo‘lishadi. Germaniyada hozircha 3 mln va Fransiyada 1,5 mln yoshlar va bolalar vaqtini asosan onlayn tizimda o‘tkazadi. Hozirgi kunda ayniqsa bolalarning ota-onalariga nisbatan kompyuter savodxonligi baland, ko‘pgina olti yashar bolalar blyutuz (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi bilishadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada 17 yoshgacha bo‘lgan 6 ming bola o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ular sodda ota-onalari o‘ylaganidek, Internetdan aksariyat hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So‘rovda ishtirok etganlarning 99 %i Internetdan muntazam foydalanishini,

ularning har 10 nafaridan 8 tasi uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirishgan. Ularning 80 %i mustaqil ravishda Internetga ulanishini, ota-onalari esa kompyuterga himoya vositasi bo'lgan «filtrlash» dasturini o'rnatib qo'ymanliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishgan. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 %i farzandlari Internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yishar ekan''¹.

Kuzatishlar shuni ko'rsatib turibdiki, virtual olamning aynan bolalar va yoshlar psixologiyasiga ta'siri juda yuqori bo'lib bormoqda. Bizning vazifamiz, joiz bo'lsa burchimiz, kelajak avlod vakillari bo'lmish bolalar va yoshlarga virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlarida har tomondan bilim va ko'nikmalar berib borishdir. Bu esa bolalarimiz va yoshlarimizning psixologik jihatdan sog'lom rivojlanishi uchun qayg'urayotgan har bir shaxs uchun ham farz ham qarzdır.

Bolalar va o'smir yoshlarimiz Internet tarmog'iga kirib borar ekan, umuman kirishi mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin. Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bolalar va o'smirinlarni o'ziga ko'proq jalb etadi, chunki bunday qiziquvchanlik ayniqsa bolalar va o'smirlar psixologiyasiga xos xislatdir. Shunday ekan, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlarini bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmashimiz zarur.

Ana shunday salbiy holatlarni oldini olish va keraksiz axborotlardan himoya qilish maqsadida, yurtimizda ham ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2018-yilning 24-yanvaridan kuchga kirdi.

Ushbu qonunning bolalar va yoshlar hayotidagi ahamiyatli jihatlari anchayin salmoqli bo'lib, uning 17-moddasida axborot mahsulotining yoshga oid ta'snifi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra:

- 7 yoshga to'lmagan bolalar uchun «0+»,
- 7 yoshga to'lgan bolalar uchun «7+»,
- 12 yoshga to'lgan bolalar uchun «12+»,
- 16 yoshga to'lgan bolalar uchun «16+»,
- bolalar uchun taqiqlangan axborot mahsuloti «18+» yozuvini aks ettirishi kerak² ekanligi belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda, ayniqsa bolalar va yoshlarning psixologik rivojlanishi juda nozik masala bo'lib boryotgani yuqorida keltirilgan dalillarda ham o'z aksini topmoqda.

So'zimiz so'ngida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bunday salbiy holatlarga qarshi yoshlarning ijtimoiy ongini to'g'ri shakllantirish uchun ta'lim muassasalari, oila va mahalla insitutlari hamda jamoat tashkilotlari bilan

¹ http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=3907&Itemid=1

² <https://www.uzreport.news/society/bolalarni-zararli-axborotdan-himoya-qilish-to-g-risidagi-qonun-6-oy-o-tgach-kuchga-kiradi>

hamkorlikni jadal yo'lga qo'ygan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishimiz lozim. Shu bilan birgalikda yoshlarning intellektual qobiliyatlarini oshirish, muloqot va munozaralar orqali jamiyatga nisbatan munosabat madaniyatini to'g'ri tarbiyalashimiz, ayniqsa, ularni faoliyat sohasidagi ijtimoiy-siyosiy faollik ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirishimiz lozim.

Bir so'z bilan aytganda, aynan biz bolalar va yoshlarning ongida, ularning jamiyatda o'z o'rnining borligi haqida tasavvur va ishonch hissini uyg'ota olsak, ulardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldira olsakgina, o'ylaymizki, ularni turli keraksiz axborotlarning salbiy oqibatlaridan himoya qilishimiz mumkin, albatta.

MA'RIFATLI YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

*Norqo'ziyev F. – NamDU 2-bosqich talabasi,
Jabborova Z. – O'zMU 3-bosqich talabasi*

Bugungi kunda respublikamizda yoshlar siyosati masalasida bir qator islohotlarni amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlarni ajdodlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga tarixiy meros qoldirgan o'gitlarini singdirib borish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirga kunda davlatimiz taraqqiy etib, tobora rivojlanib borayotgan bir davrda yoshlarga bo'lgan e'tibor har qachongidan muhim vazifaga aylandi. Yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada takomillashtirish va tobora muhim vazifalarni belgilash, davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish, yoshlar oldida turgan burch hisoblanadi.

Ha, barchamizga ma'lumki, hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda g'araz niyatli kishilar ham yo'q emas, shunday razil kimsalar qancha-qancha yoshlarni umriga zomin bo'lishmoqda. Bunday kishilardan dunyoni tozalash, tinchlik o'rnatish, butun dunyoda bunga qarshi kurashlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda".¹

Bugungi jahon hamjamiyatidagi rivojlangan davlatlarning qatorida bizning davlatimiz ham o'rin egallashi uchun albatta yoshlarni qanday inson bo'lishiga bog'liq. Bunda qolaversa, insonni insoniylik darajasida yetishishida albatta, oiladagi tarbiya muhim rol o'ynaydi. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning asosiy omillaridan biri bu oila hisoblanadi. Yurtimizda oila ijtimoiy institut sifatida azaliy qadriyatlarga aylangan. Unga tarixning har bir davrida o'zgacha e'tibor, davlatchilikning tayanchi, avlodlar davomiyligini ta'minlovchi tizim va muqaddas maskan deb bilingan. Oila tushunchasi negizida yoshlar masalasi asosiy o'rin tutishini nazarda tutib shuni aytish mumkinki, ana shu yoshlar nafaqat oilaning davomchisi balki, jamiyat hamda davlatning ham tayanchi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning yurtimizda yoshlar borasida xususan ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bilan bog'liq fikrlari fikrimiz dalilidir: "Ta'limning maqsadi voyaga yetmaganlarni mahalla-ko'yning

¹ Каримов. И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 25.

ko‘z oldida saqlash, yurish-turishi, kiyinishi, o‘zini tutishini nazorat qilish yoki yoshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish, erta tug‘ruq, turli oqimlarga qo‘shilib qolish kabi vajlar bilan ularni “doimiy infantil yosh bola” statusida saqlab qolish emas. Ta’lim tizimining maqsadi sipo, oq ko‘ylak, qora shim kiygan olomoni yetishtirish ham emas. Ushbu tizimning bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o‘zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta’minlashdir. Yoshlar kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o‘rganishni o‘rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo‘lishini tarix ming bir marta isbotlab bergan. Shunday ekan hozir bizga ta’limning yangi islohoti kerak”.¹

Yoshlarni ma’rifatli, yetuk qilib tarbiyalashning yana bir muhim omili kitobxonlik hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi bu bizning davlat yoshlarini ma’rifatga yana bir qadam tashlash, desak adashmaymiz.

Ma’rifat inson ma’naviyatining cho‘qqisi bo‘lsa, jaholat uning aksi, inson zotining zavoli, kushandasidir. Tarix zarvaraqlaridan o‘rin egallagan, butun Yer yuzini egallab turgan, har qanday inson qo‘li bilan yaratilgan barcha kashfiyotlar negizida albatta inson omili yotadi. Barchamizga ayonki, Yer kurrasi shar shaklida deb bizing bobomiz, Abu Rayxon Beruniy aytib berganlar. Bundan dalolatki, biz dunyo tan olgan buyuk bobolarimiz avlodimiz, ularning barchasi ma’rifatga oshno insonlar bo‘lishgan, biz ham ularning avlodlari ekanimiz bundan to‘g‘ri xulosa qilib ularga mos tarzda kelajakni davom ettirishimiz lozim. Yana shuni ma’lum qilish lozimki, ma’rifatli insonlar jamiyatning davlatchilik rivojini ta’min etuvchi kuch hisoblanishadi. Tafakkuri, salohiyati kuchli bo‘lgan inson o‘z kelajagiga komil ishonch bilan qarashi, yetuk milliy ong, tarixiy ong va tarixiy xotira bilan birlikda o‘tmish merosi va an‘nalariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istisno etadi. Istiqbol muammolariga o‘tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki hozirgi davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini ham hisobga olib yondashmoq kerak.

Taraqqiyot yo‘lidan olg‘a qarab borar ekanmiz, bu sharoitda faqat o‘z o‘tmishimizgagina boqmay, boshqa rivojlangan mamlakatlar va xalqlar orttirgan ijobiy saboqlardan ham o‘rnak olmoq lozim. Axloq, odob borasidagi milliy merosga qanchalik mehr, e’tiqod bilan qaramaylik, umuminsoniy qadriyatlarni chetlab o‘tib, ma’naviy kamolot cho‘qqilariga chiqa olinmaydi. Bu boradagi milliy qadriyatlar, ma’naviyatimizning asosi bo‘lsa ham, hozirgi davr talablariga mos keladigan bilimli, ishbilarmon, yuksak axloq va odobli shaxsni tarbiyalash uchun yetarli bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish borasidagi tarixiy tajriba to‘g‘risida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Bu borada ham o‘tmish tajribasini ideallashtirish, uni milliy ma’naviy taraqqiyotning yagona yo‘li, deb qarash hatodir. O‘zbeklar o‘tmishda mirishkor dehqon, mohir hunarmand va tijoratchi bo‘lgani hammaga ma’lum. Lekin ijtimoiy, iqqisodiy, madaniy taraqqiyotimizning istiqboliga

¹ <https://sof.uz/uz/post/maktab-ta'lim-uchunmi-yoki-nazorat-uchunmi>

yondashishning davr taqozosi bilan belgilangan yangi mezonlari ham borligini unutib bo'lmaydi.

Bugungi mamlakat taraqqiyotining bosh omili hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlarini to'la egallash, rivojlantirish, hayotga tatbiq qilishdir. Bu yo'l to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarning tarixiy tajribasi isbotlagan. O'zbekiston uchun malakali, bilimli ishchilar, muhandislar, boshqa mutaxassislar, fan va texnikani rivojlantirishga qodir bo'lgan olimlar kerak. Bularsiz O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish mushkul. Davr ruhiga mos milliy o'zligini anglash bu muammolarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonining¹ qabul qilinishi mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar qatori ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni yanada yangi bosqichga ko'tarishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga "biz tarixiy xalq an'analari, urf-odat va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur".²

YANGI O'ZBEKISTON RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

Qandaxarova M.I. – O'zMU 1-bosqich talabasi

Zamonaviy dunyoda ayollar huquqlari jamiyatning barcha jabhalari uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu iqtisodiyot, fan, siyosat, madaniyat va boshqalar uchun amal qiladi. Shunga qaramay, jamiyatda asosan erkaklar salohiyatidan ko'proq foydalanadi.

Taniqli tadqiqotchi B.N.Panteleevning so'zlariga ko'ra, ayollarga nisbatan kamsitish, sayyoramizda 5 ming yil davomida o'z yozma tili, axloqiy, diniy va huquqiy normalariga ega bo'lgan sivilizatsiya mavjudligiga qaramasdan, insoniyatning butun tarixi erkak genzisiga borib taqaladi, deyiladi. Uning hayoti va ijodi haqida qoyatosh rasmlari, qadimiy freskalar va qo'lyozmalarda hikoya qilinishi aytib o'tiladi.

Gender mavzusiga nisbatan makrosotsial yondashuvlarga rioya qilgan, strukturaviy funksionalizm, ziddiyat nazariyasi va marksistik nazariya asoschilari bo'lgan sotsiologlarni o'ziga jalb qildi.

Sotsiologik nazariyalarda jamiyatning gender qiyofasini zamonaviy tushunish uchun, avvalo, sotsiologik bilimlarning qatoriga kirgan strukturaviy funksional yondashuvga murojaat qilamiz. XIX asrda Emil Dyurkgeym tomonidan ilgari surilgan bu yondashuv XX asrda amerikalik sotsiologlar Talkott Parsons va Robert Mertonlar tomonidan kengaytirilib, ular jamiyat ijtimoiy tuzilishida gender munosabatlari talqinini ilgari surdilar.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегиясиси тўғрисида" ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент. 2017. – № 6. – Б. 29.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 90.

Talkott Parsons Emil Dyurkgeym kabi jinsiy rollar bo‘linishining ijobiy funksiyasi g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Dyurkgeym mehnat taqsimoti jamiyatning hamjihatligi, barqarorligi va uyg‘unligiga olib keladi, deb hisoblaydi. Emil Dyurkgeym, “madaniy xalqlar orasida ayollar erkaklar mavjudligidan butunlay farq qiladi. Aytish mumkinki, aqliy hayotning ikki muhim vazifasi, jinslardan biri hissiy funksiyalarni va ikkinchisi esa intellektual funksiyalarni egallashi bilan ajralib turadi”¹, deydi.

Parsons esa, ijtimoiy o‘zaro ta’sir tizimining muvozanati va barqarorligini ta’minlovchi mexanizmning o‘zi rollarning farqlanishidir,² deydi. Har qanday ijtimoiy tizimning mavjudligi uchun uning nuqtai nazaridan instrumental va ta’sirchan funksiyalarni bajarish kerak. Instrumental funksiya tizimning tashqi dunyo bilan munosabatini aks ettiradi, yashash vositasini ta’minlaydi.

Tarixdan ma’lumki, qadimgi yunonlar go‘zal ayollar ma’budalarini yasashga uringan bo‘lishlariga qaramay, ayollarga uy bekalari sifatida qarashgan.

Lekin, vaqtlar o‘tishi bilan, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va mavqei o‘zgarib bordi. XX asr boshlarida bu borada ayniqsa dramatik o‘zgarishlar ro‘y bergan bo‘lsa-da, lekin bari bir ayollarga nisbatan faqatgina farzand dunyoga keltiruvchi, farzand tarbiyalovchi sifatida qarashlar ham saqlanib kelingan. Ba’zi mamlakatlarda ayollar rahbarligi va bu rahbarlikning, boshqaruvdagi ijobiy natijalar berishi, sekin-asta jamiyatda ayollarga nisbatan fikrlar o‘zgarib bordi. Shu jumladan, O‘zbekistonda ham ayollarning jamiyatdagi roli va o‘rni haqida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarda ularning faol ishtirok etishlarida barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan munosabat ilgari ma’lum, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga barchani da’vat etgan.

Jumladan, ijtimoiy adolat, tenglik g‘oyalari asosida mamlakatimizda xotin-qizlarning bilim olishi, jamoat ishlarida faolligi masalalariga ham dolzarb masala sifatida qaralishi ayni muddao.

Prezidentimiz tomonidan 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi” ishlab chiqilib, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan, Strategiyada ta’kidlanganidek, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning oiladagi, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ayollar xuquqlarini himoya qilish, hamda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish – davlatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O‘zbekiston rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan xotin-qizlar bugungi kunda barcha sohalarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Ular barcha sohalarda, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, tadbirkorlik, huquq yo‘nalishlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqdalar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini

¹ Дюркгейм, Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1991. – С. 61.

² . The Family. Its Function and Destiny. Ed. by T. Parsons. London, 1959. – P. 23.

mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni asosida, jamiyatda ayollar rolini oshirish, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun “ijtimoiy lift” tamoyili asosida xotin-qizlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida davlat grantlari sonini 2 baravarga oshirish masalasi ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha 2000 nafar qo‘shimcha davlat granti ajratildi. Bu esa, xotin-qizlarga o‘z oilalarida, qolaversa jamiyatda o‘z o‘rnini his qilib yashashlarida katta ahamiyatga ega.

Ilgarigi oilalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayollar oliy ta’lim muassasasiga deyarli o‘qishga kirishga harakat qilmas edilar. Chekka viloyat, tumanlarida yashaydigan qizlar maktabni bitirishi bilan ularni tezroq oilali qilishga harakat qilinar edi. “Qiz bolani qancha tez uzatsa, ota-ona burchini shunchalik to‘g‘ri ado etgan bo‘ladi” tamoyili asosida, qiz bolalarni hech qanday oilaviy ko‘nikmaga ega bo‘lmasdan, boshqa oilaga turmushga berib yuborilar edi. Ba’zi oilalarda ayollarga nisbatan kamsitish holatlari ko‘p uchrashi hech kimga sir emas. Oilalarda turli muammolar vujudga kelganda, ayol fikri inobatga olinmas edi. Lekin bugungi kunda, davlat rahbarining tashabbusi bilan olib borilayotgan siyosat, mamlakatimizdagi ayollarning faolligini oshirishga qaratilayotganini, rahbarlar orasidagi ayollar ulushining ko‘payganidan bilishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi belgilab qo‘yilishi ham ayollarga bo‘lgan alohida e’tibor, ayollar huquq va manfaatlarining himoyasini ta’minlash ifodasidir. Demak, erkak va ayollarning barcha sohada huquq va manfaatlari tengdir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda ushbu sohadagi keng ko‘lamli ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishda bir qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchi, joylarda og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni aniqlashda, ularning ijtimoiy xolatini o‘rganishda sotsiologlar ko‘magi lozimligi muhim ahamiyatga ega;

Ikkinchi, mahallalarda oilalardagi xotin-qizlar muammosini tubdan o‘rganib, ularga manzilli yordam berishda, psixolog va ijtimoiy ish xodimlarining jalb qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi;

Uchinchi, xotin-qizlarga tegishli muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirishda sherikchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish lozimdir;

To'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish, hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Shu o'rinda, bugungi kunda mamlakatimizda, ushbu dolzarb muammolarni hal qilish maqsadida, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yil 1-apreldan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi o'rniga tegishli shtat birliklarini tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasiga o'tkazgan, hamda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etilishi ham o'z navbatida, joylarda vujudga kelayotgan ayollar muammosini ijobiy hal bo'lishiga asos bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyatimiz rivojlanishida ayollar muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Sohalar rivojlanishida erkaklar bilan birga ayollar ham o'z intellektual qobiliyati asosida faoliyat olib borib, jamiyat rivojiga katta xissa ko'shib kelmoqdalar.

O'ZBEKISTON RIVOJLANISHINING YANGI BOSQICHIDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT VA ULARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHDAGI O'ZGARISHLAR

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Rahmonaliyeva M.O' – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Biz xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gapirib ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli tarzda ko'maklashish tizimini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Xotin-qizlar muammolarini "Ayollar daftari" ni yuritish orqali tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash haqida"gi qaror qabul qilinganligini eslab o'tish joiz bo'ladi.

Bundan tashqari yana bir qancha qarorlar qabul qilingan bo'lib, biz bundan kelib chiqib oqilona ish yuritishimiz lozim bo'ladi. Chunki ayol kishi quyosh kabi bo'lishi kerak. Shu quyosh bor ekanki, mehr-oqibat, ezgulik va adolat, vafo va sadoqat kabi qadriyatlar necha asrlardan buyon bezavol yashab kelmoqda.

Endilikda hozirgi kunda ayollarga ko'rsatilayotgan munosabatlar haqida gapirib o'tsak. Hozirda oldingi davrga qaraganda ayollarga ko'rsatilayotgan munosabat ancha yaxshi, ayrim joylarni hisobga olmaganda. Ayrim joylarda ya'ni ahvol unchalik yaxshi emas, ko'plab ayollarimizni o'qitish tugul ko'chaga

chiqarishmaydi. Hattoki ayrim qishloqlarda maktabni bitirmasdan turib qizlarni turmushga berib yuborishadi. Biror bir qo'lida hunari ham yo'q qiz bola katta hayotga qadam qo'yadi, va hayotda juda qiynaladi. Hatto farzand tarbiyasida ham juda qattiq qiynaladi. Va shundan keyin ajralishlar soni yana bittaga ko'payadi. Qo'lida farzandi bilan uyiga keladi. Ayrim erkaklar aliment to'lamaydi ham. Biz bu narsalarni ota-onalarga tushuntirishimiz kerak. Qizlarning bandligini ta'minlashimiz uchun, ularni har xil hunarlarga o'rganishi uchun, bilim olishi uchun sharoit yaratib berilishi lozim.

Mana kuni kecha "Mehr-5" operatsiyasi doirasida 93 nafar o'zbekistonlik ayol va bolalar (24 nafar ayol va 69 nafar bolalar) Suriyadan Toshkentga olib kelindi. Bunga sabab nima, deb o'ylaysiz, albatta, bandlikni to'laqonli ta'minlanmayotganligi. Chunki bandlik ta'minlanmagandan keyin ayollar va erkaklar har xil noqonuniy guruhlariga qo'shib ketmoqda edi. Balki bunga sabab maosh masalasi ham bo'lishi mumkin.

Ishlab topilayotgan daromadlar oilani boqish uchun yetmayotganligi, qoniqtirmayotganligi uchun yetarli miqdorda pul topish maqsadida boshqa davlatlarga ishlash uchun ketishmoqda. Ayrimlar o'zlari bilan oilasini ham olib ketmoqda. U yerda har xil tazyiqlarga, zo'ravonliklar uchrashmoqda. Bolalarni ochlik nahorlik qiynamoqda. Bolalar ota-onalaridan, ota-onalar esa bolalaridan ayrilishmoqda. Bunday holatlarning oldini olishimiz zarur. Buning uchun mahallada raislar ishlashi kerak! Aholi bilan nafaqat suhbatlar olib borishi, balki muammolarini fmfliy o'rganishi kerak va unga yechim topishi kerak. Biz kechagi kunda respondentlardan tadqiqot o'tkazganimizda ko'pchilik ayollar uchun tikuvchilik korxonalarini ochishni va ayollar uchun ish joylarni ajratib berilishini so'rashgan.

Bundan xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, qo'lida bir qancha hunari bo'la turib undan foydalanmayotgan ayollar bir qancha, ularga korxonalar, fabrikalardan ish o'rinlari ajratib berilishi kerak, yoki ishlashga imkoni bo'lmagan ya'ni ko'chaga chiqishiga qarshilik bo'lgan ayollarga oilalarga, uy sharoitida ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilishi kerak.

Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va salomatligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga Jahon hamjamiyati, BMT, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va yana bir qancha nufuzli dunyo miqyosidagi xalqaro tashkilotlar yuqori e'tibor berilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish maqsadida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash, sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar belgilangan. Endilikda yurtimizda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya va erta nikoh masalalari o'rganilib, ularning

asl muammoli vaziyatlarini o'rganish ishlari oldingi maqsadlardan bo'lib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida xotin-qizlar muammolarini hal qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhokamalari borasida 2021-yil 26-fevralda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'rib chiqildi. Bu yig'ilishda ayollar tadbirkorliklari to'xtab qolganligining sabablari, ajrimlar masalasi va bir qancha muammolar ko'rib chiqildi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan ikki yil mobaynida 116 mingga yaqin ayollar o'z tadbirkorlik faoliyatini to'xtatgani va Respublikada ajrimlar soni o'tgan yili 28 mingdan ortiqni tashkil qilingani o'rganilishi kerak bo'lgan vaziyatlar ko'pligidan dalolat beradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Er-xotin o'rtasidagi doimiy janjal, xiyonat, kuch ishlatish va migratsiya ajrimlarning 70 foiziga sabab bo'lmoqda. Eng achinarlisi, ayollarni xo'rlash, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish holatlari, o'tgan yilda esa 15 mingga yaqin xotin-qizlar tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan", degan aniq faktlar bilan asoslanishlarda bir qancha o'rganilishi zarur va amalga oshirilishi shart bo'lgan ishlar ko'pligini ko'rsatmoqda. Shular bilan birga o'tgan yillarda 480 mingga yaqin xotin-qizlar uzoq muddatga xorijga ishlash uchun ketgani bir tomondan ish bilan bandlik masalasiga borib taqaladi. Foiz ko'rsatkichlarida ko'riladigan bo'lsa, O'zbekistonda ishsizlik darajasi 13,2 foizni tashkil qilmoqda. Ish bilan ta'minlanishga muhtojlar soni 1,94 mln kishidan ortiq. Shulardan, 732 ming nafari yoshlar, 834 ming nafari xotin-qizlarni tashkil qilmoqda. Bandlik va mehnatni muhofaza qilish Respublika "Ilmiy markazi" tomonidan mamlakatning 101 ta shahar va tumanlarida o'tkazilgan sotsiologik so'rov asosida e'lon qilindi. Unda shu omillarni oldini olishda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va bir qator imkoniyatlar yaratish masalalari bilan bog'liq.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Bizning bosh vazifamiz tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa – mamlakat ham boy bo'ladi".

Yuqoridagi ma'lumotlar bir qator amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni ko'rsatib beradi. Shulardan, gender tenglik muammolari, ayollarni ishsizligini oldini olish, ta'lim olish masalalarini yana bir qator ko'rib chiqish, ajrim va erta nikoh kabi bir qator xotin-qizlar bilan bog'liq masalalar o'rganilishi zarur. Erta nikohning oqibatlari ijobiyga qaraganda salbiyroqdir. Ular ayollarning jismoniy va aqliy salomatligiga juda ko'p zarar yetkazadilar. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida nikoh yoshi ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra 18 yoshga to'lmagan har qanday inson bola hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan. Biroq O'zbekiston milliy qonunchiligida 18 yoshga yetmagan shaxsni nikoh tuzishga (turmushga chiqishga) ruxsat berilishi haqidagi normalarning mavjudligi xalqaro

huquqning umume'tirof etilgan normalari va prinsiplariga muvofiq emas edi. Ta'kidlanishicha, qonunning qabul qilinishi xotin-qizlarni erda nikohini va erda tug'rug'ini oldini olishga xizmat qiladi. Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida xorijiy mamlakatlarda nikoh yoshini belgilanganligini holati ham o'rganilgan. Jumladan, Rossiya, Armaniston, Tojikiston, Ozarbayjon, Ukraina, Moldova, Fransiya, Germaniya va Filippin Respublikasida nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan.

YOSHLAR HAYOTIDA KITOB MUTOLAASINING TUTGAN O'RNI

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Raimov B.U. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Hayotda shunday do'st borki, ulug' sarkarda Amir Temur ta'biri bilan aytganda, barcha bunyodkorlik yaratuvchilik va aql-idrokning ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir

Yaxshi kitob bu o'quvchiga hissiyot bag'ishlaydigan kitobdir. U o'quvchini majburiy sayohatga olib boradi. Agar kitob yaxshi yozilgan bo'lsa va ajoyib voqeani hikoya qilsa, unda odamlar hayotida o'zgarishlar qilish imkoniyati ko'proq. Biroq, kitob o'quvchiga uning hayotida o'zgarish qilish uchun faqat yaxshi bo'lishi kerak. U – inson ongini o'stiruvchi sadoqatli, ishonchli, insonni o'ziga jalb qiladigan, insonlar ilmini yuqoriga ko'taradigan ishonchli hamroh.

Ming afsuski, hozirgi kunda ba'zan yoshlar orasida qimmatli vaqtini behuda o'tkazib, haddan ziyod ko'p kompyuter o'yinlari, uyali aloqa o'yinlarini o'ynash, mazmunsiz filimlarni ko'rishga qimmatli vaqtini sarflash xos, bu to'g'ri emas. Buning o'rniga o'qishdan bo'sh vaqtlarini samarali ishlar uchun rejalashtirishsa maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kun davomida ma'lum vaqtlarini foydali turli xil kitob mutolaasi uchun ajratsa foydali ahamiyatga ega. Yoshi katta insonlar, ustozlar bekorga: “yoshlikda olingan ilm, toshga o'yilgan naqsh,” demaydilar.

Yoshlikda o'qilgan kitob yillar o'tsada, hayotda albatta asqotadi. Ichki olamingizni hech narsa kitobchalik benazr boyita olmaydi. Ruhiyatingizni hech narsa kitobchalik, ilm o'raganishga, mehnatchanlik muvozanatiga, to'g'ri yo'lga sola olmaydi, Yoshlarning intellektual rivojlanishida, dunyoqarshini butkul o'zgartirishda, nutqini bardavom qilishda kitob eng asosiy o'rinni tutishi haqida juda ko'p eshitgansiz, albatta. Chunki insonni o'zini o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rib taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob bu beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p.

Misol qilib aytsak “kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim aql chirog'i”, Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli so'zlarni yana uzoq davom ettirish mumkun. Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim

xazinasini bilan oshno eta oladi, deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy.

Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlay oladigan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda axborot asrining ilg'or texnologiyalarisiz kunlarimizni tasavvur qilolmasakda, tengdoshlarimiz orasida kitobga oshno bo'lgan yoshlarning borligi quvonarli holdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirish, yaxshilik hamda ezgulika undaytdi.

Hozirgi kunda yurtimizda kitob bilan bog'liq masalalarga ham yetarlicha e'tibor qaratilgan. Yoshlarni barkamol avlod ruhida tarbiyalash uchun kitob o'qish masalasi yoshlar orasida keng targ'ib qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etishi va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilindi. Bugungi kunda ham qaysi honadonga kirmang, uyning to'rida javonini bezab turgan kitoblarga ko'zingiz tushadi, oila kattalari yoshlarni kitob o'qishga chorlovchi so'zlari bilan ulg'ayib kelayotgan yoshlarni ongiga kitob ilm manbai ekanligini singdiradi va kitobga bo'lgan mehrini orttiradi.

Yurtboshimiz tomonida yoshlarning kitobga mehrini yanada oshirish maqsadida, joriy yilda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan "kitob o'qigan Spark minadi" shiori ostida eng yaxshi kitobxonlarga Prezidentimiz tomonidan Spark avtomashinasi taqdim etildi. Bu orqali ko'p yoshlarning o'qishga qiziqishi ortdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Buni qarangki, ko'pchilik hayoliga ham kelmagan ushbu javob chinakam haqiqat ekanligi asta-sekin o'z isbotini topib borayapti.

Kitob haqiqatan ham mo'jiza, unda keltirib o'tilgan jumlalar beixtiyor kitobxoniga aqlini o'strish kabi vazifalarni bajarishga qodir. Frensis Bekon shunday deydi, "Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o'qimoqqa barobar bo'lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo'lsin".

Shunday ekan, aziz yoshlar kitob mutolaa qiling, zero kitob insonning hayot yo'lida hamroh bo'lsa, hayot muammolarida ravon va mamnuniyat bilan kitobdan olgan bilim tajribangiz orqali hayot yo'lida adshmaysiz .

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA SABAB BO'LUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

Rahmonova F.M. – O'zMU 1-bosqich talabasi

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi,

inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, korrupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biri bo'lib, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi. O'zbekiston ham bu muammodan xalos bo'lmagan. Dunyodagi korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat barham topmagan. So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar korrupsiyaga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratishni taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish shartligi, bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarurligini ilgari surgan. Bu ham hozirda korrupsiyaga qarshi kurashish qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Korrupsiyani oldini olish maqsadida olib borilayotgan islohotlar misolida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2019-yil 5-iyuldagi 68-P-sonli buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi masalalar Qo'mitaning Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etish boshqarmasiga yuklatilgan.

Hozirda korrupsiyaga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biriga aylanishi lozim. Bunga sabab biz intellektual salohiyatli yoshlarni aniqlash va ularni rag'batlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, shuningdek, fuqarolar huquqini himoya qilinishini ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan qonun va farmonlar ijrosini ta'minlash bilan kelajagi porloq demokratik davlatga asos solmoqchi ekanmiz, avvalo, jamiyatimizdan korrupsiyani chiqarib tashlamog'imiz zarur. Zero, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, korrupsiya bilan biz hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz. Poraxo'rlik oqibatida hozirda ta'lim tizimida bir qator kamchiliklar yuzaga kelgan va o'z yechimini kutmoqda. Jumladan, bilimli yoshlar e'tibordan chetda qolib ketishi natijasida ilm-fan sohasida tangliklar, kashfiyotlarni kirish bilan kunimiz o'tmoqda. Yana yoshlarni ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari pasayib bormoqda. Natijada ishsiz yoshlar soni ortib bormoqda. Biz yana bir qancha muammolarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Shuningdek, bu illat sog'liqni saqlash tizimini ham chetlab o'tmagan. Tahlillarga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimidagi harajatlarning 25-30 foizi samarasiz sarflanmoqda. Bunga sabab – ochiq-oshkorlik ta'minlanmagan. Oqibatda davlat tomonidan bepul tarqatilishi tegishli qonunlarda belgilangan dori-darmonlar aholiga sotilmoqda. Aholi bepul tarqatilishi lozim bo'lgan dori-darmonlar ro'yxatini bilmagani bois ushbu korrupsiyaning bir ko'rinishi hosil bo'lmoqda. Umumiy qilib aytganda, O'zbekistonda barcha sohalarida, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlar, kommunal xizmat sohalarida, shuningdek, fuqarolarni ishga qabul qilish kabi sohalarida korrupsiya keng tarqalgan.

Hozirgi kunda barcha davlatlarda korrupsiyani bartaraf etish maqsadida turli tizimlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Barcha sa'yi-harakatlar natijasida 2020-yil korrupsiya bo'yicha jahon statistikasiga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston 158-o'rindan 146-o'ringa ko'tarilganini ko'ramiz. Biroq bu korrupsiya yo'qoldi, degani emas. Shunday ekan, davlatimiz bu masalada yangi tizimlar ishlab chiqishni davom etmoqda, ko'plab davlatlar tajribalarini ko'rib chiqmoqda. Jahon statistikasiga ko'ra, bu borada yuqori o'rinlarni Yangi Zelandiya (88), Finlyandiya (85), Shveysariya (85), Singapur (85) kabi davlatlar egallagan. Bu davlatlar qanday qilib bu natijaga erishganligini, bu davlatlarda ishlab chiqilgan tizim O'zbekistonnikidan nimasi bilan farq qilishini ko'rib chiqamiz.

Singapur mustaqillikka erishgach, mamlakat yetakchilari korrupsiya va o'zboshimchalikni jilovlash muhim ekanligi va busiz mamlakat kelajagi yo'q ekanligini anglab yetdi. Bu qattiqqo'lligi va ketma-ketligi bilan ajralib turuvchi choralarning butun bir tizimini qabul qilishga asos bo'lib xizmat qildi. Mansabdorlar xatti-harakatlari reglamentlashtirildi, byurokratik jarayonlar soddalashtirildi, axloq me'yorlariga rioya etish ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi. Shu bilan bir paytda korrupsion harakatlar uchun jinoiy jazo choralari keskinlashtirildi, sud tizimining mustaqilligi oshirildi, sudyalar maoshi keskin oshirildi va ularning imtiyozli maqomi ta'minlandi, pora berish yoki aksilkorrupsiyaviy surishtiruvda ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun iqtisodiy sanksiyalar joriy etildi. Ko'plab davlat boshqarmalarida qat'iy aksiyalar (barcha bojxona xodimlarini ishdan bo'shatishga qadar) o'tkazildi. Bu choralar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, mansabdorlar maoshini oshirish va malakali ma'muriy kadrlar tayyorlash bilan uyg'unlikda olib borildi. Maoshlarni oshirish bilan bir qatorda korrupsiyaga qo'l urgan shaxslarga nisbatan jazolar kuchaytirildi, jumladan, butun mol-mulki musodara qilinadi, eng og'ir jazo o'lim ham bo'lishi mumkin. Shunday mamlakat hayotida bo'lgan o'zgarishlar hozirda ushbu davlatda korrupsion holatlar deyarli yo'qligiga sabab bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda korrupsiyaga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlar juda ko'p. Yuqorida bularning ba'zilariga to'xtalib o'tildi, xolos. Korrupsiyani rivojlanishga nafaqat davlat tashkilotlari xodimlari, balki o'zining bilimsizligi, o'z haq-huqularini bilmasligi bilan oddiy aholi ham sababchidir. Aholining bilimini oshirish uchun esa ta'lim tizimidagi korrupsiyaga barham berish zarur. Jamiyat yaxlit bir tizim, uni bir-

biridan ajratib bo'lmaydigan sohalar tashkil etadi. Shunday ekan, korrupsiyaga barham berishni usullaridan biri bu butun davlat miqyosida hamkorlikda ishlashni ta'minlashdir. Ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati faoliyati o'rtasida uzluksizlikni ta'minlashdir. Shuningdek, barcha tashkilotlar xalq bilan birgalikda ishlashi lozim. Shundagina natija olish mumkin. Qonunlar ijrosi to'liq ta'minlanishi uchun maktablarda huquq fanining o'tilish soatlari ko'paytirilishi kerak. Shunda aholining huquqiy savodxonligi oshadi. Shuningdek, xalqni uyg'otish lozim, ya'ni loqaydlikni, e'tiborsizlikni yo'qotish lozim. Hozirda yurtimizda "jamoatchilik nazorati" tizimi joriy etilgan. Lekin xalq e'tiborsiz yashayverar ekan, hech qachon bu usul bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Yana korrupsiyani oldini olish uchun ajratilyotgan pullarni ishchi-xodimlarning maoshlarini oshirishga sarflash oqilona qararlardan hisoblanadi. Zero, korrupsiya uchun pul ajratish uni rivojlanishiga yordam qilish kabidir. Umumiy qilib aytganda, korrupsiyaga to'liq barham berish imkonsiz. "O'rgangan ko'ngil o'rtanmay qo'ymas," - degan maqol bejiz aytilmagan. Shunday ekan, avvalo, korrupsiyaga qo'l urgan va sababchi bo'lgan fuqarolarga qattiqroq jazo ko'rmoq zarur. Shundagina biz O'zbekistonni Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida yuqori o'rinlarda ko'ra olamiz. Nafaqat korrupsiya sohasida, balki boshqa barcha sohalarida ham keskin o'sishlar ro'y berishi mumkin.

YOSHLAR JAMIYAT TARAQQIYOTINING STRATEGIK RESURSI SIFATIDA

*Raximova M.I. – TDTU katta o'qituvchisi,
Erniyozov O.O' – TDTU o'qituvchisi*

So'nggi yillarda yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvida, ular dunyoqarashining o'zgarib borishida axborot texnologiyalarining ta'siri yetarli darajada, desak yanglishmagan bo'lamiz. Yoshlarning faoliyati axborot texnologiyalari bilan bog'liqligini hisobga olgan holda qaraydigan bo'lsak, bugunning yoshlarida ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatlar, madaniy meroslar kabi tushunchalar tubdan o'zgarib borayotganiga guvohi bo'lamiz.

Yoshlarning kundalik hayotini axborotsiz tasavvur qila olmaymiz. Globallasuv asrida kishilarni tezkor axborot bilan taminlovchi vositalardan biri bo'lgan, ya'ni yoshlar ijtimoiylashuv jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni yuqori. Aynan yoshlar ijtimoiylashuvida axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishi esa bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar orasida axborot texnologiyalarining ommaviy darajasi o'rganilib tahlil etishga asosiy etibor berilmoqda.

Axborot texnologiyalarini inson hayoti va faoliyatining turli sohalarida zamonaviy texnik va amaliy dasturiy kompyuter vositalarining imkoniyatlari hisobiga axborotning to'planishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va uzatilishini ko'zda tutadigan texnologik jarayon sifatida tushunish lozim bo'ladi. N.V.Apatova bu atamani quyidagicha ta'riflaydi: "Axborot texnologiyalari – bu axborotni qayta ishlash jarayonini amalga oshirishga yordam beradigan vositalar va usullar

majmuasidir”¹. Internet axborot texnologiyalari tuzilmasining bir qismi va yoshlar orasida axborotning eng ommabop manbai hisoblanadi.

Yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan zamonaviy axborot texnologiyalari, shunga olib keldiki, faqatgina individlarning real muhitdagi xulq-atvori emas, balki virtual muhitdagi xulq-atvori sotsiologlarning qiziqishini uyg‘otmoqda. Internet ta’siri ostida zamonaviy yoshlarning hayoti bir qator o‘zgarishlarga uchradi: bo‘sh vaqtni o‘tkazish tuzilmasi, axborotni qabul qilishning an’anaviy kanallari, shaxslararo muloqot qilishning xarakteri o‘zgardi, qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchradi.²

Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlari ham avvalgiday emas. Axborot texnologiyalari ta’siri ostida yangicha ijtimoiylashuv turi – Internet-ijtimoiylashuv shakllanmoqda va u individ xulq-atvoriga ham offlayn, ham onlayn muhitida ta’sir qilmoqda.³

Internet-ijtimoiylashuv – deganda, biz foydalanuvchi tomonidan Internet-kommunikatsiyalari texnologiyasini, tarmoq navigatsiyasini, umuman olganda, Internetdagi va ayrim Internet-hamjamiyatlardagi xulq-atvor qoidalarini o‘rganish, hamda Internet foydalanuvchilarga qo‘yiladigan me‘yorlar, talablar va qadriyatlarni qabul qilishga asoslangan virtual voqelikka kirish jarayonini tushunamiz. Ushbu ijtimoiylashuv ehtiyojli-motivatsion sohaning, shuningdek shaxsning o‘zini o‘zi anglash tuzilmasining o‘zgarishiga olib keladi.

Yoshlarning ajralmas va mustaqil qismi bo‘lgan ijtimoiy guruhni tashkil etib, bu guruh ilmiy bilimlarni, kasbiy ko‘nikmalarni to‘plash va o‘zlashtirish bilan shug‘ullanadi, hamda tez o‘zgaradigan ijtimoiy kontekstlarga moslashishning katta resursiga ega bo‘ladi.

Bizningcha, yoshlar – jamiyat taraqqiyotining strategik resursi hisoblanadi, chunki u innovatsion jarayonlarga nisbatan sezitivlik ustuvorligiga ega bo‘ladi va bu holat uni zamonaviy jamiyatdagi barcha yangiliklarni, shu jumladan ijtimoiylashuvning yangi shakllarini amalda sinash bo‘yicha oldingi qatorlarga turtib chiqaradi. Kiber muhit doirasida yoshlarning ijtimoiylashuvi to‘g‘risida gapirar ekanmiz, ham ikkilamchi ijtimoiylashuv, ham qayta ijtimoiylashuv – shaxs tomonidan jamiyatdagi tarmoq muhitidagi birorta hamjamiyat doirasida ustuvor bo‘lgan me‘yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida gapirish zarur bo‘ladi. Modomiki Internet foydalanuvchilari birgina tarmoq hamjamiyatidan vaqti-vaqti bilan ikkinchisiga o‘tar ekan, tarmoqli fazoli-vaqtli kontinuumda, ya’ni tarmoqli ijtimoiy muhitning me‘yorlari va qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonida Internet foydalanuvchisiga avval individ ijtimoiylashgan tarmoq hamjamiyatida bo‘lib turadigan, evolyusion o‘zgarishlar vaqtida o‘zining tarmoqdagi xulq-atvorini vaqti-vaqti bilan to‘g‘rilab turishi zarur bo‘ladi.⁴

XX-XXI asrlarda jamiyatning global axborot muhitiga kelib qo‘shilishi voqelikka aylandi. Ana shu muhitda faoliyat ko‘rsatadigan va yangi texnologiyalar

¹ Апатова, Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. – М.: ИОШ РАО, 2014.

² Чеботарева Н.Д. Интернет-форум как виртуальный аналог психодинамической группы // "Познай себя и окружающих". URL: <http://www.follow.ru/article/181>

³ Убайдуллаева Р.Т. О социальной рациональности и ее типах // СоцИСС ISSN: 0132-1625 2013. – С. 27-31.

⁴ Бондаренко С.В. Социальная система киберпространства как новая социальная общность // Научная мысль Кавказа. – 2012. – № 12 (38). – С. 32-39.

yordamida yaratilgan axborotning barcha turlarini o'z ichiga oladigan ommaviy axborot vositalari yoshlarning ijtimoiylashuvining muhim agentiga aylandi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilar ijtimoiy-demografik xarakteristikalarining tahlili shundan dalolat beradiki, axborot texnologiyalarida, internet tarmog'ida ko'proq vaqtini o'tkazuvchilarning aksariyati – bu yoshlardir. Internet tarmoqlari ta'siri ostida yoshlarning turmushi o'zgarmoqda – bo'sh vaqt tuzilmasi, axborotni qabul qilishning oddiy kanallari, shaxslararo munosabatlarning xarakteri o'zgarmoqda. Axborot olish imkoniyati yo'llari ko'paymoqda. Ijtimoiy individning yangi turi, virtual madaniyatning yaratuvchisi, tashuvchisi, foydalanuvchisiga aylangan inson – Homo virtualis shakllanmoqda. Har bir yosh inson uchun global tarmoqqa ulangan holda shaxsiy muloqot qilish doimiy ehtiyojga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Natijada barcha narsa motivatsiyaga bog'liq bo'lmoqda. Obyektiv voqelikning inson ehtiyojlari bilan uyg'unlashuvi xulq-atvorning motivatsiyasi bo'lgani holda, subyekt tuzilmasidagi faoliyatni sezilarli jihatlariga ta'sirchanligi, uning xulq-atvorini yo'naltiradigan tendensiya sifatida qayd etishimiz mumkin.

HOZIRGI YOSH OILALARDA IJTIMOIIY NIZOLARNI TURLI XIL KO'RINISHLARI

Ravshanov A. – O'zMU 4-bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi hamda davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Oila – muqaddas. Uning osoyishtaligi, mustahkamligini ta'minlash, turli noxush holatlarning oldini olish kabi masalalarda keksa avlod tarbiyasiga suyanish, yoshlar tarbiyasida mahalla faollarining ta'sirini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzandning odobli, oqibatli bo'lib ulg'ayishi uchun oilada milliy qadriyatlarimizga tayanilgan tarbiya muhiti bo'lishi kerak. Shu bois, otabobolarimiz o'g'il uylab, qiz chiqarayotganda bo'lg'usi oilaning tinchligi, mustahkamligini saqlashga astoydil harakat qilgan. Bugun ayrim hollarda yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko'paymoqda. Oqibatda begunoh bolalar yetim bo'lib, ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda. Buning sabablarini tahlil qilganda, oiladagi nosog'lom munosabat, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar ana shunday ajrimlarga olib kelgani ma'lum bo'lmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashishda ma'naviyat va ma'rifat, milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyos. Bunda ibratli oila, ko'pni ko'rgan nuroniylar ko'magidan foydalanamiz.

Bugungi kunda juda keng tarqalgan hodisa – bu oilaviy nizolar. Turmush qurganlarning aksariyati ko'pincha oilaviy munosabatlarnafaqat yashash va farzand tug'ilishi, balki bir-biriga g'amxo'rlik qilish, tushunish va baxt berishga bo'lgan qobilyatiga bog'liqdir. Xo'sh, oilada psixologik mojaro mavjudmi?

Qarama-qarshilik holati qarama-qarshilik, ba'zan dushmanlar, ehtiyojlar, qarashlar, fikrlar, qiziqishlar bilan to'qnashuvdir. Har qanday oiladagi nizolarni keltirib chiqaradigan bir nechta umumiy tipik sabablar mavjud. Bunga quyidagilar kiradi: hayotga umuman boshqacha qarashlar; to'plangan ehtiyojlar; hiyonat; turmush o'rtoqning xudbinligi; haddan tashqari rashk qilish.¹

Oiladagi ijtimoiy nizolardan birini ko'rishimiz mumkin, bu ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar;

Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqni hisobga olinmasligi;
2. Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga (urf), bugun kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo'ldosh tanlashda mustaqilligi uchun ota-onalar bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi.

3. Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuqchilik qilishi.

4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-elpi hayotga o'rganib qolishi.

5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi.

6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

7. Oila tarbiyasining destruktivligi, oila a'zolarining ota-onalik masalalari bo'yicha kelishmovchiliklari, nomuvofiqlik, bolalar uchun qo'yiladigan talablarning oshirishi, tahdid. Ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatlar oqibatida bolalarning shaxsiy xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ularga xulq-atvor qoidalarini buzish, ota-onalarning tavsiyalariga e'tibor bermaslik, shuningdek, itoatsizlik, o'jarlik, egoizm va o'zboshimchalik, takabburlik, dangasalik va boshqa salbiy xislatlarni o'zida mujassam etadi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning quyidagi turlari mavjud:

- ota-onalar va farzandlar munosabatlarining optimalligi;
- ota-onalar farzandlarning qiziqishlarini hisobga olishi, farzandlar esa ota-onalar bilan axborot almashuvi;
- ota-onalar farzandlar tashvishlarini puxta o'rganishi;
- farzandlarning xulq-atvori, hayotiy intilishlari oiladagi nizolarga sabab bo'ladi va shu bilan birga, ota-ona o'rtasidagi salbiy munosabatlar ham bolaga ta'sir qiladi, ota-onalar bolalar manfaatlarini puxta o'rganishi emas, balki bolalar istagini his qilishi kerak.

Ko'pgina oilalarda o'smir yoshdagi bolalar bilan ota-onalar o'rtasidagi nizolar kelib chiqadi. Tadqiqotlar natijasida ota-onalar bilan o'smirlar o'rtasidagi nizolar qo'yidagi turlarga ajratilgan:²

1. ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning beqarorligi;

¹ Дружинин В.Н. Психология семьи. – М., 1996.

² O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining – Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. 26 fevral 2019 yil.

2. qarama-qarshilik, xilma-xil fikrlarning mavjudligi);
3. avtonomiya (ya'ni mustaqil ish qilish, o'zboshimchalik);
4. yakka hokimlik (har qanday nizoda g'alaba qozonish istagi).

Shunga asoslanib, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolarning bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- bolalarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning emotsional holatlarini tushunish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish;

- oilada jamoaviy muhitni yaxshilash, muayyan darajada majburiyatlarni birgalikda o'zaro yordam berish an'analari asosida tashkil etish;

- bolaning iste'dodi rivojlanayotgan davrda to'siqlarni oldini olish;

- ta'lim muasasasi bilan o'zaro hamkorlikni yo'lgan ko'yish;

- bolaning ichki dunyosi, uning tashvishlari bilan qiziqish va sevimli mashg'ulotlarga jalb qilish;

- psixologlarning fikricha, yosh bolalar bilan kelishmovchiliklar yuz berganda ota-onalar nizolarni konstruktiv hal qilish usullarni qo'llashlari mumkin

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda har bir oilaviy nizolarda oilaviy tarbiyaning ahamiyati juda beqiyos. Jamiyatda har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (s.a.v.): – Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir, deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda – Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring, deb ta'kidlangan.

O'ZBEKISTONDA OILA SOTSIOLOGIYASI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Saidqulova X.O. – O'zMU 1-bosqich talabasi

“Oila davlat va jamiyat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsiplarni keng targ'ib etish hamda jamiyatga singdirish masalalari ilmiy-innovatsion jihatdan oilani davlatning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon qilishdir. Oilalar bilan ishlagan tashkilotlar tarqoq ravishda faoliyat yuritadi. Shu tarqoq ravishda faoliyat yuritadigan tashkilotlarni asosan bir joyga yig'ish kerak va oilalarning muammolarini hal qilishda foydalanish kerak. Oila jamiyat va davlatda juda oddiy ko'rinsada, murakkab funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun oilaga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Hozirgi kunga kelib yosh oilalarda ajrashishlar soni ham juda ortib bormoqda, bu esa davlatimizning rivojlanishiga ham juda katta zarar ko'rsatadi. Yosh oilalarning ajrashib ketishiga juda ko'plab sabablar bor. Masalan: ikkala

yoshning dunyo qarashlarini bir-biriga mos kelmasligi, qiz bolaning uyida berilgan tarbiya, o'rtada farzandning yo'qligi va shunga o'xshash bir nechta sabablarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Hozirgi vaqtda oilaning haqiqiy moddiy ahvolini ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlarini mahalladan ko'ra yaxshi biladigan tuzilma yo'q, chunki mahalla oilaning barcha kamchiliklari va xatolarini hisobot qilib boradi. Hozirgi kunda oila juda kuchli rivojlanib ketmoqda. Shu bilan birgalikda jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'li o'zini oqlagani kabi kuchli barqaror hamda farovon davlat tizimi negizi ham oilaning mustahkam bo'lishiga borib taqaladi.

Oila-nikoh sotsiologiyasi turmush tarzi sotsiologiyasi bilan uzviy bog'liq. Oila jamiyatning kichik yacheykasi hisoblanadi. Shuning uchun ham oila-nikoh sotsiologiyasi maxsus sotsiologik nazariya sifatida hozirgi davr jamiyat ijtimoiy hayotini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim jihatga egadir.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy sotsiologik tushunchalariga quyidagilar kiradi: oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funksiyasi, oila turmushb tarzi, oilaviy mafkura va boshqalar. Bu tushunchalar oila-nikoh munosabatlarining eng muhim jihatlari o'zida ifodalaydi. Oila jamiyatning muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifasi (funksiyasi) deganda, oila va uning a'zolari hayot faoliyati, biologik ko'payish, tarbiyaviy, xo'jalik-iqtisodiy va shu kabilar kiradi.

Oila taraqqiyotini uch yo'nalishda tanlash maqsadga muvofiqdir.

1. Oilaning demografik taraqqiyoti;
2. Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti;
3. Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning demografik taraqqiyoti deganda, oilaning miqdori, shakllanishi va demografik tarkibi (oilaning unda yashayotgan kishilar miqdoriga qarab guruhlariga bo'linishi) ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti esa oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqe, salomatlilik borasida o'zgarishlari hamda ularning ta'lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat tabiatda va jamiyatga bo'lgan munoasatlarini takomillashib borishidir.

Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini beldilaydi.

Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotida uning turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator fanlarning o'rganish mavzusidir. Oila mohiyati uning faoliyati, ya'ni u bajarayotgan vazifalari bilan belgilanadi. Ularga avlod yaratish vazifasi (jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, inson zotini davom ettirish); ijtimoiy vazifasi (oiladagi farzandlarni tarbiyalash, ularni o'zaro tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, oila a'zolarining dam olishi va salomatligini tiklash); iqtisodiy vazifasi (oila a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak, va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash kiradi.

O'zbekistonda oilani quyidagi turlarga bo'lib o'rganilgan:

1. Er-xotin bolalari bilan yoki bolasiz yashaydigan oilalar;
2. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi bilan yashaydigan oilalar;
3. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar;
4. Ikki yoki undan ortiq, oddiy oila (nikoh juftlari) bolalari bilan yoki bolasiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar;
5. Ona va bolalar yashaydigan oilalar;
6. Ota va bolalar yashaydigan oilalar;
7. Ona-bolalar va onaning (yoki onasining) ota-onalaridan biri bilan yashaydigan oilalar;
8. Ota-bolalar, otasining (yoki onasining) ota-onalari bilan yashaydigan oilalar;

Oila uning a'zolarining ijtimoiy guruhlariga qarab ham turlarga bo'linadi:

1. Oila a'zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar;
2. Oila a'zolari turli xil guruhlariga mansub oilalar.

Oilalarning o'sha oila a'zolari miqdoriga qarab turlarga bo'linishi uning demografik tarkibini tashkil etadi. O'zbekiston uchun shartli ravishda oilani 3 ta demografik turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik oilalar – 2-4 kishi istiqomat etuvchi oilalar;
2. O'rta oilalar – 5-6 kishi istiqomat etuvchi oilalar;
3. Katta oilalar – 7 va undan ortiq kishilar istiqomat etuvchi oilalar.

Har bir oila ijtimoiy tizim strukturasi sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifani bajaradi. Har bir oilaning o'ziga yarasha qadriyatlari va an'analari bo'lib, u oilaning mustahkam va bardavom bo'lishini ta'minlaydi. Oilasiz jamiyat, jamiyatsiz xalq, xalqsiz davlat bo'lmaydi. Davlat va jamiyatimizning tinchligi va totuvligi oilalarimizning tinchliligiga va halovatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham biz oila muqaddas maskan ekanligini hech qachon unitmasligimiz kerak.

OILADA ZO'RAVONLIK: SABABLARI VA TURLARI

Sultanov D., Miraximov D. – O'zMU 3-bosqich talabalari

Mamlakatimizda istiqlolning salkam 30 yilligini nishonlash arafasida turar ekanmiz, shuni qayd etib o'tishimiz lozimki, bu yillar davomida oilaning ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy asoslari takomillashtirildi hamda oila manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash masalalari, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida «Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», deb belgilab qo'yilgan.

Oila – har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol etib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanadi. Shunga ko'ra, «Oila kodeksi»da: «Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi

va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘ligi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart», deb qayd etilgan.

Biroq, jamiyatimizning muhim negizi hisoblangan oilalarimizdagi ahvolni mutlaqo yaxshi deb bo‘lmaydi. Chunki, ayrim oilalardagi kelishmovchiliklar sabab ajralishlar soni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi yetakchi o‘rinlarni egallamoqda.

Oilaviy parokandalikka sabab sifatida turli omillarni keltirib o‘tish mumkin. Mana shunday omillardan biri esa zo‘ravonlikdir.

Zaif huquqiy maydon oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik o‘tkazilishiga ham bevosita, ham bilvosita hissa qo‘shadi. Ba’zi mamlakatlardagi qonunlar agar zo‘ravonlik bolaning ota-onasi yoki qonuniy parvarishchisi tomonidan tarbiyaning uslubi sifatida qo‘llanilayotgan bo‘lsa, buni ochiqdan-ochiq yoki qonunni talqin qilish orqali xayrixohlik ko‘rsatadi. Ko‘plab mamlakatlarda bolalar erta yoshda turmush qurishlariga qarshi huquqiy himoya mavjud emas. Ba’zi mamlakatlarda bolalarga shahvoniy zo‘ravonlik o‘tkazish, tug‘ilish, o‘lim va turmush qurishni qonuniy qayd etish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qonunlar va chora-tadbirlar bolalarga uyda va oilada nojoiz munosabatda bo‘lishga bilvosita, ammo salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim, bola parvarishi, ota-onalik ta’tillari, sog‘liqni caqlash hamda bolalar va oilalarni iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikdan mahrum etuvchi ishsizlik va ijtimoiy himoyalanganlik bilan bog‘liq qonun-qoidalar oiladagi tanglik va ijtimoiy yakkalanishni kuchaytiradi va ayni chog‘da bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ko‘llanilishi ko‘rsatkichlarining o‘sishiga sababchi bo‘ladi.

Zo‘ravonlik – qanchalar dahshatli va xunuk atama bo‘lishiga qaramay, jamiyatda keng qo‘llaniladigan va insonlarga salbiy ta’sirini o‘tkazadigan so‘zdir. Bugungi kunda zo‘ravonlik holatlarining keng tarqalganligi ma’lumotiga ega bo‘lmagan insonning o‘zi bo‘lmasa kerak. Chunki, aynan jahonda deyarli har kuni bolalarning zo‘ravonlik qurbonlariga aylanayotganligi haqidagi turli ko‘rsatuvlar namoyishlarida ko‘p marotaba zo‘ravonlik qurbonlariga aylanayotgan bolalarni ko‘rishimiz mumkin.

Diskriminatsiya – insonning yoshiga, oilaviy holatiga, tashqi ko‘rinishiga, sog‘lig‘iga, irqiy mansubligiga, diniy e’tiqodiga asosan uni kamsitish, uni tahqirlash kabi salbiy munosabat.

Bolalarga, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni inson huquqlarining buzilishi deb tan olinishi tegishli ravishda qator mamlakatlarning qonunchiligida bir qator o‘zgartirishlar kiritilishiga turtki bo‘ldi. Zo‘ravonlikning qator ildizlari va manbalari bo‘lgani tufayli tadqiqotchilar uning shakllari ham ko‘p va ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydilar:

1. Etnik zo‘ravonlik: buni biz etnik mojarolar, etnik urushlar miqyosida kuzatishimiz mumkin. Masalan, XXI asr arafasida Bolqon yarim orolida milliy negizda yuzaga kelgan ko‘p sonli urushlar va qurolli to‘qnashuvlar, Isroil bilan Falastinning urushlarda davlatlar vatanparvarlik yoki “ozodlik” tusidagi turli shiorlar butun-butun xalqlarni urushga jalb etadi. Uning yana deportatsiya, majburiy migratsiya, joydan ko‘chirish kabi shakllari mavjud.

2. Iqtisodiy zo‘ravonlik: buni mehnat huquqining kamsitilishi, ya’ni ishsizlikdir. Misol: ko‘plab mamlakatlarning Konstitutsiyalarida shaxsning ishlashga bo‘lgan huquqining belgilab qo‘yilishiga qaramasdan davlat, qator sabablarga ko‘ra, aholining to‘liq bandligini ta’minlay olmaydi. Shu tarzda mehnat qilish huquqi amalga oshirilmay qoladi.

3. Ekologik zo‘ravonlik: atrof-muhitning buzilishi oqibatida millat genofondining o‘zgarishi va majburiy migratsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

4. Siyosiy zo‘ravonlik: siyosat sohasida aholi huquqlarining kamsitilishi, bu o‘rinda siyosiy hayotda va siyosiy qarorlar qabul qilishda aholining muayyan qatlamlari va shu jumladan, irqiy, etnik, jinsiy va boshqa milliy ozchilik uchun turli to‘siqlarning qo‘yilishi ko‘zda tutiladi.

5. Gender zo‘ravonlik: zo‘ravonlikning bu turi jinsiy hususiyatlarga ko‘ra kamsitishga asoslangan bo‘lib, odatda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik sifatida izohlanadi. Teng imkoniyatlar va teng javobgarlik siyosatining tan olinmasligidan yuzaga keladi.

Bolalar bo‘yicha konsultatsiyalarga ko‘proq e’tibor qaratish yo‘nalishida davom etayotgan umumiy harakat doirasida maslahatlar taqdim etish va faoliyat yuritish tadqiqoti bo‘yicha bolalarga qaratilgan uslubiyatlar ishlab chiqilmoqda. Mazkur uslubiyatlar maslahatlar berish va muloqot olib borish ko‘nikmalari bilan birgalikda bolalarni o‘z boshlaridan kechirgan nozik va og‘ir tajribalarini o‘zlari ishongan kattalarga ishonib gapirishlariga qodir qilish uchun foydalanilmoqda. Ba’zi kichik ko‘lamli misollarda, masalan Hindiston va Braziliyada, o‘z oilalari tomonidan sotib yuborilgan va kam insonlarga ishonib, muloqotga kirishuvchi bolalar bir-birlariga yordam berish va kelajakda ularga nisbatan boshqa zo‘ravonlik qo‘llanilmasligiga harakat qilish uchun birlashganlar.

Bolalarga zo‘ravonlik holatlaridan qutulishga yordam berish maqsadida turli NNT tomonidan yordam telefon tarmoqlari tashkil etildi. Bunday xizmatlardan Filippin va Kambodjadagi o‘z ota-onalari bo‘lmagan insonlar xonadonlarida zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan bolalar foydalanmoqdalar.

Ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa aralashuvlar safiga jismoniy zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar va ularning bolalarini boshpana bilan ta’minlash, ular uchun inqiroz markazlarini tashkil etish, bolalikda zo‘ravonlikni boshdan kechirgan insonlarni aniqlash va ular bilan ish olib borishlari uchun tibbiy xodimlarga mashg‘ulotlar o‘tkazish, shu bilan birga, aqliy salomatlik xizmatlari, zararli moddalarni iste’mol qilishga ruju qo‘yish hamda bolalarni himoya qilish xizmatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish kabilar kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, yuqoridagi fikrlardan foydalanish zo‘ravonlikka, shafqatsiz munosabatga uchragan bolalarning jamiyatga ijobiy va samarali ijtimoiylashuvi, ularda hayotga yangidan qiziqish uyg‘otish, unda zo‘ravonlikdan qolgan asoratlarni bartaraf etish uchun yangi chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

YOSH OILALAR TURMUSH TARZIDAGI SOTSIAL MUAMMOLAR TAHLILI

*Ernazarov B.O. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Turanboyeva O.M. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an‘analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e‘tibor bilan qaraganlar.

Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalargacha o‘z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o‘rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so‘zlar, she‘riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma‘rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma‘nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li – barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini ta‘kidlaganlar.

Oila – mustahkam qo‘rg‘on, muqaddas go‘sha, muhabbat oshiyoni kabi tavsiflar bilan ta‘riflanadi. Zero, oila Vatan ichidagi kichik bir Vatan, Vatanning qon tomirlaridir.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e‘zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an‘naviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Azaldan ajdodlarimiz oila sha‘ni va or-nomusini pok saqlashga millatimizning, xalqimizning eng ulug‘ milliy qadriyat va fazilatlaridan biri sifatida qarab kelganlar.

Hozirgi kunda yosh oilalar uchun Prezidentimiz tomonidan juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga berilayotgan namunali uylar buning yaqqol namunasi, desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol) – yosh oila deb belgilangan.

“Ma’lumki, yosh oila toifasi bizga ba’zi bir imkoniyatlar, jumladan, daromad solig’i, kreditlar, uy-joy olish kabi munosabatlarda imtiyozlar taqdim etadi. Yosh oilaga davlat tomonidan yordam berish davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim qismidir. Afsuski, barcha oilalar bunday yordamni olishmaydi va ko‘p hollarda bu bunday imkoniyat mavjudligini beparvolik bilan bog‘liq.

Uy-joy sotib olishga yordam yordam berishning eng mashhur turi. Ushbu davlat dasturi sotib olingan uyning narxini qisman qoplashdan iborat. Bunday holda, yordam miqdori ko‘chmas mulk mablag‘larini sotib olishga sarflangan mablag‘ning 40 foizigacha bo‘lishi mumkin.

Tegishli subsidiya miqdorini aniqlashda vakolatli davlat organi oila tarkibini va mehnatga layoqatli a’zolarining daromadlarini hisobga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, dastur kredit yoki ipoteka asosida turar-joy binolarini sotib olishni ham o‘z ichiga oladi.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan oila – bashariyat yaratgan bebaho ma’naviy qadriyatdir. Shuning uchun ham dunyoda necha xalq, necha xil millat, necha xil mamlakat bo‘lsa, ularning nashr etgan behisob adabiyotlari ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatda tutgan o‘rni xususida alohida varaqlardan tortib, katta-katta ensiklopediyalargacha, hukumat qarorlari, nizomlardan tortib, kodekslarga uchratish mumkin.

Oila muqaddas va buyuk ne’mat hisoblangani uchun ham juda ko‘p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim, deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro‘yi deb qaraladi. Taraqqiy etgan davlatlarning o‘z mamlakatlarida oilaga bunday katta e’tibor berishi, turli yo‘llar bilan uning nufuzini ko‘tarishga intilishi also bejiz emas. Bizda oilalar qurayotganda an’anaviy ko‘rsatmalarga amal qilinadi. Asrlar davomida ma’naviyatimiz boyib borayotganiga, oilalarimiz mustahkamligiga bu ko‘rsatmalarning insonparvarligi, umrboqiyliigi sabab bo‘layotgani ham sir emas. Yaxshi oila xushxulqli, iymonli solih kishilarni, ibratli insonlarni tarbiyalaydi. Voyaga yetayotgan har bir kishi oila to‘g‘risidagi yaxshi ko‘rsatma, yo‘riq, tuzuk, qonun-qoidalarni yaxshi bilishi lozim. Ana shu bilim va istak ularning o‘z oilalarini ko‘rkam tuzuvlariga, shu kichkina mamlakatlarni to‘g‘ri boshqaruvlariga yordam beradi. Oilada pihatli umr kechirish – barakatli umr kechirish demakdir. Bordi-yu oila tuzuk bo‘lmasa, tarbiyaga ham e’tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko‘p ta’kidlashgan: “Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e’tibor beradiganimiz yo bo‘lmasa, hech bir zamon e’tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o‘rniga tubanlik negiz quradi... Agar bir millatga bunday hol ro‘baro‘kelsa, u millat kitobining so‘nggi varag‘i ochiladi...” Shuning uchunham hamma asrlarda, hamma xalq va millatlarda dunyoning buyuk olim va fuzalolari, taniqli adiblari umrlarining oxirigacha qimmatli soatlarini oilani yaratish, uni barqarorlashtirish, insonni eng noyob farog‘atdan bahramand qilish baxtiga

muyassar etish ustida bosh qotirib o'tkazadilar. Garchi oila turmushni iqtisodiy tashkil etuvchi ilk uyushma sifatida ibtidoiy davrlardan boshlab mavjud bo'lib kelayotgan bo'lsa ham, davrlar o'tishi, "zamonlar o'zgarishi" bilan oilaning maqsad va vazifalari ham o'zgarib, tobora takomillashib boraveradi.

HOZIRGI KUNDA YOSHLARGA E'TIBOR

Turanboyeva S.R. – O'zMU 1-bosqich talabasi

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta'lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlaganining o'zi O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir.

Yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo'lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O'zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko'pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo'ladi. O'zbekiston aholisining soni 33 millionga yaqin. Ularning 17 milliondan ortig'ini yoshlar tashkil etmoqda. Shu bois yoshlar masalalariga davlat siyosati darajasidagi e'tibor yigit-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ularning ijtimoiy faoliyatini qollab quvvatlash davlat siyosati darajasiga kotarilgan. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli, ma'nan barkamol ulg'ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag'batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Yoshlar bilan ishlashning dunyodagi hech bir davlatda muqobili bo'lmagan tizimi yaratilmoqda. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rnini beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yoshlarga juda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Qonunda yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va

iste'dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o'z aksini topgan.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, hunarli bo'lishlariga ko'maklashish, hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga hunarni puxta egallab hayotda o'z o'rinlarini topishi, mehnatga munosabatni qaror topishi yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son qarori 2020-yil 30-iyun sanasida qabul qilindi. Ushbu qaror mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlarni yanada mustahkamlashiga asos bo'lmoqda.

O'zbekistonda 30-iyun – "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi.

"Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hukumat qarori (132-son, 11.03.2021 yil) qabul qilindi. Qaror bilan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, jamg'arma mablag'lari quyidagilarga yo'naltiriladi:

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga BHMning 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ko'rsatishga;

- Yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflanadigan harajatlarning 75 foizigacha qismini qoplashga;

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoloyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning 12 oygacha ijara harajatlarini ko'pi bilan bir yilda BHMning 25 baravarigacha miqdorda qoplashga;

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoloyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun BXMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratishga

- Mamlakatimizdagi OTMda o'qiyotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlari to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha, ammo BHMning 50 baravaridan oshmagn miqdorda to'lab berishga;

- "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlariga mamlakatda yoki xorijiy davlatda davolanish bilan bog'liq harajatlarni BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda qoplashga.

Yoshlarning dolzarb muammolarini to'liq hal qilish uchun sosiologik va iqtisodiy fan metodlari orqali har tomonlama kompleks tadqiqot olib borish zarur. Bunda yoshlarning manfaatlarini o'rganish bir marta bo'ladigan harakat emas, u doimiy jarayon bo'lishi kerak. Yoshlarning zamonaviy rivojlanish an'analari, kelajakdagi rejalari yoki muammolarini o'rganish asosida tegishli xulosalarga kelish uchun ularning turli toifalari o'rtasida jamoatchilik fikrining bosqichma-bosqich monitoringini o'tkazish talab etilmoqda. O'zbekiston yoshlarining hayotiy qadriyatlarini va rejalari haqida yohud real hayotda o'zlarini qanday xis qilishi

haqida ma'lumotlar olish uchun tahlil davomida eng muhim bo'lgan shaxsiy va umumiy manfaatlar ,tipik baholar va voqelikni idrok qilish andozalari tadqiq etilmoqda.

Zamonaviy o'zbek yoshlarining ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar yo'nalishlarinin qay darajada bilishlari nafaqat ularning o'zi uchun dolzarb sanaladi, balki u O'zbekiston jamiyati taraqqiyotining mavjud tendensiyalari va umumiy yo'nalishini tushunish uchun ham muhimdir.

Jumladan, shuni aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlar uchun yurtimizda juda katta imkoniyatlar va qulayliklar yaratilmoqda. Bulardan shuni misol qilib keltirishimiz mumkinki, oily ta'lim muassasalariga qabul kvotalari ko'paymoqda. Bundan tashqari, xotin-qizlar uchun alohida kvotalar joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, iqtidorli talabalar uchun "Prezident" stipendiyasi, "Navoiy" stipendiyasi va boshqa nomdor stipendiyalar joriy qilinmoqda. Oily ta'lim muassasasida temir daftarga kiritilgan kam ta'minlangan talabalar uchun shartnoma summasining ma'lum bir miqdori davlat tomonidan qoplanadigan bo'ldi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yoshlarga imtiyozli kreditlar berilmoqda. Bundan tashqari, yoshlarni ish bilan ta'minlash uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda: qishloq yoshlarini bandlik bilan ta'minlash maqsadida ekin maydonlari ajratilmoqda.

OILANING IJTIMOY HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Usmonov S.I. – O'zMU 3-bosqich talabasi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy omillar ustivorligini ta'minlashga qaratilgan.

Mazmun mohiyatiini milliy g'oyaning maqsad-manfaatlari tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy paradigmalarni shakllanmoqda, boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar va yangi munosabatlar uyg'unligi qaror topmoqda. Bu esa oila, oila munosabatlarini milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Oila tarbiyasi – ijtimoiy tarbiyaning bir turi bo'lib, oilaning barcha a'zolari unda faol ishtirok etadilar, bir-birlariga o'z bilim tajribalarini o'rgatadilar. Oila tarbiyasi bir umr davom etadigan jarayonidir. Oilada shakllanadigan farzandlik, aka-ukalik, opa-singillik mehrini boshqa biror ijtimoiy muassasa bajara olmaydi. Bu hissiyotlar o'z-o'zicha yuksak axloqiy boylik bo'lgani holda shaxsning ijtimoiy ahloqlarida, jamiyat ahloqini o'zlashtirishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Er-xotinning mehr-muhabbat, oila a'zolarining tengligi, do'stligi, o'zaro hurmatga asoslangan milliy oilaviy munosabatlar yoshlarda erkak va ayol munosabatining axloqiy me'yorlarini shakllantirishda ularda bo'lajak oilaviy

turmushga zarur amaliy malaka va xizmatlarni tarbiyalashda muhim maktab bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oila tarbiyasining quyidagi yo‘nalishlari mavjud: iqtisodiy bilimlar berish, xo‘jalik yuritishni tashkil etish, axloqiy talablar, normalar, qoidalarni o‘rganish, eng yuksak axloqiy fazilatlarni shakillantirish mehnatni to‘g‘ri, qiziqarli, moddiy va ma‘naviy foydali etib tashkil etish; nozik estetik didni san‘atning barcha turlari orqali shakillantirish, uyni, uy jihozlarini zamonaviy dizayn qonunlariga asoslanib qurish va bezash, huquqiy bilimlarga ega bo‘lish, oilada adolat tenghuquqlilikka, mustaqillikka erishish, diniy ta‘lim berish, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzini barpo etish, farzandlarni oila qurishga tayyorlash, er va xotin burch-vazifalarini o‘rgatish, tibbiy bilimlar olish, gigiyenaga rioya qilish, uyning uy jihozlarining sanitariya holatiga ahamiyat berish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni bilish, xalq tabobatini o‘rganish, nafs tarbiyasi, barcha narsalarda ovqatlanish, kiyinish axloq-odobda me‘yor bo‘lishi zarurligiga erishish, ruhiy emotsional tarbiya, doimo ruhiy tetiklikka, faollikka, teranlikka, o‘zini idora etishga, jahlini jilovlay bilish, o‘zini ortiqcha uruntirmay sokinlik va muloyimlikka, boshqalarga yomon ta‘sir o‘tkazmaslikka o‘rganish kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Odatda jamiyat oilalardan tarkib topadi. Lekin, oila shunchaki oddiy ittifoq emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Har bir tirik vujud esa, o‘zi bir olam. Yer yuzida 7 mlrd.dan ortiq odam yashasa, ularning har biri o‘ziga xos fe‘l-atvorga ega, bir odam ikkinchisida nimasi bilandir farq qiladi, bir inson ikkinchi bir insonni hech qachon takrorlamaydi. Insonlar-ki betakror ekan, oilalarning bir-birlariga o‘xshamasligi o‘z-ozidan ayondir. Er va xotin – ikki tirik vujudning, ikki olamning o‘zaro ittifoqidan paydo bo‘lgan uchinchi bir olam – bu oiladir. Ittifoq iborasida, shubhasiz, ahillik, totuvlik degan ma‘nolar ham mavjud. Agar oila chindanda tinch-totuv, ahil bo‘lsa, oilaviy turmush mustahkamlanib boraveradi. Aks holda, er va xotin bir-biriga adovatli raqiblarga aylanadi, farzandlar taqdiri qiyinlashadi, qarindosh-urug‘chilik munosabatlariga putur yetadi. Natijada, jamiyatga moddiy va ma‘naviy zarar yetadi. Bundan kelib chiqadiki, oila faqat er va xotinning o‘zidan iborat emas. Oila – er-xotin va ularning farzandlari, eng yaqin tug‘ishganlari qon-qarindoshlik ipi bilan bog‘langan kishilardan iborat guruh, boshqacha aytganda xonadondir. Binobarin, oila ma‘lum xohish-istak, maqsad asosida birlashgan odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Dunyoga kelib ilk bor ko‘z ochgan yangi vujud birinchi marta ushbu murakkab olam bilan oilada tanishdilar, binobarin uning uchun dunyodagi eng zukko, yetuk, bilimdon inson ota va onasi hisoblanadi, uning uchun eng obod, fayzli va ko‘rkam xonadon u tavallud topgan uydur. Shu sababli, yosh avlodning erkin barkamol bo‘lib tarbiya topishida ota-onaning o‘rni ijtimoiy ro‘li tadbirkorlik, sog‘-salomatligi, ma‘naviy axloqiy qiyofasi, el-yurt va Vatanga mehr-muhabbati, sadoqati g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma‘noda, “oila dunyosi” atamasi, ko‘rib turganimizdek o‘ziga xos betakror individual falsafiy ma‘no-mazmunini ham ifodalaydi. Chunki qiyosan qaraganda “oila dunyosi” bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan “mahalla dunyosi”, “ko‘cha dunyosi”, “shahar yoki

qishloq dunyosi” kabi ramziy “dunyo” lar ham mavjud bo‘lib, chindan ham ular iptidosida “oila dunyosi” turadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda sog‘lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma‘naviy axloqiy muhitni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilalar mustahkamligini va manfaatlarini ta‘minlash, sog‘lom farzand o‘stirish, tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, birinchidan, oila – jamiyatning muhim hujayrasi bo‘lib, jamiyatning normal rivojlanishi aholining ko‘payishini, yosh avlodning jismoniy va ma‘naviy tarbiyasini, insonning tabiiy ehtiyojlari – sevgi, muhabbat va muloqotni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oila va baxt haqidagi fikrlarini o‘rtoqlashdi. Uning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu – oila. “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat‘i nazar, kim bo‘lishidan qat‘i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e‘tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e‘tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zinning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”.

«Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman», - deya ta‘kidladi Prezident.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI HIMOYA QILISHNING SOTSIAL TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Valiyev A. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

Jahonda hayot sur‘atlari jadallashib borayotgan bir davrda ayollar masalasi global muammolardan biri bo‘lib ulgurdi. Ba‘zi bir davlatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish fuqarolarning turmush sharoitlariga, ayniqsa xotin-qizlar ahvoliga o‘ziga xos ta‘sir o‘tkazmoqda. Jahonning taraqqiy etgan davlatlarida ham xotin-qizlar rasmiy ishchi kuchining 1/3 qismini tashkil etishiga qaramay, ayollarni siyosiy, iqtisodiy huquqlarini, gender tengligini ta‘minlash muammo bo‘lib qolmoqda. Shu bois 1995-yil BMT o‘zining maxsus ma‘ruzasida ayollar masalasini har bir ijtimoiy-siyosiy davrda e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalardan biri bo‘lib qolayotganini kun tartibiga qo‘ydi¹.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini, shu jumladan, ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash borasida muayyan tadbirlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda. BMTning Bosh Assambleyasi inson huquqlarini ustuvor bilib, 1967-yil 7-noyabrda “Ayollarga nisbatan kamsitishni tugatish

¹ Қаранг: Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисида Конвенция. 2005.

to'g'risida" Deklaratsiya, 1979-yil 18-dekabrda esa "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida" Konvensiya qabul qildi. Ushbu hujjatlar xalqaro huquqning muhim manbai sifatida barcha davlatlar milliy qonunchiligi uchun me'yoriy mezon bo'lib qoldi. Ularda ayollarning mamlakat ravnaqi, jamiyat va oila taraqqiyotidagi alohida roli e'tirof etilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklardan foydalanishda erkaklar bilan tengligini ta'minlash, ayollar manfaatlarini kamsitilishiga va huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik talabi ilgari surilgan. Xotin-qizlar huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyat boshqaruviga ularni jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi¹, hozirda O'zbekistonning 80 dan ortiq qonun hujjatlari ayollarning huquqlari, manfaatlarini va erkinliklarini himoya qilishga bevosita aloqadordir².

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ta'lim va malaka darajasini oshirish, ularning saylab qo'yiladigan vakillik va boshqa davlat hokimiyati idoralaridagi keng ishtirokini, xotin-qizlar qo'mitalari va yurtimizdagi boshqa xotin-qizlar tashkilotlarining xalqaro xotin-qizlar harakatida, mehr-muruvvat, ta'lim sohalardagi xalqaro tuzilmalar faoliyatida faol ishtirokini ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab etadi³.

Har qanday jamiyatda ayollarning iqtisodiyot, siyosat va ma'naviy hayotga bog'liqligi aniq namoyon bo'ladi. Buning uchun maxsus ijtimoiy metodni aks ettirish, ijtimoiy ish texnologiyalari va usullarini rivojlantirishni talab etadi. Iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar natijasida, aholining kam himoyalangan toifasiga aylangan va ijtimoiy ishning alohida obyektini bo'lib ayollar kiritiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirayotgan islohotlar natijasida ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida nazariy jihatdan tadqiq etiladigan bir qator muammolar yuzaga keldi, ularning ilmiy-nazariy yechimini topish nafaqat iqtisodiy masalalarni hal qilishning, ayni paytda, xalqimiz turmush darajasini yaxshilash, ularning hayotiy manfaatlarini faollik qilishning ham muhim kafolati hisoblanadi⁴. Ana shunday muammolardan biri ijtimoiy faollik, xususan, ayollarni ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy muammolar aholining turli toifalariga xos bo'lib, ularning yoshi, ijtimoiy, mulkiy yoki oilaviy holati, sog'lig'i va boshqalar bilan belgilanadi. Ayollar ijtimoiy ishning obyektini sifatida qaralganida ijtimoiy ish olib borish bu:

- ayollar bilan ijtimoiy ishning murakkabligi shundaki, bu ish jamiyatdagi va madaniyatdagi ayollarning mavqeiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ko'plab qarama-qarshi jarayonlar bilan bog'liq ekanligidir;

- bundan tashqari, amaldagi qonunchilik ko'pincha real hayotga zid keladi va inson ehtiyojlariga javob bermaydi.

¹ Тўйчиева С., Норбеков А.Ш. Ижтимоий сиёсат. – Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2010.

² Курбонова М. Аёллар манфаатлари қонун ҳимоясида // Ҳуқуқ. – Тошкент, 2012. – №10 (791). – Б. 8.

³ Римашевская Н.М. Социальная защита населения. Учебник. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2010.

⁴ Иномова С.Т. Эъзозли аёл икболи. –Тошкент, 2005.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayoni ketayotgan hozirgi kunda onalik va bolalikning muhofazasi, ularni ijtimoiy hayotdagi huquqlari, xotin-qizlar muammolari jamiyatning kundalik vazifasiga aylanib bormoqda.

Aholini, shu jumladan ayollarni ijtimoiy himoya qilish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash lozimdir.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmonlar, farmoyishlar hamda qonun hujjatlari zamirida O‘zbekiston Respublikasida aholining barcha qatlamlariga e‘tibor qaratilayotganligi hamda bevosita qo‘llab-quvvatlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ayollarning ijtimoiy himoyasiga doir Prezident Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirishimiz mumkin: “Barchamiz uchun aziz va mo‘tabar bo‘lgan ayol zoti haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta‘zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so‘zga eng munosib zot bu – avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug‘lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5325-sonli Farmoni, 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4235-son Qarori, 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni, 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Ayollar bilan ijtimoiy ish olib borishda ijtimoiy ish xodimi quyidagi vazifalarni bajaradi: ayollarni xabardor qilish, ularga ilg‘or shaxsiy ko‘nikmalar va ijtimoiy texnologiyalarni, shu jumladan o‘z-o‘zini ish bilan band qilish, kichik biznesni o‘rgatish. Albatta, ushbu uch turdagi vazifalar, qoida tariqasida, ijtimoiy ishchilar tomonidan ijtimoiy kompleksning turli soha xodimlari – huquqni muhofaza qilish organlari, bandlik xizmatlari, tibbiy va ta‘lim muassasalari xodimlari va boshqalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Faol rivojlanayotgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimlari asosan Mehnat va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Oila ilmiy amaliy markazlari va

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – 592 б.

Xotin-qizlar qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, xalq ta’limi organlari, Yoshlar Ittifoq, Madaniyat, Turizm va Sport vazirliklarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning eng keng tarqalgan turlari bu turli darajadagi (viloyat, shahar va mahalliy) aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari, shuningdek, oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish markazlari. Bunday markazlarning tipologiyasi va nomlari, ularning funksiyalari mahalliy sharoitga qarab farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, turli idoraviy asosda tashkil etilgan ijtimoiy yordam muassasalari, shu jumladan chet el tashkilotlari, konfessiyalar, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan yoki ularning yordami bilan tashkil etilgan muassasalar faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Ta’kidlash joizki, deyarli har qanday ijtimoiy muassasalar mijozlarining aksariyati turli xil xizmatlarni ko‘rsatishga qaratilgan. Ushbu tashkilotlarning faoliyati yordamga chaqirilgan ayollarning huquqlarini buzmasliklari, tarkibiy va ish uslublari nazorati uchun shaffof bo‘lishi, shuningdek mijozlar uchun ochiq bo‘lishi juda muhimdir.

OILADA HUQUQIY MADANIYAT VA TENGLIKNI TA’MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Sherov M.B. – SamDU dotsenti,
Xamidova N.A. – SamDU 2-bosqich talabasi*

Oila ijtimoiy institut sifatida kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi, talab hamda ehtiyojlarni birgalikda qondirishga asoslangan, o‘zaro kelishilgan holda tuziladigan yaxlit mikroijtimoiy tuzilmadir. Aynan oilada inson o‘z qadrini anglaydi, umr mazmuni va ezgu xulq namunalarini egallaydi.

Zamonaviy davlatchilik sharoitida huquqiy demokratik davlat barpo etishning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan oilada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimi har bir bolaning ehtiyoj va qiziqishlarini nazarda tutadi.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar solsak, bundan 2700 yil avval yurtimizda yaratilgan va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqining ajdodlari oilalarida oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solgan “Avesto” kitobida asosiy e‘tibor nikoh tuzish zarurati, bola huquqlarining himoyasi, nikohni bekor qilish shart-sharoitlari va er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarga qaratilgan¹.

Oila va oilaviy munosabatlar masalalari, shu jumladan, oilada huquqiy madaniyatini shakllantirish va yanada oshirish masalalari bir necha asrlardan buyon buyuk mutafakkirlar va davlat boshqaruvi masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar diqqat e‘tiborini o‘ziga tortib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiyning “Aql haqidagi risola”, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abu Ali Ibn Sinoning “Qush risolasi” va “Axloq haqida risolasi”, Imom At-

¹ Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Аскар Маҳкам таржимаси. – Т.: 2001; Ҳомидов Ҳ. Авесто файзлари / Илмий муҳаррир: Н. Комилов. – Т.: 2001.

Termiziyning “Dastur al-mulk”, Burxoniddin Margʻinoniyning “Hidoya” va Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarlarida oila va oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatini shakllantirish boʻyicha qarashlar oʻz aksini topgan.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, insonparvarlik gʻoyalari qadim tarixga ega. Inson huquqlari, adolat, tenglik, qonun ustuvorligi kabi azaliy qadriyatlar “Avesto” va “Qutadgʻu bilig”dan tortib oʻtgan asrning boshlaridagi jadidchilik harakati namoyandalari asarlarining bosh mavzusiga aylangan.

Oʻzbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab oila institutini rivojlantirishga davlat miqyosida katta eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, 1998-yil – “Oila yili”, 1999-yil – “Ayollar yili”, 2001-yil “Onalar va bolalar” yili va 2012-yil – “Mustahkam oila yili” deb eʼlon qilindi.

Bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yoʻlidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam oʻrin egallamoqda. Barqarorlik va tartib-intizom, millatlararo totuvlik va fuqarolarning ahilligini taʼminlashga qaratilgan huquqiy asoslarning yaratilganligi va sifat jihatidan takomillashtirilganligi, oʻz oʻrnida davlat huquqiy tizimiga boʻlgan ishonchni va hurmatni oshirmoqda.

Oila va oilaviy tarbiya munosabatlari faqatgina bir yoʻnalishdagi tadqiqotlar orqali hal etiladigan masala boʻlmasdan, u davlatning huquqni muhofaza qilish va boshqa organlari, ilmiy muassasalar, jamoatchilik va jamiyatning har bir aʼzosi bilan uzviy bogʻliqdir.

Jumladan, barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari soʻzda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan, jahon miqyosida obroʻ-eʼtibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz oʻz oldimizga qoʻygan yuksak vazifalardan koʻzlangan asosiy maqsadlar biri – oilaning mustahkamligini taʼminlash va unda sogʻlom muhitni qaror toptirishdir.

Oʻzbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini taʼminlash, maʼnaviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻz oʻrnida, huquqiy madaniyatning yuksalishi huquqiy taʼlim va tarbiya jarayonlariga nisbatan berilayotgan eʼtiborga bogʻliq hisoblanadi. Yaʼni huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish boshlangʻich taʼlimning ajralmas qismiga aylanishi darkor.

Oila va oilaviy tarbiya munosabatlari faqatgina bir yoʻnalishdagi tadqiqotlar orqali hal etiladigan masala boʻlmasdan, u davlatning huquqni muhofaza qilish va boshqa organlari, ilmiy muassasalar, jamoatchilik va jamiyatning har bir aʼzosi bilan uzviy bogʻliqdir.

Islom huquqining oila va oilaviy munosabatlarga bagʻishlangan normalarida “zaif” jins vakili boʻlgan ayollar masalasining umumijtimoiy jihatlari, ijtimoiy-

tarixiy negizlari va madaniy-ma'naviy xususiyatlari belgilangan. Shuningdek, ayollar masalasini hal etishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o'ziga xosligini belgilashga alohida e'tibor qaratilgan.

Islom huquqida ayolga uning jinsiga, biologik tuzilishiga qarab haq-huquq berilgan, shu bilan birga vazifalar ham tayinlangan. Unga ko'ra, ayol oila hayotining barcha jabhalarida: ilm olishda, mehnat qilishda, jamiyat taraqqiyotida qatnashishda, mol-mulkka egalik qilishda erkak bilan teng huquqli bo'lgan.

Shular asosida, oila huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, islom huquqida ayol huquqlariga yondashishda oila mustahkamligining o'ziga xos vositasi sifatida qaralgan¹.

Yuqorida keltirilgan tarixiy va an'anaviy islomning huquqiy tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish dasturi natijasida fuqarolar turmushida, ayniqsa ularning oilasida, Konstitutsiya va uning asosida yaratilayotgan qonunlarga daxldorlik hamda mas'uliyatlilik hissi ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda oila a'zolarining aksariyat huquqlari bir vaqtning o'zida ularning oilaviy majburiyatlari sifatida ham namoyon bo'ladi (eng avvalo oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy huquqiy munosabatlar doirasi nazarda tutilmoqda). Masalan, ota-onalar o'zlarining balog'atga yetmagan bolalarini faqat tarbiya qilish huquqiga ega bo'libgina qolmasdan, balki ularni tarbiya qilishga majburdirlar².

Bu o'rinda asosiy qoida shuki – fuqaro o'zining oilaviy huquqlarini qonun taqiqlamagan barcha mumkin bo'lgan usullar bilan himoya qilishga haqlidir. Bunda fuqaro o'z huquqlarini davlat tomonidan himoyalani choralari qo'llash huquqiga ega³.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi huquqiy madaniyatning muhim xususiyatlari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- a) yuksak huquqiy ong;
- b) mamlakatning amaldagi qonunlarini bilish;
- d) qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning zarurligi, foydaliligi va maqsadga muvofiqligiga ishonch hosil qilish;
- e) o'z huquqlari va burchlari, erkinliklari va javobgarligi, jamiyatdagi o'z holati (maqomi), boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar me'yorlarini to'g'ri tushunish (anglash);
- f) huquqiy faollik, ya'ni subyektning huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi izchil ixtiyoriy faoliyati;
- j) har qanday huquq buzilish holatiga qarshi kurashish, jamiyatda huquq-tartibot va qonunga bo'ysunishni quvvatlash va boshqalar.

O'zbekistonda buning uchun barcha tarixiy-ilmiy va diniy asoslar yetarli hisoblanadi. Bunday sharoitda, oilaning mustahkamligini ta'minlash va oilada huquqiy munosabatni muvozanatlab turishda ayolning o'rni va rolini hisobga olgan holda ularni turli zo'ravonliklar va jinoyatlardan himoya qilish choralari ishlab chiqish lozimdir.

¹ “Аъроф” сураси. 189-оят.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.

OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY JIHATLARI

Shoumarova N.K. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a‘zolarini, ayniqsa, o‘‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Oila hayotining asosiy maqsadi avlodlarni davom etkazish va bolalar tarbiyasidir. Har qanday tarbiyaning bosh maktabi esa, ota-onaning o‘‘zaro munosabatidir. Oilaviy munosabat madaniyatining takomillashishi yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, nuqtai-nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona axloq qoidalari ularga rioya etishning yo‘llarini ko‘rsatadi.

Yosh avlodning ma‘naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyati ta‘sirida shakllanadi va o‘zining his-tuyg‘usini, ichki tug‘yonini, orzu-umidlarini shu munosabat jarayonida ifodalaydi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotida inson shaxsining shakllanishi, ularning bir-birlari bilan munosabatida, hamkorligida vujudga keladi. Oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyati takomillashtirish, insoniy keng taraqqiyot oqimiga qo‘shilib, umuminsoniy va milliy manfaatlar asosida hal etishni, ayniqsa, oilada sog‘lom avlodni shakllantirish muammosi mexanizmlarni ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Respublikamizdagi yangi ijtimoiy tarixiy vaziyat oila, oilaviy munosabatlar yosh avlod tarbiyasi sohasida jiddiy o‘zgarishlar taqozo etmoqda. Yosh avlodni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash, uning talabiga mos fikrlovchi shaxslarni shakllantirish oiladan boshlanishini hisobga olib, oilaviy o‘zaro munosabatlar madaniyati mazmunini umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslanib, uni yanada boyitish va uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim, ijtimoiy zaruriyatdir.

Oilaning mustahkamligi, to‘kis va ko‘rkamligi hamma vaqt, uning a‘zolari va ular o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘lgan. Oiladagi sog‘lom muhit – sog‘lom mafkurani shakllantiradi. Insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm-shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo‘y, halol va samimiy bo‘lib voyaga yetishlari uchun zamin tayyorlaydi.

Oila, jamiyat va davlat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va ular bilan bir vaqtda rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘ladi.

Oilaning shakllanishi rivojlanishi, jamiyat hayoti va taraqqiyotining rivojlanishi jamiyat hayoti va taraqqiyotining tarkibiy qismidir. Oilasiz jamiyat

hayotini ham, uning mohiyati va istiqbolini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyat, jamoa hayotining birinchi kurtaklari ham oiladan boshlanadi. Bu o'rinda Arastuning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. U oilaning insoniyat jamoasi shakllanishidagi o'rni ustida to'xtab quyidagi fikrlarni aytgan edi: "Bir necha oilaning vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmagan aloqalari asosida qishloq yuzaga keladi. Shu ma'noda har bir qishloq – oilalar koloniyasidir. Shu sababli ham ba'zilar bir qishloqda yashovchilarni "bir ko'krakdan sut emganlar, "farzandlar", "nabiralar", deb ataydilar. Yunon davlati ham avvalidan boshlab podshohlar tomonidan boshqarilgan. Bu oilaviy munosabatlardagi bir an'ananing davomidir. Har bir oilaning kattasi podshoh singari huquqlarga ega bo'lgan. Oilalar koloniyasi bo'lgan qishloqlarda yashovchilar o'rtasida qon-qardoshlik munosabatlari kuchli bo'lgani sababli boshqarish tizimida bunday munosabat chuqur o'rin olgan"¹.

Arastu o'zining bu fikrlaridan xulosa qilib, "bir necha qishloqlardan tashkil topgan jamoa davlatdir", degan fikrni aytgan edi. Qadimgi Sharq faylasuflarining fikricha, oilaviy munosabatlar jamiyat hayoti va taraqqiyotining birinchi kurtagi sifatida umumiy mohiyatga ega.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ham barchasi yoshlar tarbiyasida oilaning rolini yuqori qo'yishgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-onaning ta'siri naqadar kata ekanini ilmiy asoslab berishgan. Ular oilaning kelib chiqishiga oid nazariy masalalar tahliliga ham katta hissa qo'shganlar. Bu muammolarni ilmiy asosda yoritishda Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Muhammad Forobiy, Abu Rayhon Beruniylarning hissasi kattadir. Forobiy inson axloqi haqida gapirar ekan, xalqning axloqiy normalari, munosabatlari, xulq qoidalari, oilaviy munosabatlarga ta'siri masalasini batafsil bayon etadi. Forobiy inson kamolotga, baxt-saodatga erishuvida oiladagi ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash bilan birga, axloq insonning butun faoliyatini belgilovchi mezondir, deydi².

Abu Rayxon Beruniy esa shaxsning axloqiy fazilatlarini, umuman ahloqiy madaniyatning shakllanishini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa, uning fikricha, avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko'ra, bola tarbiyasida ota-ona va ularning namunasi benihoyadir. Beruniy o'zining "Minerologiya", "Geodeziya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql idroki, xalovat va lazzati, muruvvati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik, poklik va jo'shqinlik, insonparvarlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimlari sifatida ta'lim bergan. U o'zining "Minerologiya" nomli asarida shunday yozadi: "Inson jamiyatda o'z qarindoshlar urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlashdir, hamda har bir kishining ham o'zini ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarini bajarishdir"³. Bu oilani inson ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida qaradi.

¹ Аристотель. Том 4. Политика Сочинения. – М., 1983. – С. 377.

² Қаранг: Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент, 1997. – Б. 65.

³ Абу Райхон Беруний. Минерология. – Тошкент, 1967. – Б. 269.

Oilada er-xotinlar munosabati masalasi xususida Ibn Sino shunday yozadi: “erkak oila boshlig‘i, ayol erkakning yaxshi va munosib yo‘ldoshi. U bola tarbiyasida yaxshi voris va yordamchidir, u aqlan dono, iffatli, halol, pok, to‘g‘riso‘z, kamtar bo‘lishi, iffat va obro‘sini to‘kmasligi lozim. U hech qachon eriga nisbatan dimog‘dorlik, viqor xissini ko‘rsatmasligi, o‘z ishlarini yaxshi bajarishi, shuningdek, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog‘i va o‘z xulq-atvori bilan o‘z erining qalbida hadiksirash hissiga o‘rin qoldirmasligi, umuman er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslanmog‘i lozim¹”.

Oilaviy munosabatlar madaniyati va oilada bola tarbiyasi masalasi ulug‘ mutaffakir Alisher Navoiy merosida ham katta o‘rin olgan. Uning fikricha, erkak bilan ayol o‘rtasidagi sevgi, go‘zal, tabiiy bo‘lishi lozim. Bu inson ma‘naviy, jismoniy rivojlanishi uchun muhimdir. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki yoshning turmushiga ma‘naviy ruhiy asos bo‘ladi. Alisher Navoiy ayol kishini oiladagi o‘rni haqida gapirib shunday deydi: “u oilaning davlati va baxti, ayol oqila bo‘lsa ro‘zg‘orda tartib, intizom, asbob-anjomlar pokiza va saranjom bo‘ladi. Kishi bu kabi jufti haloli bilan qovushsa, baxtga erishadi va g‘am va kulfatda sirdoshga ega bo‘ladi. Agar ayol hayosiz, beandisha, yomonlik axtaruvchi bo‘lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo‘lmasa, barchaning dili yayraydi, pokiza bo‘lmasa unda eriga yuzi qoralik keltiradi. Agar mayxo‘r bo‘lsa, uy obodligi yo‘qoladi, axloqsiz bo‘lsa, oila rasvo bo‘ladi²”.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, oila a‘zolari ushbu vazifalarning ma‘suliyatini his etib borishlari lozim. Bir so‘z bilan aytganda, farzandga berilayotgan oila tarbiyasida g‘amxo‘rlik va talabchanlik mutanosib ravishda bo‘lishi kerak. Shundagina Vatanga fidoiy, sodiq, e‘tiqodi mustahkam, jamiyat oldidagi mas‘uliyatini his etadigan, mustaqil fikrga ega shaxsni kamolga yetkazish mumkin.

KORONAVIRUSNING IJTIMOIIY HAYOTGA TA’SIRI

Qodirova N. – O‘zMU 1-bosqich talabasi

Bugungi kunda mamlakatimizdagi eng dolzarb muammolardan biri bu – COVID-19dir. Koronavirus kasalligi nafaqat bizning mamlakatda, balki butun dunyoning muammosiga aylangan, desak adashmaymiz. Koronavirus kasalligining kelib chiqishi tarixi Xitoyga taqaladi. Xitoyning Uxan shahrida ilk bor aniqlangan yangi koronavirus keltirib chiqaradigan kasallik 2019-yil koronavirus kasalligi deb nomlandi. Qisqacha COVID-19 nomida “CO” – “corona” – korona, “VI” – “virus” – virus? “D” esa “disease” – kasallikni anglatadi. Avval ushbu kasallik “2019-yilgi koronavirus” yoki “2019-nCoV” deb nomlangan.

COVID-19 yangi virus bo‘lib, kuchli respirator sindromni va o‘tkir respirator virusli infeksiyaning “O‘RVI” ba’zi turlarini keltirib chiqaradigan

¹ Абу Али Ибн Сино. Тадбири Манзил.(Асардан таржималар, таржимон А. Ирисов). – Тошкент, 1976. – Б. 44.

² Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами 16 том. – Тошкент, 1993. – Б. 54.

viruslar oilasiga tegishlidir. Virus havo-tomchi yo‘li bilan yo‘talish va aks urish paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqadi. Shuningdek, virus bilan ifloslangan yuzalarga tegish orqali ham yuqishi mumkin. COVID-19 virusi bir necha soat davomida buyumlarning sirtida o‘z kuchini saqlab qoladi, biroq oddiy dezinfeksiya vositalari uni o‘ldirishi mumkin. Ushbu alomatlar gripp yoki O‘RVIGA o‘xshashdir, ular COVID-19 ga qaraganda ancha keng tarqalgan. Shuning uchun odam COVID-19 bilan kasallanganligini tasdiqlash uchun tibbiy tahlil qilish kerak. Kasallikning oldini oluvchi asosiy profilaktika choralari o‘xshash. Buning uchun qo‘llarni sovun bilan tez-tez yuvish lozim.

Koronavirus kasalligi kirib kelishi bilan mamlakatimizda kuchli karantin e‘lon qilindi. Mamlakatimizda karantin paytida har bir faoliyatlarning yopilishi shu jumladan; maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab, oliy o‘quv yurtlarining vaqtinchalik faoliyatini to‘ttatdi. Nafaqat ta‘lim sohasi, balki har bir sohaning faoliyati to‘htashi ko‘p odamlarning kun kechirishini qiyinlashtirdi. Ish faoliyatlarining to‘htab qolishi ta‘limning masofadan turib o‘qitiishi ham qator kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu jumladan, kasallanish ko‘payishi, kundan-kunga o‘lim soni ko‘payishi xalqimizni tushkunlikka tushirib qo‘ydi. Kasallanishni kamaytirish uchun juda ko‘p chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu jumladan, ko‘chalarni dezinfeksiya qilish, odamlar gavjum bo‘ladigan joylarni tez-tez dezinfeksiya qilish, eng asosiysi kasallanishni oldini olish uchun odamlarga og‘iz va qo‘llariga niqob taqish majburiy etilgani kasallikni oldini olish uchun ko‘rilgan eng yaxshi himoya vositasi bo‘lib hizmat qildi. Lekin odamlar bu ko‘rilgan chora-tadbirlarga to‘liq amal qilmadi va natijada bu kasallik kamayish o‘rniga yanada avj oldi.

Karantin paytida xalqimiz juda qashshoqlashib qoldi, bunung natijasida xalqimiz tushkunlikka tushib qolishi va kasallanish yanada ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Shunday og‘ir kunlarda davlatimiz tomonidan xalqimizga juda ko‘p yordamlar qilindi. Davlatimiz tomonidan qiynalgan oilalarga bepul oziq-ovqatlar tarqatilishi, koronavirus kasalligi aniqlangan shaxslarni davlat tomonidan shifoxonalarda bepul davolash, bepul oziq-ovqatlar bilan ta‘minlash hamda 14 kunlik karantinda ularga shifokorlar tomonidan hizmat qilinishi ham xalqimizni sog‘lom turmush tarziga qaytishi uchun o‘z hissasini qo‘shdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kasallik tarqalishi bilan mamlakatimizda deyarli hamma joylarning, chet davlatlarga kirish-chiqishlarning yopilishi ham xalqimizni asrash uchun qilinganligini ko‘rsak bo‘ladi. Lekin chet davlatlarga kirish-chiqish yopilgan bo‘lsa ham davlatimiz tomonidan chet davlatlarga chiqib ketgan vatandoshlarimizni u yerlarda qolib ketmasliklari, kasal bo‘lmasliklari uchun o‘z yurtimizga qaytarib kelish yo‘lga qo‘yildi. Chet davlardan olib kelingan vatandoshlarimizni kelishlari bilanoq karantinga olinishi, ularni maxsus shifoxonalarga yotqizilishlari ta‘minlandi.

Davlatimiz tomonidan to‘y-hasham va ma‘arakalarni o‘tkazish bo‘yicha cheklovlar joriy etildi. Yer osti va yer usti transportlari harakatiga, odamlarning ko‘chalarda yurishiga cheklovlar joriy etildi. Shunday bo‘lsa-da, fuqarolarimiz tomonidan bu cheklovlarga amal qilmaslik holatlari ko‘p uchradi, natijada jarimalar tizimi joriy qilindi.

Mamlakatimizga koronavirus kasalligi kirib kelishi bilan iqtisodiyotimiz tanazzulga uchradi. Nafaqat bizning mamlakatimiz, balki butun dunyoning iqtisodiyoti tanazzulga uchradi.

Kasallikni yengish uchun UNICEF ham o'z hissasini qo'shdi. UNICEF asosan Xitoy va Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarning aksariyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. 29-yanvardan beri UNICEF 13 tonna jihozlar, jumladan tibbiyot xodimlari foydalanishi uchun himoya kiyimlari, niqoblar, ko'zoynak va qo'lqoplarni yetkazib berdi. 17-fevral kuni UNICEF COVID-19 virusi tarqalishining oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun 42.3 mln AQSH dollari miqdorida mablag' yig'ishga chorladi. Dastlabki mablag' bolalar, homilador ayollar va ularning oilalari COVID-19 tarqalishining oldini olish va qayerga yordam so'rash uchun murojaat qilishni bilishlari, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishiga to'sqinlik qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarga sarflandi.

Men bu muammoni yuzaga chiqarishimning sababi shundaki, hozirgi bunday vaziyatda hammaga ham oson emasligini, "hamma ham jabr ko'rganligini" va buni to'g'ri qabul qilishimiz kerakligini ta'kidlashdir. Shunday og'ir kunlardan o'tdik bundan buyog'iga ham albatta yengilmasligimizni, bu kasallikdan albatta butunlay qutulishimizga o'zimizda ishonch hosil qildirishdir. Bunday paytda hamma bir-biriga yordam bermasa, biz bu kasallikdan chiqib ketishimiz biroz qiyin kechishini tushunmog'imiz kerak. Shunday kunlarda odamlar o'zlarini o'zlari tushkunlikka tushmasdan, balki shu holatga vaqtinchalik moslashishimiz kerakligini bilsak albatta bunday og'ir kunlardan o'tib ketamiz, albatta.

ПОВСЕДНЕВНАЯ ЖИЗНЬ КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Камалиддинова Ш. – студентка 4-курса НУУз

Жизненный процесс с его ежедневным бытом, проблемами, делами, встречами и разговорами – это и есть повседневная жизнь. Сюда входят общения с товарищем за чашкой кофе и стояния в очереди, поездка на работу и разговор по телефону, просмотр традиционных теленовостей и признания в любви, мечты о предстоящем отпуске и игра с сыном, размышления о смысле жизни и приготовления обеда, танцевальная вечеринка и дискуссия среди коллег, где можно отличиться эрудицией, и тому подобное. Это наш "жизненный мир" – феноменальный мир ощущений, желаний, фантазии, сомнений, воспоминаний о прошлом и предсказаний будущего. Это наше повседневную жизнь во всей полноте, ситуативной конкретности, непосредственной данности и эмоциональной наполненности, которое мы воспринимаем субъективно как целостный мир, бесконечную и нерасчлененную продолжительность.

Во время повседневной деятельности человек обычно не задумывается над структурой своего социального мира или над предпосылками и возможностями общественного порядка. Основные грани ее жизни является

“данным”, природными, само собой разумеющимися. Явления непосредственной человеческой жизнедеятельности не нуждаются в объяснении, они интуитивно вероятны и понятны. Повседневная реальность существует как самоочевидна и фактическая, что не требует никакой проверки сверх того, что она просто существует. Как правило, человек воспринимает форму и содержание ее как нечто данное, бесспорно, априорное, самоорганизующихся.

Повседневность является специфическим предметом исследований микросоциологии, который неразрывно связан с понятиями практики, взаимодействия и социокультурной организации обыденной жизни индивидов. Пристальный интерес к исследованию повседневности в социально-гуманитарных науках появился в середине XX столетия. В макросоциологии повседневность актуализировалась в марксизме, структурном функционализме и постмодернизме. В микросоциологии – в рамках экзистенциализма, феноменологии, этнометодологии, социологии конструктивизма, символического интеракционизма и др.

Как правило, при определении повседневности ученые сталкиваются с рядом проблем. Первая связана с всепроникающим характером рассматриваемого понятия, в результате чего оно представляется размытым и неконкретным. Вторая проблема состоит в кажущейся простоте и понятности термина, в связи с чем на нем детально не останавливаются. Наконец, третья и, может быть, самая распространенная ошибка в определении повседневности, по мнению В.В.Корнева, состоит в заведомо негативных коннотациях этого термина, в силу чего обыденный мир заранее рассматривается как «эрозия», «принижение», даже «грехопадение» истинной человеческой реальности. В этой ситуации «повседневность» мыслится по остаточному принципу: от всего оригинального в культурно-общественной жизни – к самому неоригинальному, от всего высокого – к низкому¹. При этом сама повседневность представляется как застой и рутинность. В данной связи уместно привести мнение Макса Вебера, полагавшего, что процесс «оповседневнивания» тождественен упадку и деградации высокой культуры, а повседневная сфера – это рационализированная и формальная сфера, которая может быть «тупой» и «гнетущей»².

Итак, повседневность – это исторически изменчивая пространственно-временная целостность социального бытия, разворачивающаяся в сферах быта, труда и досуга с помощью различных видов деятельности. Повседневность представляет собой смысловой континуум, который интерпретируется людьми посредством типизации и структурирования объектов этого мира. Обращение к повседневности позволяет увидеть субъекта, вписанного в объективную социальную реальность и воплощающего на индивидуально-личностном уровне ее феномены. В связи

¹ Корнев, В.В. Вещи нашего времени: элементы повседневности. – Режим доступа: <http://ru.scribd.com/doc/36257136> – свободный (дата обращения 12.05.2015).

² Вебер М. Избранные произведения / Макс Вебер: пер. с нем. М. Левин, А. Филиппов и др. – М.: Прогресс, 1990. – 804 с.

с этим главной методологической задачей социологической науки становится открытие общих принципов организации повседневной жизни¹.

Повседневная жизнь находит свое отражение и в человеческом опыте - трудовом, семейном, коммуникативном и др., и одновременно обогащает, формирует его. В данной связи А.Шюц определял повседневность как одну из сфер человеческого опыта, характеризующуюся особой формой восприятия и осмысления мира, возникающей на основе трудовой деятельности. Как таковая, повседневность является «высшей реальностью», оказывающейся основой, на которой формируются все прочие миры опыта².

Образ жизни – это способ, формы и условия индивидуальной и коллективной жизнедеятельности человека (трудовой, бытовой, социально-политической и культурной), типичные для конкретно-исторических социально-экономических отношений³.

Повседневность в последние десятилетия стала модной научной проблемой, темой диссертационных исследований, научных конференций, статей. Многие известные социологи пишут книги по вопросам дружбы, любви, одиночества, здоровья, сна, питания, музыки и т.п. Одним из первых к данной теме обратился Э.Гуссерль. Он считал, что науке необходимо обращаться к жизни общества, без этой связи наука станет «бесплодным мудрствованием». Последователи ученого развили эту идею, что дало толчок глубокому и систематическому изучению проблемы. С начала XX в. в европейской социологии постепенно нарастал интерес к отдельным проявлениям повседневной жизни. Повседневность изучалась в рамках нескольких фундаментальных направлений социологии XX в. (символический интеракционизм, феноменологическая социология и этнометодология). Близка к данной тематике также идея понимающей социологии о включении исследователя в объект исследования. «Повседневность является основной и необходимой предпосылкой исследований в социальных науках», – пишет Л.Г.Ионин в книге «Социология культуры»⁴. П.Штомпка в статье «В фокусе внимания повседневная жизнь. Новый поворот в социологии» цитирует одного немецкого социолога: «Знаете, если бы мне действительно было нужно понять итальянское общество, я бы не рассылал анкеты, а пошел бы в кафе за углом. Чтобы понять немецкое общество, я иду в пивную, а если я хочу понять британское общество, иду в паб. И там просто смотрю по сторонам»⁵.

Повсеместно в нашей жизни встречаются повседневные феномены, но, несмотря на это, повседневность остается вне фокуса внимания, будучи постоянным фоном социальных взаимодействий, в чём и проявляется

¹ Жигунова Г.В. Повседневность как социальный феномен. – М., 2015.

² Шюц А. Структура повседневного мышления // Социологические исследования. – 1988. – № 2. – С. 120-136.

³ Социологический словарь – Режим доступа: <http://enc-dic.com/sociology/> – свободный (дата обращения 12.05.2015).

⁴ Ионин Л.Г. Социология культуры: путь в новое тысячелетие: учеб. пособие для студентов вузов. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Логос, 2000. – 431 с.

⁵ Штомпка П. В фокусе внимания повседневная жизнь. Новый поворот в социологии // Социс. – 2009. – № 8. – С. 3-13.

особенность явления. Повседневность является неисчерпаемым источником познания для социолога. Исследование повседневности позволяет изучать социальные системы, структуры, социальные действия на том уровне, где они лучше всего прослеживаются. Здесь мы можем непосредственно наблюдать микроуровневые проявления социального неравенства, процессов глобализации, модернизации. Однако изучение повседневности-в-себе возможно лишь при условии выхода исследователя за её рамки, что для социального существа представляется почти невозможным. Впрочем, именно такой парадоксальный характер данного феномена, по нашему мнению, представляет вызов для социологической науки. Возможно, именно исследуя повседневность, можно приблизиться к решению фундаментальных социологических проблем.

Повседневность, таким образом, включает в себя будничные практики частной, приватной индивидов, определяющее значение для которых имеют накопленный жизненный опыт, сложившийся образ жизни. Эти практики связаны в первую очередь с домом, бытом, семьей, ближайшим окружением, досугом и рутинными каждодневными занятиями.

III SHO‘BA. AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAXS VA JAMIYAT” MASALALARINING YORITILISHI

IJTIMOYIY SOHALARNI O‘RGANISHDA SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR AHAMIYATI

Abdullayev A., Urozov Sh. – O‘zMU 3-bosqich talabalari

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va iqtisodiy vaziyatni o‘rganishda sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni kattadir. Sotsiologiya aholining ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga munosabatining o‘ziga xos ko‘rsatkichi hisoblanib, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirishga xizmat etuvchi fandır. Sotsiologiya o‘ziga xos ilmiy tushuncha va metodlar orqali jamiyatni konkret tadqiq, etishni, ishonchli ilmiy faktlarga tayanib jamiyat istiqbolini oldindan ko‘rishni, yetilgan muammolarni okilona hal etish uchun tavsiyalar berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Boshqa fanlar kabi sotsiologiya insonni o‘rab turgan butun dunyosini o‘rganmaydi, balki jamiyatning, u yoki bu tizimning bir tarkibiy qismi sifatida kuzatilayotgan jarayonlarini, ularning eng muhim va o‘ziga xos bo‘lgan xossalarini o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, xususiy ijtimoiy jarayonlarni butunlikka, jamiyatga taalluqli, deb hisoblaniladi. Mashhur amerikalik sotsiolog T. Parsons ta’kidlaganidek, sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o‘laroq, «butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bo‘lgan tizim va jarayonlarni o‘rganadi»¹. Sotsiologiya shaxsni jamiyatda bajarayotgan faoliyati, o‘zlashtirilgan maqomlarini ijtimoiy tizim jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda ma’lumotlar so‘rov, hujjatlarni o‘rganish, intervyu, kuzatish kabi usullar orqali yig‘iladi. So‘rov – biron-bir narsani aniqlash uchun ishtirokchilarga turli usullarda beriladigan savollar yoki murojaatlardir. Sotsiologiyada so‘rash usullari muayyan aholi guruhlariga savollar vositasida murojaat qilish orqali birlamchi ma’lumotlarni to‘plash ma’nosini anglatadi. So‘rash usullarining yozma (anketa), og‘zaki (intervyu) hamda sirdan (pochta, telefon va matbuot orqali) ma’lumotlar to‘plash shakllari mavjud. Ekspert baholash uslubi – so‘rov utkazilayotgan soha bo‘yicha ekspert so‘rovi o‘tkazish va soha mutaxassislari fikrini olish yo‘li bilan sotsiologik axborot olish uslubi.

So‘rov dastlabki axborot olishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Uning yordamida barcha sotsiologik ma’lumotlarning 90 %iga yaqini olinadi. So‘rov har doim bevosita ishtirokchiga murojaatni taqozo etadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatish qiyin bo‘lgan jarayonga qaratiladi. Shuning uchun ham so‘rov ma’lum bir sharoitda, vaziyatga begona ko‘zdan chetda bo‘ladigan ijtimoiy, jamoa va shaxsiy munosabatlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Yoppasiga so‘rov o‘tkazish aniq ma’lumot beradi. Tanlov asosida so‘rov o‘tkazish tejamli bo‘lsa ham ma’lumotlar nisbatan noaniqroq bo‘ladi. Agar barcha aholi yoki uning

¹ Американская социология. Перспективы, проблемы, методы / под ред. Т. Парсона. – Москва, 1972. – С. 364.

o'rganilayotgan bir qismi asosiy va umumiy majmua deb olinsa, tanlov asosida so'rov o'tkaziladiganlar uning aniq, kichraytirilgan nusxasidir. Bunda xato yoki farq bir necha foizdan oshmaydi.

Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallangan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi. Chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

Sotsiologik tadqiqot muammoni aniqlash, tadqiqot mavzusini tanlash, mavjud adabiyotni ko'zdan kechirish, mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlar bilan tanishish, gipotezani shakllantirish kabi bosqichlardan iborat bo'ladi. Tadqiqotni shakllantirishda uning loyihasi ishlab chiqiladi, bir yoki bir necha uslubi tanlanadi (masalan, so'rov, hujjatlardan foydalanish). Tadqiqotni o'tkazilib, ma'lumotlar yoziladi, natijalarni ilmiy izohlanadi, olingan ma'lumotlar qayta ishlanib, natijalari bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida eng keng tarqalgani so'rov usulidir. Bu usulning qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo'llanilganda katta korxonalar va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin.

Sotsiologik tadqiqotning natijalari mamlakat, hududlar yoki korxonalar miqyosida muhim o'zgarishlarga, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga turtki beradi. Mazkur natijalar joylarda yechilmay qolayotgan muammolarni ijobiy hal etish, aholining ijtimoiy masalalarini hal etish, mehnatkashlarga namunalik ish sharoitlarini yaratib berish kabi bir qator aniq, konkretlashtirilgan chora-tadbirlarni bajarishga yordam beradi. Bugungi kunda sotsiologik tadqiqotlar natijasida davlat boshqaruvi va jamiyat hayotida muhim qarorlarni qabul qilish ishlari muhim an'anaga aylanmoqda.

Tadqiqotlar hisoboti tuzilishi ham ma'lum mezonlarga tayanadi. U tuzilayotganda muammoning qo'yilishi, tadqiq etiluvchi masalalarning ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy ko'rinishi, muammoning qay darajada o'rganilganligi va uning yechimiga e'tibor beriladi. Alohida e'tiborni tadqiqotning uslublar tasnifiga, tanlovning tuzilishi, axborotlarni yig'ish tartiblariga ajratish kerak. Oxirida alohida bo'lim orqali o'tkazilgan tadqiqot natijalarining har tomonlama tahlili va qo'yilgan masalalarning yechim darajasi tasniflanadi. Bo'limning oxirida tadqiqotning mavjud bo'lgan amaliy natijalari ko'rsatiladi va aniq xulosalar shakllanadi, tavsiyalar beriladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarda ma’lumotlar va axborotlarning tahlili hamda ilmiy tasniflash tahliliy ishlarning muhim bosqichi bo‘lib, maxsus tizim yordamida olingan natijalarni umumlashtirish iborat. Ma’lumotlarni tahlil bosqichi o‘rganilayotgan obyekt haqida olingan axborotni shu obyekt haqida oldindan mavjud bo‘lgan axborot bilan solishtirishdan iboratdir. Ma’lumotlarni tahlil bosqichining ma’nosi va maqsadi natijalarning ma’nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdir.

To‘plangan empirik axborotlarni to‘g‘ri izohlash va ma’lumotlar mantig‘iga mos xulosa va tavsiyalarni shakllantirish tadqiqotchidan katta aqliy mehnat hamda ilmiy-nazariy malakani talab etadi. Shuning uchun empirik materiallarning tahlil qilinishi hozirgi va kelajakdagi masalalarning amaliy yechimi bilan bog‘liq bo‘lib, aniq xulosalar chiqarish uchun yukori saviyadagi tahliliy madaniyat, to‘g‘ri va xolis ilmiy yondashuv zarurdir.

Natijalarni tahlil va umumlashtirish jarayonidagi ayrim bosqichlarni ajratib tavsiflashga harakat qilamiz.

Birinchi – tadqiqot ilmiy farazlariga mos va muvofiq hosil qilingan empirik ma’lumotlarni tartiblash, guruhlashtirish, klassifikatsiyalashdir. Bu bosqichda tadqiq etiluvchi hodisalarning miqdoriy tasniflari, tadqiqot tomonidan qamrab olingan hodisalar, obyektlar tez-tez takrorlanishi ma’lumotlarni statistik guruhlashga imkon beradi. Ijtimoiy axborotlarning har xil alomatlariga ega bo‘lishini hamda tadqiqotlarning vazifalari va maqsadlari xilma-xilligi inobatga olib har xil guruhlashtirish uslublarini qo‘llash mumkin. Bu guruhlashtirish hududlar, sohalar, tizimlar, yo‘nalishlar va ish ko‘lami borasida amalga oshirilishi mumkin.

Tahlilning ikkinchi bosqichi – hujjatlar va axborotlarning ishonchliligini va xolisligini tekshirish, ma’lumotlarni umumlashtirishdir. Bu bosqichda turli tasodifiy tasnifga ega bo‘lgan axborotlar bir-biridan ajratib olinadi. Uchinchi bosqichda hosil qilingan tavsif orqali mavjud bo‘lgan tadqiqotning ilmiy farazlari tekshiriladi.

Tahliliy ma’lumot tuzish tadqiqot faoliyatining muhim bosqichi hisoblanadi. Tahliliy tadqiqotning natijalari, tizimlashgan ko‘rinishda yakuniy ma’lumotda namoyon bo‘ladi. Yakuniy ma’lumotni tayyorlashda shuni esda tutish kerakki, u keyinchalik nazariy ishlarni davom ettirishga asos bo‘lishi va ijtimoiy boshqaruv amaliyotida tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi shakliga ega bo‘lishi kerak. Ma’lumot yakuniy xat ko‘rinishida joylarga yuboriladi, unda asosiy xulosalar va natijalar keltiriladi.

SOTSILOGIYADA SOTSIOMETRIYA USULINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Davronova N.B. – O‘zMU 2-bosqich talabasi

Sotsiometriya sotsiologiyaning tadqiqot usuli bo‘lib, u kishilar xulqi, xatti-harakatlari, o‘zaro munosabatlarning tuzilishi va mazmunini so‘rash yoki qayd qilish orqali o‘rganadi. Sotsiometrik usullar mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, uyushmalar, oila va boshqa guruhlarda shakllangan munosabatlar tizimini tadqiq

etadi. Shu boisdan ham sotsiometriya sotsiologiya fanining muhim qismini tashkil etadi. Bulardan tashqari jamoaning psixologik iqlimiga bir qancha omillar tasir ko'rsatishi mumkin.

O'quvchi, talabalar jamoasidagi manaviy-psixologik iqlimning tashkilotchisi – o'qituvchi, guruh rahbari hisoblanadi. Har bir guruh rahbari jamoada normal psixologik iqlimni yaratish uchun unga tasir etuvchi omillarni yaxshi bilishi zarur. Chunki, yaxshi tashkil etilgan jamoada normal psixologik iqlim mavjud bo'lganda guruh a'zolarining o'zlashtirishi, tartib-intizomni saqlashi ham yaxshi yo'lga qo'yiladi.

Guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishda kuzatish, eksperiment, turli xil suhbat usullaridan foydalaniladi. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlaridan biri – sotsiometriya metodidir. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, inson u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha guruh azolarini tanlaydi. Qilingan tanlashlar asosida kishining guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rni haqida xulosa chiqaradi. Demak, sotsiometriya metodi yordamida guruh azolari o'rtasidagi simpatiya yoki antipatiyani aniqlash mumkin, sotsiometriya metodni operativ tarzda o'tkazish, uning natijalarini esa matematik ravishda qayta ishlash va grafik tarzda ifodalash mumkin.

Sotsiometriyani tadqiqot metodi sifatida tan olish bilan bir qatorda uning bazi kamchiliklarining ham ko'rsatib o'tish zarur. Asosiy kamchiligi shundan iboratki, sotsiometriya metodi mavjud munosabatlar tuzilishining sabablarini o'rganish imkonini bermaydi. Shuning uchun ham sotsiometriyadan olingan malumotlar kuzatish, suhbat, psixologik-pedagogik eksperiment natijalari bilan to'ldirilishi lozim.

Sotsiometriya metodidan guruh, jamoa azolari o'zaro bir-birlarini yaxshi bilgan holatlardagina, rasmiy ish yuzasidan bo'ladigan va shaxsiy munosabatlardagi haqiqiy o'rnini aniqlash, birlamchi guruhlar mavjudligi yoki mavjud emasligini topish, birlamchi guruhlarining paydo bo'lish va tarqab ketish sabablarini aniqlash mumkin. Sotsiometriya metodining mohiyati shundan iboratki, tekshiriluvchiga birga qilinadigan ishlar yoki guruh azolarning ishlarini birgalikda bajarishga xohishlari to'g'risida savollar beriladi. Beriladigan savollar tanlash ko'rsatkichlari, deyiladi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar farqlanadi. Kuchlilari chuqur va barqaror munosabatlari, kuchsizlari esa yuzaki va beqaror munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar mazmun jihatdan turlicha bo'lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa – natija, yani sherik tanlashdir.

Sotsiometrik tadqiqotdan olingan malumotlar asosiy sotsiogrammlar tuziladi. Agar guruh azolari soni 20 tadan ko'p bo'lsa, sotsiometrik matritsa tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, natijalarni grafik ravishda, zanjir, uchburchak yoki yulduzcha shaklida ham ifodalash mumkin. Shunday qilib, sotsiometriya metodi obektiv va aniq ma'lumotlar, yani shaxsning guruh yoki jamoadagi real holatini aks ettiruvchi malumotlar olishga imkon beradi va amaliy maqsadlarda foydalanishi mumkin.


Sotsiometriya usullari kichik guruhlar, jamoalar tuzilishi va ularning ijtimoiy-ruhiy muhitini tadqiq etuvchi samarali vosita hisoblanadi. Ayni chog'da

sotsiometriya alohida shaxsni jamoaning tarkibiy qismi, ajralmas bo‘g‘ini sifatida ham atroflicha o‘rganishi mumkin.

Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tadbiiq qilish oqibatida paydo bo‘ldi. Sotsiometriyaga XX asrda fransuz sotsiologi, faylasufi G.D.Gurvich¹ (1894-1965) va Amerika ruxshunos olimi Y.L.Moreno² (1892-1974) lar tomonidan asos solingan. Ular kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosotsiologiyada sotsiometriyani qo‘lladilar. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo‘ldi.

Sotsiometriya atamasi amerikalik psixolog va ijtimoiy psixiatr Y.Moreno tomonidan ilmga olib kirilgan. Y.Moreno fikricha, shaxslararo munosabatlar yig‘indisi muayyan guruh ijtimoiy manzarasini yaratib, nafaqat guruh xususidagi umumiy va yaxlit fikrni shakllantiradi, balki har bir shaxs ruhiy – botiniy olami, intilishi va qiziqishlari haqida ham atroflicha ma’lumot bera oladi. Bunday tizim amerikalik olim fikriga ko‘ra, shaxs ijtimoiy xatti-harakatlari motiviga ham tayanib, insonning faoliyat yo‘nalishini belgilab beradi. Marksistik ta’limot esa sotsiometriya usulini alohida olingan guruh zamiridagi aloqalar tizimini o‘rganishga imkon beruvchi usul sifatida qarab, shaxs ijtimoiy xatti-harakatlari motivlarini belgilab bera olmaydi, deb biladi³.

Sotsiometriya – kichik guruhlarini tarkibiy tahlil qilish usuli. Sotsiometriya (lotincha so‘z *societas* – jamiyat va yunoncha so‘z *metron* – o‘lchamoq ma’nosini anglatib) kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni, miqdoriy munosabatlarni miqdoriy o‘lchovlar asosida o‘rganadi. Unda kishilarning o‘zaro bir-birlarini xush ko‘rish, yoqtirish va xush ko‘rmaslik mayllari o‘rganiladi. Y.Morenoning sotsiometriya tizimi 5 asosga ega⁴:



1-chizma. Y.Morenoning 5 asosga ega bo‘lgan sotsiometriya tizimi

¹ Каранг: Соч.: 1) “Правда воли монаршей” Феофана Прокоповича и ее западноевропейские источники. Юрьев, 1915. 2) *Dialectique et sociologie*. P., 1962. 3) *La vocation actuelle de la sociologie*, t. I-II. 4-eme ed. P., 1968.

² Каранг: Морено Я.Л., *Психодрама*, вып. 1., Нью-Йорк: Борисон Хаус, 1945. – С. 78.

³ <http://www.jahongir.sitcity.ru>

⁴ Юнусов К. Социология. Ўқув қўлланма. – Андижон, 1997. – 132 б.

Kishilar hayot faoliyati davomida o'zaro bir-birlariga nisbatan ijobiy (simpatiya) yoki salbiy (antipatiya) tuyg'ulariga ega bo'ladilar. Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik musaffo bo'lsa, ijtimoiy tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli boradi. Aks holda, kichik guruhlar va ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og'ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklarni, nomuvofiqlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi, undagi kishilar hayoti ham butun olam tortishish qonuniga bo'ysunadi. Xuddi tabiatdagidek, jamiyatda ham kishilar o'zaro gravitatsion (o'zaro tortishishga asoslangan) munosabatda bo'ladi. Tabiatdagidan farq qilib, jamiyat hayotida bu qonuniyat o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, taab, odat, tarbiya, din-e'tiqod va shu kabi ijtimoiy-ruhiy omillar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab gravitatsion asosini tashkil qiladi. Ular asosida kishilar o'zaro yaqin «tortiladilar», do'stona, samimiy munosabatda bo'ladilar yoki bir-birlaridan uzoqlashadilar, adovatda bo'ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdoriy jihatdan o'rganadi. O'z navbatida miqdoriy o'lchovlar sifatiy ko'rsatkichlarni farqlashga xizmat qiladi.

Hozirda, bozor munosabatlarining tarkib topib borish jarayonida jamiyat ijtimoiy hayotining sotsiodinamik tarzda rivojlanishini sotsiometriyada o'rganish ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tarbiyaviy muammolarni yechishga xizmat qiladi, ijtimoiy-ruhiy muhitni mo'tadillashtiradi. Shuning uchun ham kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlarni va tuyg'ularni o'rganish faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Empirik sotsiometrik tadqiqotlar jamiyat hayotini, undagi kishilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ilmiy qimmatga ega.

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA FOKUS-GURUH METODI

*Ibragimova N.Y. – Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMOHM dotsenti,
Qurbanbayeva N.R. – Berdax nomidagi QDU 2-bosqich talabasi*

Bugungi kunda fokus-guruhlar birinchi navbatda marketing va ijtimoiy – siyosiy jarayonlarni tadqiq qilish borasida keng foydalanib kelinmoqda. Marketing tadqiqot o'tkazish jarayonida bu usul 1950-yillardanoq qo'llanila boshlangan. Jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatish davomida fokus-guruh usuli qo'llanish uchun maqsadli auditoriyani aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Fokus-guruh usuli tadqiqotchiga o'rganiladigan muammoning xususiyatlarini ochib berishga va ushbu guruh fikriga ta'sir ko'rsata olishiga mo'ljallangan kommunikatsion dasturlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Fokus-guruh usuli – bu jamiyatning turli sohalarini o'rganish usullaridan biri bo'lib, keyingi yillar davomida tadqiqotlar o'tkazish jarayonida tadqiqotlar keng qo'llanadi.

Amerika siyosatshunos olimi R.Kryugerning soʻzlariga koʻra, fokus-guruhlarga bagʻishlangan nashrlari sonining koʻpayishi va tegishli adabiyotlarning yuqori koʻrsatkichlari boʻyicha XX asrning oʻrtalarida paydo boʻlgan ushbu usul tor doiradagi professional auditoriyaning muhokama mavzusiga aylanganini taʼkidladi. Shuningdek, maʼlumotlar yigʻishning miqdoriy usullari imkoniyatlaridan foydalanishning yaroqsiz holga kelishi natijasida sotsiolog olimlar orasida, intervyu beruvchining respondentlarga oʻz nuqtai nazarini qoʻyishi va uni rasmiylashtirish soʻrovlarning yolgʻon aralshuviga sababchi boʻlganligida deb hisoblaydi.

Bir qancha sotsiologik adabiyotlarda ushbu usulning rivojlanish tarixi haqida aniq maʼlumot keltirilmaydi. Ingliz sotsiolog-iqtisodchilari D.Styuart va P.Shamd esa fokus-guruh usulining tarixini fokusli intervyu, deb taʼkidlab oʻtadi, biroq birinchi marta 1941-yillarda R.Merton va P.Lazarsfeld radio samaradorligini oʻrganish davomida foydalanganligi haqida taʼkidlaydi.

1950-yillarda marketing usullarini hal qilishda fokus-guruh usulidan foydalangan holda AQShda oʻnlab tadqiqot markazlari vujudga kelgan edi. Psixologlar va psixoterapevtlar fokus-guruh usulini takomillashtirishga katta hissa qoʻshdilar, guruh suhbatlarining ongsiz motivlarini oʻrganish uchun ishlatiladigan proektsion texnika bilan birlashtirdilar.

1970-yillarning oxirlarida rivojlangan mamlakatlarda bunday tadqiqotlarning koʻlami kengayib, fokus-guruhlar sohalar boʻyicha qoʻllanila boshlaydi. Keyinchalik fokus-guruh usuli darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarining ajralmas boʻlagiga aylanib boradi, uni marketing, reklama va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda qoʻllash keng tarqaladi.

1990-yillarning oʻrtalariga kelib amerikaliklarning oʻrtacha katta yoshdagi odamlar oʻrtasida qoʻllanish orqali fokus-guruhlarda kamida ikki martadan koʻproq qatnashganligini va 2000-yilga kelib ularning soni yanada koʻpayganligini koʻrish mumkin.

Fokus-guruh usulining oʻziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, bugungi kunda fokus-guruh metodining intizomiy bogʻliqligi ilmiy adabiyotlarda har xil yoʻllar bilan belgilanadi.

Umuman olganda, focus-guruhni oʻrganish jarayonida oʻziga xos uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin. Baʼzi mualliflar buni anʼanaviy miqdoriy soʻrov usulining oʻzgarishi, deb bilishadi, boshqalari fokus-guruhni miqdoriy va sifatli yondashuvlar oʻrtasida boʻlishini hisobga olib, chegara maqomini berishadi va nihoyat, uchinchi va ularning aksariyati ushbu usulni butunlay sotsiologik maʼlumot toʻplashning sifatli metodologiyasi sifatida qaraydi. Shunga oʻxshash qarashlar klassik va zamonaviy sotsiologiyada ham qabul qilingan. Ushbu usul statistik taqsimotlarni taʼminlamaydi, asosan tasniflovchi xususiyatiga ega va anʼanaviy tanlama soʻrovlarga qaraganda kamroq tuzilgan soʻrovlardan foydalaniladi.

Gʻarb olimlari adabiyotlarida fokus-guruh atamasi sinonimi koʻpincha: guruh muhokamasi, sifatli tadqiqotlar, shuningdek, sezgir panel va kengaytirilgan ijodiy guruhlar kabi tavsiflanadi. Vaqt oʻtishi bilan bunday metodlar asl mohiyatini

yo‘qotib, "fokus-guruh" so‘zi ilmiy muomaladan butunlay yo‘q bo‘lib ketishi mumkinligi haqida takidlab o‘tadilar.

R. Mertonning fikricha, fokus-guruh usullari:

1. Suhbatdoshlar muayyan vaziyat ishtirokchilariga ega bo‘lishi kerak.
2. Ushbu vaziyatning mohiyati, jarayonlari, umumiy tuzilishi sotsiolog tomonidan oldindan tahlil qilinishi kerak.
3. Ushbu tahlil asosida tanqidiy savollar va farazlarni aks ettirgan suhbat rejasi tuzilishi kerak.
4. Suhbat shaxslarning ilgari tahlil qilingan holatga nisbatan subyektiv hissiyotlariga qaratilishi haqida aytib o‘tadi.

Fokus-guruhlar shunchalik ko‘p qo‘llanilganligidan, ko‘pchilik ularni sifatli tadqiqotlar bilan tenglashtiradilar.

I. Goldmanning fikricha, guruhga bag‘ishlangan teranlashtirilgan intervyu:

"guruh" umumiy manfaatlar bilan birlashtirilgan o‘zaro ta‘sir qiluvchi odamlar sonini anglatadi;

"teran" – bu shaxslararo muloqot darajasida sodir bo‘lgandan ko‘ra to‘liqroq ma‘lumot qidirishni anglatadi;

"intervyu" – bu guruhni ma‘lumot olish mexanizmi sifatida qo‘llanadigan moderatoring mavjudligini anglatadi;

"fokus-guruh" degani, kichik miqdordagi savollar bilan cheklangan intervyudir.

R. Kryugerning fikricha, fokus-guruh – bu ba‘zi bir mezonlarga ko‘ra guruhlariga birlashtirilgan odamlar birlashmasi bo‘lib, natijada guruh muhokamasi davomida sifatli ma‘lumotlar ishlab chiqariladi.

Fokus-guruhlar (inglizcha "focus group", nemischa "methode der gruppen discussion") – olimlar tomonidan maxsus ajratilgan xonada to‘g‘ridan-to‘g‘ri (shaxsiy) aloqada bo‘lgan mavzu bo‘yicha ma‘lum bir reja asosida kichik bir guruhning suhbatlari sifatida qo‘llaniladi.

R. Kryuger fokus-guruhni tahdid qilmaydigan, ishonchli muhitda ma‘lum bir mavzu bo‘yicha fikrlarni olish uchun ishlab chiqilgan puxta rejalashtirilgan munozara deb ta‘riflaydi.

Zamonaviy texnologiyalar paydo bo‘lishi natijasida bog‘lanish tobora ko‘proq bilvosita bog‘lanish bilan almashtirilmoqda. Masalan, so‘rovnomalar telefon tarmoqlari va Internet (elektron pochta) yordamida amalga oshiriladi.

Metod nomiga kiritilgan "fokus" so‘zi mavzuning mohiyatini, respondentlarning bitta savolga e‘tiborini qaratishni va shu munosabat bilan uni har tomonlama muhokama qilish kerakligini ta‘kidlaydi. Sotsiologlar buni optik fizikadan olgan.

Fokus (lotincha "focus" – fokus, markaz) optikada optik tizim orqali o‘tgan yorug‘lik nurlarining parallel nurlari yig‘iladigan nuqtani belgilaydi.

Empirik sotsiologiyada fokus, kollektiv munozarasi natijasida bir mavzu bo‘yicha turli xil, ko‘pincha parallel nuqtai nazarlarni ifoda etadigan odamlarning umumiy fikrini bildiradi. Aniqrog‘i, odamlar o‘zgalarning fikrlariga qo‘shilmaydi, ular bir fikrga kelishlari ham shart emas. Turli fikrlar bunday tadbirni tashkil etayotgan sotsiologning umumiy xususiyatiga olib keladi.

Shunday qilib, "fokus" atamasi munozara natijalarini bildiradi. Ammo bu atamaning munozara jarayonining mohiyatini ko'rsatadigan boshqa tomoni bo'lib, guruh muhokamalarida ishtirokchilarning diqqat markazida tadqiqotchilarning fikri savol bo'yicha ishtirokchilarning fikrlarini, respondentlarning turli muammolar nuqtai nazarlarining ma'nosini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Turli xil ijtimoiy toifalarning vakillari, shuningdek, kelishuvga erishishning mumkin bo'lgan usullarini izlash to'g'risida olib borish mumkin. Bunday protsedurani amalga oshirish uchun, uni chuqurroq anglash va optimal yechimlarini izlash uchun bir necha munozarali guruhlar tashkil etish va o'rganilayotgan muammoni jamoaviy muhokama qilishni talab qiladi.

Fokus-guruh usulining afzalliklari va kamchiliklari haqida gapiradigan bo'lsak, fokus-guruh munozarasi bir necha sabablarga ko'ra anketa yoki yuzmayuz intervyu berishdan ko'ra afzalroq ko'rinadi.

- fokus-guruhdagi respondentlarning o'zaro munosabatlari odatda chuqurroq javoblarni rag'batlantiradi va yangi g'oyalar bilan chiqish imkoniyatini beradi;

- buyurtmachi to'g'ridan-to'g'ri muhokamalar jarayonini kuzatishi mumkin;

- anketa yoki intervyuga qaraganda bu usul tezroq va arzonroq bo'ladi, undan foydalanishda nafaqat vaqt, moliyaviy, balki mehnat harajatlarini ham tejash mumkin;

- bu muammoning sabablarini qisqa vaqt ichida aniqlashga imkon beradi.

Quyidagi holatlarda fokus-guruh usullaridan foydalanilmaydi:

- bozor hajmi va mahsulotni ilgari surishni o'lchash zarur bo'lganda;

- muhokama qilinayotgan mavzu sezgir, masalan, boshqa odamlarning jamiyatida noqulaylik tug'dirishi mumkin bo'lgan nozik masalalarga (shaxsiy gigiyena, kontratseptsiya, moliyaviy masalalar) tegishli bo'lganda;

- bir qator muhim qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan murakkab xatti-harakatlarni tushunish kerak: ko'chmas mulk, mebel, mashina sotib olish;

- respondentlarni boshqa odamlar tomonidan etkazilishi mumkin bo'lgan xurofotlardan himoya qilish zarur bo'lganda;

- murakkab ijtimoiy rollarni chuqur anglash kerak yoki uning fikri shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash uchun respondentning biografiyasiga, bitta ishni tahlil qilishga murojaat qilishingiz kerak bo'lganda;

- respondentlar kichik va ularga erishish qiyin, ularni bir guruhga to'plash qiyin (noyob brend foydalanuvchilari, mutaxassislar, ko'p vaqtlarini ish safarlarida o'tkazadigan ishbiarmonlar) bo'lganda;

- respondentlar tadqiqotchiga uyda yoki kompaniyada nimanidir ko'rsata olishlari kerak bo'lganda.

Fokus-guruh usulini o'tkazishda maxsus talablar: fokus-guruh ishtirokchisi tadqiqot amaliyoti (psixologiya, marketing, sotsiologiya, jurnalistika, reklama, PR) bilan kesishadigan sohalarida, o'rganilayotgan bozorda yoki unga yaqin sohada ishlamasligi kerak. Marketing tadqiqotlarida fokus-guruhlar davomida har xil

qo‘shimcha rag‘batlantirishlardan foydalanish kerak: audio materiallar, vizual materiallar (jadvallar, fotosuratlar, veb-saytlar), mahsulotning yangi namunalari ishlatilishi va uni namoyish qilish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish davomida ushbu usul tartiblari, amalga oshirish bosqichlariga rioya qilinsa sotsiologik tadqiqotlar samarali natija berishi mumkin.

SHAXSNING JAMIYATDAGI O‘RNI VA IJTIMOIYLASHUVI

Norkobilova A.Z. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

*“Asosiy maqsadimiz – jamiyatimizda
adolat tamoyilini mustahkamlash”
Mirziyoyev SH.M.*

Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar muvaffaqiyati jamiyatning qudrati, kelajagi, barqarorligi moddiy va ma’naviy mahsulotlar yaratuvchi shaxs aql-idrok va salohiyatiga bog‘liq bo‘lib kelmoqda. Shaxs mustaqil fikrga, nuqtai nazarga ega bo‘lishi bilan o‘z fikrini himoya qilish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, ijtimoiy muhitning talablariga javob bera olishi zaruriy holatga aylanmoqda. Bizning demokratik jamiyat qurish yo‘lida jamiyat uchun kerakli, yurt ravnaqi uchun foydali shaxslarning madaniyat, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qadrlab, ularni asrab-avaylab vatanparvar bo‘lishi hozirda jamiyat oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon psixologiyasi fani shaxs faoliyatini ijtimoiy sohadan ajralgan holda o‘rganish murakkab ekanligini alohida e’tirof etmoqda. Shaxs psixologiyasi haqida ma’lumotlar berilishini ta’kidlagan holda bularda asosan shaxs rivojlanishining ijtimoiy jihatdan mavjud qonuniyatlarini o‘rganishga ko‘proq e’tibor berish talab etiladi.

Shaxs ijtimoiy o‘zaro ta’sir va munosabatlarining birlamchi omili bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda shaxs to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun, avvalo “inson”, “individ”, “shaxs” tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. “Inson” tushunchasi, umumiy, hammaga xos bo‘lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo‘llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo‘lgan, tarixdan o‘ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o‘laroq o‘ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun shaxsning jamiyatdagi o‘rni va mohiyati, shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillarni ilmiy-nazariy tadqiq etish, shaxs va jamiyat munosabatlarini qonuniyatlarini o‘rganish talab etiladi.

Shaxs – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z predmeti nuqtai nazaridan ishlatiladi.

Ko'zga ko'ringani, namoyon bo'lgani uchun insonni bashar, insoniyatni esa bashariyat deyдилar. Jism egasi bo'lmish har bir bashar shaxs darajasiga ko'tarila olmasligi ham mumkin.

Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlatning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir. Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar ta'sir korsatadi: biologik nasl, tabiiy muhit, madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, shaxslar bilan munosabat. Shaxsning biofiziologik jihati ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqalarga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyati bilan bog'liq hodisalardir. Shaxsning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va aloqador olami fizik muhit deb ataladi. Shaxs madaniylashgan jonzot, ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan avlod vakili, shaxslararo munosabatlar subyektivi bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va mohiyati doimo psixologiya fanining muhim va bahstlab sohalaridan biri bo'lib kelgan. Insonning mohiyatini e.o. 298-238 yillarda yashab o'tgan olim Sen-Szining fikricha, shaxsdagi tug'ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo'lib, ularga ta'lim yoki ularni odamning o'zi yaratishi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Bugungi kunda inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yartilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlikka va ma'suliyatlikka o'rgatish lozim.

Shaxs ijtimoiy mavqei uning tashqi xulqida ham, tashqi qiyofasida, yurish-turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsning ijtimoiy roli nazariyasida belgilangan va erishilgan ijtimoiy mavqelari o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe – shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, zoti va boshqalar shular jumlasidandir. Erishilgan mavqe deganda shaxsning o'z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqei tushuniladi. Masalan: yozuvchi, firma boshlig'i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy mavqei erkak va ayoli, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish-texnik holatini muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol esa shaxsning ijtimoiy tizimda egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi.

Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omil bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda juda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi.

Sharqda jamoatchilik fikrini o'rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning o'rni beqiyosdir. Sunniylik asosidagi Islomdagi katta yo'nalishni tashkil etuvchi Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlariga nafaqat

dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi qarashlarga ta'limot sifatida yondashish, ularni Sharq xalqlari hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy psixologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir.

G'arb olimi Ulrix Rudolf shaxsning Islom e'tiqodi doirasidagi faoliyati, erkin fikrlash huquqi va imkoniyatlarini atroflicha asoslagan Al-Moturidiy qarashlarini oqilona me'yor, shaxs sha'ni, mavqeiga eng muvofiq keluvchi nazariya, deb baholaganda buyuk hamyurtimizning xarakterli qirralarini ochib bergan.

Shaxsning muhim xususiyatlaridan biri – uning ijtimoiy mavjudod ekanligidir. Shaxs o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan xoli bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalab, “Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan odam yetuklikka erishuvi mumkin. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rtnashadilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”, deb ta'kidlagan.

U.Tomasning fikricha, ijtimoiy hayot va madaniyat rivoji ixtiro va yangiliklarga qobiliyatli ijodiy shaxslar bilangina belgilanadi. Tomas tomonidan shaxsiy hujjatlar – “biogrammalar”dan foydalanish tajribasi psixologik tadqiqotlar texnikasining rivojiga hissa qo'shdi. Umuman, uning shaxs to'g'risidagi nazariyasi Amerika psixologiyasining empirik tadqiqotlarga o'tganligini ifodalab, psixologiya fanining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Pozitivizm yo'nalishi asoschisi Ogyust Kontning shaxs to'g'risidagi qarashlarida inson bilimi, tafakkuri haqida so'z boradi. Shaxs tafakkuri taraqqiyotini shu tarzda o'rganish quyidagi qonuniyatni ochishga olib keladi, ya'ni u “uch bosqich qonuni” deb ataladi. Birinchisi – teologik yoki yolg'on yoki fiktik; ikkinchisi – metafizik yoki mavhumlashgan; uchinchisi – pozitiv yoki ilmiydir. Shaxs bilish jarayonlarida ana shu yo'llardan o'tadi. Demak, uslublardan uch turdagi falsafiy dunyoqarash yoki umumiy qarashlar tizimi vujudga keladi. Birinchisi – shaxs tafakkurining boshlang'ich harakatga keluvchi nuqtasi; ikkinchisi – o'tuvchanlik rolini o'ynaydi; uchinchisi – shaxs tafakkurining aniq, yakuniy holatidir.

Demak, Kont tabiatni bilish tarixini uch davrga bo'ladi. Uningcha, bularning har biri shaxs dunyoqarshining muayyan tipiga: teologik, metafizik va pozitiv tiplarga muvofiq keladi.

Birinchi – teologik davr inson aqli hodisalarni g'ayritabiiy kuchlarning, Xudoning ta'siri bilan izohlashga uringan.

Kontning fikricha, shaxsning metafizik dunyoqarashi teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashlarga ko'ra, hodisalarning asosini abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil etadi.

Amerikalik nazariyotchi sotsiolog-psixolog Tolkot Parsons psixologiyada insoniy borliqning uni butun bir holicha qamrab oluvchi tahliliy-nazariy tizimini atroflicha ishlab chiqishga uringan. Bu maqsadda dastlab u Veber, Dyurkgeym, Marshall, Pareto asarlariga, shuningdek hozirgi zamon kibernetik va ramziy-semiotik tasavvurlarga tayangan. Shaxsning jamiyatdagi borlig'ini pozitivistik izohlash o'rniga yangicha nazariya yaratishga uringan. Harkat subyekti shaxs atrof-muhitdan alohida obyektlarni ularning joyi, xossalarini farqlagan va guruhlariga bo'lgan holda ajratib olish mumkin.

Y.Xabermas fikricha, shaxsda bilish va rasionallikning boshqaruv hamda hukmronlik yo'naltirilmagan boshqa shakli ham mavjud. U amaliy kognitiv manfaatga asoslangan. Inson va shaxslararo munosabatlarga bog'liq maslalarda kognitiv manfaat va amaliy kognitiv manfaatdan qay birini qo'llashni o'zimiz hal qilishimiz mumkin.

Mazkur ijtimoiy darajaga ham shaxsni ichidan izishga va buyumlashuvga qarshi kurashda muhim bo'lgan emansipatsiya kognitiv manfaati xos. Boshqacha aytganda, tabiatga nisbatan faqat bitta tushuntiruvchi va boshqaruvchi texnik-kognitiv manfaat o'rinli, jamiyatga nisbatan esa har uchala kognitiv manfaat o'rinlidir.

Xabermas ta'limotiga ko'ra, shaxs o'zini g'ayriijtimoiy tarzda tutsa, biz buni psixologik va sotsiologik sabablar orqali tushuntirishga va sababiy aloqadorlik to'g'risidagi tasavvurlar asosida shu shaxsni "davolash"ga urinib ko'rishimiz mumkin. Endi bu shaxs biz uchun "obyekt" bo'lib qoladi. Biz o'z bilimimiz tufayli shu "obyektlashgan" shaxsni "boshqarishimiz" mumkin.

Bazi holatlarda esa shaxs xulqi sababiy asoslangani shundoq ko'rinib turadi, masalan, giyohvand modda qabul qilgandan keyin yoki ma'suliyatli va normal holatda. Keyingi holat: masalan, imtihon oluvchini imtihon topshiruvchi berayotgan javoblarini nima sababdan aytayotgani emas, balki bu javoblar qanday asosga ega ekani haqidagi masala qiziqtirganda shu holat yuz beradi.

E'tirof etish lozimki, har qanday jamiyatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhitning asosiy funksiyalaridan biri – shaxsning xatti-harakati, uning tarqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi obyektiv omillar majmuasi hamda muayyan tizim bo'lib, u o'zida shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, hayotga joriy etadi. Natijada har bir shaxs jamiyat hayoti bilan bevosita aloqadorligidagi aniq ijtimoiy faoliyat va muloqot maydonini namoyon etadi. Chunki, bu omillar shaxs xatti-harakati, yurish-turirishini shakllantiradi va boyitadi. Mamlakatimiz mustaqilligining muhim vazifalaridan biri ham jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlashdir

CHARLZ XORTON KULI “KO‘ZGUDAGI MEN” NAZARIYASINING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

Sultanova Y.A. – QDU 2-bosqich talabasi

Charlz Xorton Kuli (1864-1929) – amerikalik sotsiolog, psixolog “Ko‘zgdagi Men” nazariyasi muallifi, kichik guruhlar nazariyasi asoschilaridan biri. Kuli inson tabiatining universal xususiyatini o‘zida mujassam etgan boshlang‘ich guruhlar va “Ko‘zgdagi Men” nazariyasi yaratuvchisi. Kuli inson tabiatini biologik va ijtimoiy tuyg‘ular, munosabatlar, axloqiy me‘yorlar majmuasidir, deb tushuntiradi. Kulining “Ko‘zgdagi Men” nazariyasining kelib chiqishi pragmatizmga, xususan U.Jeyms va J.Dyuining qarashlariga borib taqaladi. Kulining konsepsiyasi J.Mid tomonidan yakunlandi. Jeymsning g‘oyalari davom ettirib, Kuli ijtimoiy mavjudotlarning eng muxim belgisi guruh ajratib olish va uning “men”idan xabardor bo‘lish qobiliyati, deb atadi. Bu boshqa shaxslar bilan muloqot qilish va o‘zi xaqidagi fikrlarni o‘zlashtirish orqali ruy beradi. Kuli o‘zlikni anglash boshqalar bilan munosabatlarda o‘zini o‘zi his qilishni shakllantirishdan boshlanadi, deb ta’kidlaydi. Biz o‘zimizni, his-to‘yg‘ularimizni boshqalarning hayotida aks ettirish orqali ko‘ramiz. Ular biz uchun oyna. O‘zimiz haqimizdagi g‘oyalarni aytadigan bo‘lsak, o‘zlikni anglash – bu doimiy holat emas, balki biz doim o‘zgalar bilan fikr almashib turadigan, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarimiz davomida rivojlanib boramiz. Biror kishi passiv qabul qiluvchi emas, aksincha u boshqalarning qarorlarini faol ravishda boshqaradi, ularni tanlaydi, ularga rioya qiladi yoki qilmaydi, sheriklarining rollarini baholaydi, boshqalardan olingan barcha ma’lumotlar bizga ta’sir qilmaydi. Biz faqat o‘zimizning imijimizni tasdiqlaydigan va boshqalarga qarshilik ko‘rsatadigan tomonlarni olishga moyilroqmiz. U ijtimoiy jarayonlarni shakllantirishda ongning fundamental rolini ta’kidlaydi. “Inson hayoti” bu shaxs va ijtimoiy yaxlitlikdir.

“Ko‘zgdagi Men” – o‘ziga xos oyna vazifasini o‘taydigan jamiyat. Bunday oynada biz boshqalarning o‘z xatti-harakatimizga bo‘lgan munosabatini ko‘rishimiz mumkin. Bizning o‘zimiz haqimizdagi tushunchamiz o‘zgalarning javoblarini ko‘rib chiqish yoki ular qanday bo‘lishi kerakligini tassavur qilishda aynan shunday aks ettirishdan boshlanadi, boshqalar bizning harakatlarimizga qanday munosabatda bo‘lishlari kerak?, biz faqat o‘zimizni va o‘z xatti-harakatlarimizni baholay olamiz. Agar biz oynada ko‘rgan yoki tassavur qilgan rasm ijobiy bo‘lsa, bizning “Men” tushunchamiz mustahkamlanadi va harakatlar takrorlanadi. Agar u noqulay bo‘lsa bizning “Men” tushunchamiz qayta ko‘rib chiqiladi va xatti-harakatlar o‘zgaradi. Bizni boshqa odamlar aniqlaydi va idrokklarimiz shunga o‘xshash ta’rifga amal qiladi. O‘zimiz haqimizdagi fikrimiz tasdig‘ini olgandan keyin, “Men”imiz tobora mustahkamlanib boradi va asta-sekin yaxlitlikka erishamiz. “Inson” ijtimoiy omillar sifatida tan olinadi va

sotsiologiyaning asosiy predmeti sifatida harakat qiladi, odamlar bir-biri bilan o‘zaro harakat qiladi.¹

Odamlarning biz haqimizdagi fikri doim o‘zgaruvchan bo‘ladi, shu sababli biz doim o‘zimizga tanqidiy aytilayotgan fikrlarning hammasini ham qabul qilib olmaymiz. Insonning «Men» tushunchasining rivojlanishida birinchi o‘rinda ota-onaning o‘rni beqiyos. Ota-ona farzand tarbiya qilar ekan, farzand uchun ular “ko‘zgu” vazifasini o‘taydi, bola ota-ona xatti-harakatini, so‘zlashini, o‘zini tutishini, hatto ularning fikrlashini kuzatib boradi va ko‘rganlarini takrorlashga harakat qiladi. Ota-onasida ko‘rganlarini o‘ziga namuna sifatida oladi, bir so‘z bilan aytganda, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi». Shuning uchun biz farzandlarimizga to‘g‘ri “ko‘zgu” bo‘la olishimiz kerak. Inson ko‘zguda ko‘rganlarini takomillashtirib boradi. Masalan, insonning bolalik vaqtida aytilgan kichik yolg‘onlar, vaqt o‘tib bolaning «Men»ida ya‘ni “ko‘zgu”sida rivojlanib u katta yolg‘onchiga aylanadi. Xech kim o‘zidan o‘zi yolg‘onchi yoki rostguy bo‘lib qolmaydi, bularning hammasi bolaning yoshligidan boshlab unga qaratilgan “ko‘zgu”lar orqali rivojlanadi, bu “ko‘zgu”larni ota-ona, oila, jamiyat tashkil etadi.

Odamlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari kundan-kunga takomillashib boradi va mustahkamlanadi. Boshqalar unga qanday munosabatda bo‘lsa odamning o‘zi ham ularga shunday munosabatda bo‘ladi. Uning intellektual qobiliyatlari, axloqiy fazilatlar va jismoniy qobiliyatlari haqidagi fikrlari uyushgan guruhda o‘zaro munosabatlar jarayonida paydo bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Charlz Kuli “Ko‘zgdagi Men” tushunchasini ishlab chiqishni boshlaydi. U “Men” bir necha tarkibiy qismlardan iborat, ulardan biri “Men-hislar” dan iborat degan taxmini keltirib chiqaradi. O‘z his-tuyg‘ularimizni boshqa odamlar hayotida, qanday qilib va qanday yaratayotganimiz orqali o‘zimizni ko‘ra olamiz. Bu ba‘zilarning rivojlanishiga undaydi, ba‘zilar esa kamchiliklariga e‘tibor qaratishni boshlaydi. “Ko‘zguning o‘zi” bu inson o‘zining xaqiqiy qiyofasini ko‘rishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos oynadir. “Ko‘zgdagi Men” tushunchasi sotsiologiyada va ijtimoiy psixologiyada juda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu konsepsiyani rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan tadqiqotchilar insonning o‘zi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari, dunyoqarashi va munosabatlari uning atrofdagi odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar.²

Inson o‘zligini anglashida “ko‘zgu”ning o‘rni beqiyos. Inson “ko‘zgu”dan katta ta’sir olishi mumkin va shu ta’sirni o‘zida saqlab qolib o‘zida “Men” tushunchasini shakillantiradi. “Ko‘zgu” insonning haqiqiy qiyofasini ochib beruvchi oynadir. Biz har doim ham “ko‘zgu”dagi qiyofamizdan mamnun bo‘lavermaymiz, agarda mamnun bo‘lgan vaqtimizda bizda ichki his-hayajonlar ortib oynaga qarab kulish holati yuz beradi, agarda mamnun bo‘lmagan tarzda insonda xo‘mrayish holati kuzatiladi. Bu jarayon psixik jarayondir. O‘zimizni ko‘ra oladigan “ko‘zgu”lardan biri bu jamiyatdir. Biz o‘zimiz uchun yoki o‘zgalar uchun nimadir qilmoqchi bo‘lsak, avvalo jamiyatdan namuna olamiz va shu

¹ <https://socio.rin.ru/cgi-bin/article.pl?id=1129>

² https://studme.org/158570/sotsiologiya/kuli_sozdani_teorii_zerlalnogo

namunaga asoslanib ish ko‘ramiz. Insoning “ko‘zgu”da o‘zini anglashi juda og‘ir jarayon hisoblanib insonning psixikasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, inson “ko‘zgu”ga qarab turib o‘zini ruxlantiradigan yoki ruhiyatini tushiradigan so‘zlar aytsa, shunga mos harakatlar bajarsa, uning vujudida, qalbida, tanasida shunga mos instinkt paydo bo‘ladi. Bizning ko‘rib turganlarimiz har doim ham haqiqat emas, hamma haqiqatlar ham biz ko‘rganimizdek emas. “Ko‘zgu”dagi haqiqatlarimizni faqat o‘zimiz tushuna olamiz va ko‘zgdagi “Men”ni yashiramiz, insonlar biz uchun “ko‘zgu” vazifasini bajaradi, biz har doim ham “ko‘zgu”dagi aksimizga ishonmaymiz hamda yonimizdagi insonlardan maslahat olamiz, biz boshqa insonlar uchun “ko‘zgu” vazifasini bajaramiz, bunda yaqin insonlarimizdan foydalanamiz. Inson insonga “ko‘zgu” bo‘la olganidek, millatlar ham bir-biriga ko‘zgu bo‘la oladi, bunga misol qilib hozirda kiyinish madaniyatining Yevropalashishini ko‘rishimiz mumkin. Insoniyat yashar ekan, “Ko‘zgdagi Men” tushunchasi takkomillashib, kengayib yangidan yangi “ko‘zgu”lar paydo bo‘lib borishni davom etadi.

MEHR: SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI VA YOSHLAR ORASIDA YO‘QOLISHI SABABLARI

Sultonova Sh. – O‘zMU 1-bosqich talabasi

Inson dunyoga kelibtiki, oilada voyaga yetadi, o‘tib ulg‘ayadi. Oila davrasida yaqinlari ko‘z oldida o‘zligini anglay boshlaydi. Dunyo qarashi, fikrlashi, atrof-muhitga, jamiyatga bo‘lgan munosabati shakllanadi.

Insonlar har doim qiziquvchan va mehrga tashna mavjudod bo‘lishgan. Shu sababli ular doimo hayotda o‘zlikni anglashga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, yangiliklar qilishga, bilmaganlarini o‘rganishga va uni qadrlaydigan insonlarning yonida bo‘lishga harakat qiladi. Bularning barchasi tabiiy va hayot qonuni desak ham adashmaymiz. Sotsial jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar odatda 2 xil bo‘ladi: manfaatlar ustiga qurilgan munosabatlar va hech qanday manfaatlarsiz faqat insoniy tuyg‘ular asosida qurilgan munosabatlar.

Ma‘lumki, hozirda juda ko‘plab munosabatlar manfaatlar ustiga quriladi. Bularga do‘stlik, qarindoshlik, ota-ona va farzand, shaxsiy munosabatlarning ayrim qismini misol qila olamiz. Ushbu munosabatlarda o‘zaro manfaat ustida aloqaga kirishgan shaxslar o‘rtasida mehr bo‘lmaydi, u oilada ulg‘ayayotgan individda ham buning ta‘sirini kuzatish mumkin. Bunday oilalarda voyaga yetgan farzandlarda begonalashuvni yaqqol kuzatsak bo‘ladi.

Begonalashuv – inson faolyati va uning natijalari mustaqil kuchga aylanib, inson ustidan hukmronlik va unga yovuzlik qiladigan holatga kirishishini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon. Begonalashuv ta‘siriga tushib qolgan shaxslarda ijtimoiy me‘yorlarni yot va yovuz me‘yorlar sifatida idrok etish, yolg‘izlik hissi, loqaydlik kabi sifatlar kishi ongida muayyan tarzda aks etadi. Uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik (ruhiy) turlari mavjud.

Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarda mehrning o‘rnini yo‘qotuvchi omillardan yana biri bu taqqiyotdir. Sivilizatsiya natijasida taraqqiyot shu darajaga

yettiki, insonlar turli xil gajetlarga mukkasidan ketib, atrof-muhitga va yaqinlariga juda kam vaqt ajratadigan bo'ldi. Natijada, ota-onalardan kutganini ololmagan farzandlar ham o'zlarini turli gajetlar bilan chalg'itishdi. Buning asosida oilada ruhiy begonalashuvlar ko'plab kuzatiladi.

Begonalashuvning asosiy sababi qilib esa mehrning oilada yetishmasligini bemalol misol qila olamiz va yon-atrofimizdagi shu kabi oilalarga ko'zimiz tushgan bo'lishi ham tabiiy hol. Globallashuv yuksalgani sari insonlar o'rtasidagi mehr, oqibat, diydor, sog'inch, muhabbat kabi eng go'zal va samimiy insoniy his-tuyg'ular ham kamayib boraveradi. Taraqqiyot yuksalgani sari bunday munosabatlar doimiy xavf ostida qolaveradi va bu insoniyatning ko'r-ko'rona tanazzulga yuz tutishiga ham olib kelishi mumkin.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, turli gajetlar va sun'iy onglarsiz, robototexnika va texnologiyalarsiz ham hayot ajoyib, qiziqarli bo'lganini ko'rishimiz mumkin. O'sha davrlarda odamlar o'rtasida hozir ba'zilarimiz qidirgan, ba'zilarimiz allaqachonlar yo'qolib ketgan, deb o'ylagan o'sha samimiy munosabatlarni har javhada ko'rishimiz mumkin. Garchi telefon, mashinalar yo'q, yo'llar ancha vaqtlarini olsada bir-birining holidan xabar olish, turli gajetlar, telefon va onlayin o'yinlarsiz do'stlar bilan miriqib suhbatlashishni ko'pchiligimiz xohlaymiz, albatta. Ammo hamma ham bunga e'tibor beravermaydi. Butun dunyo turli xil kashfiyotlar, turli kasalliklar, zararli illatlar, asr vabolari haqida tinmay jar soladi-yu, oddiygina va bebaho narsalarni yo'qolib boryotganini his qilishmaydi. Bir kun kelib, ular tushinganida esa hammasi o'zgargan yuzlariga ajin oralagan, farzandlari esa allaqachon ulg'ayib bo'lishgan, do'stlar kamaygan va yaqinlarini yo'qotgan bo'lishadi. Mehr hammaga kerak, sotilmaydigan va sotib olinmaydigan kimlar uchundir tekin va kimlar uchundir juda qimmat ne'matdir.

DIN BILAN BOG'LIQ BO'LGAN IJTIMOIIY JARAYONLARNI TADQIQ ETISHDA SOTSIOLOGIK METODNING O'RNI

Umarov J. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Sotsiolog dini tahlil qilish uchun, umuman ijtimoiy hodisalarni o'rganishda sotsiologiya tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan usullardan foydalanadi: so'rov va statistik tahlil; kuzatish va tajriba; madaniyatlararo qiyosiy tahlil; tarkibni tahlil qilish, yozma manbalarni tahlil qilish, tarixiy hujjat.

Eng muhimlaridan biri so'rov o'tkazish usuli bo'lib, u intervyu beruvchiga og'zaki savollar beriladigan standartlashtirilgan intervyu shaklida yoki respondent tomonidan to'ldiriladigan yozma so'rovnoma shaklida amalga oshiriladi. Respondentlardan ularning diniy mansubligi, masjidga yoki cherkovga necha borishlari, ibodat qilishlari, ta'limotni qay darajada bilishlari, ularning ba'zi jihatlari bilan qanday aloqasi borligi, masalan, o'limdan keyingi hayotga, iblisning mavjudligiga oid savollar beriladi va boshqalar, ya'ni dindorlikning mohiyati va intensivligini baholashga imkon beradigan savollar berilishi mumkin. So'rov usuli dindorlikning muayyan o'ziga xos xususiyatlari bilan ba'zi ijtimoiy qarashlar va xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishda foydalidir. Unda chuqurroq

sababiy aloqalarni oʻrnatish uchun uni statistik tahlil, kuzatish, tajriba orqali olingan maʼlumotlar bilan toʻldirish kerak. Ushbu usuldan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan qiyinchiliklardan biri respondentlarning soʻzlari va fikrlarining mos kelmasligi bilan bogʻliq. Shuning uchun soʻrovnoma natijasida olingan maʼlumotlarning talqini juda muhimdir.

Empirik tadqiqotlarning yana bir usuli – kuzatish. Sotsiolog maʼlum bir tadqiqot dasturini amalga oshirganda va oʻzi tomonidan ajratilgan vaqtni belgilab qoʻygan holda, muayyan protseduraga muvofiq amalga oshirganda, bu standartlashtirilgan kuzatuv boʻlishi mumkin. Shuningdek, unga tadqiqotchi oʻzi oʻrganayotgan kishilarning muhitida yashaganda yoki ishlayotgandagi ichki kuzatishni kiritishimiz mumkin. Ushbu usul, xususan, soʻnggi paytlarda yangi oqim dinlarini oʻrganayotgan sotsiologlar tomonidan qoʻllanilmoqda. Guruh hayotida ishtirok etib, sotsiolog odamlarning xatti-harakatlarini diniy kontekstda kuzatish imkoniyatiga ega boʻladi. Shu bilan birga, agar guruh oʻzining yangi aʼzosiga ishonadigan boʻlsa, kuzatuv yashirin yoki ochiq boʻlishi mumkin. Faqatgina kuzatilayotgan harakatlarda qatnashish sharti bilan mavjud boʻlgan bunday holatlarni aniqlashga imkon bergani uchungina, bu usul aniq afzalliklarga ega. Ushbu usul cheklovlarga ega. Birinchidan, bu kuzatuvchidan yuqori malakani, uning umumlashtira olishini, muhim ahamiyatga ega boʻlgan narsani iloji boricha obyektiv ravishda oʻrnatishni, ikkilamchi (baʼzida ongsiz subyektivizmni yengib oʻtishda) tahlilni talab qiladi. Ishtirokchilik (ichki) kuzatuv sotsiologining tekshirilayotgan holatlar ustidan maʼlum darajada nazorat qilish imkoniyatini deyarli yoʻqqa chiqazadi.

Sotsiologik tadqiqotlarning boshqa yoʻnalishlarida, sotsiologik tadqiqotlarda qoʻllaniladigan eksperiment usuli. Din deyarli hech qachon ishlatilmaydi, chunki din shaxsning chuqur, ichki hissiyotlariga taʼsir qiladi, hatto axloqiy motivlar orqali ham u maqsad boʻla olmaydigan manipulyatsiya obyektiga aylanmasligi kerak. Toʻgʻri, biron-bir sababga koʻra shaxslar eksperiment oʻtkazishga rozi boʻlgan va uni oʻtkazish axloqiy muammolar bilan birlashtirilmaydigan holatlar xali ham mavjud. Bu, masalan, gʻayrioddiy xususiyatlarni (ruhiy, davolovchi, shaman) namoyish etish yoki men taklif qilgan modellarning samaradorligi nuqtai nazaridan diniy taʼlim dasturlarini amalga oshirishda tajriba oʻtkazish bilan buyurtma berish bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Dinni sotsiologik oʻrganish uchun muhim vosita bu tarixiy maʼlumotlar, yozma manbalar, hujjatlarni tahlil qilishdir. Ushbu tadqiqot usullari diniy tashkilotlar tipologiyasini ishlab chiqishda, jamiyat tarixidagi din evolyutsiyasi bosqichlarini oʻrganishda, protestantizmning kapitalizm rivojlanishiga taʼsiri va boshqalarda muvaffaqiyatli ishlatilgan. Kontent-tahlil – bu turli xil hujjatlar tarkibini tahlil qilish uchun juda qatʼiy usul – diniy mavzular tadqiqotchisi tomonidan oʻrganilayotgan materiallarda ahamiyatsiz, aytilmagan taxminlar. Bu, masalan, maʼlum bir voizga yoki diniy tashkilotga, harakatga xos boʻlgan xutbalar matnlarini tahlil qilish, mashhur diniy adabiyotlarni tahlil qilish va h.k. Ushbu tahlil rasmiy guruhdan farq qiluvchi bunday guruhning haqiqiy diniy ongini koʻrish imkonini beradi (oddiy ong mafkuraviy tushunchalardan qanday farq qiladi).

Shunday qilib, sotsiologning ixtiyorida diniy xulq-atvorni tekshirishga imkon beradigan, nazariy qiziqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'playdigan, bir-birini to'ldiruvchi turli usullar mavjud. Mamlakatimizning buyuk kelajagi uchun aholi o'rtasida dinga bo'lgan munosabatini o'rganish tadqiqot dasturimizning muhim jihatlaridan biridir. Chunki, aholim o'rtasida dinni tog'ri tushunish, to'g'ri qabul qilish, xalq orasida kelib chiqadigan diniy tushunchalar targ'ib qilinishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholi o'rtasida diniy muammolar kelib chiqmasligi uchun tadqiqot natijalari ilmiy tahlilga muhtoj, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, aholi orasida so'rov metodi orqali intervyu olib borish eng yaxshi usul hisoblanadi. Bu metodni qo'llashda aholiga savol o'qib berilib, javob olinadi. Birinchi navbatda so'rov o'tkazayotda savollar qisqa va lo'nda (aniq) bo'lishi kerak. Shunda respondent tez-tez va qiziqib javob beradi. Intervyuyer professional darajaga ega bo'lishi kerak. Agar intervyuyerning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi, aksincha bo'lsa esa ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi. Misol uchun, intervyuyer diniy so'rovnoma ko'chada (bozor, do'kon, bekat, masjidlar oldida) o'tqazadigan bo'lsa, savollar qisqa bo'lishi kerak, chunki aholining vaqti ziq yoki ishga shoshayotgan bo'lishi mumkin. Agar savollar hajmi ko'p bo'lib, savollar noto'g'ri berilsa, respondent javob bergisi kelmaydi. Respondent savollardan zerikib qolishi ham mumkin. Bunday sharoitda intervyuyer o'z maqsadiga erisha olmaydi. Xullas, so'rov metodi orqali so'rovnoma o'tkazib xalqning diniy tafakkurini o'rganish juda muhim hisoblanadi.

О САМОУБИЙСТВЕ И ПСИХОПАТИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ В РАБОТЕ «САМОУБИЙСТВО» Э. ДЮРКГЕЙМА

Турсунов Д.А. – студент 1-курса НУУз

Работа Э. Дюркгейма “Самоубийство” внесла огромный вклад в социологию. Фундаментальное исследование XIX века помогло расширить представление о таком явлении как самоубийство (хотя Дюркгейм рассматривает самоубийство как социальный факт) и внесло вклад в разграничение такой науки как социология (от других общественных наук в целом и от психологии в частности).

В первой книге “Факторы внесоциального характера” в I главе “Самоубийство и психопатическое состояние” Дюркгейм задаёт один из главных вопросов всей работы, словами французского психиатра Моро де Тура: “Должно ли самоубийство рассматриваться во всех случаях как результат сумасшествия?”¹ И вправду вопрос тождественности самоубийства и сумасшествия является непростым, и в попытках дать ответ на этот

¹ Самоубийство / Эмиль Дюркгейм; [перевод с французского А. Ильинского]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 30.

(отчасти непростой) вопрос, неподготовленный, и возможно, незнакомый с “матчастью” человек, может не долго думая согласиться с их равенством (сумасшествия и самоубийства). Тут остаётся сетовать на способность человеческого разума, который пытается (бесконечно) ответить на вопросы, к которым он не располагает большей и нужной информации для точного и соответствующего всем канонам полноценного утверждения. Но другое дело – это попытаться вникнуть, определить его причину, объяснить и наконец описать соотношение самоубийства с сумасшествием (придерживаясь духу методологии Дюркгейма), чем и в действительности полна глава “Самоубийство и психопатическое состояние” у Дюркгейма (далее всевозможные рассуждения будут отсылаться именно к этой главе).

Позже Дюркгейм конкретизирует вопрос уже своими словами, об отношении самоубийства и сумасшествия: “Если бы удалось доказать, что самоубийство есть специфическое сумасшествие, имеющее свои отличительные, характерные черты и своё ясно выраженное развитие, вопрос был бы решён в том смысле, что всякий самоубийца есть сумасшедший. Но существует ли самоубийство-помешательство?” Этим вопросом он подводит к дальнейшему рассуждению о сущности помешательств и их отношении к самоубийству. И в правду, а на основе чего можно будет утверждать об их родстве? Ведь даже сами эти утверждения иногда рознятся (о чём и говорит Дюркгейм далее): “С одной стороны, самоубийство само есть болезнь *sui generis*, что оно представляет собой особый (отдельный) вид сумасшествия, или же, не выделяя его в качестве особого вида, усматривать в нем просто эпизодическое явление того или иного вида сумасшествия, явление, не встречающееся у людей со здоровым рассудком”. Цитату выше я предлагаю поделить на две категории, чтобы при дальнейшем рассуждении можно было апеллировать к ним.

Самоубийство есть: вид сумасшествия (отдельный); эпизодическое сумасшествие.

Последующие два параграфа он говорит именно об этих тезисах, достаточно точно парируя утверждения, о самоубийстве как об отдельном виде сумасшествия и как эпизодического проявления сумасшествия. Говоря о самоубийстве как отдельном виде сумасшествия, Дюркгейм апеллирует к мономании, дескать, если мы можем определять самоубийство как особый вид помешательства, то сумасшествие должно быть частичным, и оно должно быть ограничено единичным проявлением.

Первый кто ввёл термин “мономания” был французский психиатр Жан-Этьен Доминик Эскироль, который определял её как болезнь единичного проявления, но так же у человека, болеющей ею в целом могло быть безутраченное психическое здоровье. Хотя сам Эскироль своё отношение к самоубийству выражал так: “Самоубийство представляет собой явление, зависящее от громадного количества различных причин, что проявляется оно в самых различных формах и что это явление не знаменует собой никакой определённой болезни”. Примечательно, что Эскироль не соотносил в этом утверждении мономанию с самоубийством.

Но уже сам Дюркгейм определяет мономана так: “Мономан – это душевнобольной, сознание которого абсолютно ясно, кроме одного пункта; поражение его интеллекта строго локализовано” и далее он определяет признаки мономании: “Так, например, в известные моменты его охватывает безрассудная и нелепая страсть воровать, пить или оскорблять окружающих; но все его стальные поступки и мысли вполне нормальны и координированы. Если существует помешательство-самоубийство, то оно не может быть не чем иным как мономанией и так его чаще всего и квалифицируют”. Попытка реанимировать мономанию, была нужна только для определения самоубийства как вида единичного проявления, но проблема этого примера заключалась в том, что уже на тот момент в психиатрии – мономания была признана пережитком прошлого и локализация умственных повреждений (что являлось характерным мономании) была опровергнута, и следуя из этого был опровергнут тезис о том, что самоубийство есть отдельный вид сумасшествия (по предположению Дюркгейма являющимся, отдельным видом мономании).

Другое дело обстоит с тезисом о том, что самоубийство есть эпизодическое сумасшествие. В таком случае самоубийство является признаком, проявляющимся исключительно в больном состоянии и, что оно есть признак психического заболевания. На это предположение Дюркгейм далее отвечает так: “Такое заключение было бы очень поспешным, так как среди поступков психически больных людей есть такие, которые им только свойственны и которые могут считаться для них характерными; но есть и такие, которые, наоборот, у них одинаковые со здоровыми людьми, хотя у сумасшедших они и получают особую окраску”. Тут легко констатировать, что психиатры, наблюдавшие за своими больными, которые совершали самоубийство, имели признаки умственного расстройства. Но и при таком случае остаётся большое количество самоубийц, не наблюдавшихся у психиатров (не могли же все самоубийцы, ранее наблюдаться у психиатра, из чего и могло бы следовать подобное заключение).

Далее Дюркгейм предлагает классифицировать самоубийство совершённые умалишёнными: “для того чтобы узнать, есть ли самоубийство акт, исключительно присущий сумасшедшим, надо определить те формы, которые оно принимает при умственном расстройстве, и решить потом вопрос, ему ли одному оно свойственно”. Черты этой классификации Дюркгейм заимствует у Моро де Тура и выделяет 4 наиболее ярких видов:

- 1) маниакальное самоубийство;
- 2) самоубийство меланхоликов;
- 3) самоубийство одержимых навязчивыми идеями;
- 4) автоматическое или импульсивное самоубийство.

Маниакальное самоубийство – этот вид самоубийство встречается у людей страдающих галлюцинациями или бредовыми идеями: “Больной убивает себя для того, чтобы избежать воображаемой опасности или позора, или действует, как бы повинуюсь таинственному приказанию, полученному им свыше... Внезапно появляется галлюцинация или бредовое состояние,

которые побуждают маньяка лишиться себя жизни; они влекут за собой попытку самоубийства. Через несколько мгновений положение вещей изменяется, и если попытка оканчивается неудачей, то в силу какого-нибудь другого мотива”.

Самоубийство меланхоликов – этот вид самоубийства встречается у людей испытывающих скорбь, уныние: “Его не привлекают никакие удовольствия, все рисуется ему в чёрном свете, жизнь представляется утомительной и безрадостной. Ввиду того что такое состояние не прекращается ни на минут, у больного начинается просыпаться неотступная мысль о самоубийстве; мысль эта крепко фиксируется в его мозгу, и определяющие её общие мотивы остаются неизвестными”.

Самоубийство одержимых навязчивыми идеями – этот вид самоубийства происходит в следствии обретении мысли о самоубийстве, эта мысль внезапно овладевает человеком и не покидает его: “Он одержим желанием покончить с собой, хотя прекрасно знает, что у него нет к этому никакого разумного повода. Это инстинктивное желание не подчиняется никаким размышлениям и рассуждениям, подобно тем безудержным потребностям воровать, убивать, поджигать, которые раньше пытались истолковать как особые виды мономании... Если попытка самоубийства оканчивается неудачей, то этого оказывается достаточно для того, чтобы больной на время успокоился”.

Автоматическое или импульсивное самоубийство – этот вид самоубийства является чем то схожим с предыдущим, но он отличается тем, что при нём человек не обладает какой-то навязчивой идеей, мысль о самоубийстве им овладевает внезапно от “непобедимого импульса”.

Исходя из вышеперечисленных случаях самоубийства, среди душевнобольных можно с уверенностью сказать, что они лишены всякого мотива: “Громадное количество добровольных смертей не могут быть отнесены ни к той ни к другой категории; большинство из них имеют мотивы, не лишённые реального основания; поэтому нельзя, не злоупотреблять словами, считать каждого самоубийцу сумасшедшим”. И вправду, большинство людей могут совершить самоубийство в подавленном состоянии этому есть пример любого перечисленного здесь самоубийства. Более точно раскрывается суть этого вывода из следующих слов Дюркгейма: “Все случаи смерти, являющиеся результатом поступка самого пострадавшего лица, действовавшего с полным сознанием этого результата, представляют, независимо от своей цели, слишком существенное сходство для того, чтобы их можно было распределить по различным родам; при самых разнообразных мотивах они могут считаться только разновидностями одного и того же рода; кроме того, чтобы установить подобное различие, нужен другой какой-нибудь критерий, а не преследуемая жертвой цель, которая всегда более или менее проблематична. Таким образом, мы можем по крайней мере установить группу самоубийств, в которых отсутствует элемент сумасшествия”. Исходя из вышесказанного, Дюркгейм делит самоубийство (без примеси сумасшествия) на два признака:

- 1) они вполне обдуманно;
- 2) их представления не являются галлюцинациями в чистом виде.

Этим самым Дюркгейм заявляет, что самоубийство не производное от сумасшествия, и далее он даёт основу своему мнению применяя эмпирические факты. И действительно подобное утверждение обосновывается в первую очередь тем, что самоубийство умалишённых не есть исключительно все случаи самоубийства. Ранее как и было сказано в ход идёт эмпирика.

По данным статистики (так же Дюркгейм прибегает к методу корреляции, для точного соотношения данных) на то время число умалишённых женщин лишь на немного превышало число мужчин. Естественно числа варьируются в зависимости от стран, но как говорит Дюркгейм: “обыкновенно на 54 или 55 умалишённых женщин приходится 46-45 мужчин”. Так же по результатам собранным Кохам, выявилось, что в одиннадцати различных государствах, на 166 675 умалишённых обоёго пола приходится 78 584 мужчин и 88 091 женщина. Это выходит, что на 1 000 жителей обоёго пола приходится — 1.18 мужчин и 1.30 женщин. Далее Дюркгейм утверждает вот что: “Большее число случаев сумасшествия среди женщин, не полученное при переписи в тот или иной момент, не является еще доказательством того, что женщина предрасположена к сумасшествию больше чем мужчина ... Тем не менее, остаётся несомненным тот факт, что среди наличного контингента сумасшедших женщин больше чем мужчин; и если — что вполне законно — от числа умалишённых заключить к числу нервно расстроенных, то нельзя не признать, что всегда существует большее число неврастеников женского пола, чем мужского. Поэтому если бы между процентом самоубийств и неврастенией была действительно какая-нибудь причинная связь, то женщины должны были бы чаще, чем мужчины, лишать себя жизни или же, по крайней мере, одинаково часто”. Тут Дюркгейм затрагивает тему неврастении, которая ранее здесь не упоминалась.

Вкратце скажем пару слов о неврастении, чтобы знать какую дефиницию Дюркгейм даёт термину, упомянутому выше “Неврастения представляет собой род зачаточного сумасшествия и поэтому в отдельных случаях она должна иметь одинаковые с ним последствия... Вполне понятно, конечно, что неврастения предрасполагает к самоубийству, так как неврастеники по своему темпераменту как бы предназначены к страданию. Известно, что страдание, в общем вытекает из чрезмерного потрясения нервной системы; слишком сильная нервная волна бывает чаще всего очень болезненной”.

Вернёмся к Дюркгеймовскому анализу данных. Далее он констатирует, что склонность к самоубийству у женщин гораздо ниже чем у мужчин, и потому самоубийство есть — чисто мужское явление “На одну лишаящую себя жизни женщину приходится в среднем 4 мужчины. У каждого пола есть своя вполне определённая склонность к самоубийству, которая есть величина постоянная для всех социальных классов. Но интенсивность этого предрасположения отнюдь не варьируется параллельно вариациями

психопатического фактора независимо от того, исчисляют ли его влияние по количеству ежегодно вновь зарегистрированных случаев или по числу людей, записанных в данный момент”.

Так же Дюркгейм говорит о том, что сумасшествие наблюдается чаще у евреев, нежели у людей других вероисповеданий и что так же у евреев предрасположенность к самоубийству значительно мала. Дальше он говорит, о сравнении католиков и протестантов, где предрасположенность к сумасшествию у католиков в действительности ниже чем у протестантов, в 4 случая из 12 и то разница между ними незначительна. И всё таки католики реже лишают себя жизни чем протестанты (Хотя в последующих главах Дюркгейм найдёт частичное объяснение этому в самих католических и протестантских этиках).

Теперь Дюркгейм говорит, что в странах, где меньше умалишённых, там больше самоубийств. Хотя ранее уже к подобному заключению приходил доктор Лерой: “Чаще всего, в местности, где наблюдается значительный процент душевных болезней, встречается такой же процент самоубийств, но оба этих процента могут рассматриваться совершенно отдельно. Я даже склонен думать, что наряду с теми в достаточной мере счастливыми странами, где нет ни душевных болезней, ни самоубийств, есть такие, где существуют только душевные болезни. В других местностях можно наблюдать обратное исключение”.

Ещё хотелось бы сделать оговорку, Дюркгейм просит разграничивать понятия душевнобольных и идиотов, на примере неверной статистики Морселли (где он отнёс душевно больных и идиотов в одну группу), Дюркгейм говорит, что идиотизм предохраняет от самоубийства, так как в деревне, где идиотов больше всего, случаев самоубийства там меньше. Ложность данных Морселли заключается в том, что посредством объединения создаётся неправильный параллелизм между распространённостью душевной болезни и самоубийства. Для наглядного примера ложности этих данных Дюркгейм предлагает взглянуть на таблицу, где он классифицировал главные страны Европы в пять последовательных групп, и объединил сумасшедших и идиотов в одну рубрику (относя их к числу душевнобольных по Европе), и получилась такая таблица¹:

Таблица 1.

	Число сумасшедших на 100 000 жителей	Число самоубийц на 1 000 000 жителей
1-я группа (3 страны)	340-280	157
2-я >>	261-245	195
3-я >>	185-164	65
4-я >>	150-116	91
5-я >>	110-100	68

¹ Самоубийство / Эмиль Дюркгейм; [перевод с французского А. Ильинского]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 56.

“Между этими двумя скалами нет точного соответствия, доказывающего наличие определённой причинной связи между этими двумя явлениями. Во второй группе должно было бы быть меньше самоубийств, чем в первой, а на самом деле в ней самоубийств больше; в пятой группе с этой же точки зрения самоубийств должно было бы быть меньше всего, а в ней их больше чем в четвёртой и даже в третьей”. Дюркгейм предлагает нам заменить статистику Морселли более полной статистикой Коха (где, естественно, отсутствие параллелизма более очевидно).¹

Таблица 2.

	Сумасшедшие и идиоты на 100 000 жителей	Среднее число самоубийств на 1 000 000 жителей
1-я группа (3 страны)	422-305	76
2-я >>	305-291	123
3-я >>	268-244	130
4-я >>	223-218	227
5-я >>	216-146	77

“Существует одно психопатическое состояние, которое за последнее время вошло в привычку обвинять почти во всех несчастьях нашего цивилизованного общества. Это – алкоголизм”.

И напоследок Дюркгейм предлагает рассмотреть связь самоубийства и сумасшествия на почве алкоголизма, или имеет ли алкоголизм влияние на развитие самоубийства? Исходя из выводов, полученных в результате обзора карты самоубийства и преследований за злоупотребление спиртными напитками, где карта показала нам, что самоубийства сосредоточены в двух центрах Франции (первый расположен в Иль-де-Франс и распространяется на восток, второй расположен на побережье Средиземного моря от Марселя до Ниццы), а алкоголизм в трёх главных центрах (Нормандии, Финистре и в бассейне Роны). Следует из этого что география этих явлений сильно различается, а следовательно невозможно сказать что одно из них влияет на другое. Поэтому Дюркгейм предлагает сгруппировать французские департаменты в 8 классов по степени значительности в них контингента самоубийц “мы старались найти в каждом из них среднее число случаев сумасшествия алкоголического происхождения основываясь на цифровых данных доктора Lunier и получили следующие результаты”² (См. Таблица 3.):

¹ Самоубийство / Эмиль Дюркгейм; [перевод с французского А. Ильинского]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 57.

² Там же. – С. 61.

Таблица 3.

	Число самоубийств на 100 000 жителей (1872-1876)	Сумасшедших на почве алкоголизма на 100 душевно больных (1867-1869 и 1874-1876)
1-я группа (5 деп.)	Ниже 50	11.45
2-я >> (18>>)	От 51-75	12.07
3-я >> (15>>)	76-100	11.92
4-я >> (20>>)	101-150	13.42
5-я>> (10>>)	151-200	14.57
6-я (9>>)	201-250	13.26
7-я (4>>)	251-300	16.32
8-я (5>>)	Свыше этого	13.47

Эти два столбца не соответствуют друг другу, так как число самоубийств ушестеряется и поднимается выше, когда пропорция сумасшествия на почве алкоголизма увеличивается едва ли на несколько единиц, и даже это увеличение происходит редко.

В конце этой главы Дюркгейм приходит к такому выводу: “не существует ни одного психопатического состояния, которое бы имело с самоубийством постоянную и бесспорную связь. В данном обществе число самоубийств не зависит от числа находящихся, в нём неврастеников и алкоголиков. Хотя дегенерация в различных своих формах образует вполне подходящую психологическую почву для развития тех причин, которые могут заставить человека решиться на самоубийство, но сама она не является одной из причин его. Можно допустить, что при идентичных обстоятельствах дегенерат лишает себя жизни легче, чем здоровый человек, но он лишает себя жизни не только в силу своего органического состояния. Потенциальная склонность к самоубийству может преобразиться у него в действие только под влиянием иных факторов”.

Выводы, которые делал Дюркгейм, скорее нельзя применить к современному обществу, так как всё таки оно поменялось за такой громадный промежуток времени и всё же западноевропейская культура отличается от культуры среднеазиатской, но принцип демаркации самоубийства мы должны знать в первую очередь для изучения этой проблемы. В новостях на 2019 год нам частично обнародовали данные по самоубийству в Узбекистане¹, где утверждалось о том, что 45% самоубийств было совершено людьми с психическими заболеваниями и расшатанной нервной системой и действительно процент относительно велик. Здесь, естественно, смело не получится утверждать о достоверности исследования и точности его проведения (ибо данные частично скрыты) и тут остаётся гадать

¹ В Узбекистане “молодеет” суицид. 22:11 11.07.2019 / Новостное агентство Sputnik (<https://uz.sputniknews.ru/20190711/V-Uzbekistane-molodeet-suitsid-11985983.html>)

(что не характерно исследователю или учёному): прав ли был Дюркгейм в изучении самоубийства, что всё таки психопатические состояния не составляют такого большого процента как нам предоставили в 2019 году (так как это могло бы помочь в борьбе с самоубийством, ибо в таком случае не получалось бы закрывать глаза на эти 45% как на душевнобольных людей не несущих ответственность за свои поступки, но при возможности предохранять их от суицида, неся хотя бы частичную ответственность за социальные факторы которые влияют на такое поведение), хотя и гендерная статистика на тот же год¹ показывает, что некоторые выводы Дюркгейма не могут быть спроецированы на нынешнюю реальность (так, например, число заболеваний психическими расстройствами на 2019 год у мужчин (81.3 на 100 000) выше чем у женщин (69.5 на 100 000), ибо предоставляемая статистика по умолчанию не может соотноситься с выводом Дюркгейма. Остаётся надеяться на возможности того беспристрастного исследователя , что подобно духу Дюркгейма изучит проблему самоубийства, на таком же фундаментальном уровне, в нашей реальности, и наконец даст ответы на вопросы которые были поставлены ещё тогда.

¹ Заболеваемость населения психическими расстройствами / Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике гендерная статистика Узбекистана (<https://gender.stat.uz/ru/osnovnye-pokazатели/zdravookhranenie/psikhicheskie-rasstrojstva>).

IV SHO‘BA. TA‘LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH VA BANDLIK MASALALARI SOTSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

KORXONADA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

*Aliqoriyev N.S. – O‘zMU professori,
Davronova N.B. – O‘zMU talabasi*


Mehnat unumdorligini orttirish ishlab chiqarish jarayonidagi barcha turdagi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga olib keladi. Shu bilan birgalikda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish ham mehnat unumdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy resurslardan foydalanish yo‘llarini tanlash, ular sarfini orttirmasdan turib ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini orttirish yoki kamaytirmaslikka erishish har bir korxonada uchun katta ahamiyat kasb etadi. Demak, mehnat unumdorligi – xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining mehnat harajatlariga nisbati, ya‘ni mehnat harajatlari birligi hisobiga ishlab chiqilgan mahsulot bilan belgilanadi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a‘zolari farovonligi darajasi va uning o‘shishiga bog‘liq. Bundan tashqari mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, hatto ijtimoiy-siyosiy tizimning o‘zini ham belgilab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda asosiy diqqat-e‘tiborni mehnat unumdorligiga qaratiladi. Buning uchun dastgoxlar va boshqa asbob-uskunalarining unumdorligini oshirishga, mehnat sharoitlarini yaxilashga, mehnatning ixtisoslashuv darajasini orttirishga, xodimlar malakasini oshirib borishga harakat qilinadi. Buning natijasida mehnat unumdorligi uzluksiz ravishda ortib bormoqda. Mehnat unumdorligining yillik o‘shish sur‘ati 2,5-3,5 foizni tashkil qilmoqda.

Korxonada va tashkilotlardagi mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblangan mehnat unumdorligi bir vaqt birligi ichida bir ishchi-xodim tomonidan tayyorlangan mahsulot yoki ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmat hajmini ko‘rsatadi. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarishning intensiv rivojlantirish omillaridan eng muhimi hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmini orttirishning ikki muhim yo‘nalishi mavjud bo‘lib (1-chizma), ular quyidagilardir:

1. Ekstensiv rivojlanish yo‘nalishi.
2. Intensiv rivojlanish yo‘nalishi.

Ishlab chiqarish xajmini orttirishning birinchi yo‘nalishi hisoblangan ekstensiv rivojlanish yo‘nalishida asosan vaqt hisobiga ishlab chiqarish hajmini orttirishga erishiladi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishning texnik asoslari eskicha qoladi. Mahsulot ishlab chiqarish xajmi ishchilar sonini ortishi, uskuna, energiya, xom ashyo va boshqalarni ko‘payishi hisobiga ortadi. Shuning uchun har bir ishlovchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori, ya‘ni mehnat unumdorligi avvaligicha qoladi.



1-chizma. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishlari

Ekstensiv rivojlanish yo'nalishi texnika turg'unligiga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarishning o'sishi harajatlarni ko'paytirish tufayli yuz beradi. Sarflangan harajatlarni yaxshi ishlatilganda ham, mahsulot o'sishi harajatlarni o'sishiga proporsional bo'ladi.

Resurslar cheklangan, ehtiyojlar esa tobora yuksalib borayotgan sharoitda ekstensiv o'sishning istiqboli yo'q. Resurslar tobora ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yetishmaydi. Bir tomondan xom ashyo, energiya manbalarini o'zlashtirish tobora ko'proq mehnat va ishlab chiqarish vositalari sarflanadi. Ikkinchi tomondan borgan sari tabiiy resurslar zaxirasi kamayib boradi. U tabiatni asrash, avaylash, undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talablariga javob bermaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish hajmini orttirishning intensiv yo'lga o'tiladi.

Intensiv rivojlanish usuli nisbatan murakkab bo'lib, o'sish resurslarini tejab-tergab ishlatish hisobiga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanadi. Bunda resurslar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori o'sadi. U fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish:

- ish bilan band bo'lganlarni malakasi, mahoratini oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash, assortimentini yangilash hisobiga erishiladi. Natijada mehnat unumdorligi o'sadi, asosiy resurslar teжалadi¹.

Intensiv usulning quyidagi shakllari mavjud: mehnatni tejamkorligi, kapital tejamkorligi va universal. Intensiv o'sishning mehnat tejamkorligini ta'minlovchi shakli ishlab chiqarishga yangi texnika texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Bu davrda ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Kapital tejamkorligi shaklida nisbatan samarali mashina va uskunalarni qo'llash, xom ashyo, materiallarni tejash, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish evaziga erishiladi. Kapitalning texnik tuzilishi, kapital (fond) bilan qurollanish darajasi o'zgarmaydi yoki o'sish sur'ati pasayadi. Bu jarayon, ayniqsa mahsulotni arzonlashtiradigan, yuqori unumli avtomatik uskunalarni va boshqa ishlab

¹ Вахабов А., Иброҳимов А., Ишанкулов Н. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. – Тошкент: Шарк, 2005. – 135 б.

chiqarishning yuqori samarali xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga joriy qilishda o'z ifodasini topadi.

Intensiv o'sishning universal shaklida resurslarni tejashning barcha usullari qo'llaniladi. Natijada iqtisodiy o'sishning yangi sifat darajasiga erishiladi. Bunda ishlab chiqarishning tejamkorligi yuqori, texnik darajasi o'sadi va mahsulotning sifati yaxshilanadi, fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish ko'payadi.

Ishlab chiqarishning intensivlashtirishda yoki intensiv rivojlanish yo'nalishida vaqt birligi ichida ishlab chiqarish hajmini orttirishga erishiladi. Bunda asosan mehnat unumdorligini oshirish orqali va dastgoxlarning foydali vaqt koeffitsientlarini orttirish orqali ishlab chiqarish hajmini orttirishga erishiladi. Bu yo'nalishni qo'llaganda ishlab chiqarish harajatlari bir birlik mahsulotga ortmaydi balki bir birlik mahsulotlar va xizmatlar tannarxi pasayishi kuzatiladi. Mamlakatimizda qabul qilingan choralar tarkibida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar tannarxini pasaytirish omilidan foydalanish ham belgilangan. Bu yo'nalishni amalga oshirilishi uchun mehnat unumdorligini oshirish talab etiladi¹.


Bozor iqtisodiyoti korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga qat'iy talablar qo'yadi. Bu talablar va vazifalar ichida qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish vazifasi ham belgilangan.

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar tannarxini pasaytirish yo'nalishlarning deyarli barchasi mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bilan bog'langandir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar tannarxini pasaytirishda bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan sarf-harajatlarni pasaytirish lozim bo'ladi. Bu ishni amalga oshirilishi mehnat unumdorligini oshirishni talab qiladi. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichini orttirib borishning ahamiyatini ko'plab iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar ta'kidlab o'tishgan. Ular mehnat unumdorligi har qanday jamiyat rivojining asosini belgilashini va istiqbolini ko'rsatib berishini ta'kidlaganlar. Mehnat unumdorligini orttirish orqali mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanib boradi va samaradorligi ortib boradi. Mehnat unumdorligini orttirishning ko'plab omillari mavjud bo'lib, ularni tashkiliy-iqtisodiy, tashkiliy-texnikaviy, ma'muriy va texnologik omillar deyiladi (2-chizma). Mehnat unumdorligini orttirishning ushbu omillari ichida tashkiliy-iqtisodiy omillarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Mehnat unumdorligini orttirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari asosan mehnatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan omillardan iboratdir. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni tashkil etish mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi tadbirlar majmuasi bo'lib, u turli darajadagi samaradorlik va ilmiy asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulot shunchalik ko'p ishlab chiqariladi. Mehnat unumdorligining darajasi mehnat resurslaridan foydalanishning axvolini

¹ Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006, – 208 б.

ko'rsatadi. Yuqori mehnat unumdorligi darajasiga erishish uchun mehnat ilmiy asosda tashkil etilishi lozim.



2-chizma. Mehnat unumdorligini orttirish omillari

Mehnatni ilmiy tashkil etish, deb ishlab chiqarish jarayonida xodimlar va texnikani samarali tarzda munosabatlarini amalga oshirish, mehnat unumdorligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan, mehnat jarayonida kishilar sog'lig'ini saqlashga imkon beradigan tashkil etishga aytiladi. Mehnatni ilmiy tashkil etish fan yutuqlariga va ilg'or tajribaga asoslanadi va ularni muntazam ravishda ishlab chiqarishga joriy qilish harakatida bo'ladi¹.

Iqtisodiy asoslar jamiyatda mehnatning o'rni va ahamiyati bilan aniqlanadi. Mehnatni ilmiy tashkil etish jamiyatda harakatda bo'lgan iqtisodiy qonunlarni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi².

Mehnatni ilmiy tashkil etish bozor iqtisodiyotining eng muhim qonunlari xisoblangan talab va taklif qonuni, qiymat qonuni va boshqa qonunlarga tayanadi. Har bir xodimning qobiliyati va layoqatiga mos ravishda ish bilan ta'minlanish, uning mehnatining miqdori va sifatiga mos ravishda taqdirlash va rag'batlantirish, xodimdan foydalanishda raqobat, talab va taklif hamda yaratilayotgan iste'mol qiymatini xisobga olish singari talablarni bajarish orqali mehnat tashkil qilinadi. Mehnatni tashkil qilishda xodimning ish qobiliyatini to'la namoyon bo'lishiga erishish orqali mehnat unumdorligini yuqori darajasini ta'minlab borish zarurdir.

Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni takomillashuvi mehnat unumdorligi oshishining asosiy shartidir. Yangi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi mehnatning mexanizatsiyalash darajasining ortishiga olib keladi. Har qanday mehnat samarali va unumli bo'lishi bilan birgalikda uzoq vaqt davomida faoliyat ko'rsatishi zarurdir. Ish vaqti davomida xodimning jismoniy va aqliy quvvati sarf bo'ladi. Korxonalarda mehnat unumdorligi yuqori bo'lishi uchun xodimlar salomatligi va ish qobiliyati saqlanib turadigan sharoit yaratilishi lozim. Shu sababli, mehnatni ilmiy tashkil qilish

¹Ирматова З. Корхоналарда меҳнат унумдорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва уларни аниқлашни такомиллаштириш йўллари / "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль. – Тошкент, 2015.

² Вахабов А., Иброҳимов А., Ишанкулов Н. Молиявий ва бошқарув таҳлили // Дарслик. – Тошкент: Шарк, 2005.- 135 б.

usullarini ishlab chiqishda mehnatni ilmiy sanitariyasi va gigienasi, fiziologiyasi va psixologiyasi, ergonomikasi sohasidagi ilmiy yutuqlarga tayanib ish ko‘riladi¹.

Mehnatni ilmiy tashkil etish sohasidagi har qanday tadbir xodimlar sog‘lig‘iga va ish qobiliyatiga qanday darajada ta‘sir ko‘rsatishi nuqtai nazaridan baholanadi. Buning uchun mehnat jarayonining psixofiziologik yo‘nalishi to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lish kerak.

BANDLIKNI TA‘MINLASH SOTSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdujabborova M.A. –O‘zMU 1-bosqich talabasi

Bugungi pandemiya sharoitida aholini bandlik bilan ta‘minlash eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ammo bu masala shu kungacha ham dolzarb bo‘lib kelgan. Bandlik yoki aholini ish bilan ta‘minlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.²

Bandlik xodimni Ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb qilish bo‘yicha kishilararo munosabatni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirkorlikni, o‘zini ish bilan mustaqil ta‘minlashni, shaxsiy tomorqa xo‘jaligidagi ishni, uy xo‘jaligida band bo‘lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug‘ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida kunduzgi o‘qishni ham o‘z ichiga oladi.

Qachonki aholining 90-92 %i band bo‘lsa, shunda aholi to‘liq bandlik bilan ta‘minlangan hisoblanadi.

O‘zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida, ya‘ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan ta‘minlash, insonni ishli bo‘lish huquqlari ro‘yobga chiqarish kafolatlari “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonunida (1992-yil 13-yanvar; 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O‘zbekistonda bandlik muammolari katta e‘tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o‘sish sur‘atlari yuqori, aholi tarkibida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi, aholining ko‘p qismi qishloqlarda yashaydi. 1998-yil O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33,9 % davlat sektori korxonalar va tashkilotlarida, 66,1 %i esa nodavlat sektori obyektlarida, jumladan xususiy xo‘jaliklarda (2,7 %) ish bilan band edi.³ Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mulkchilikning turli shakllari paydo bo‘lishi tufayli nodavlat sektorida ishlovchilar soni ortib bordi. Ularning bandligi 1994 – 1996-yillarda 12 %ga ortdi.

¹Ирматова З. Корхоналарда меҳнат унумдорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва уларни аниқлашни такомиллаштириш йўллари / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль. – Тошкент, 2015.

² Rahimova D. “Bandlik” O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000-2005.

³ O‘sha manba.

Iqtisodiy izlanish markaziga ko'ra, hozrgi kunga kelib O'zbekistonning ish siyosati modeli o'z samarasini yo'qotib bormoqda va mamlakatning mehnat bozorida murakkab vaziyat paydo bo'lgan.

Birinchiidan, yaratilgan ish o'rinlari soni yetarli emas, yaratilgan ish o'rinlarining aksari bo'lsa barqaror emas. 1991 – 2021-yillarda aholining mehnatga layoqatli qismi ulushi 50 %dan 61,1 %ga o'sdi. Shu vaqtning o'zida mehnatga layoqatlilarning ish bilan band qismi ulushi 81,6 %dan 66,9 %ga kamaydi. Bundan tashqari ish o'rinlarining beqarorligi o'sib bormoqda: yaratilgan yangi ish o'rinlarining 30 %i yo'qotilmoqda. Urbanizatsiya jarayonining tezlashayotgani sabab shahar mehnat bozorlarida keskinlik o'sib bormoqda.

Ikkinchiidan, nokorporativ sohaning (individual mehnat faoliyati, uydagi mehnat va yuridik shaxs statusiga ega bo'lgan korxonalaridan tashqaridagi turli faoliyatlar) keng ko'lamda tarqalganligi noustuvor o'sish xavfini oshirmoqda.

Bunga sabab nokorporativ soha davlat byudjetiga tushadigan soliqlarni kamaytirmoqda, pul va valyuta almashinishidagi disbalanslar chuqurlashmoqda hamda mehnat aloqalari rasmiylashtirilmagani uchun mehnat kuchi sifati pasaymoqda.

Uchinchiidan, mamlakat mehnat siyosati mehnat samaradorligini sust ragbatlantirmoqda hamda mehnat resurslarini yangi o'sish nuqtalari bo'la oladigan tarmoqlarga samarasiz yo'naltirmoqda.¹ Ilm va yuqori texnologiyali tarmoqlarda (ma'lumot xizmati, mashinasozlik, mikrobiologiya) ishlayotganlar ish bilan band aholining atigi 1,5 %ini tashkil qiladi. Hozirgi bandlik strukturasi va investitsiya siyosati sharoitida O'zbekistonda mehnat samaradorligini ikki marta oshirish uchun taxminan 15 yil kerak bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar bilan O'zbekiston orasidagi farqni kamaytirishni yanada mushkullashtiradi.

Aholi bandligini oshirish bo'yicha asosiy chora tadbirlar ish bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash va mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg'or tarmoqlar va sohalarga jalb qilish bo'lib, bu o'z navbatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish hodimlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i band hisoblanadi. Aholining ish bilan bandligini oshirish maqsadida ularning ma'lum qismini bo'shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirish, noqishloq xo'jaligi ish joylarini yaratish, mehnatni ashkil etishning ilg'or uslublarini qo'llash, ko'p bolali ayollarni, o'smirlarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag'batlantiruvchi ish bilan ta'minlash, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash kabi chora tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiqdir.

¹ Rahimova D. "Bandlik" O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000-2005.

KORONAVIRUS PANDEMIYASINING MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA SALBIY TA'SIRI

*Ernazarov B.O. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Abdurashidov S. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Global inqirozning respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirlarini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» va «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi.

Farmonda ko'rsatib o'tilgandek, jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda respublikamizda insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilmoqda, bu esa o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab etadi.

Bunda turizm, transport, farmasevtika va to'qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Globallashuv va integrasiyadan, ikki va undan ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalardan inqirozgacha ko'p naf ko'rgan mamlakatlar koronavirus pandemiyasidan juda ko'p zarar ko'rmoqda. Ular koronavirusga chalinganlarning soni jihatidan dunyoda peshqadam bo'lmoqda.

Jumladan, 2020-yil may holatiga ko'ra:

- AQSHda 33 251 811 dan ortiq;
- Ispaniya 3 668 658 dan ortiq;
- Italiya 4 213 055 ga yaqin;
- Buyuk Britaniya 4 470 823 ga yaqin;
- Frantsiya 5 979 099 dan ortiq;
- Germaniya 3 634 845 dan ortiq;
- Rossiyada 4 995 935 ga yaqin;
- Hindistonda 27 749 237 dan ortiq;
- O'zbekistonda 94 250 ga yaqin;
- Turkiyada 5 234 265 holatda koronavirus yuqtirganlar qayd etilgan.

Iqtisodiyotning salohiyati, savdo-sotiq munosabatlar, mamlakatlarning ochiqlik darajasi, tovarlar, investisiya va turistlar oqimi o'zaro kontaktlarining oshishiga va pandemiyaning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Tahlillar shuni taqozo qilmoqdaki, mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ulushi bilan koronavirusga chalinganlarning ulushi o'rtasida o'zaro korrelyatsion aloqadorlik ($R = 0,75$) bor ekan. Shuningdek, mamlakatlarning koronavirus pandemiyasidan

iqtisodiy yo‘qotishlari ham epidemiyadan zararlanish ulushlariga bog‘liq.

Aholi daromadlaridagi yo‘qotishlarni qoplash uchun ba‘zi mamlakatlar pul tarqatmoqda. Ammo O‘zbekiston Respublikasi hukumati muqobil qaror qilib «Saxovat va ko‘mak» umumxalq harakati orqali korxonalar va jamoat tashkilotlari kam ta‘minlangan oilalarga xayriya tadbirlarini o‘tkazmoqda. Korxonalarining «Saxovat va ko‘mak» umumxalq harakatida qatnashishi davlat tomonidan inqiroz yo‘qotishlarini tadbirkorlar zimmasiga tashlagani emas, balki bu harakat ayni yalpi talab tushib borayotgandagi holatni o‘nglashga qaratilgan harakatdir. Chunki yalpi taklif pasaygan davrda yalpi taklifni aholiga pul tarqatish orqali oshirish inflyatsiyani oshiradi va aholi undan naf ko‘rmasligi mumkin.

Korxonalarining umumxalq harakatidan oladigan foydasi:

Birinchi, korxonalar tovar yoki xizmatlarini (oldindan to‘plangan zaxiralarini talab tushib ketgan davrda sotish uchun reklama harajatlari qilishi kerak bo‘lardi;

Ikkinchi, korxonalarining «Saxovat va ko‘mak» umumxalq harakatidagi ishtiroki xaridorlar, uning aholi o‘rtasidagi obro‘si va imijini oshiradi;

Uchinchi, umumxalq harakatida qatnashish korxonalar o‘rtasidagi oldingi shakllangan zanjirband iqtisodiy aloqalarni jonlantiradi. Biznes yuritish faollashadi va to‘rtinchidan marketing harajatlari tejaladi, chunki ular kelgusida jozibador (consumer loyalty) iste‘molchilar guruhini shakllantiradi.

Inqiroz davom etayotgan davrida milliy iqtisodiyotning birinchi galdagi vazifalari bozor ishonchini tiklash, nobozor sektorini, birinchi navbatda renta munosabatlari ta‘sir hududini qisqartirish va raqobatchilikni rivojlantirishdan iborat. Milliy iqtisodiyotni energiya-xom ashyo yo‘lidan innovatsion yo‘nalishga o‘tkazish samaradorligi aholining turli ijtimoiy guruhlari, hokimiyat va biznes o‘rtasidagi aloqalarning ishonch darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, korxonalarining raqobatbardoshligi va ularning iqtisodiy holatiga koronavirus pandemiyasining ta‘sirini yumshatish maqsadida ishlab chiqarish harajatlari pasaytirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish, transaksion sarflarni tejash chora-tadbirlari tavsiya etilgan.

Moliyaviy nochor korxonalariga imtiyozli kredit berish, bankdan olgan kreditlarini so‘ndirishga imtiyoz yaratish, mahsulotlarning energiya va boshqa xom ashyo sig‘imini pasaytirishni rag‘batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini lokalizatsiya dasturlariga kiritish, ularning mahsulotiga bo‘lgan ichki talabni oshirish tadbirlari belgilangan. Ishlab chiqarishni yangi mahsulotlar va faoliyatlar bilan kengaytirish hisobiga diversifikatsiyalashni amalga oshirish, mahsulotlar va xizmatlar assortimenti va sifatini oshirish, ulardagi qo‘shimcha qiymat sig‘imini oshirish, sotish kanallari va bozorlarini kengaytirish, bandlikni, o‘zini o‘zi bandligini ta‘minlash chora-tadbirlari keng joriy etilmoqda. Bu holatlar kelgusida mamlakatimiz tez fursatda inqiroz ta‘siridan chiqqan inqirozgacha bo‘lgan holatni tiklab barqaror rivojlanish traektoriyasiga o‘tishiga xizmat qiladi. Shu xususida yana bir olimlar o‘rtasidagi inqirozdan keyingi rivojlanish stsensariyalari munozarali bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti 5 yoki 6 oyda iqtisodiy yo‘qotishlarni qoplab bu yilgi YAIM ning o‘sish sur‘ati 1,2-1,5 % atrofida va keyingi yili 7,0-7,2 %ga

ko'tariladi. Jahon iqtisodiyoti va rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Rossiya) iqtisodiyotlari iqtisodiyotining U – shaklda rivojlanadi, boshqacha qilib aytganda, bu iqtisodiyotlarga tiklanishi va rivojlanishi uchun ko'proq vaqt (bir va bir yarim yil) talab etiladi.

Respublikamiz uchun koronavirus pandemiyasi ta'siridagi iqtisodiy yo'qotishlarni qoplash uchun bizningcha bu yil 5 yoki 6 oy talab etiladi va joriy yilda iqtisodiy o'sish pasayib 1,2-1,4 % atrofida bo'lishi va keyingi yili esa qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlarning mahsuli sifatida o'sish sur'ati 7,0 % atrofida va undan yuqori bo'ladi. Vaziyatning keskin o'zgaruvchan bo'lishini inobatga olib bugungi kunda kutilayotgan makroiqtisodiy vaziyat bo'yicha nisbatan aniq prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish murakkab bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning «Bir makon – bir yo'l» davlatlari bilan hamkorligi ulkan va hali to'la amalga oshirilmagan salohiyatga ega ekanligini ahamiyatga olish darkor. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan bildirilgan transport, innovasiya va ta'lim sohalaridagi aniq tashabbuslar O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini yangi darajaga ko'tara oladi va «Bir makon – bir yo'l» doirasida barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishga to'siq bo'lib turgan eng dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha hamkorlikka yo'naltiradi. O'zbekiston «Bir makon – bir yo'l» loyihasini, transport, savdo, investisiya, energetika va yuqori texnologiyalar sohalaridagi tashabbuslarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Hamkorlik doirasida Markaziy Osiyoni Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozorlari bilan bog'laydigan transport-logistika yo'nalishlarini ochish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqda.

«Bir makon – bir yo'l»ga a'zo mamlakatlar bilan sayyohlik sohasida faol hamkorlik O'zbekiston uchun katta imkoniyatlarni ochadi. «Bir makon – bir yo'l»ning 60 mamlakati eng yirik tashqi turist «etkazib beruvchilar»dir. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi sayyohlar tomonidan sarflangan pullarning 20 %idan ko'prog'i Xitoy ulushiga to'g'ri keladi. Ular 2017-yilda turizmga 250,6 mlrd dollar sarflagan. Ekspertlarning qayd etishicha, 2021-yilga kelib jahondagi Xitoy sayyohlarining soni 200 mln.ga, ularning harajatlari 429 mlrd dollarga yetadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jahonda sodir bo'layotgan bu pandemiya hozirgi davrda nafaqat insoniyat hayotiga, balki ayrim davlatlar va umuman dunyo iqtisodiyotiga ham jiddiy xavf tug'dirib kelmoqda. Nafaqat iqtisod, balki ta'lim sohasida ham bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Bunday og'ir ahvolda dunyo mamlakatlari o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z siyosatini yuritib kelmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda ham pandemiyaqa qarshi olib borilgan bir qator harakatlar o'z samarasini bermoqda. Investorlarning vahima sababli aksiyalarini sotib yuborishi oqibatida dunyo bo'ylab yetakchi bo'lgan birjalarda yuzaga kelgan inqirozni ekspertlar oxirgi 10 yillikda kuzatilmagan, deb baholashmoqda.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Boytemirova H. – O'zMU 3-bosqich talabasi

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida bo'lib qolmoqda. Zero, O'zbekiston ravnaqi, kelajagi shu yoshlar, ya'ni zamonaviy kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularning hur fikrli bo'lishi, jahonta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Buning uchun esa, avvalo, ta'lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozim.

Zamonaviy ta'lim olishning o'zi har bir shaxs zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli, chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z harakatlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Istiqlolning dastlabki qadamlaridanoq, yosh avlodni tarbiyalash, hayotda o'z o'rnini topishi, demokratik davlat qurish vazifalariga bo'ysundirilishi lozim ekanligini uqtirib o'tilgandi. Oradan yillar o'tib, zamonaviy innovatsion ta'limni turli usullarda amalga oshirish imkoniyatlari kundan-kunga kengayib bormoqda. Bularning barida butun mas'uliyat faqatgina o'qituvchi zimmasigagina yuklatilmasdan, ta'lim oluvchidan ham o'zini o'zi boshqarish talab etilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish, ta'lim sifatini oshirish, mavjud ta'lim dasturlarini zamonaviy talablarga muvofiq isloh qilish va yosh avlod tarbiyasi muammolarini oqilona tarzda hal qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu ulug' niyatlarni amalga oshirishda, avvalo, ta'lim tizimini maktab yoshigacha bo'lgan bola tarbiyasidan boshlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yuksak aql-zakovat mohiyatini shakllantirish, buning uchun zamonaviy moddiytexnik va axborot bazasini yaratishgacha bo'lgan barcha sohalarni isloh etish kerak.

Ta'lim tizimini isloh etish va uning sifatini oshirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy sohalar sekin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Bugungi kunda hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tub mohiyati bevosita ta'lim jarayoniga taqaladi. Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar:

- ta'lim mazmuni tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini isloh qilish;
- ota-ona, o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka, balki umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish

g'oyasi juda muhimdir. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda amalga oshirilmog'i kerak.

Ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, hulqatvoriga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai – bu ilg'or pedagogik tajribadir. Ilg'or pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishi, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, zamonaviy, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg'or pedagogik tajriba o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini dellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash; ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tahlil qila olish tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishi, o'z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida olimlarning tajribalarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtirish zarur. Bu orqali biz yoshlarimizning quyidagi xususiyatlarini rivojlantirgan bo'lamiz:

- bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jahon arenalariga intilishlariga zamin yaratish hamda ularning yetuk kadr sifatidagi raqobatbardoshligini oshirish;
- ularda ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish.

Yana shuni aytish lozimki, bugungi kunda oldimizda turgan asosiy hamda buyuk vazifamiz har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

PANDEMIYA DAVRIDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMINING OLIV TA'LIMGA TA'SIRI

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Abduvohidova E.Sh. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Pandemiya qo'qqisidan e'lon qilinganda, O'zbekistonda aksariyat universitet va institutlar darslarni masofaviy shaklda o'tkazishga qisman tayyor edi. Oliy ta'lim muassasalari platformalarida Moodle tizimi shakllantirilib, unga barcha o'quv predmetlari bo'yicha elektron resurslar joylashtirilgan edi.

Mazkur tizim bundan bir necha yil avval joriy qilingan bo'lishiga qaramay, unda ishlash amalda sust edi, shu bois, mamlakatimiz tarixida birinchi marta favqulodda tashkil etilayotgan masofaviy ta'limni joriy qilishda o'ziga yarasha muammolar va qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy edi. Internet tezligining nafaqat hududlarda, balki viloyatlar markazida ham pastligi, markazdan uzoq joylarda Internetga ulanish imkoniyatining deyarli yo'qligi, o'quvchilarda texnik vositalarning yetishmasligi, aksariyat hollarda oilada bitta gadjet bo'lib, undan foydalanish uchun navbatga turishga to'g'ri keldi.

Birinchiidan, mamlakat masofaviy va onlayn ta'limga o'tishga hali tayyor emas edi, jumladan, bu borada professor-o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar qilinmagan edi. Shuning uchun o'qitishning sifati, uni tashkil etish hamda hududlardagi aloqa tizimi bilan bog'liq muammo va qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shuningdek, videodarslarning vaqt me'yori 80 minutni tashkil qilmaydi, buning bir nechta sabablari bor: Internet tezligi nihoyatda past, talabalarning moddiy imkoniyati mavjud trafiklarga yetmaslik ehtimoli kattaligi va h.k. Shu jihatdan, o'qituvchilar o'zlarining 80 daqiqalik ma'ruzasini metodik mahorat orqali qisqa vaqtga (20-30 daqiqa) keltirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim edi. Bunda tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar, talabalar tomonidan ularni topish va foydalanish uslublari, mavzuga oid asosiy tushuncha va tamoyillar, yakuniy xulosa va vazifalar berilishi lozim. Lekin bu maqsadga barcha ham erisha olmagan.

Ikkinchiidan, talabalarni videodarslar orqali ta'lim olishini to'la nazorat qilina olinmadi. Shu nuqtai nazardan, telekanallar, Internet saytlarda joylashtirilgan videodarslar mashg'ulotlari o'qituvchi, murabbiylar bilan bir qatorda ota-onalarga

ham birdek mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, farzandining Internetdagi turli dasturlar orqali berib borilayotgan darslarni muntazam tomosha qilishlari uchun sharoit yaratish, doimiy nazorat qilish, mavzularni o'zlashtirishiga, vazifalarni bajarishga yordamlashish, shuningdek, farzandining o'qituvchisi bilan xabar almashishda Internet orqali aloqani ta'minlab berishlari lozim.

Eng asosiy muammo, talabalarning mamlakatning turli hududlari – poytaxt, viloyat markazi, tuman markazidan eng chekka qishloqlarda istiqomat qilishi hamda ularda aloqa tizimining ham hududlariga qarab har xil bo'lishidir. Bu jarayonda faqat poytaxt, viloyat va tuman markazlarida istiqomat qiluvchi talabalarning imkoniyati biroz yuqori bo'ldi. Bu videodarslar (xususan, Zoom platformasida) o'rtacha 100 nafar talabadan 8-13 tasining ishtirok etishiga olib keldi. Bu birinchidan, mamlakatdagi aloqa kompaniyalari faoliyati qoniqarsizligini ko'rsatsa, ikkinchidan esa, talabalarda videodarslar bo'yicha ko'nikmalarning xali yetarli darajada bo'lmaganligidadir. Masofaviy ta'lim auditoriyada kechadigan jonli ta'limdan farqlangani tufayli ta'lim jarayonida muloqot qilish samaradorligi past darajada kechadi. Auditoriya sharoitida talabalarning yuz ifodasi orqali ularning dars mavzusini tushunib borayotganliklarini anglash oson kechadi. Masofaviy ta'limda esa bu qiyinroq kechishini kuzatishimiz mumkin.

Respublikada masofaviy ta'limning rivojlanish istiqbollari kelsak, masofaviy ta'lim ikki yo'nalishda, ya'ni real vaqt rejimiga asoslangan sinxron yoki real vaqt rejimiga asoslanmagan nosinxron tarzda kechishi mumkin. Ammo, ikki yo'nalish uchun ham Internet tezlik jihatidan yaxshi ishlashi kerak. Busiz masofaviy ta'limning istiqboli bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, hozirgi pandemiya sharoitidagi masofaviy ta'lim odatdagi masofaviy ta'limdan farqlanadi. Pandemiya sharoitidagi masofaviy ta'lim favqulodda holatdagi masofaviy ta'limdir. Shu bois, hozirgi sharoitda ta'lim berish va ta'lim olishga moslashmagan Telegram singari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga to'g'ri kelmoqda. Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish uchun esa odatiy masofaviy ta'limni boshqarish tizimi, ya'ni Moodle kabi ta'lim platformalarini takomillashtirish, ularni qulay va yanada tushunarli funksiyalar bilan boyitish o'ta muhimdir. Buning uchun pedagog va axborot texnologiyalari mutaxassislarining yaqindan hamkorligi talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlarga quyidagi mulohazalarni qo'shimcha qilish o'rinli, deb hissoyladik. Haqiqatan ham, ta'lim tizimining favqulodda masofaviy va onlayn shaklga o'tishi, butun dunyoda bo'lgani kabi, respublikamiz oliy ta'lim tizimini yangi sharoitlarga moslashishiga majbur qildi. Faoliyatni raqamli formatga o'tkazishda oliy ta'lim muassasalari asosan IT infratuzilma bilan bog'liq texnik qiyinchiliklarga duch keldi. Shu bilan birga, bu vaziyat boshqa bir muammo, joriy va oraliq nazorat ishlarida talabalar tomonidan bir-biridan ko'chirish muammosini keltirib chiqardi.

Koronavirus tufayli oliy ta'lim muassasalari ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun ajoyib sinov platformasiga ega bo'ldi. Onlayn ta'lim ilgarilab, an'anaviy ta'limga jiddiy raqobatchi sifatida maydonga chiqmoqda. Ammo bunga hali ko'pchilik tayyor emas. Sababi esa, yuqorida qayd etilgan Internet bilan bog'liq muammolar, texnik imkoniyatlarning

chegaralanganligi hamda o'qituvchilarda onlayn ta'lim berish ko'nikmalarining yetarli emasligidir.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI SOTSIOLOG NIGOHIDA

*Ernazarov B.O. – O'zMU o'qituvchisi,
Jovliyeva M.S. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Davlatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng asta sekin har bir soha bo'yicha o'z islohotlarini amalga oshirishni boshladi. Shu jumladan sog'liqni saqlash sohasida ham bir qator amaliy jarayonlarni amalga oshirdi. Hozirgi kunga kelib ushbu sohani rivojlantirish va jahon miqyosidagi talablarga javob bera oladigan darajada rivojlantirish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ushbu soha rivojlanishi uchun ko'plab qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Hozirda davlatimizning barcha hududlarida tibbiy xizmatdan foydalanish bepul amalga oshirilmoqda (nodavlat tashkilotlari bundan mustasno). Buning natijasida, aholining tibbiyot sohasiga bolgan hurmati va ehtiromi oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilangan. Videoselektorda davlatimiz rahbari barcha sohalarda asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o'rin tutishini takidlab o'tdilar.

Keyingi ikki yilda davlatimiz rahbarining sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilingan, 6 ta yangi yangi ilmiy amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga yetdi. Xalqimizga yanada qulayliklar yaratish maqsadida hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo'limlar, 1 ming 200 ta tibbiy yordam shohobchalari ochildi.

Videoselektorda tibbiyot sohasini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish muhokama qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda 2025-yilgacha sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha konsepsiya loyihasini puxta ishlab chiqish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Masalan, sohani moliyalashtirishning amaldagi smeta usuli eskirgani, tibbiyot muassasalarida qancha bemor davolanganiga qarab emas, koyka o'rinlar soniga qarab moliyalashtirib kelayotgani qayd etildi. Bugungi zamon talablari va xorij tajribasidan kelib chiqib, sinov tariqasida mamlakatimizning 14 ta hududida bittadan tibbiyot birlashmasini aholi jon boshiga statsionar sharoitda davolanganlar soniga qarab, moliyalashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Videoselektorda tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida intigratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

Sogʻliqni saqlash tizimi takomillashayotganiga yana shuni misol qilib keltirishimiz mumkinki, 1991-2017-yillarda umumiy oʻlim koʻrsatkichi 20 %ga, onalar va chaqaloqlar oʻlimi 3.1 %ga kamaydi. Oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi 1995-yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etilmoqda .

Prezident tomonidan 2019-2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi va 2019-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yana shuni takidlab oʻtdiki: - “belgilab qoʻyilsinki , vazirlik va idoralar rahbarlari Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning oʻz vaqtida, toʻliq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar boʻladilar”.

Mamlakatimizda kerakli tibbiyot jihozlarining yetarli emasligi, baʼzi hududlarda esa tibbiyot jihozlarining mutlaqo talablarga javob bermasligini koʻrishimiz mumkin.

Tibbiyotda dolzarb muammo boʻlib kelayotgan, nafaqat tibbiyotda balki barcha sohadagi muammolarimizdan biri bu kadrlar masalasidir. Hozirgi kunda oliy oʻquv yurtlarida oʻqish istagida boʻlgan va hozirda tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalar koʻpchilikni tashkil etadi. Ammo bu sohada tahsil olayotgan talabalarning bilim va koʻnikmalari oliy taʼlim standartlariga javob bera olmaydi, afsuski buni tan olmasdan ilojimiz yoʻq.

Pandemiya sharoiti sababli deyarli barcha OTM onlayn taʼlim rejimiga oʻtkazildi, shu jumladan tibbiyot OTM ham onlayn oʻqish rejimiga oʻtdi, bu esa koʻp zarar keltirdi degani, yaʼni talabalar onlayn oʻqishlari natijasida oʻz sohalari boʻyicha yetarlicha amaliy bilim olmadi.

Tibbiyot sohasida xali hanuzgacha davom etib kelayotgan korrupsiyani yuqotishga oid koʻp islohotlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, bu sohada xali korrupsiya uchramoqda. Jumladan, 2018-2019-yillarda sogʻliqni saqlash tizimida yuz bergan qonunbuzarliklarga toʻxtalib oʻtsak:

Ushbu ikki yil ichida sogʻliqni saqlash tizimidagi 589 nafar xodimlari turli jinoyatlarni qilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi, 114 nafari sodir qilgan qilmishi korrupsion jinoyat hisoblanishi tanqid ostiga olindi.

Javobgarlikka tortilgan xodimlarning 3 nafari vazirlik markaziy mahkamasida va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida, 49 nafari viloyat hamda 529 nafari tuman-shahar miqyosidagi muosasalarda faoliyat olib borgan.

Hududlar miqyosida, jinoiy javobgarlikka tortilganlar, koʻproq, Fargʻona, Andijon, Samarqand Namangan, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm viloyatlari hisobiga toʻgʻri kelgan.

Jumladan 50 ta holatda bemorga malakali tibbiy yordam oʻz vaqtida koʻrsatilmaganligi, 24 ta holatda davolash ishlarini notoʻgʻri olib borganliga, 13 ta holatda jarrohlik operatsiyasini oʻtkazmaganligi yoki notoʻgʻri oʻtkazganligi, 7 ta holatda kasallikni barvaqt aniqlash chorasini koʻrmaganligi uchun ular jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorat departamenti tomonidan soʻngi ikki yilda tekshirish oʻtkazilgan 1591 ta tibbiyot muassasalarning 1311 tasi yoki 82 %ida moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlangan.

Bunday hodisalar hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda unga qarshi olib borilayotgan islohotlarning amalga oshishi uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini yanada oshirish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, so'g'liqni saqlash sohasida ko'plab yutuqlarimiz mavjud, ammo shu qatori aytib o'tganimizdek, bu sohaning ham o'ziga yarasha muammolari va kamchillari yo'q emas.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tibbiyot sohasida ayrim hududlarda tibbiyot asbob-uskunolari talablarga javob bera olmaydi, deb takidlab o'tdik. Shu o'rinda tibbiyot uskunolari chet ellardan olib kelinmoqda, ammo aksariyat tibbiyot hodimlari bu asbob uskunalardan foydalashni bilmaydi, bu ham sog'liqni saqlash sohasida rivojlanishda bir qadam orqada ekanligimizdan dalolat beradi.

Biz endilikda rivojlangan mamlakatlar darajasiga chiqishimiz uchun asosiy e'tiborimizni kadrlar masalasi va mutaxassisligi bo'lgan shaxslarni yana qaytadan ma'lakalarini oshirishiga qaratishimiz lozim. Mutaxassisligi bo'lgan shaxslarni bir yilda bir marta ma'lakalarini oshirishni yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lardi, chunki zamon har daqiqa va har soniyada rivojlanib bormoqda va yangi texnologiyalar yangi innovatsion g'oyalar paydo bo'lmoqda.

OTMda nazariy bilimlar qatori amaliyot soatlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lardi, buning natijasida talabalar aholi bilan ishlash va eng asosiysi o'z sohalari bo'yicha ko'plab bilimlarga ega bo'ladilar. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, tibbiyot xodimlari salomatligimiz posbonlaridir. Ularga xalq ishonishi, ular esa xalqni ishontira olishi kerak.

SOTSILOGIYA XALQ TA'LIMI TIZIMIDA

*Jiyanmuratova G.Sh. – O'zMU dotsenti,
Ilashova N.T. – O'zMU 1-bosqich talabasi*

Sotsiologiya jamiyatning tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ularning o'zaro aloqadorligini tizimli asosda ilmiy-amaliy jihatdan o'rganuvchi fandir. XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan avvaliga "Sotsial fizika", keyinchalik esa "Sotsiologiya" nomi bilan asoslantirilib, fanlar qatoriga kiritilgan sotsiologiya ijtimoiy falsafaning masalalarini yanada aniqlashtirish, empirik sotsial tadqiqotlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati oshishi va rivojlanishi oqibatida shakllandi.

Sotsiologiya, sotsial faktlar haqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa g'oyalar, qoida va qadriyatlar yotadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funkcionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Shu bilan birga, jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada boyib, rivojlanib boradi, uning o'rganish obyekti qamrovi kengayadi, tadqiqot usullari ham yanada mukammallashib boradi.

Ijtimoiy hayot masalalarining o'rganish doirasi tobora kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham tobora kengayib bormoqda. Masalan, bugungi zamonaviy sotsiologiya doirasida so'nggi 100 yillik davomida "Fan

sotsiologiyasi”, “Ta’lim sotsiologiyasi”, “Yoshlar sotsiologiyasi”, “Madaniyat sotsiologiyasi”, “Boshqaruv sotsiologiyasi” va boshqa shu kabi tarmoq va soha yo’nalishlari shakllandi. Ikkinchi tomondan, sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan dialektik aloqadorligi kuchayib bormoqda.

Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o’tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O’zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy iqlim shakllanmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o’zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o’zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo’lmoqda. Sotsiologiya – yaxlit ijtimoiy tizim sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari orqali bu tizimning amal qilishi va rivojlanishini o’rganuvchi fan, desak adashmagan bo’lamiz.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o’rni, ular o’rtasidagi munosabatlarni, ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini shuningdek, jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tizimda sodir bo’layotgan ijtimoiy jarayonlarni hamda shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko’nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko’maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma’naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek? “Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o’zining manfaatlarini qandaydir yo’llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo’lsa, qonuniy yo’llar bilan o’z maqsadlariga erishishga intiladi”.¹

Hozirgi paytda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy fanlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratadigan bo’lsak: “O’zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. Bu, avvalambor, ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo’lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo’naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog’liq ekanini biz yaxshi anglaymiz”.²

Ana shu ulug’vor maqsadlardan kelib chiqib ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, shu jumladan maktabda sotsiologiya fanini o’qitilishini yo’lga qo’yish maqsadga muvofiqdir. Zero, sotsiologiyaning jamiyat to’g’risidagi fan ekanligini, shuningdek hozirgi davrda

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O’zbekiston, 2005. – B. 12-13.

² Mirziyoev Sh.M. Islom Hamkorlik tashkiloti tashkiliy ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan. // Xalq so’zi, 2016, 19-oktyabr.

mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinganligini e'tiborga olsak, bu fanni nafaqat talabalar, balki o'quvchilar dunyoqarashiga singdirishning nechog'liq dolzarb vazifa ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Sotsiologiya sotsial voqelik va uning o'zgarishi to'g'risidagi bilimlarni shakllanishiga imkoniyat yaratadi, sotsial rivojlanish jarayonlari mantig'ini ochib beradi, insonga o'zining jamiyatdagi o'rnini, o'z hayotiy yo'lini topishi va hayotiy istiqbollarni aniqlab olishga yordamlashadi, sotsial ziddiyatlarni hal etishda shaxsiy intilishlar, his-tuyg'ularini kuchaytiradi. Sotsiologiya bizning hayotimizga doimiy ravishda hayotiy ta'sirlar o'tkazib boradi. Sotsiologik tafakkurlash va tadqiqotlarning siyosat va sotsial islohotlarga qo'shadigan hissasi bir necha yo'llarda amalga oshiriladi. Ularning ichida eng asosiy to'g'ridan-to'g'ri yo'l – sotsial vaziyatlarni aniq va ravshan yoki ishonchli tarzda tushunishdir. Sotsiologiyaning maktab fanlari qatorida o'qitilishi o'quvchilarni o'smirlik davridayoq ijtimoiy hayotga moslashishiga, avvalambor atrofidagi voqealikni anglash hamda tahlil qilishga o'rganishi uchun tayanch bo'ladi.

Bundan tashqari, sotsiologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar nazariyalarini nafaqat o'quvchilar, balki keng omma orasida ham qo'llash mumkin, va albatta bu tadqiqotlar o'z samarasini beradi. Misol tariqasida Yakob Morenoning nazariyasini olib qaraylik. Moreno "Sotsiometriya" nazariyasi muallifi hisoblanadi. Sotsiometriya – kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy usullar yordamida o'rganadigan ijtimoiy-psixologik va sotsiologik tadqiqot hisoblanadi. Sotsiometriyani bir guruh odamlarning emotsional munosabatlarini va boshqa insonlarga ta'sirini o'lchash usuli, desak ham xato bo'lmaydi.

Moreno rahbarligi ostida o'tkazilgan sotsiometrik tadqiqotda o'quvchilar jamoasi, qat'iyani aytganda, mavjud emasdi. O'zlashtirishi past, intizom buzilishlari esa keragidan ortiq edi. Moreno taxminicha, vujudga kelgan vaziyatning sabablaridan biri pedagoglarning o'quvchilar qiziqishlarini, masalan, darslarda kim-kim bilan o'tirishini hisobga olishni xohlamasligi bo'lgan. Maktab rahbariyatining roziligi bilan, tadqiqot guruhlari xodimlari sinfga kirib, ulardan har biri kim bilan birga o'tirishini xohlashini yozma so'rov orqali aniqlash niyatida ekanliklarini ma'lum qilishgan hamda tadqiqotchilar o'quvchilarning istaklarini qondirib, sinfdagi "joy almashtirishlar" samara berishiga umid qilishgan, bu esa pirovardida o'zlashtirish va intizomning umumiy yaxshilanishiga olib kelishi kerak edi. So'rov o'tkazgach (o'quvchilardan, birga o'tirishni xohlashadigan ikki-uch do'stlarini aytishni so'rashdi), tadqiqotchilar sotsiometrik matritsa tuzganlar. U uch ustunni o'z ichiga olgan jadvaldan iborat bo'lib: kim tanladi, kimni tanlashdi, tanlovlar soni, deb nomlangan. Ular asosida pedagoglar va tadqiqotchilar sinfda majlis o'tkazib, keyin o'quvchilarni qayta o'tqazib chiqishgan. Natija zo'r taassurot qoldirgan: o'zlashtirish yaxshilangan, intizom buzilishlari soni kamaygan, jamoadagi kelishmovchiliklar esa yo'qola boshlagan. Ko'rinib turibdiki, sotsiologik tadqiqot o'z samarasini bergan va fan tarixidan joy olgan.

Shu o'rinda aytish joizki, sotsiologiya jamiyat barometridir. Shuningdek, sotsiologiyani o'rganish hamda uni yoshlarga maktab davridanoq o'rgatilishini

targ'ib etgan holda ta'limda ham ko'pgina yangiliklar, o'zgarishlar qilish mumkin. Bo'lajak sotsiolog fikricha maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari dars jarayonida ko'p rivojlangan mamlakatlardagi kabi ruchkadan emas, balki qalamdan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan maqsad maktabga kelgan o'quvchi endi yozishni o'rganayotganda xato qilishdan qo'rqmasligi lozim. O'zining xatti-harakatidan qo'rqmaslik o'quvchidagi harakatchanlikning ko'payishiga hamda dars jarayonida o'zini erkin tutishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga a'lohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Zero, ta'lim yurt uchun, uning porloq kelajagi uchun xizmat qiladi, buning isbotini ko'pgina rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rish mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimida yangi islohotlar o'tkazish, yoshlarni o'zlari qiziqqan sohaga jalb etish bilan birgalikda o'z sohasining yetuk kadri sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

ISLOHOTLAR ZAMIRIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI

Ilxomov U. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Turmush tarzi – inson hayotining tayanch nuqtasiki, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin. Turmush tarzini belgilovchi bosh omil insonning o'zidir. Sog'lom turmush tarzi – shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak. Sog'lom turmush tarzi – bu avvalo qarilikkacha bo'lgan uzoq yillargacha har bir kishini sog'ligini mustahkamlovchi va ta'minlovchi turmush tarzining kechishidir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktyabr kuni «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingan edi.

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo'llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, bugungi pandemiya oramizdan ko'plab fuqarolarimizni bevaqt dunyodan ko'z yumishiga sabab bo'ldi.

Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me'yoridan ortiq iste'mol qilmaslikni, bir so'z bilan aytganda, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda.

Sog'lom turmush tafakkur taraqqiyoti bevosita tarix asosida avlodlarni bir-biriga bog'lab, ularda komillikni qaror toptirishga xizmat qilar ekan, yoshlar mustaqil O'zbekiston kelajagini davomchilari sifatida faoliyat yurgizishlari lozim. Komil inson tarbiyasi tarixda «nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun

xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum¹.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan inson salomatligini yanada mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng omma o'rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, har bir shaxsning salomatligi o'z qo'lida ekanligini aholi o'rtasida keng tashviqot-targ'ibot qilish, bir so'z bilan aytganda, sog'lom jamiyatni tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan. Bu borada bir qancha qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi.

Tibbiyotni rivojlantirishda bir mukammal tizim yaratildiki, ushbu tizim Sog'liqni saqlash vazirligi rahnamoligida bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Respublika va barcha viloyatlarda Skrining va Perinatal markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Birlamchi profilaktik va sog'lomlashtirish tibbiyotiga ustuvor yo'nalish berildi.

Reproduktiv salomatlikni yanada yaxshilash chora-tadbirlari ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Unni temir va folat kislotasi bilan boyitilishi amalga oshirilmoqda. Homilador ayollarga polivitamin kompleksi bepul tarqatilmogda. Yoshlar o'rtasida jismoniy faollik va sportga keng e'tibor berilmogda.

Oxirgi 12-13 yil ichida sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan 10 dan ortiq Prezident Farmon va Qarorlari ana shunday xayrli ishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda omilkorlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatlarda respublikamiz aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, aholi o'rtasida tibbiy muhofazani kuchaytirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi qator muhim masalalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda sobitqadamlik bilan olib borilayotgan turli tadbirlar o'zining ijobiy samarasini bermogda. Bolalar o'limi (shu jumladan, go'daklar o'limi qariyb 3 barobarga), onalar o'limi (3,1) va umumiy o'lim kamayishiga erishildi. Natijada, kishilarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 67 yoshdan 73 yoshgacha, erkaklarda 72 yoshga, ayollarda esa 75 yoshga etdi. Aholining tibbiy madaniyati, savodxonligi o'sdi.

Prezident tomonidan 2021 yil – "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nomlanishi ham bejizga emas. Shu munosabat bilan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazilmogda. Har oyning ikkinchi haftasida aholini keng qatlami orasida sog'lomlashtirish, ya'ni sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha 5 ta mutaxassisdan iborat ishchi guruh, ya'ni ftiziatr, skrining, OITS, DSENM markazlari mutaxassislari hamda Respublika salomatlik va tibbiy statistika instituti mutaxassislari mahalla, maktab, kollej, litsey va oliygohlarda bo'lib, hamkorlikda keng qamrovli tashviqot-targ'ibot ishlarini olib bormogdalar. Bularning hammasi bunyodkor xalqimiz salomatligi muhofaza qilinishiga yaqqol misoldir.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2001. – B. 130.

Respublika salomatlik va tibbiy statistika instituti tomonidan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga quyidagi ma'lumotlar muntazam ravishda yuborilmoqda:

- demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- o'lim ko'rsatkichlari;
- kasallanish, nogironlik va kasalxonalariga bemorlarni yotqizish ko'rsatkichlari;
- hayot tarzi;
- sog'liqni saqlash tizimi faoliyati hamda sarf-harajatlari;
- ona va bola salomatligi.

Ma'lumki, pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab, butun boshqaruv tizimi va barcha tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazildi. Qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda, barcha sharoitlarga ega bo'lgan qariyb 30 ming o'rinli davolash maskanlari tashkil etildi. Pandemiya qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, chet ellik 150 nafar yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalb etildi.

Xorijdan 600 mingdan ortiq vatandoshimiz yurtimizga olib kelindi. Chet elda qiyin ahvolga tushib qolgan 100 mingga yaqin fuqarolarimizga zarur yordamlar ko'rsatildi. Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trln so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga byudjetdan 16 trln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 mln fuqaroga jami 66 trln so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi. 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trln so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, Prezident tomonidan:

- 2021 yilda 500 ming nafar yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish;
- tuman va shaharlarda an'anaviy yoki masofaviy o'quv kurslarini ko'paytirish;
- ishsiz yoshlarni ushbu tizimlar orqali kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish;
- yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha qator topshiriqlar berildi.

Bundan tashqari, «Ishga marhamat» monomarkazlari va kasb-hunar kollejarini asbob-uskuna bilan ta'minlash takidlandi. YOshlarda biznes ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ularni «YOshlar: 1+1» dasturi doirasida tadbirkorlarga biriktiriladi. SHuningdek, ularga o'z faoliyatini boshlashga ko'maklashish yo'lida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Oliy Majlis Senatining ishchi guruh tarkibiga institut mutaxassislari jalb etilib, ular respublikamizning viloyatlarida bo'lishib, sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida oilalarda, mahallalarda olib borilayotgan tashviqot-targ'ibot ishlarining aholi o'rtasidagi samaradorligini o'rganib, fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR JAMIYAT RIVOJINING OMILI SIFATIDA

*Isropilov M.B. – O‘zMU o‘qituvchisi,
Jumaboyeva M. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Bugungi globallashuv davrida O‘zbekistonda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, islohotlarni amalga oshirishda ta’lim tizimining ahamiyati juda katta chunki bunday shiddatli bir davrida ilg‘or, yuqori malakali, kreativ fikirlay oladigan, zamonaviy bilimlarni egalagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlar O‘zbekiston uchun juda ham muhim. Oliy ta’lim sohasida yuqori malakali kadrlarni tayorlashda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar hamda rivojlangan davlatlar bilan keng ko‘lamli aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekiston hukumati tomonidan bu hamkorliklarning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi va 1992-yil 2-iyulda “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda respublika tarixida birinchi marta milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o‘zbek xalqining boy tarixiy tajribasi, ta’lim va fan sohasidagi ko‘p asrlik an‘analari, jamiyatning istiqboldagi rivoji hisobga olindi. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bizning asosiy maqsadimiz-yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va istedodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”.¹

“Talim to‘g‘risida”gi qonunning VII Bo‘limi “Ta’lim tizimidagi xalqaro hamkorlik” deb nomlangan bo‘lib, ta’lim tizimidagi xalqaro aloqalarga bag‘ishlangan. 44-moddasida “Ta’lim muassasalari va ta’lim tizimidagi korxonalar qonunlarda belgilangan tartibda ta’limga doir muammolar yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, ajnabiy mamlakatlarning o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalari bilan bevosita aloqalar o‘rnatish, ular bilan birgalikdagi o‘quv yurtlari ochish huquqiga egalar” deb belgilangan.

1997-yil 29-avgust O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta’lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish vazifalari va dasturlarni ruyobga chiqarish bosqichlari asoslab berildi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo‘lib, u milliy modelni ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, pedagogik-psixologik va

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 486.

boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldidagi javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Albatta ta'lim tizimida islohot masalasi qaysi jamiyatda ko'proq e'tibor qilingan bo'lsa, o'sha jamiyat farovonlik darajasida ham yuqori o'rinlarda turadi. Shunday ekan mamlakatimiz ham bu borada jadal qadamlar tashlayotgani bejizga emas. Ta'lim to'g'risida muammo va kamchiliklarni qidirib topish hammaning ham qo'lidan kelishi mumkin, lekin biz sotsiolog sifatida mana shu muammo va yechim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni topishimiz kerak. Qachonki muammo aniqlansa va uning yechimi haqida ko'proq bosh qotirilsa provardida biz ko'zlangan maqsadimizga yetishishimiz mumkin.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasida hozirgi davrdagi amalga oshirilgan islohotlar o'z aksini topdi. Qonun loyihasini takomillashtirish davomida 238 ta norma va qoida qayta ko'rib chiqildi, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish imkoniyatidan foydalangan holda 123 ta norma loyiha tarkibidan chiqarildi hamda 54 ta to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi modda bilan almashtirildi. Shuningdek, ma'muriy byurokratik mexanizmga doir 7 ta modda butunlay chiqarib tashlandi. Mazkur Qonunda ushbu yangi norma va qoidalar o'z aksini topishi natijasida qonun 11 bob va 75 moddadan iborat tartibda ishlab chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, tegishli vazirlik va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. 2017 – 2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi.

Keyingi bir yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 70 ga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. O'rta maxsus ta'lim tizimiga joriy yilda birinchi marta 10-sinflarga o'quvchilar qabul qilish yo'lga qo'yildi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga qabul jarayoni bilan barobar olib borildi. Bunda asosan ota-onalar va o'quvchilarning xohish va istaklari inobatga olindi.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'riflaganidek, "Islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib

o‘rin egallashi avvalo mil-fan, va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq”¹

Ulug‘ ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi ham aynan ana shu vazifani amalga oshirishdagi ilk qadam bo‘ldi. Mazkur maktabning tashkil etilishi kadrlarni yoshligidanoq tayyorlab borish, sohada yetuk hamda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi. Mamlakatda hududlar imkoniyati va salohiyatini o‘rgangan holda 8-9 sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Bu ta‘limning keyingi bosqichida o‘quvchilarning hunar egallashida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Endilikda umumta‘lim maktablari bitiruvchilarini elikka yaqin kasbga o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun kasb-hunar kollejlari va umumta‘lim maktablari negizida zamonaviy jihozlangan o‘quv ishlab chiqarish markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ba‘zi kasb-hunar kollejlari tegishli vazirlik va idoralarga korxon va tashkilotlarga birlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bu borada muhim omil bo‘lmoqda. Bu kadrlar tayyorlashda mazkur muassasalarning ulushini oshirish va kafolatlangan ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Prezident soha rahbarlariga bu borada joylarga chiqib qaysi hududga qanday soha bo‘yicha mutaxassislar zarurligini o‘rganib chiqish vazifasini topshirdi. Yig‘ilishda ta‘lim muassasalari bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy talablar asosida ta‘lim berish bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bu borada oliy ta‘lim muassasalariga bo‘ladigan test sinovlarining ochiq va oshkoraligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ertangi kun yoshlarniki sifatli ta‘lim olish va raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishish bugungi kunning zamon talabidir.

O‘ZBEKISTONDA COVID-19 PANDEMIYASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHALARGA TA’SIRI

*Jiyanmuratova G.Sh. – O‘zMU dotsenti,
Ochilboyeva Ch. – O‘zMU 1-bosqich talabasi*

Barchamizga ma‘lum, bugungi kunda COVID-19, ya‘ni koronavirus pandemiyasi butun dunyo davlatlaridagi asosiy muammolarning ildizi bo‘lib kelmoqda.

COVID-19 ilk marotaba 2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan kasallik bo‘lib, 2020-yilning 11-martida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi. 2021-yil 17-aprelga qadar virusni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакат ўқитувчи ва мураббийларига байрам табриги / “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 30 сентябрь

192 dan oshiq mamlakat va hududda yashovchi 140 mln.dan oshiq odam yuqtirdi, 3 mln.dan oshiq odam kasallik tufayli halok bo'ldi, 80 mln.dan oshiq odam esa tuzaldi.

Mamlakatimiz pandemiyaga qarshi kurashishda nisbatan yaxshi natijalarga erishmoqda, deb aytishimiz mumkin. Juda ham erta qo'llangan chora-tadbirlar, ya'ni kasallanishning ilk holatlaridayoq yakkalanish tizimining joriy etilishi; soliqlarning kamaytirilishi; maktablar, universitetlar onlayn rejimga o'tkazilishi, kafelar, restoranlar, sport zallari, sohillar va h.k.larning yopilishi; harakatlanishning cheklanishi ko'plab og'ir oqibatlarining oldini oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatdagi sog'liqni saqlash tizimi pandemiyaga qarshi turish uchun yetarli darajada rivojlanmagani va agar kasallanishlar soni haddan tashqari ortsa, vaziyat nazoratdan chiqib ketishini anglagan holda, bu qarorlarning qabul qilinishi qiyinchilik tug'dirmadi.

COVID-19 pandemiyasi O'zbekistonda ilk bor 2020-yil 15-martda tasdiqlangandan so'ng tarqalishni boshladi. Ushbu ilk holat Fransiyadan qaytayotgan O'zbekiston fuqarosida aniqlandi. O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligida jabrlanuvchi bilan aloqada bo'lgan va ularning karantini rejalashtirilgan odamlar ro'yxati mavjud. Ushbu holatlar e'lon qilingach, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev Qozog'istonda favqulodda holat e'lon qildi va zudlik bilan O'zbekiston bilan chegarani yopdi. Koronavirusning birinchi holatidan ikki kun oldin, O'zbekiston Fransiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyaga parvozlarni to'xtatdi. 2020-yil 22-martda O'zbekiston Toshkentdagi kompaniyalarga masofadan turib ishlashni, shuningdek himoya niqoblarini majburiy taqib yurishni buyurdi. 2020-yil 27-martda mamlakatda birinchi o'lim 72 yoshli ayol bo'lganligi haqida xabar berildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YaIM joriy yilning 1-choragida 4,1% ga o'sdi (o'tgan yilning shu davrida 5,3%). Tashqi savdo aylanmasi 10,2% ga kamaydi.¹

Xalqaro mehnat tashkilotining 2020 yil 1 chorak yakuni bo'yicha e'lon qilgan monitoring natijalariga ko'ra, aprel oyining boshiga kelib COVID-19 pandemiyasi ta'sirida global miqyosda 2,7 mlrd ish o'rinlarining to'liq yoki qisman yopilishiga olib keldi, bu esa jahondagi ish bilan band aholining 81 %iga ta'sir qildi.²

Joriy qilingan karantin choralari ta'sirida eng qattiq zarba bergan sohalarda norasmiy ish bilan band bo'lgan qariyb 1,6 mlrd nafar ishchilarga jiddiy ta'sir qilgan.

Inqirozning birinchi oyida norasmiy ish bilan band aholining taxminan 60 %ida daromadlar pasaygan. Ushbu ko'rsatkich Afrika va Lotin Amerikasida 81 %ga tushgan.

Aholi tabaqalari kesimida esa 82 % past va o'rta daromadli qatlam vaqtlari, 28 %i esa yuqori daromad qiladiganlarga to'g'ri kelgan. Yuqori daromadli davlatlarda bu ko'rsatkich 76 %ni tashkil etgan.

¹ <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-komiteta/8359-proizvodstvo-valovogo-vnutrennego-produkta-6joriy>

² https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-dgreports/-dcomm/documents/briefingnote/wcms_743146.pdf

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekiston mehnat bozorida 13,5 mln kishi band bo‘lib, ulardan 5,7 mln kishi rasmiy va 7,8 mln kishi norasmiy sektorda, shu jumladan, 2,6 mln kishi mehnat migranti sifatida mehnat qilmoqda.¹

Jahon banki tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra COVID-19 pandemiyasi va qo‘llanilgan karantin choralari ta’sirida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz tufayli, pul o‘tkazmalarining umumiy hajmi 20 %ga keskin tushadi.²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 22-24 aprel kunlari o‘tkazilgan videoselektor majlislarida³ karantin davrida aholi bandligi va daromadi keskin kamayishini oldini olish bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi:

- o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar uchun faoliyat turlari ro‘yxatini kengaytirish va qonunchilikda taqiqlanmagan barcha tadbirkorlik shakllariga ruxsat berish (hozirda 85 ta faoliyat turiga ruxsat berilgan);

- aholi bandligini ta’minlashdagi muhim bo‘lgan servis sohasini rivojlantirish (ovqatlar va tovarlarni uyga yetkazib berish, ko‘chma savdo va xizmatlarni tashkil etib, bu korxonalarining kamida 70 %ini bimalol ishlatsa bo‘ladi);

- onlayn ishlasa bo‘ladigan sohalarga maksimal imkoniyatlar yaratib berish;

- tovarlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotishni rag‘batlantirish;

- yetkazib berishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlik sub’yektlariga faoliyat yuritish uchun sharoit yaratib berish;

- uy-joylarni remont qilish hamda avtotransport, maishiy texnika va boshqa tovarlarga kreditlar berishni kengaytirish;

- qishloq xo‘jaligi kooperativlarini qo‘llab-quvvatlash orqali mavsumiy ishlarga aholini keng jalb qilish;

- fermer xo‘jaliklari tomonidan dala tomorqalarida ekin ekishga aholiga yordam berish;

- “oborot”dan chiqqan yerlarni o‘zlashtirib, kooperativlarni tashkil qilish;

- aholi xonadonlarida issiqxonalarini ishga tushirish;

- o‘zlashtirilmagan yerlarni uchun sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali yangi maydonlar tashkil etish va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish;

- ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish asosida yangi ish o‘rinlarini yaratish (jamoat joylarini dezinfeksiyalash, qariyalar, nogiron va o‘zgalarning yordamiga muhtoj shaxslarni parvarishlash va boshqalar).

Mazkur topshiriq bilan uzoq vaqt mobaynida norasmiy sektorda band bo‘lgan aholini davlat ro‘yxatiga olish tizimini keskin soddalashtirish, bunda kundalik hunari bilan aholiga maishiy xizmat ko‘rsatayotgan fuqarolardan umuman soliq undirilmasligi belgilandi.

¹ <https://mehnat.uz/uz/news/2019-yilda-uzbekistonning-ishsizlik-darazhasi-qancha>

² <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2020/04/22/world-bank-predicts-sharpest-decline-of-remittances-in-recent-histor>

³ <https://president.uz/uz/lists/view/3515>

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, koronavirus bu insoniyatga qarshi o‘ylab topilgan virus emas. Aksincha, u odamlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatdi. Bir so‘z bilan aytganda insoniyatga o‘zligini tanitdi. Koronavirusni yengish, pandemiyadan qutulib ketish o‘zimizga bog‘liq. Xalqimiz o‘z tarixida bir necha bor namoyon qilganidek, davlat va jamiyat bir tan bir jon bo‘lib harakat qilsa, har qanday og‘ir vazifani uddalashi va eng noqulay sharoitlardan ham chiqib keta oladi.

YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Mansurov M.B. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va bandligini ta‘minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda va bu ishlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Ma‘lumki, yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta‘minlash ishlarini samarali tashkil etishning doimiy moliyaviy manbalarini va ulardan foydalanish tartibini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori e‘lon qilingan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-aprel kuni yoshlar bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi. 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nomlanib, tegishli davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Yig‘ilishda galdagi vazifalar ijrosini tashkil etish, yoshlar bilan ishlaydigan muassasalarga imkoniyatlarni kengaytirish chora-tadbirlari belgilandi. Mutasaddilarga yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasi qo‘yildi. Bu tizimda xalqqa ham, tashkilotlarga ham ma‘qul bo‘ladigan bir qancha imtiyozlar belgilanadi. Jumladan, 1 maydan boshlab yoshlarni ishga qabul qilgan korxonalar va kompaniyalarga ushbu xodimlar uchun to‘langan ijtimoiy soliq qaytarib beriladi. 1-iyundan boshlab, “yoshlar daftari”ga kirgan talabalar korxonalar va kompaniyalarda amaliyot o‘taganda, ularga 500 ming so‘mgacha subsidiya ajratiladi.

Tog‘-kon, metallurgiya, neft-gaz, kimyo, avtomobilsozlik, qurilish, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat, transport-logistika sohasidagi yirik korxonalar va klasterlar davlat bergan imtiyoz va preferensiyalarga javoban o‘zlari uchun ishchi-mutaxassislarni tayyorlaydigan infratuzilmani barpo etishlari kerakligi ta‘kidlandi. Mutasaddilarga shu bo‘yicha topshiriqlar berildi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga tijorat banklari bilan birga yoshlarni zamonaviy

agrotexnologiyalar bo'yicha o'qitishni tashkil etish vazifasi qo'yildi. Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz hududlariga safarlari chog'ida IT-parklarni borib ko'radi, axborot texnologiyalari bo'yicha loyihalarga alohida ahamiyat qaratadi. Chunki bu sohada yoshlarni ish bilan, yuqori daromad bilan ta'minlash uchun katta imkoniyatlar bor. Birinchi marta ishga kirgan kasb-hunar markazi bitiruvchilari 6 oygacha daromad solig'i to'lashdan ozod etiladi. "Yoshlar daftari"ga kirgan 5 nafardan ortiq ishsizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlarga 1-maydan boshlab davlat mulki ijarasi uchun 50%gacha imtiyoz beriladi. Shuningdek, ijaraga bino olib, o'z biznesini boshlayotgan yoshlarga, bir yillik ijara summasining 30%igacha qismi qoplab beriladi.

1-iyuldan boshlab xususiy korxonalarda yangi ish boshlagan xodimlarni qayta tayyorlash harajatining 1 mln so'mgacha bo'lgan qismiga subsidiya beriladi.

Joriy yilda 500 ming nafar yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish zarurligi ta'kidlandi. Tuman va shaharlarda an'anaviy yoki masofaviy o'quv kurslarini ko'paytirish, ishsiz yoshlarni ushbu tizim orqali kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitib, bandligini ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

"Ishga marhamat" monomarkazlari hamda kasb-hunar kollejlarni asbob-uskuna bilan ta'minlash, kasb standartlarini ishlab chiqish va o'qituvchilar malakasini oshirish vazifalari belgilandi.

"Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida o'g'il-qizlarni tadbirkorlarga biriktirib, ularda biznes ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratib, o'z faoliyatini boshlashga ko'maklashish zarurligi aytili. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga joylarda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berilgan.

Bugungi kunda yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularda ishbilarmonlik kayfiyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. SHu sababli mamlakatimizning barcha mintaqalarida yoshlar ishtirokida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishchanlik muhitini yaratish, ularning erkin faoliyat yuritishiga g'ov bo'layotgan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalda keng joriy qilinmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy ravishda o'ylab chiqarilgan va ko'pincha hech kimga keragi bo'lmagan cheklov va taqiqlarni bartaraf etish, davlat va nazorat organlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvini keskin kamaytirish amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijalari hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlar o'rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish o'rta sinfni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Aynan mazkur sektorni mustahkamlash hisobiga mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdan, demokratik tub o'zgarishlardan manfaatdor bo'lgan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda. SHunga muvofiq, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalarini bilan raqobatbardoshlik darajasi ortishiga imkon beradigan eng muhim omillardan biri kichik korxonalar butun bir tarmog'ini vujudga keltirishga imkon beradigan qulay shart-sharoitlarni

yaratishdan iborat bo‘lib, bunday korxonalar yig‘indisi sog‘lom raqobatli bozor muhitini yaratish imkonini bermoqda.

Demak, mamlakatimiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga alohida e‘tibor qaratish, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etishini anglab etish, ayni shu asosda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan korxonalar rahbarlari fan va texnika sohasidagi eng so‘nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishlari dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagi bo‘lgan yoshlarimiz uchun, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan etarli hamda jahon andozalariga mos keluvchi barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, so‘ngi yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yoshlarga soliq, kredit va boshqa sohalarda berilayotgan imtiyoz, kafolat va preferensiyalar jahonning biznes yuritish borasidagi eng liberallashtirilgan mamlakatlardan qolishmaydi.

Yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etishda quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

- yoshlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kreditlar, xom-ashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

- yoshlar orqali kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur va qulay bo‘lgan tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni yaratib berish;

- davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yoshlarning o‘z biznesini boshlashi uchun maqsadli kreditlar ajratish va ularning sarfini ta‘minlashda tizimli nazoratni yo‘lga qo‘yish;

- tadbirkorlik rivojlanishi uchun to‘siq bo‘layotgan inson omiliga bog‘liq, ya‘ni sotsial muammolarni bartaraf etish;

- yoshlar tadbirkorligi faoliyatida mavjud muammolar bo‘yicha keng qamrovli sotsiologik tadqiqot o‘tkazish;

- yoshlar o‘rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali o‘rta sinfni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan zarur huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni zamon talablari asosida yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, fikrlashi, dunyoqarashi, ma‘naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Zero, yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ustuvor hisoblangan davlat ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo‘la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlari tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarga ko‘maklashishdan iborat.

MEHNAT UNUMDORLIGI KO'RSATKICHINING IQTISODIY MOHIYATI

Normurodova M. – O'zMU 2-bosqich talabasi

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda, mamlakatni tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash, uni rivojlangan demokratik, ravnaq topgan mamlakatlar qatoriga kirishini ta'minlash, jahon bozorlarida O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish va o'rnini mustahkamlash, aholi daromadlari, turmush darajasi va sifatini izchil oshirish, korxonalar va tashkilotlarda ish vaqtidan unumli foydalanishni talab etadi. Bizga ma'lumki Respublikamiz aholisining 40 foizga yaqini 16 yoshga to'lmagan o'g'il-qizlar, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar esa 64 foizga yaqinini, aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi umumiy aholining 59,4 foizini tashkil etadi, mamlakatimizda ishsizlik muammosini bartaraf etishni bir qator qulayliklarga ega bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali erishish mumkin. Shuning uchun ham mavjud resurslardan oqilona foydalanishimiz va mehnat unumdorligining doimiy ravishda oshirishini ta'minlashimiz zarur.

Ma'lumki, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalambor korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar keltirilgan: "Mehnat unumdorligi – xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat harajatlariga nisbatan, ya'ni mehnat harajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi"¹. "Ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt mehnat unumini tavsiflaydi"². "Mehnat unumdorligi ma'lum vaqtda (kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish xizmat) hajmi bilan o'lchanadi"³. "Mehnat unumdorligi – bu inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi-ko'pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir"⁴. "Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda mehnat sarfi samaradorligini ifodalaydi va vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori sifatida yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan mehnat sarfi sifatida aniqlanadi"⁵.

Demak, mehnat unumdorligi, deganda ishchilarni muayyan davr davomida bir ishchining erishgan natijasi tushuniladi.

Mehnat faoliyatining maqsadi biror natijaga erishish, masalan, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Har qanday xodim yoki ularning guruhi uchun natija samaradorligi, ya'ni vaqt birligi – soat, kun, yil

¹ Abduraxmonov K.X., Sotvoldiev A.A. va boshqalar. Mehnat iqtisodi va sotsiologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – B. 280.

² Abdullaev Yo. Iqtisodiy tahlil. – Toshkent: Mehnat, 2001. – B. 68.

³ Pardaev.M.K, Abdulkarimov.I.T, Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. – Toshkent. Mehnat, 2004. – B. 237.

⁴ Ortikov A. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: TDIU, 2004. – B. 66.

⁵ Abdulkarimov B.A. Korxonalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 95.

mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat miqdori muhim ahamiyatga ega. Bu natija qanchalik yuqori bo'lsa, uning birligiga sarflangan harajat, shu jumladan, xona, bino uchun ijara haqi elektr quvvatidan foydalanish haqi va shu kabilar shunchalik kamroq bo'ladi. Binobarin, mehnat unumdorligi yuqori, mahsulot hajmi ko'proq bo'lsa, uning harajatlari kamroq bo'ladi. Bizga ma'lumki, mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani holda mehnat harajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Tadbirkor korxonaga egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday mehnat harajatlari bilan ta'min etilgani ham muhimdir. Mehnat harajatlari xodimlar soni va mehnatga to'langan haq harajatlari bilan o'lchanadi. Unisi ham, bunisi ham ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun ham, mehnat samaradorligini tahlil qilganda, vaqt birligi ichida sarflangan mehnat harajatlari ham, shu bilan birga uning tuzilishi hisobga olingan holda ham qarab chiqiladi.

Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari jonli mehnat moddiylashgan mehnatning tobora ko'proq massasini qamrab oladi. Natijada, jami mehnatda moddiylashgan mehnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mehnatning ulushi kamayib boradi. Bu mehnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Ishlab chiqarishning takomillashib borishi va fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi oshishining asosiy shartlaridir. Yangi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi mehnatni mexanizatsiyalash darajasining ortishiga olib keladi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat samaradorligi va natijadorligining barcha jihatlarini aks ettirmaydi, masalan, u mehnat sifatini hisobga olmaydi, bundan tashqari, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini ifodalaydi. «Mehnat unumdorligi» tushunchasiga o'z ahamiyati jihatidan yaqin, lekin mazmunan yanada kengroq bo'lgan tushuncha «mehnat samaradorligi» tushunchasidir. Mehnat samaradorligi eng kam mehnat harajatlari bilan yuqori mehnat natijadorligiga erishish darajasini ifodalaydi. Mehnat samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq faqat mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, shu bilan birga sifat natijalarini ham ifodalaydi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim ustunligi unda mehnat resurslarini tejashning aks etishidir.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagilarni ta'minlash imkonini beradigan uslubiyot ideal hisoblanishi mumkin:

- korxonaga ishning ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligi;
- xodimga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- mehnat unumdorligining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari bir o'lchov bilan o'lchanishi mumkinligi;
- mehnat miqdori bilan sifati o'rtasidagi bog'liqlik.

Mehnat unumdorligining oshishi har doim ishlab chiqarish ko'lamining oshishiga sababchi bo'ladi. Mehnat unumdorligi oshgan sayin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ko'payib, uning samaradorligi oshib boradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ham sababchi bo'ladi.

Mehnat unumdorligining pasayishi ishlab chiqarish natijasiga salbiy ta'sir qiladi, boshqacha aytganda, mehnat unumdorligining pasayishi bilan ishlab

chiqarilgan mahsulot miqdori kamayib boradi. Mehnat unumdorligining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qilish bilan bir qatorda uning iqtisodiy samaradorligining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, mehnat unumdorligining ortishi samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan mahsulot tannarxining pasayishiga sababchi bo'ladi, aksincha mehnat unumdorligining pasayishi mahsulot tannarxini ortishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish omillaridan to'laroq foydalanish, mahsulot sifatini oshirib, raqobatbardoshligini ta'minlash, mahsulot tannarxini pasaytirish, korxonada ishchi-xizmatchilarini rag'batlantirish, ular uchun barcha zaruriy mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaratish asosidagina mehnat unumdorligini oshirish mumkin bo'ladi. Demak, mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy islohotlarning muhim vazifasi hisoblangan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshishi raqobat sharoitida mahsulotlarning tez realizatsiya qilinishi bilan ham chambarchas bog'liq.

Demak, korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri mehnat resurslaridan to'la foydalanish hisoblanadi. Shunday ekan, mahsulot hajmi ortishi, samaradorlikning ta'minlanishi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, ixtisoslashishga hamda mehnat resurslaridan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tahlillarni amalga oshirishda ko'rib o'tdikki, mehnat unumdorligini o'zgarishi, sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibiga, ularning ma'lumotiga va yosh tarkibiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Bizga ma'lumki, mehnat unumdorligi o'zgarishiga sanoat ishlab chiqarish xodimlarining kasbiy malaka tarkibi va ularning yosh tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA

Nurqulov B. – O'zMU 4-bosqich talabasi

Yurtimizda yoshlar ta'limi va tarbiyasi borasida islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.¹

Maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritganda, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir," degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

¹ Sh.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodirl. – T.: O'zbekiston 2018. – B. 490.

Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirishdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari,¹ – Temurbeklar maktabi, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek, moddiy va ma’naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur.

Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg‘or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an‘ana va qadriyatlarga suyanish muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi-yoshlarni barkamol etib voyaga ketkazish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Farzandlar qanchalik bilimli, tafakkurli bo‘lib voyaga yetsa, millat ham o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga shunchalik tez va oson yetib boradi. Bu borada bizning yurtimizda yetarli darajada moddiy texnik baza, yuksak salohiyatli ustozmurabbiylar mavjud. Bizdan ta’lab qilinadigan asosiy narsa esa, qunt va sabot bilan ilm olish, kasb hunar egallash hisoblanadi. Zero, buyuklar ta’kidlaganidek, ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay.

TA’LIM VA FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLARNING HAYOTIYLIGI

Obidova Z. – O‘zMU 3-bosqich talabasi

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni qabul qilindi. Unda 2017 – 2021-yillarda O‘zbekistonda Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni yaxshilashni nazarda tutadigan mustahkam rivojlanish yo‘li hisoblanadi. Bu reja juda puxta ishlab chiqilgan va tez rivojlanish xalq hayotini yaxshilashning o‘ziga xos yo‘li bo‘lib, O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroni befarq qoldirmaydi.

¹ Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. Tavsiyalar. – Toshkent, 2017. – B. 26.

Unda ta'lim tizimi va uni qayta qurishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish uchun, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, komp'yuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish; kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish borasida alohida ko'rsatmalar berilgan.

Harakatlar Strategiyasining 4.4-bandi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" deb nomlanadi. Unda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, kadrlar sifatini yaxshilash masalasi dolzarb masala sifatida qaraladi. O'tgan davrlarda yig'ilib qolgan muammolar O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni, "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatib qo'ydi. Natijada, 2017-yil 15-martda "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Unga ko'ra maktabga faqat 7 yoshdan emas, talablarga mos kelgan bolalar, 6-5 yoshdan ham qabul qilish mumkinligi ko'rsatildi.

Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida sinfda o'quvchilar sonini 35 tadan oshirmaslik ushbu Nizomda belgilab qo'yildi. Menimcha, bu qaror shahar maktablarida 40-45 talab o'quvchilarga dars berayotgan pedagoglarni juda xursand qildi. Bu o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq yetkazish uchun sharoit yaratadi. Maktablarda 10-11 sinf yana qayta tashkil qilingani juda ko'p ota-onalarni va o'quvchilarni xursand qildi. Chunki maktabda o'quvchilar ko'proq band bo'ladilar.

Qolaversa, ularni nazorat qilish ham oson bo‘ladi. Hozirda kompetensiyaviy yondashuv asosida 18 ta fandan umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumta’lim fanlarining takomillashtirilgan ta’lim standartlari tayyorlandi. Unga ko‘ra, 2017-yil 6-aprelda 187-son “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori qabul qilindi. Unga binoan darsliklar va o‘quv metodik qo‘llanmalar yangi avlodlarini yaratish hamda amaliyotda keng qo‘llashni joriy etishga asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Qolaversa, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishda asosiy tayanch vazifasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Talabalarining fanlardan olgan bilimlarini nazorat qilishda xotirali nazorat kartalaridan foydalanish haqida biroz so‘z yuritib o‘tsak. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bir bo‘lagi bo‘lgan mnemonik texnikalar o‘quv jarayonida talabalarining uzoq muddatli xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladigan uslublar hisoblanadi. Statistik xulosalarga ko‘ra, agar talabalar o‘rgangan bilimlarini qayta takrorlamasalar, 30 kun mobaynida ko‘pchiligining xotirasida bu bilimlarning 10%i atrofida qoladi. Demak, o‘qituvchi darsdan tashqari talabalarga bilimlarni saqlab qolishning uslublarini ham o‘rgatishi zaruriyati tug‘iladi. Bunday uslublarni talabalarga o‘rgatish maqsadida “Mnemonika va matematika” nomli to‘garagida amalga oshirilgan dastlabki bajarilgan ilmiy-uslubiy ishlar quyidagicha:

– talabalarga inson miyasining tabiiy (evolyusion) tamoyillari asosida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning konspektlarni yozish va adabiyotlar bilan ishlashning hozirgi zamon uslublari o‘rgatilmoqda;

– har bir talabaning o‘zigi xos eslab qolish qobiliyati kuchli tomonlarini aniqlash maqsadida turli mashqlar bajarilmoqda. Xotiraning 7 xatosini va “unutish yoyi”ni yengish usullari o‘rgatilmoqda;

– darslar innovatsion pedagogik texnologiyalarning boshqa uslublari bilan birgalikda mnemonik texnikalarga asoslangan holda tashkil qilinmoqda.

Fikrimizcha, yuqoridagi bajargan ishlarimiz o‘qitish samaradorligini oshiradi va talabalarining xotiralarini faollashtirishga yordam beradi. Hozirda bu ishlarni tekshirishning turli statistik uslublari mavjud.

Biz bu maqolada inson xotirasini joriy nazorat qilish bilan bog‘liq statistik metodlarni bayon qilamiz va amaliy tajriba natijasini keltiramiz. Birluk vaqtlarda (soniya, daqiqa, soat, kun, oy kabi) $j=1,2,\dots,t$ talabalar xotirasini o‘lchash natijalarini ko‘rsatuvchi X tasodifiy miqdor normal taqsimlangan bo‘lsin: $X \sim N(\mu, \sigma^2)$, bu yerda μ – ma’lum bo‘lgan yoki baholangan standart og‘ish paytdagi o‘rta qiymat (o‘rtacha xotira miqdori). Belgilangan birlik vaqtlarda n nafar talabaning bilimlarini sinash maqsadida $j=1,2,\dots,t$ tanlamani hosil qilamiz, bunda talabani j -birlik vaqtdagi belgilangan bilim darajasi. Avvalgi tajribalar natajasida o‘lchangan yoki talab darajasidan kelib chiqib belgilangan (nominal qiymat) o‘rtacha qiymat bo‘lsin. Biz uni jarayonning turg‘unlik darajasi deymiz. tasodifiy hodisaning ro‘y bermaslik ehtimoli, ya’ni qiymatdorlik darajasi bo‘lsin.

TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Safayeva N.A. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odo-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining etarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda¹.

Huquqiy davlat va uni barpo etishning zarur shartlaridan biri-bu aholi huquqiy madaniyatini, yuksaltirishdir. Huquqiy madaniyat faqat insonga hos bo‘lgan hodisadir. SHu sababli odamlarning huquqiy ongi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy etnik-ruxiy, madaniy-tarixiy va shu kabi ko‘plab omillar ta’siri ostida tarakib topadi. Talabalar huquqiy ongida mazkur bilimlarni hosil qilish faqat maxsus uyushtirilgan faoliyat jarayonidagina emas, balki ijtimoiy voqelikning xilma-xil obyektiv omillari ta’siri ostida ham ro‘yobga chiqariladi.

Hozirgi zamon huquqiy ongi inqirozi ko‘p jihatdan huquqiy madaniyat saviyasi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi sifatida huquqiy madaniyat huquqiy holat rivojining erishilgan darajasida, normativ huquqiy hujjatlarda, huquqiy ongda o‘z ifodasini topadi. Huquqiy madaniyat deganda, huquqiy bilim andazalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek, huquqiy xatti-harakatlar sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar, normalar, an’ana va andazalar mazmun-mohiyatini tushunish kerak.

Huquqiy madaniyat o‘zagini, bizning fikrimizcha, ikki asosiy funksiya: 1) adaptiv, ya’ni ijtimoiylashtirish hamda 2) barcha ijtimoiy mexanizmlar ta’sirchanligining sharti hisoblangan fuqarolik tuyg‘usi madaniyatini shakllantirish funksiyalari tashkil etadi.

Huquqiy madaniyat talabalarning ijtimoiy birlashuvini taminlashi mumkin. U talabalarga o‘zaro huquqiy muloqotga kirishishga imkoniyat yaratib beradi, ularning o‘zaro munosabatlarini boshqaradi. Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi huquqiy va boshqa sotsial normalar orqali amalga oshadi. Ushbu funksiya sharofati bilan, huquqiy madaniyat odamlarni faoliyatda belgilangan qoidalarga sotsial intilish va ideallari ehtiyojlari va manfaatlarining huquqiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoni. – Toshkent, 2019. PF-5618-son 09.01.2019.

munosabatlarda o'zaro huquq va majburiyatlarning amalga oshishini taminlaydi, bu munosabatlarni yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi. U talabalarning huquqiy doiradagi muloqotini ta'minlar ekan, shu muloqot orqali mavjud bo'ladi va ta'sir etadi. Bu yerda talabalarning nafaqat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti, shuningdek, bizga shaxsan notanish bo'lgan, bizdan makon va zamonda ajralib kelgan tengdoshlarimiz, o'tmish avlodlarimiz bilan bevosida muloqot nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma, yuridik asarlar vositasi bilan taminlanadi. Bugungi kunda u ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi shaxsning huquqiy sifatleri shakllanishi tizimi orqali o'rganib chiqilishi mumkin. So'zsiz, shunday jarayonga huquqiy voqelik ma'lum bir ta'sir o'tkazadi. SHu bilan birga, maqsadli huquqiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta'limini tashkil qilish chorasini ko'rish, ularga yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Huquqiy madaniyat – keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Huquqshunos olimi Ra'no Turdiboeva talaba-yoshlarning huquqiy madaniyati deganda – ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqi normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarlarga nisbatan murosasizlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasini tushunish kerakligini uqtiradi¹. Yana bir olim A.F.Nikitin esa huquqiy madaniyat tushunchasiga ta'rif berib, uning mohiyatini ochib berar ekan, huquqiy madaniyat nima, u qanday qanday bo'limlardan tashkil topganligini bilish uchun uni bino shaklida tasavvur etishni taklif etadi va bu binoni uch qavatdan iborat, deb ko'rsatadi. Jumladan, binoning birinchi qavatiga huquqiy bilimlar va ulardan foydalanish olishni joylashtiradi. Ikkinchi qavatiga huquqqa bo'lgan munosabatni va nihoyat uchinchi qavatga huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlarda shaxsning faoliyati va xulq-atvorni kiritadi. Har qanday bino singari ham bu uyning ham poydevori mavjud bo'lib, uni axloqiy va mafkuraviy, siyosiy qarashlar, e'tiqodlar tashkil etishini ta'kidlaydi².

Talabalarning huquqiy madaniyatini o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, ular huquqiy madaniyatida huquqiy faollik va tashabbuskorlikni ham muhim unsur sifatida qarab, A.F.Nikitin fikrini to'ldirgan holda “Huquqiy madaniyat binosi”ga 4-qavatni joylashtirishni lozim topdik. Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlarning huquqiy madaniyati deganda – ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko'nikmalaridir, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasi tushuniladi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat milliy mafkuraning shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. Agar talabalarda huquqiy qarashlar ustun tursa, fuqarolik jamiyatini barpo etish, demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash tez kechadi. Demak, mustaqillik bizga katta imkoniyat – keng

¹ Turdiboeva R. Huquqiy madaniyat va yoshlar // Huquq-Pravo. – 1998. – №4. – B. 18-21.

² Никитин А.Ф. Что такая правовая культура? –М.: Просвещение, 1998. – С. 23-26.

fikrlash, erkin yashash va davlat boshqaruvida erkin qatnashish huquqini berdi. Bunday huquqlarni ro'yobga chiqarishda esa har bir yosh huquqiy madaniyatining yuksak bo'lishi olib borayotgan ishlarimizni yanada samarali qilishi mumkin.

Talabalar huquqiy madaniyati mazmunining asosiy unsurlaridan biri – bu yuridik huquq va majburiyatlarga subektiv-ruxiy munosabat, huquqiy faoliyat dvomida ularni amalga oshirilishidir. Talabalarning huquq va majburiyatlarga bo'lgan munosabati huquqiy hayotning barcha hodisalarini baxolashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy madaniyatga huquq, erkinlik va majburiyatlar orqali yondoshish, huquqiy madaniyatni talabalarning huquqiy sohadagi faoliyatining muhim usullaridan bir ekanligini ko'rsatadi. Talabalarning huquqiy madaniyati haqida gap borganda, birinchidan uning o'z huquq, erkinlik va majburiyatlarini bilishi, tushunishi va to'g'ri anglashi, baxolashi uchun, ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi haqida so'z yuritish joizdir. Ularning huquqiy madaniyati asosiy va o'ziga xos tomonlari qo'yidagi ko'rinishlarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, talabalarning huquqiy savodxonligi, ya'ni huquqiy bilimlarni o'zlashtirib olish, yuridik ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Biroq, huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, huquq tarmoqlari haqida ma'lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli xil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotining huquqiy asoslarining rivojlanishi to'g'risida habardorlik ham demakdir. Ikkinchidan, talabalarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirishdir. Qonunga hurmat bilan yondoshish, bu hurmatni amalda namoyon etishning o'zi huquqiy madaniyatning oliy darajada namoyon bo'lishidir.

Uchinchidan, qonunga itoatkorlik. Talabalarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib etib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg'ularida namoyon bo'ladi. To'rtinchidan, talabalar o'zlarining olgan, o'zlashtirgan huquqiy bilimlarini hayotga tadbiq eta olishlari, talabalar huquqiy madaniyatining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Beshinchidan, talabalarda yuksak darajadagi huquqiy faollikni oshirish. Huquqiy faollik shaxsni faol hayotiy pozitsiyada turishga undovchi omillardandir.

Biz tanlab olgan yangi jamiyat qurish yo'lida talabalarning huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatli ravishda himoyalash muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Ekologik ta'limni rivojlantirish omillari

Xolov A.E. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so‘nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar echimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi¹.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ham ishlab chiqildi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilmfanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

2. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

– «Ta'lim to'g'risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori. – Toshkent, 2019. 434-son 27.05.2019.

– ekologik ta’lim-tarbiya berishni, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishni, noshirlik faoliyatini, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazishni, ijtimoiy reklama va shu kabilarni tashkil etish;

– ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

– ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish;

– ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

– ekologik ta’limning sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, barqaror rivojlanishi kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat organlari ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

Mazkur Konsepsiya ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar orasida ekologik bilim va madaniyatni targ‘ib qilish, ekologiya sohasini ilg‘or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarning ona tabiatni sevish va uni ko‘z qorachig‘idek asrashga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi Vatanimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni izdan chiqishdan asrashga xizmat qiladi hamda aholi barcha qatlamlarining ekologik madaniyatini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Ekologik ta’limning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg‘otmasligi bilan birgalikda ko‘plab mamlakatlarda ta’lim va tarbiya berishning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir.

Zamonaviy olam shunday davrni boshidan o‘tkazyaptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta’lim faoliyatining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta’lim shunchalik katta samara beradi. SHuning uchun ushbu jarayonni ilmiy tashkil qilish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur¹.

2018-2019 o‘quv yilidan boshlab 1–11-sinflar uchun fanlar tarkibida o‘qitiladigan ekologik mavzular qaytadan o‘zgartirildi, soatlari ko‘paytirildi. Umumiy hisobda olganda, 5-9 sinflarda ijtimoiy fanlar ichida 22 ta ekologiyaga oid mavzular bor. Bolalarni tabiat dunyosiga olib kirish, atrof-muhit muammolari bilan tanishtirish orqali ularda haqiqat, sezgi, soflik, bardosh, rahmdillik, tashabbuskorlik, mardlik sifatlarini ochish va kuchaytirish mumkin. Atrof-muhit to‘g‘risidagi kerakli bilimni shakllantirish, ayniqsa, maktab yoshida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bola boshlang‘ich sinfdan o‘qiyotganligida o‘zi yashayotgan dunyoga bo‘lgan munosabat poydevori qo‘yiladi, axloqiy mo‘ljali shakllanadi. O‘shanda orttirilgan bilimlar kelajakda mustahkam e’tiqodga aylanadi.

¹ <https://ekolog.uz/?p=668>

Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o‘zaro bog‘liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir-biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Ta’lim berishning nazariy asoslari qoniqarli darajada, ammo amaliy jihatlariga ko‘proq ahamiyat berilishi kerak. Maktablarda jonli tabiat burchaklari, TVda ekologiyani asrash borasida qayta-qayta beriladigan ijtimoiy roliklar samarasi juda kam. Bularning barchasi tashqi tarafdin berilayotgan ta’sirlardir. O‘quvchilar tabiatning bir bo‘lagi ekanliklarini o‘zlari his qilishlari zarur. Buning uchun, amaliyotga ko‘proq e’tibor qaratganimiz ma’quldir. Masalan, maktab maydonida poliz mahsulotlarini etishtirish, turli foydali o‘simliklarni o‘stirish, maktab bog‘ini tashkil qilish kabilar. Ekologik ta’lim bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylandi.

Ekologik ta’lim-tarbiyani yuzaga keltiruvchi maskanlardan yana biri, bu – albatta mahalladir. Darhaqiqat, xalqimizda tabiatga bo‘lgan ehtirom qadim zamonlardan beri mavjuddir. Shu ma’noda, azaliy qadriyatlarimizdan bo‘lmish umumxalq hasharlarini o‘tkazish va ularga yoshlarni ko‘proq jalb etish ayni muddaodir.

Umuman olganda, o‘quv yurtlari, oila, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida yoshlarning uzluksiz ekologik ta’lim-tarbiyasi borasida samarali tizimni yaratish bugun zimmamizdagi eng muhim vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan turkum ko‘rsatuv, eshittirishlar, ijtimoiy-ekologik roliklarni muntazam efirga uzatib borish, vaqtli matbuot nashrlarida maqolalar chop etish orqali targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish ham aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega¹.

Xulosa qilib aytganda, tabiatni seva bilishni, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning asosi bo‘lib, kishilarda tabiat oldida ma’suliyatning anglash hissiyotini hosil qiladi. Aytish mumkinki, inson tafakkurini oliy darajadagi bosqichi bu ekologik tafakkurdir. Zero, inson o‘zini anglashi va uning atrof muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiylashtirishi, yani kundalik hayotimizda tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakati oqibatini avvaldan anglab etishi va shunga yarasha faoliyat ko‘rsatishi, tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har birimiz o‘zimizni tabiatning ajralmas bir bo‘lagi va uning haloskori ekanligimizni unutmasligimiz lozim. Shuning uchun, ta’lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida yoshlarni ekologik tafakkurini rivojlantirib borish har birimizning tabiat oldidagi muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi darkor.

¹ Алихонов Б. Халқ сўзи, 10 август 2012 йил.

SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O‘YINLARI TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

Yadgarov Sh. – O‘zMU 4-bosqich talabasi

O‘zbek xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi va taraqqiyotini o‘rganishda sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Mahmud Vosifiy va boshqa tabarruk zotlar qoldirgan ma‘naviy merosni tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish o‘z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixida birinchi marta milliy o‘yin namunalari bayon etilishi, ularning ta‘rifi-tasviri qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg‘ariy qalamiga mansubdir. U bundan 1000 yil burun 6 yil mobaynida Turkistondan Termizgacha, Xazar va Orol sohillaridan Tang‘irot etaklaricha bo‘lgan hududda yashagan turkman, o‘g‘iz, chigil, yag‘mo, qirg‘iz va boshqa boshqa turkiyzabon xalqlarning tarixi, milliy psixologiyasi, o‘lkalar jo‘g‘rofiyasi, urug‘, qabila, elatlarining til xususiyatlari, yozma va og‘zaki adabiyoti, ko‘chmanchi tuyakashlar, yilqichilar, cho‘ponlar, o‘troq dehqonlar, bog‘bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so‘z talaffuzlari va turli so‘z atamalarini teran o‘rganib, “Devon-u lug‘atit turk”, ya‘ni “Turkiy so‘zlar devoni”ni tuzib chiqdi¹.

Mahmud Qoshg‘ariyning ushbu devonida 150 ga yaqin xalq o‘yinlari tilga olinib, shulardan 20 taga yaqin o‘yin turiga batafsil ta‘rif berilgan. Olim kattalar va bolalarning yosh jihatlariga nisbatan mos bo‘lgan o‘yin turlariga alohida to‘xtalib va musobaqa turlarini bayon qiladi. U o‘yinlarni diqqat bilan o‘rganib, ham jismoniy, ham aqliy mashg‘ulotlarga ajratgan. SHundan bilsa bo‘ladiki, hozirgi zamonaviy sport o‘yinlarining deyarli juda ko‘pchiligi o‘sha davrlardayoq, ya‘ni XI asrda ham mavjud bo‘lgan ekan.

Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub-ul-qulub” asarida “Oqsuyak” o‘yini ta‘rifini beradi². Mahmud Qoshg‘ariy devoni XI asrda bitilgan bo‘lsa, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asari XV asrda yozilgan. Hozirgi paytda ham bolalar “Oqsuyak” o‘yini xuddi o‘sha qoida asosida o‘ynaydilar.

“Oqsuyak” o‘yini nafaqat O‘rta Osiyoda, balki er kurrasining ko‘p joylarida keng tarqalgan. Bu o‘yinni Yevropaning Skandinaviya mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda o‘qish mumkin. Hattoki, ushbu o‘yin Avstraliyada ham uchraydi. Aslida, xalq o‘yinlari hech qachon chegara bilmaydi. Aksincha, o‘yinlar xalqlar, elatlar orasidagi o‘zaro do‘stlik, qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo‘lib qolmasdan, balki xalq o‘yinlariga doir g‘oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o‘yinlari haqida fikr yuritar ekan, ayniqsa

¹ Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk (nashr, tarjima va izohlar muallifi S.Mutallibov). – Toshkent, 1960-63.

² Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 5-230.

badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari¹ mo“jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlardan iboratdir. Uning “hunar afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo‘lish haqida”, “Mazax qilmoq, shatranj va nard o‘ynamoq odobin bayoni zikrida”, “Chahorpoy (ot) sotib olmoqning zikrida”, “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan boblarida xalq o‘yinlariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar berilgan.

G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Hayyomiy-Nishopuriy 1048-1132 yillarda yashab ijod qilgan. Umar Xayyomning “Navro‘znoma” asari uzoq tariximiz, navro‘z bayramining kelib chiqishi, shunga bog‘liq ajdodlarimiz urf-odatlarini, rasm-rusumlari, an‘analari va xalq o‘yinlari haqida batafsil ma’lumot beradi². U “Navro‘z”da o‘tkaziladigan xalq o‘yinlaridan qilichbozlik, tiyrandozlik, chavandozlik kabi odatlar haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

Amir Temur shon-shuhrat qozonishining siri, mohir sarkardaligi, odil va zukkolik bilan ish yuritishi, donishmandligi va shu bilan bir qatorda yoshlik paytidanoq kurash, chavandozlik, nayzabozlik, qalqonbozlik, tiyrandozlik, qilichbozlik va ov qilish ilmini mukammal egallaganligidir. Bu esa uning bolaligidanoq ko‘plab harbiy amaliy tavsifga ega bo‘lgan xalq o‘yinlarini o‘ynaganligidan dalolat beradi. Chunki bolalikda o‘ynalgan o‘yinlar uni hayotga janglarda, uzoq safarlarga tayyorlashda o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan.

Sohibqiron navkarlarining qanchalik jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Sipoxlarning yaroq-jabduklari va anjom-jihozlari haqida, u: «SHunday buyruq berdikim, yurish vaqtida oddiy askardan har o‘n sakkiz kishi o‘zi bilan birga bir chodir olsin, har bir askar ikki ot, bir kamon bir sadoq o‘qdon, bir qilich, arra, digiz, bir qop, juvoldiz, bolta o‘nta igna va orqaga osiladigan charm xalta olinsin. Bahodirlar har biri bitta oddiy temir sovut, dubulga, bir qilich olsin»,³ - deydi.

Sharofiddin Ali Yazdiy qayd etishicha⁴, Amir Temurning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlat, mamlakat va fuqaroga g‘amxo‘rlik edi. Uning qoidasi – “Rosti-rusti” edi. Haqiqat – sihat salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat demakdir, deb tushuntirar edi. U insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug‘laydi, degan gapni ko‘p takrorlagan.

IX-X asrlar Somoniylar davlati davrida askarlarning urushga jismoniy tayyorlash nazariyasi ishlab chiqilgan. Saroy ahli uchun yozilgan «Oynoma»da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, somoniylar davrida zodagonlarning bolalari 6 yoshgacha ota-onalarining uyida yashar, 7 yoshga etgandan keyin davlat tarbiyasiga o‘tkazib xukmdor ixtiyorida bo‘lgan maxsus maktabga joylashtiradi va 19 yoshga etgunga qadar ana shu maktabda ilmiy va jismoniy jihatdan tahsil ko‘rganlar.

¹ Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Meros, 1992. – 176 b.

² Umar Xayyom. Navro‘znoma. – Toshkent, 1989. – B. 28.

³ Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1991. – 83 b.

⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma. – Toshkent, 1973; Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Movarounnahr voqyealari, 1360-1370 [tarjimon: O. Bo‘riyev], Toshkent, 1994; Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, [tarjimon: Muhammad Ali ibn Darvesh Ali alBuxoriy, 16a.], Toshkent, 1997.

O‘z bilimi vabahodirligi bo‘lgan kishilar maktabda murabbiylik vazifasini o‘taganlar. Somoniylar maktabida bolalarni jismoniy tarbiyalashga alohida ahamiyat berilar edi. Ular sovuqqa, ochlikka, chanqoqlikka, og‘riqqa chidamli bo‘lish, tez yugurish, uzoqqa sakrash, otga chaqqon minish, kamon va o‘q-yoy otish, qilichbozlik, mo‘ljallash, sezgir bo‘lish, kurashish, jang usullarini yaxshi bilishi talab qilinadi.

O‘rta asrlarda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida barkamollikdagi jismoniy etuklikning o‘rniga alohida ahamiyat berilgan¹. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida voyaga etayotgan hukmdorga ma’naviy etuklik bilan bir qatorda jismoniy etuklik ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tish bilan bir qatorda jismoniy mashqlarning nomlarini, o‘tkazish joylarini, o‘tkazish vositalarini bayon etilgan. Jismoniy mashqlar insonning yoshiga qarab belgilanishi bilan bir qatorda ot bilan bajariladigan mashqlardan kamon va qilich bilan bajariladigan mashqlar ko‘rsatilgan.

O‘rta asrning oxirlarida bahodirlarning qurol ishlatish san’ati bo‘yicha musobaqalari keng tarqalgan. Bu o‘yinlarga voqiflar rahbarlik qilar edi. Ular bahodirlar orasida o‘yinlar boshlanishdan bir oy ilgari sport salaflari tomonidan saylanar edi. Voqiflarning vazifalari musobaqa joyini tanlashdan, musobaqalarda g‘olib chiqqanlarga mukofotlar berishdan iborat bo‘lgan. Asosiy mukofot sifatida tulpor otlar, qimmatbaho sarpolar, pul mukofotlari berilar edi. Ko‘pincha navbatdagi o‘yinlargacha bo‘lgan davr ana shu g‘olibning nomi bilan atalar edi.

O‘zbek yurtidan jahonga dong taratgan sportchilar juda ko‘p. XVIII asrda yashab o‘tgan buyuk shoir va kuragi erga tegmagan polvon, xorazmlik Mahmud Pahlavon nomi abadiy qolgan. O‘zbekistonda qadimdan sportning milliy turlaridan kurash, ot sporti, kamondan otish, dorboz o‘yinlari kabilar ancha rivojlangan edi.

Shunday qilib, SHarq allomalari, ma’naviy xazinamiz egalari bo‘lmish zukko shaxslar milliy sport o‘yinlarining yosh avlod tarbiyasida benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini, milliy sport o‘yinlarining ijtimoiy ahamiyatini o‘z ilmiy asarlarida qayta-qayta uqtirib o‘tganlar.

Mamlakatimiz sportchilarining jahon kortlari, ringlari va stadionlarida qo‘lga kiritgan va kiritayotgan yutuqlari tobora yuksalib borayotganligi yoshlarda milliy sport o‘yinlariga nisbatan qiziqishni tarbiyalashda muhim omil bo‘lmoqda. Bu esa ularda milliy sport o‘yinlariga nisbatan ijobiy munosabatlar shakllanib borayotganligidan dalolatdir.

ПРОБЛЕМЫ АКТИВИЗАЦИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

*Аликариева А.Н. – доцент НУУз
Давронова Н.Б. – студентка НУУз*

Особое значение приобретает процесс подготовки будущих специалистов, овладение ими основными знаниями и умениями в области науки, формирование потребности к активному познанию и

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 189 b.

самосовершенствованию личности. Особое место в этом процессе принадлежит познавательной деятельности будущих специалистов, активизация которой во многом обеспечивается взаимосвязью обучения с профессиональной подготовкой, творческим характером обучения, привлечением студента познавательных интересов и потребностей к более полному и глубокому приобретению знаний, совершенствованием профессионального мастерства эрудиции и культуры. Проблема активизации познавательной деятельности студентов вузов принимает актуальный характер и требует своего социологического решения.

Для решения этой задачи необходима разработка комплексных путей повышения активности студенческой молодежи на базе совершенствования механизмов социального, экономического и педагогического управления вузами с учетом человеческого фактора.

Активизация познавательной деятельности студентов в процессе изучения дисциплин обеспечивается:

- единством мотивационных и операционных сторон деятельности;
- специальной системой, отвечающей учебно-воспитательным задачам дисциплин.

Проблема активизации деятельности на современном этапе в силу своей значимости становится актуальным предметом исследования представителей самых различных областей науки: философии, социологии, психологии, частных методик; к настоящему времени достигнуты значительные успехи в изучении различных аспектов этой многогранной проблемы.

Очевидно, что в процессе подготовки специалистов в вузе процесс обучения невозможно ограничить только приобретением знаний, умений и навыков по определённым дисциплинам, необходима серьёзная качественная перестройка этого процесса в свете современных требований.

Активными побудителями познавательной деятельности, как и любой другой общественной деятельности, могут быть непосредственный, активный интерес к этой деятельности и мотивы нравственно-эстетического и психологического удовлетворения. Считается, что потребность – это социологическая категория, выражающая затраты людей, обусловленные уровнем развития производства и культуры и типом господствующих общественных отношений.

Структура познавательной деятельности свидетельствует о единстве её общих закономерностей с закономерностями процесса научного познания. За время обучения студенты включаются в различные виды деятельности, в процессе которой они овладевают знаниями, умениями, навыками, у них формируются основные черты личности.

Ни содержание учебных предметов, ни познавательные умения сами по себе еще не реализуют интерес. Для этого необходимо создание условий. Роль преподавателя заключается в создании таких условий для формирования познавательного интереса, как психическое состояние студента, которое руководит личностным образованием. В настоящее время четко обозначились два подхода к пониманию сущности познавательной

активности. Одни исследователи рассматривают познавательную активность как деятельность, а другие – как качество личностного образования. Преподавателю необходимо помнить, что познавательная активность как свойство личности проявляется и формируется в деятельности.

Активность вместе с самостоятельностью тесно связана с определением объекта, средств деятельности, ее стремление учиться без помощи взрослых и преподавателей. Являясь важной составляющей структуры образования, мотивация учебно-познавательной деятельности студентов имеет несколько значений: как продукт формирования личности, она одновременно выступает как фактор дальнейшего развития; предоставляя общую стимулирующее действие для протекания мыслительных процессов, становится источником интеллектуальной активности; мобилизует творческие силы на поиск и решения учебных задач, положительно влияет на качество знаний, их глубину и действенность, широту и систематизацию; является важнейшим внутренним условием развития стремления к самообразованию, имеет диагностическое значение, т.е. служит показателем развития многих важных качеств личности¹.

Наибольшей активности студентов можно достичь тогда, когда во время занятий создаются ситуации, в которых студенты сами должны: отстаивать свое мнение, участвовать в дискуссиях и обсуждениях; задавать вопросы своим товарищам и педагогам; рецензировать ответы товарищей; оценивать ответы и письменные работы товарищей, самостоятельно выбирать посильное задание:

- находить несколько вариантов возможного решения познавательной задачи (проблемы);
- применять самопроверку, анализ личных познавательных и практических действий;
- решать познавательные задачи путем комплексного применения известных им способов решения.

Путем специально подготовленных заданий, которые постепенно усложняются, создается проблемная ситуация, для выхода из которой студенту не хватает имеющихся знаний, и он вынужден сам активно формировать новые знания с помощью преподавателя и с участием других слушателей, опираясь на личный или чужой опыт, логику. И так, студент получает новые знания не в готовых формулировках преподавателя, а в результате собственной активной познавательной деятельности.

Можно выделить три основных направления активизации познавательной работы студентов в межсессионный период.

Во-первых, совершенствование содержания программ изучаемых курсов. Его возможные пути – введение в программы сведений о достижениях в соответствующих областях науки, об использовании этих достижений в практической деятельности, о перспективах дальнейшего

¹ Максимов Р. С., Клыков А. Д. Использование интерактивных форм обучения для активизации познавательного процесса у студентов прикладного бакалавриата // Альманах современной науки и образования. – Тамбов: Грамота, 2016. № 6 (108). – С. 32-35.

развития науки, чёткое формулирование тех требований к знаниям и умениям, которые предъявляются при изучении того или иного раздела курса. Очень важным является указание цели, которая должна достигаться в итоге освоения соответствующего материала как в целом, так и в рамках изучения отдельных тем, при проведении различных типов занятий. В педагогике целеполагание рассматривается как один из краеугольных камней образовательного процесса¹. Далеко не всегда достаточно просто и привлекательно для студентов можно сформулировать цель изучения конкретного материала (если, конечно, не ограничиваться ссылкой на то, что это входит в программу курса), но, когда это делается квалифицированно – интерес к изучению материала повышается.

Во-вторых, совершенствование методики организации и реализации учебного процесса, обеспечение его качественной учебно-методической литературой.

В-третьих, оценивание учебной работы студентов как стимулирующий фактор. Использование оценивания не только в качестве способа контроля знаний, но и в качестве дополнительного стимула регулярной учебной работы, позволяет реализовывать достаточно эффективную связь преподаватель – студент в реальном масштабе времени.

Таким образом, обеспечение познавательной активности и повышение ее уровня в структуре учебной деятельности студентов предстаёт как сложная задача, требующая особого системного подхода. Последний связан со стимулированием высокого уровня мотивации студентов, понимания ими необходимости дальнейшего саморазвития, осознания целей, путей и методов соответствующего познавательного процесса. Умелое использование всего потенциала учебно-воспитательного процесса, применение неформальных, творческих средств и методов приобщения студентов к культурным ценностям – все это делает гуманитарную подготовку перспективной формой развития личности будущего специалиста.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ КАК КАТЕГОРИЯ СОЦИОЛОГИИ КУЛЬТУРЫ

Кучкаров Р.С. – студент 4-курса НУУз

Проблема формирования здоровья и здорового образа жизни носит выраженный междисциплинарный научный характер, изучение которого входит в компетенцию различных естественно-научных (медицины, биологии, антропологии, физиологии и др.), общественных и гуманитарных (философии, психологии, педагогики, физической культуры и др.) дисциплин, однако она относится к числу недостаточно разработанных в современной науке, ее понимание связано с сущностными характеристиками

¹ Кириллук Л.Г. Университетское образование: от эффективного преподавания к эффективному учению // Материалы второй республиканской научно-практической конференции. – Мн., 2002. – С. 70-82.

таких понятий как «здоровье», «здоровый образ жизни», «культура здорового образа жизни личности».

Понятие «здоровье» трактуется в многоаспектном содержании как:

– состояние равновесия между требованиями среды и силами организма; естественное состояние организма, являющееся выражением его совершенной саморегуляции, гармоничного взаимодействия всех органов и систем и динамического уравнивания с окружающей средой;

– процесс сохранения и развития биологических, физиологических функций, оптимальной трудоспособности и социальной активности человека при максимальной продолжительности его активной жизни;

– целостное многомерное и динамическое состояние (включающее позитивные и негативные стороны); развивающееся в процессе реализации генетического потенциала в условиях конкретной социально-экономической среды и позволяющее человеку в различной степени осуществлять свои физиологические социально-психологические функции¹.

Особым аспектом этой проблемы является вопрос о взаимовлиянии физического и психического здоровья. В этом плане можно говорить о различных сторонах этой проблемы: о влиянии физического здоровья на психическое (ментальное) тело и влиянии психического здоровья на физическое (соматическое) тело. Кроме того, существует третий вид здоровья.

Социальное здоровье определяется состоянием социальной среды, уровнем культуры, образования, нравственности, материально-экономическим уровнем и др. Взаимоотношения людей, культура общения, их социальный и материальный статус, экология и др. существенно определяют физическое и психическое состояние здоровья каждого члена общества.

Содержание здоровья определяется как состояние равновесия (баланс) между адаптивными возможностями (потенциал здоровья) организма и условиями постоянно меняющейся среды. Потенциал здоровья – это совокупность способностей индивида и особенностей его поведения, по которым можно построить прогноз, определить предрасположенность к тому или иному заболеванию. М.Я.Виленский и М.М.Борисов подчеркивают, что сущность данного понятия заключается в том, что «здоровый образ жизни – это научно обоснованный, культурный, наиболее рациональный и оптимальный в конкретных условиях, осознанный личностью как жизненная необходимость образа жизни»².

Характерной чертой здоровый образ жизни является его неразрывная связь с общей культурой, которая становится критерием оценки способа ее бытия, уровня биосоциальной жизнедеятельности.

¹ Амосов Н.М. Размышления о здоровье. 3-е изд. – М.: Физкультура и спорт, 2017. – 64 с.

² Виленский М.Я. Здоровый образ жизни в процессе профессиональной подготовки будущих учителей / М.Я.Виленский, М.М.Борисов / Проблемы физического состояния и работоспособности детей и молодежи: тезисы и доклады Всероссийской научно-практической конференции. – М., 2014.

За основу определения здоровый образ жизни можно принять общепринятые формулировки.

1. Здоровый образ жизни – это модель жизнедеятельности, связанная с представлениями о личной и социальной ценности здоровья, средствах, формах и способах его сбережения.

2. Культура здорового образа жизни личности – это индивидуально выраженный стиль жизни человека в отношении своего здоровья, определяемый следующими компонентами: образовательно-когнитивным; мотивационно-ценностным и целевым; физической культурой; социально-культурным и поведенческим; деятельностным; конструктивным; эмоционально-волевым. Культура здоровый образ жизни личности представляется нам довольно сложным системным образованием. Все ее элементы имеют тесную взаимосвязь, дополняют и обуславливают друг друга. Знания и интеллектуальные способности определяют кругозор личности, способность к созидательной деятельности, направленность ее оценок, ценностей и результатов деятельности¹.

Социологическое определение здорового образа жизни включает в себя несколько основных характеристик. Во-первых, здорового образа жизни является проявлением реализации потенциала общества (в индивидуальных или групповых проявлениях) в обеспечении здоровья. Во-вторых, здорового образа жизни отражает степень социального благополучия, понимаемого как единство уровня и качества жизни.

В-третьих, здорового образа жизни рассматривается как проекция эффективности социальной организации в отношении к ценности здоровья².

При ведении здорового образа жизни улучшается эмоциональное самочувствие, повышается работоспособность и нормализуется жизнедеятельность организма. Здоровый образ жизни – это система разумного поведения человека (умеренность во всем, оптимальный двигательный режим, закаливание, правильное питание и отказ от вредных привычек), которая обеспечивает человеку физическое, душевное, духовное и социальное благополучие (т.е. здоровье) в реальной окружающей среде и активное долголетие.

Особого внимания в этом контексте заслуживает студенческая молодежь, которая является не только основным источником пополнения трудовых ресурсов общества, но и наиболее активной частью общества, на которую должно быть возложено преодоление российской транзитивности. Воспитать у студентов высокую требовательность к себе, жизненную потребность трудиться, умение вести здоровый образ жизни и заботиться о своём здоровье – это одна из главных задач высшей школы, решение которой определяет трудовую и социальную адаптацию молодёжи.

¹ Некрасова Т.А. Здоровый образ жизни в контексте современного социологического знания. / ФГОУВПО «Российский государственный университет туризма и сервиса». – М., 2015.

² Социология: Энциклопедия / Сост. А.А.Грицанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелькин, Г.Н.Соколова, О.В.Терещенко. – Электронный ресурс <http://voluntary.ru/dictionary/568/word/zdorovy-образ-zhizni>.

Важнейшей социологической проблемой является формирования у студенческой молодежи потребности в хорошем здоровье, а также отсутствие навыков к ответственному отношению к собственному здоровью, но и к здоровью окружающих людей. В процессе обучения студента нужно использовать комплексную диагностику мотиваций и умений ведения и основ здорового образа жизни, которая используется для решения вопроса об их пригодности либо не пригодности, а также для мотивации студентов на ведение и соблюдения здорового образа жизни.

Для изучения различных проблем здоровья студентов необходимо использовать все указанные методы исследования и пропаганды. Данные методы могут быть использованы не только самостоятельно, что и доказывают различные социологические исследования¹.

Проблема сохранения и укрепления здоровья студенческой молодежи является наиболее трудной и многогранной. В современных условиях и динамичном развитии общества потребуются новейшие подходы к проблеме и ее решению. Таким образом, изучение проблем формирования, отношения здорового образа жизни у студенческой молодежи позволило выделить: изучение здорового образа жизни и его составляющих; отношении студентов к здоровому образу; противоречия в ведении здорового образа жизни; проблемы информированности и передаче информации о здоровом образе жизни студентам. В заключении хотелось бы добавить, что проблема формирования здорового образа жизни у студенческой молодежи является очень актуальной

СОЦИАЛЬНЫЕ КОНФЛИКТЫ В ТРУДОВОМ КОЛЛЕКТИВЕ

Теренгулов Н.Ш. – студент 2-курса НУУз

Конфликт – это взаимодействие социальных субъектов, которое характеризуется противоборством, наличием острых противоречий, сопровождающиеся отрицательными эмоциями. Трудовой конфликт – это столкновение интересов и мнений, оценок между представителями различных групп по поводу трудовых отношений². То есть трудовые конфликты являются видом социального конфликта, объектом в котором выступают трудовые отношения и условия их обеспечения. К основным формам трудовых конфликтов относятся: собрания, митинги, демонстрации, забастовки. К видам конфликтов в трудовом коллективе относят:

- конфликты между управляемыми и управляющими;
- адаптационные конфликты – это конфликты между правилами и нормами, которые сложились в организации и новичками, которые не знают этих правил и норм;

¹ Добротворская С.Г. Ориентация старшеклассников и студентов на здоровый образ жизни. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2001. – 152 с.

² Нечипуренко Е.К. Социально-трудовые конфликты и протестное поведение рабочих // Современные научные исследования и инновации. – 2011. – № 1.

– конфликты на управленческом уровне, которые связаны с разработкой стратегии поведения организаций, с разработкой условий эффективности ее деятельности¹.

Процесс урегулирования конфликта можно разбить на четыре основных этапа. Первый этап состоит в обнаружении конфликта и убеждении в том, что наличие конфликта признано всеми участниками. Раннее обнаружение признаков зарождающегося конфликта поможет предпринять необходимые меры для его урегулирования. Если конфликт не был замечен на ранних стадиях и никем не решался, то начинают возникать группировки конфликтующих сторон. На этом этапе необходимо добиться признания наличия конфликта сотрудниками. Второй этап начинается, когда конфликт признан его участниками, когда конфликтующие стороны не могут найти выход из конфликтной ситуации самостоятельно и вынуждены прибегнуть к вмешательству третьей стороны. Третий этап заключается в создании общего плана действий по урегулированию конфликта, его практической реализации. Четвертый этап состоит из контроля, оценки и закрепления полученных результатов. Важно следовать точно намеченному плану урегулирования конфликта, и если нужно, то внести в него поправки.

Основными принципами урегулирования конфликтов являются:

- принцип признания конфликта – наличие желания для разрешения конфликта с обеих сторон;
- принцип взаимной ответственности, который заключается в попытке сближения двух сторон;
- принцип «нет победителей, не проигравших»;
- принцип устранения эмоций;
- принцип своевременного урегулирования конфликтов;
- принцип прямоты и откровенности, который заключается в том, что стороны должны точно сказать друг другу, как они воспринимают данную ситуацию и что они хотят от противоположной стороны;
- принцип приоритета самостоятельности в урегулировании конфликта, который заключается в том, что стороны должны постараться самим урегулировать конфликт без вмешательства посторонних лиц;
- принцип поэтапных мер с посторонней помощью, которые заключаются в том, что вмешательство нейтрального лица в некоторых случаях помогает урегулировать конфликт².

Для анализа конфликтов в коллективе было проведено исследование, в котором принимал участие трудовой коллектив компании ООО «AsiaAvtoLine» – менеджеры, руководители подразделений, рабочий состав³.

В опросе приняло участие 34 человек, из них 41,2% мужчин и 58,8% женщин. Выяснилось, что в опросе большую часть ответов было получено от

¹ Панина Е.С. Трудовые конфликты на предприятиях // Основы экономики, управления и права. – 2012. – № 6. – С. 132-135.

² Грызунова В.Д. Урегулирование конфликтов в трудовом коллективе // Современные научные исследования и инновации. – 2013. – № 1.

³ Социологические исследования были проведены автором в марте 2021 года.

лиц в возрасте 18-24 лет – 79,4%, оставшаяся часть в возрасте 45-54 лет – 11,8% и в возрасте 25-34 лет – 8,8% соответственно. Результат исследования демонстрирует преобладание в коллективе молодых специалистов.

На вопрос «Как часто у Вас возникают конфликты на работе?» большая часть опрошенных – 41,2% ответили, что конфликтов ни разу не было, а 32,4% опрошенных выбрали вариант, что конфликты бывают редко примерно раз в месяц. Данная цифра говорит о том, что в целом у людей все идет «гладко», однако периодически возникают ситуации, в которых конфликт неизбежен. Каждый день конфликты в исследуемом коллективе не возникают. Остальные либо затрудняются ответить на этот вопрос (20,6 %), либо в коллективе нет никаких противоречий. В основном сотрудники фирмы считают себя неконфликтными личностями – 67,6%, но 23,5% опрошенных указали, что они возможно конфликтные личности.

На вопрос: Как часто Вы оказываетесь участником конфликта на работе? 52,9% респондентов ответили, что им удается избегать конфликтов. 35,3% респондентов выбрали, что иногда им приходится участвовать в конфликте.

58,8% респондентов негативно относятся к конфликтным ситуациям, 32,4% - нейтрально, а 8,8% считают положительно. Теперь посмотрим, с кем чаще возникают конфликтные ситуации. В основном с коллегами (52,9 %), на втором месте ответ «С руководством» (41,2 %). Меньше всего раздоров возникает с подчиненными – «всего» 5,9 %.

70,6% респондентов считают, что конфликты могут иметь положительные стороны. Конфликт показывает «слабое звено» во взаимоотношении, дает возможность увидеть скрытые отношения. 29,4 % считают, что конфликты не несут положительный характер.

Какой метод разрешения конфликтов наиболее популярен в Вашей организации? Респонденты указали, что возникающие в их организациях конфликты полностью поддаются регулированию. При этом, как правило, для разрешения конфликтных ситуаций используется правовой метод. На втором месте участники опроса выделили психологический метод разрешения противоречий. Организационный метод также применяется для более эффективного управления конфликтами. Что касается силового способа разрешения конфликтов, то в подавляющем большинстве организаций этот метод не применяется вовсе.

По результатам опроса можно сделать вывод, что конфликты, конечно, случаются, но редко, причем в большинстве своем с коллегами или руководством. Самые частые причины конфликтов – низкий уровень профессионализма работников и разные взгляды на решение задач, но ведь не даром говорят, что сколько людей, столько и мнений. Положительным моментом является то, что работники стараются находить компромисс.

Основываясь на результатах изучения взаимоотношений в организации, следует рекомендовать следующее: члены команды должны иметь возможность выражать свое мнение друг с другом, обсуждать любые

разногласия без страха, выглядеть нелепо или бояться мести. По сути, рабочие группы не избегают чувствительных и неприятных тем, а обсуждают их честно и напрямую, не опасаясь противоречивых взглядов и конфликтов. Значимым фактором уменьшения вероятности происхождения конфликтов между сотрудниками, а также между структурными подразделениями предприятия, является соответствие формальной и неформальной конструкции коллектива. По предупреждению конфликтов между работниками нужно сотворить функционально-организационные условия, связанные с оптимизацией функциональных взаимосвязей между работниками и структурными элементами предприятия. Для высокоэффективной работы персонала нужно создать линейно функциональные данные связанные мастерски умелым подбором, оценки и расстановки кадров. Наивысшее соответствие профессиональных знаний, навыков и личностных качеств работника требованиям занимаемой должности минимизирует предпосылки появления многих межличностных конфликтов.

МОЛОДЁЖНАЯ БЕЗРАБОТИЦА НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА

Эркинов И.Т. – студент 4-курса НУУз

В Узбекистане вопрос трудоустройства молодых людей и женщин является одним из самых актуальных. На фоне пандемии этот вопрос стал еще более актуальным. Власти Узбекистана решили кардинально изменить подход к этому вопросу и решить проблему фундаментально. Руководитель страны рассказал о мерах, которые будут приняты в целях недопущения безработицы среди молодежи и женщин.

На современном этапе социально-экономического развития Узбекистана особое значение приобретает проблема занятости молодежи. Проводимые государством масштабные и глубокие структурные преобразования в сфере занятости молодежи свидетельствуют об актуальности данной проблемы.

Молодежь, как экономически активная часть населения, является самой перспективной категорией, объектом долгосрочных интеллектуальных инвестиций. Они отличаются высоким уровнем знаний, сильной трудовой мотивацией, энергичным физическим потенциалом и возможностями к быстрому обучению профессии и специальности, требуемых на рынке труда.

Рынок труда молодежи является важной составной частью общего рынка труда – в локальном масштабе, мирового рынка труда – в глобальном измерении. Любое изменение в экономической ситуации страны немедленно отражается на положении на рынке труда, более всего – на рынке труда молодежи, т.к. молодежь является наиболее подвижной и мобильной частью населения. Поэтому показатели спроса и предложения на рынке труда молодежи представляет определенный интерес для специалистов, ученых,

руководителей в области регулирования социально-экономических отношений.

Молодёжь является одной из особо уязвимых групп на рынке труда. Во всём мире и в развитых, и в развивающихся странах молодые люди сталкиваются с растущими реальными трудностями, связанными с поиском достойной работы.

По данным Международной организации труда (МОТ), половина безработных в мире – это люди в возрасте с 15 до 24 лет, которые в 2016 году составляли около 75,0 млн. чел. Это ниже пикового показателя 2009 года - 76,6 млн. чел., но выше докризисных – 70,5 миллиона в 2007 году. Расчеты Всемирного банка показывают, что на нашей планете количество молодежи, не занятой ни учебой, ни работой, составило более 600 млн¹.

Анализу текущей ситуации в реализации молодежной политики посвящено социологическое исследование «Молодежь Узбекистана: стремления, потребности и риски», проведенное Общенациональным движением «Юксалиш» в партнерстве с ЮНИСЕФ в рамках совместного проекта «Молодые люди — будущие лидеры Узбекистана».

Организаторы опросили 4,5 тысячи молодых людей в возрасте от 14 до 30 лет, охватив все области страны. 70 процентов респондентов заявили, что не хотят уезжать из Узбекистана ни при каких обстоятельствах. Однако при этом они отметили, что при поиске подходящей работы сталкиваются с трудностями.

50 процентов молодых узбекистанцев считают, что сферы социальной защиты, занятости, особенно лиц с инвалидностью, здравоохранения, образования, поддержки предпринимательской деятельности молодежи требуют системного улучшения.

В ходе другого опроса, проведенного «Юксалиш» при помощи специально созданного Telegram-канала «Jamoatchilik fikri» («Общественное мнение»), 34 процента респондентов (2 336 человек) из 6 781 опрошенных раскритиковали работу Союза молодежи. На вопрос «По вашему мнению, какие дополнительные меры необходимо принять в Узбекистане для эффективного использования потенциала молодежи?» они ответили, что должна быть искоренена практика принудительного вступления в эту организацию².

Молодежь является одной из особо уязвимых групп на рынке труда. Во всем мире и в развитых, и в развивающихся странах молодые люди сталкиваются с растущими реальными трудностями, связанными с поиском достойной работы. Поэтому удовлетворение их чаяний в области занятости требует высоких темпов создания рабочих мест. Это должно стать одним из главных направлений экономической политики.

В Узбекистане созданы правовые основы для гарантированного обеспечения молодежи работой. Установлен минимум социальной

¹ Мухторова У.К. Занятость молодёжи в Узбекистане // Ж. Халқаро молия ва ҳисоб. – 2017. – №3.

² <https://nuz.uz/obschestvo/42108-chego-ne-hvataet-molodezhi-70-procentov-yunoshey-i-devushek-ne-hotyat-uezzhat-iz-strany-no-ne-vsegda-mogut-nayti-rabotu.html>

обеспеченности, гарантирующий право на первоначальную трудовую занятость или материальную компенсацию. В целях содействия занятости молодежи, окончившей образовательные учреждения, на предприятиях, в учреждениях и организациях резервируется минимальное количество рабочих мест. Для обеспечения современного производства квалифицированными кадрами в стране развиваются различные формы кооперации профессиональных колледжей с предприятиями-работодателями.

В Узбекистане одобрена госпрограмма создания новых рабочих мест и содействия занятости населения на 2021 год. соответствующее постановление подписал Президент¹.

До конца года планируется создание 457 тысяч новых рабочих мест. Программа включает в себя прогнозные показатели создания рабочих мест, создаваемых в рамках инвестиционных проектов, малых предприятий и микрофирм, а также индивидуального предпринимательства и ремесленничества. Всего из средств Госфонда содействия занятости будет выделено: субсидий – 92,3 млрд. сумов, пособий по безработице – 65,1 млрд. сумов, на покрытие расходов на профессиональную подготовку, переподготовку и повышение квалификации – 40,6 млрд. сумов; банкам для реализации малых проектов – 125 млрд. сумов. Она предусматривает содействие в поиске рабочих мест и оказание услуг работодателям по найму граждан. Для этого на базе территориальных бюро обеспечения временной разовой работой создаются центры разового труда.

Минтруд запустит онлайн-площадку биржи заявок *Mening ishim* на основе принципа «работа для всех», где будут отражаться дистанционные работы, надомный труд, фрилансеры и деятельность самозанятых лиц.

Закон «О занятости населения» вступил в силу в начале года. В нем подробно описан порядок регистрации граждан в местных органах по труду (в качестве безработных и лиц, ищущих работу), а также назначения и выплаты пособий по безработице.

Для Узбекистана характерно и то, что значительно снизилась занятость в отраслях непродуцированной сферы, особенно в народном образовании, культуре, искусстве, науке и научном обслуживании. При этом активно развилась сфера услуг, что сопровождалось значительным ростом числа занятых в торговле, общественном питании, материально-техническом снабжении.

Другой характерной тенденцией изменения структуры занятости населения Узбекистана является рост самостоятельно обеспечивающих себя работой (деханские хозяйства, предпринимательские структуры).

В условиях перехода к рынку и либерализации экономики, все возрастающую роль в обеспечении доходов и занятости населения играют различные формы предпринимательства. По этой причине важной характеристикой развития предпринимательства в регионах республики

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан «О государственной программе создания новых рабочих мест и содействия занятости на 2021 год». №ПП-5094. Дата принятия 28.04.2021. Дата вступления в силу 29.04.2021.

является удельный вес численности индивидуальных предпринимателей в экономически активном населении. Этот показатель в последние годы имел тенденцию к росту из-за более выгодных условий налогообложения для «индивидуалов», по сравнению с юридическими лицами, а также из-за быстрой окупаемости и ликвидности.

MUNDARIJA:

Kirish soʻzi	3
I SHOʻBA. SOTSILOGIYA ZAMON VA MAKONDA: SOTSIAL XOTIRA, INTELLEKTUAL MADANIYAT VA INSON OMILI	
<i>Ernazarov B.O., Isomiddinova I.U.</i> Raqamli sotsiologiyaning jamiyat hayotida tutgan oʻrni	4
<i>Eshonqulova N.S.</i> Markaziy Osiyo – Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishi	5
<i>Joʻrayeva D.B.</i> Oʻzbekistonda sotsiologiyani rivojlantirish yoʻllari va mexanizmlari	8
<i>Isropilov M.B., Anorboyeva M.A.</i> Oʻzbekistonning kechagi va bugungi iqtisodiyotining ijtimoiy tahlili	10
<i>Jiyanmuratova G.Sh., Turdiyeva N.</i> Oʻzbekistonda xorijiy tillarning oʻqitilishi masalalari	13
<i>Maxamedov A.</i> Sotsiologiya fanini oʻqitishda interfaol metodlarni qoʻllash	16
<i>Sabirova G.</i> Yangi Oʻzbekiston islohotlari farovonlik yoʻlidagi harakatlarning samaradorligi sifatida	18
<i>Saydimuratova D.</i> Sotsiologiyada sifatli tadqiqotlar usulining oʻziga xos xususiyatlari	21
<i>Toshtemirov B.B.</i> Tijorat banklari daromadlarini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlari	23
<i>Gʻofurov O.U.</i> Oʻzbekiston ekologik muammolarining sotsiologik tahlili	26
<i>Raximova M.I., Ismailov P.</i> Роль образования в развитии человеческого потенциала	29
II SHOʻBA. OILA, YOSHLAR, TURMUSH TARZI VA KUNDALIK HAYOT SOTSILOGIK MUAMMO SIFATIDA	
<i>Ernazarov B.O., Hamrayeva V.</i> Tik Tokning yoshlar ijtimoiy hayotiga taʼsiri	32
<i>Jiyanmuratova G.Sh., Beknazarova S.</i> Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi	34
<i>Mamatova N.N., Ernazarov B.O.</i> Oʻzbekistonda gender tenglik va ayollarga boʻlgan munosabat	37
<i>Mamutova N.</i> Sotsiologiyada yoshlar muammosi	39
<i>Musayev F.</i> Internetga qaramlilik	41
<i>Nabiyeva Sh.N., Ernazarov B.O.</i> Zamonaviylashayotgan hayotimizga mobil telefonning taʼsiri	45
<i>Neʼmatova G., Jiyanmuratova G.Sh.</i> Sotsiologiyada deviant xulq-atvor nazariyasi va uning zamonaviy koʻrinishlari	48
<i>Norboyev J.</i> Oʻzbekistonda bolalar va oʻsmirlar axborot xavfsizligi muammolari	51
<i>Norqoʻziyev F., Jabborova Z.</i> Maʼrifatli yoshlar – kelajak bunyodkori	53
<i>Qandaxarova M.I.</i> Yangi Oʻzbekiston rivojlanishida xotin-qizlarning oʻrni	55
<i>Rahmonaliyeva M.Oʻ., Ernazarov B.O.</i> Oʻzbekiston rivojlanishining yangi bosqichida xotin-qizlarga munosabat va ularni ijtimoiy himoya qilishdagi oʻzgarishlar	58
<i>Raimov B.U., Ernazarov B.O.</i> Yoshlar hayotida kitob mutolaasining tutgan oʻrni	61
<i>Rahmonova F.M.</i> Oʻzbekistonda korrupsiyaga sabab boʻluvchi ijtimoiy omillar	62
<i>Raximova M.I., Erniyozov Oʻ.Oʻ.</i> Yoshlar jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida	65
<i>Ravshanov A.</i> Hozirgi yosh oilalarda ijtimoiy nizolarni turli xil koʻrinishlari	67
<i>Saidqulova X.O.</i> Oʻzbekistonda oila sotsiologiyasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	69

<i>Sultanov D., Miraximov D.</i> Oilada zo‘ravonlik: sabablari va turlari	71
<i>Turanboyeva O.M., Ernazarov B.O.</i> Yosh oilalar turmush tarzidagi sotsial muammolar tahlili	74
<i>Turanboyeva S.R.</i> Hozirgi kunda yoshlarga e‘tibor	76
<i>Usmonov S.I.</i> Oilaning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni	78
<i>Valiyev A.</i> O‘zbekistonda xotin-qizlarni himoya qilishning sotsial tizimini yanada takomillashtirish	80
<i>Sherov M.B., Xamidova N.A.</i> Oilada huquqiy madaniyat va tenglikni ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari	83
<i>Shoumarova N.K.</i> Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy jihatlari	86
<i>Qodirova N.</i> Koronavirusning ijtimoiy hayotga ta‘siri	88
<i>Камалиддинова III.</i> Повседневная жизнь как социологическая проблема	90
III SHO‘BA. AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAXS VA JAMIYAT” MASALALARINING YORITILISHI	
<i>Abdullayev A., Urozov Sh.</i> Ijtimoiy sohalarni o‘rganishda sotsiologik tadqiqotlar ahamiyati	94
<i>Davronova N.B.</i> Sotsiologiyada sotsiometriya usulining o‘ziga xos jihatlari	96
<i>Ibragimova N.Y., Qurbanbayeva N.R.</i> Sotsiologik tadqiqotlarda fokus-guruh metodi	99
<i>Norkobilova A.Z.</i> Shaxsning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiylashuvi	103
<i>Sultanova Y.A.</i> Charlz Xorton Kuli “Ko‘zgdagi Men” nazariyasining bugungi kundagi dolzarbligi	107
<i>Sultonova Sh.</i> Mehr: shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni va yoshlar orasida yo‘qolishi sabablari	109
<i>Umarov J.</i> Din bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni tadqiq etishda sotsiologik metodning o‘rni	110
<i>Турсунов Д.А.</i> О самоубийстве и психопатических факторах в работе «Самоубийство» Э. Дюркгейма	112
IV SHO‘BA. TA‘LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH VA BANDLIK MASALALARI SOTSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA	
<i>Aliqoriyev N.S., Davronova N.B.</i> Korxonada mehnat unumdorligini oshirish omillari	121
<i>Abdujabborova M.A.</i> Bandlikni ta‘minlash sotsiologik muammo sifatida	125
<i>Abdurashidov S., Ernazarov B.O.</i> Koronavirus pandemiyasining mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta‘siri	127
<i>Boytemirova H.</i> Ta‘lim sifatini oshirishda ilg‘or pedagogik tajribalarning ahamiyati	130
<i>Ernazarov B.O., Abduvohidova E.Sh.</i> Pandemiya davrida masofaviy o‘qitish tizimining oliy ta‘limga ta‘siri	132
<i>Ernazarov B.O., Jovliyeva M.S.</i> Sog‘liqni saqlash tizimi sotsiolog nigohida	134
<i>Ilashova N.T., Jiyannuratova G.Sh.</i> Sotsiologiya xalq ta‘limi tizimida	136
<i>Ilxomov U.</i> Islohotlar zamirida sog‘lom turmush tarzi	139
<i>Isropilov M.B., Jumaboyeva M.</i> O‘zbekistonda ta‘lim sohasidagi islohotlar jamiyat rivojining omili sifatida	142
<i>Jiyannuratova G.Sh., Ochilboyeva Ch.</i> O‘zbekistonda COVID-19 pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ta‘siri	144
<i>Mansurov M.B.</i> Yoshlar bandligini oshirishda tadbirkorlikning o‘rni	147
<i>Normurodova M.</i> Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining iqtisodiy mohiyati	150
<i>Nurqulov B.</i> Yoshlar ta‘lim-tarbiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida	152

Obidova Z. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan ishlarning hayotiyligi	153
Safayeva N.A. Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	156
Xolov A.E. Ekologik ta'limni rivojlantirish omillari	159
Yadgarov Sh. Sharq allomalarining milliy sport o'yinlari to'g'risidagi qarashlari	161
Аликариева А.Н., Давронова Н.Б. Проблемы активизации студенческой молодежи	164
Кучкаров Р.С. Здоровый образ жизни студентов как категория социологии культуры	167
Теренгулов Н.Ш. Социальные конфликты в трудовом коллективе	170
Эркинов И.Т. Молодёжная безработица на рынке труда Узбекистана	173

